



ORIENTAL RENAISSANCE:
INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES

ex Oriente lux

ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

Exact sciences

Natural sciences

Engineering sciences

Pedagogical sciences

Social and Human Sciences

Philological sciences

Philosophy sciences

Economic Sciences

**№1
2021**

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

**ISSN 2181-1784
VOLUME 1, ISSUE 1
February 2021**

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 1, ISSUE 1 -2021**

EDITOR-IN-CHEEF

Dr. KADIROV MUKHAMMADJON

Candidate of philosophical sciences Associate professor of the department of “Oriental philosophy and culture” of Tashkent State University of Oriental Studies

EDITORIAL BOARD

Dr. A.S.RISBOYEV

Doctor of physical and mathematical sciences
Professor of Tashkent State Technical
University

Dr. Z.A. NUROVA

Candidate of Biological Sciences
Associate professor of
Termez branch of the Tashkent Medical
Academy

Dr. S.F. AMIROV

Doctor of technical sciences
Tashkent State University of Transport

Dr. A.H. KARSHIEV

Doctor of Philosophy (PhD) in technical
sciences
Associate professor of Tashkent State Technical
University

PhD. A.A. SHAYUSUPOVA

Candidate of Pedagogical Sciences
Associate professor of Tashkent State University
of Oriental Studies

PhD. M.KH. ERGASHEV

Candidate of Pedagogical Sciences
Associate professor of Karshi Engineering
Economics Institute

Prof. G.M. RUZMATOVA

Doctor of Philosophical Sciences
Professor National University named after
Mirzo Ulugbek.

Prof. O. J. NISHANOVA

Doctor of Philosophical Sciences
Professor of National University named after
Mirzo Ulugbek.

Prof. MUHIBOVA ULFATKHON

Doctor of Philological Sciences
Professor of Tashkent State University of
Oriental Studies

Prof. S.A. KHASHIMOVA

Doctor of Philosophy (DSc)
in Philological Sciences
Professor of Tashkent State University of
Oriental Studies

Dr. S. S. NURMATOV

Candidate of Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State University
of Oriental

Prof. T. M. TOGAEV

Doctor of Philological Sciences
Associate professor of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

PhD. E.N. CHERNIKOVA

Candidate of Pedagogical Sciences
Associate professor of Uzbek State University of
Physical Culture and Sports.

Dr. A. KH. KHUDOYBERDIEV

Candidate of Historical Sciences
Associate professor
of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. U.A. ABDULLAEV

Candidate of Historical Sciences
Associate professor of Tashkent State University
of Oriental Studies

Mr. CHRISTIAN BARTOLF

Doctor of Philosophy (PhD)
In Political Sciences

Prof. YALCHIN KAYALI

Ankara University,
Faculty of Languages and History-Geography,
Department of Eastern Languages and
Literatures,
Sub-Department of Indology, Faculty Member.

Prof. PhD. SAO FEY

Professor of Hangzhou Normal University,
Linguist.

CHJAN KONG PhD.

School of Humanities and Communication,
Zhejiang University of Finance and Economics.

Dr. N.S. HAMRAEVA

Doctor of Economics, Associate Professor of
Karshi Institute of Engineering and Economics

**PRAGMATIK-FUNKSIONAL KONSEPSIYA. PRAGMATIK
LINGVISTIKANING TA'LIM YO'NALISHIGA TA'SIRI**

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

Katta o'qituvchi Baxriddinova Muyassarxon Raximovna

m.baxriddinova@tsul.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada audiolingval va audiovizual metodlarning rivojlanishida pragmatik yo'nalish haqidagi mulohazalar, ya'ni chet tillarni «kundalik turmush sharoitida» qo'llash, «talabalarni yozma nutqqa emas, balki og'zaki nutqqa o'rgatishni yuqori o'ringa qo'yish» haqidagi fikrlar yoritib berilgan.

Kalit sozlar: audio-lingvistika, ko'rib eshitish, pragmatika, dialog, pragma lingvistika, tahlil.

Annotation: The article highlights the issues on pragmatics in developing audio-visual and audio-lingual methods, as well as teaching not only writing but also focusing on improving student's speaking skill

Key words: audio-lingual, audio-visual, pragmatic, dialogue, Pragma-Linguistics, analysis.

KIRISH

Aytib o'tilganidek, audiolingval va audiovizual metodlarning rivojlanishida pragmatik yo'nalish haqidagi mulohazalar, ya'ni chet tillarni «kundalik turmush sharoitida» qo'llash, «o'quvchilarni yozma nutqqa emas, balki og'zaki nutqqa o'rgatishni yuqori o'ringa qo'yish» haqidagi fikrlar muomalani o'rgatish metodi (KD)ning vujudga kelishiga muhim turtki bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Pragmatik-funksional konsepsiya. Pragmatiklingvistikaning ta'lim yo'nalishiga ta'siri obyektiv ochib berildi. Pragmatizmning shakllanish davri tarix nuqatayin nazaridan tahlil etildi. Zoyirova D. A. ning "Forming Discursive Competence of Law Students." nomli ilmiy maqolasi mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

ALM o'z ta'lim nazariyasida hal qila olmagan qiyinchilik tildan amalda foydalanishni o'rgatishga oid maqsad bilan til hodisalari shaklining tahlili va tasviridan kelib chiqadigan tilshunoslik nazariyasi (strukturalizm) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu holat ko'pincha ALM va AVM metodlarga oid darsliklarda til jihatdan notabiiy va «yo'nilmagan» dialoglarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday darsliklarda formal grammatikhodisalarni «tabiiy suhbat vaziyati»ga majburan

«tiqishtirishga» harakat qilindi va mashqlarda tilhodisalarining amalda uchramaydigan aniqligiga rioya qilish talab etildi. Bunday ziddiyat 60-yillarda tilshunoslik sohasida «Nutq faoliyati nazariyasi» -«Sprechakttheorie» deb nomlanuvchi nazariyaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Pragmalingvistika tilni shakllar tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi deb hisoblaydi. U kishilar bir-birlari bilan muomala qilganlarida tildan qay yo'sinda foydalanadilar degan savolga javob izlaydi (Austin 1962). Bu o'rinda birinchi navbatda nutq faoliyati (lotincha agere-faoliyat ko'rsatish) va uning tarkibiy qismlari tahlil qilinadi (Searle 1969). Nutq faoliyati masalalari asosan quyidagilar:

- So'zlovchining niyatini qanday tizim asosida tavsiflash va tasniflash mumkin? (Nutqiy niyat).- Niyat qaysi yo'l bilan tiiga «ko'chiriladi»? Ma'lum niyatni til orqali ifodalashning qan'day imkoniyatlari mavjud?
- Ma'lum suhbat sharoitiga mos keiadigan nutq namunalarini tanlashga nimalar ta'sir qiladi? - Suhbat ishtirokchilari uchun qanday turtkilar bo'lishi mumkin?

Pragmalingvistika yordamida tildan aloqa vositasi sifatida foydalanishni o'rgatish rejasini yaratish imkoni tug'ildi. Bu rejaning maqsadi darsda o'rganilganlarni kundalik muomala vaziyatidaimkoni boricha tez va unumli foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Ayniqsa pragmalingvistikatomonidan nutqiy niyat tizimi chet til ta'limida katta 'tiborga sazovor bo'ldi, shu bilan birga ta'lim maqsadi va o'quv raterialini tashkil qilishga jiddiy ta'sir o'tkazdi.«Nutqiy niyatlar» ro'yxati ilovada berilgan. Misol: So'zlovchining «unga nimadir yoqish yoki yoqmasligini ifodalashga oid nutqiy niyati» shu boradagi mavzularning «baholash va munosabat bildirish», «baholash va izohlash» qismiga kiradi. Agar kimdir «men rasmni xunuk deb hisoblayman» desa, u yoqmaganlikni» ifodalaydi. Agar u yuqoridagi jumlaning aytish bilan birga, jnga izoh bersa, u xolda nutq faoliyatini «baholash va izohlash» qismi talabini qondirgan bo'ladi. Yoqmaslikka oid nutqiy niyatni nemis tilida turli til vositalari orqali ifodalash mumkin: Das (Bild) finde ich scheußlich !-Men buni (rasmni) xunuk deb hisoblayman! Furchtbar!-Daxshatli! (va rasmga ishora qilish)

Das (Bild) gefällt mir überhaupt nicht?-6u (rasm) menga butuniay yoqmayapti!

Das (Bild) ist eine Zumutung!-Bu rasm umuman talabga javob bermaydi!
Gefällt dir das (Bild) etwa'i-Senga shu (rasm) yoqadimi?
-Va hokazo. Yuqorida keltirilgan vositalardan qay biri qaysi suhbat vaziyatida qo'llanishi mumkinligi, uning shu vaziyatda ko'p uchrashiga, kimga aytilishiga (yaxshi taniydigan kishigami yoki begonagami), bevosita rasm oldidami (uni ko'rsatish mumkinmi) yoki boshqa yerdagi rasm haqida gapirilayaptimi, shularga

bog'liq. Chet tilni o'rganish uchun fikrni ifodaiash vositasining qisqagina shaklini (daxshatli) qo'llash, yoki boshqa holatda batafsil to'la shakldan (Senga shu rasm yoqadimi?) foydalanishni bilib olis ham muhim hisoblanadi. Bundan fikrni ifoda qilishda ma'lum nutqiy niyatga oid vositalarning bir-biriga bog'liq taqsimotini shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Yoqmaganlikni ifodalash Birinchi bosqich: Furchtbar!- Dahshatli! Sifat orqaii; Nicht schön!-Chiroyli emas! (nemis tilida) inkor so'z va sifat orqaii. Ikkinchi bosqich: Ich finde das Bild nicht schön! Men rasmni chiroyli emas deb hisoblayman. Akkusativ kelishigidagi fo'ldiruvchisi bo'lgan darak gap orqali. Uchinchi bosq ich:

Das Bild gefällt mir überhaupt nicht!-Bu (rasm) menga butunlay yoqmayapti! Dativ kelishigidagi to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi inkor so'zli darak gap orqali. To'rtinchi bosqich: Gefällt dir das Bild etwa?! -Senga shu (rasm) yoqadimi? Dativ kelishigidagi to'ldiruvchisi bo'lgan ritorik so'roq gap orqali. "Deutsch aktiv" darsligidan misol. O'ylab ko'ring:
1. Shu sahifa audiovisual darslikdan olingan bo'lishi ham mumkinmi?
2. Undan audiovisual metodning qaysi xususiyatlarini topasiz?
Har bir suhbat vaziyati nutqiy niyatni ifodalovchi nutqiy vositalar majmuidan iborat bo'iganligi sababli, pragmatlingvistika orqali chet til ta'limi jarayonida til hodisalarini ma'lum vaziyatga moslashtirishni rejalash mumkindek tuyuladi. Pragmatik-funksional konsepsiya Yevropada chet tilni katta yoshdagi kishilarga o'rgatish sohasida tatbiq qilingani yuqorida aytib o'tildi. Yevropadagi katta yoshdagi kishilar chet tilni maktabdan tashqarida o'rganganliklari uchun, ularning konkret kasbiy va shaxsiy imkoniyatlari birlashtiriladi. Masalan, ular suhbatdosh bilan tadbirkorlik haqida muloqotga kirishni yoki sayyoh sifatida ta'vil davrida xorijiy mamlakatda yo'l topib yurishni o'rganadilar. Funksional konsepsiya asosida nisbatan juda tez vaqt ichida chet tilda kundalik mavzularda muloqot qila oladigan darajaga erishish mumkin.

Pragmatik-funksional konsepsiya xususiyatlari A. Grammatik material taqsimotidagi o'zgarishlar bo'limida nutqiy niyatni turli vositalar yordamida har xil usullar bilan amalga oshirish imkoniyatlari mavjud ekanligi ko'rib chiqildi. Xuddi shunday holatga yana misol keltiramiz. «Istak bildirish»ga oid nutqiy niyatni oddiy yoki murakkab vositalar orqali ifodalash mumkin, masalan, kiyim sotib olish paytida:
-Ich moechte bitte (einen Anzug). - Men kostyum sotib olmoqchiman.
-Zeigen Sie mir bitte (Anzuege). - Menga kostyum ko'rsatsangiz.
-Wo finde ich (Anzuege)? - Men kostyumni qayerdan olsam bo'ladi?
-Haben Sie (Anzuege)? - Kostyum bormi? -Koennten Sie mir bitte (Anzuege) zeigen?

- Menga kostyum ko'rsota olasizmi? Einen Anzug bitte! - Marhamat qilib kostyum bering! -Kann ich (den Anzug) mal probieren? - Men kostyumni kiyib ko'rsam bo'ladimi?- ich heatfe gern (einen Anzug). - Men kostyum sotib olmoqchi edim. - (Bringen Sie mir) den dort! (Wenn man auf den Anzug zeigen kann). -Anavini ko'rsating! (agar kostyumni ishora bilan ko'rsatish mumkin bo'lsa) - Wuerden Sie mir bitte (Anzuege) zeigen? - Menga kostyum ko'rsata olasizmi? - Wearen Sie bitte so freundlich und wuerden mir (Anzuege) zeigen? - Salomat bo'lgur, marhamat qilib, menga kostyumni ko'rsatsangiz yaxshi bo'lardi! (Oxirgi murojaat shakli bilan sotuvchiga ortiqcha mulozamat yoki sabrsizlik yoki piching ifoda qilinadi).Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi ifoda vositalarining soni juda ko'p va murakkabligi jihatdan birbiridan farq qiladi. ,

Ulardan soddasi va ko'p qo'llaniladigani, masalan, Ich moehte bitte (einen Anzug) va til jihatdan kompleks struktura Ich heatte gern (einen Anzug), eng ko'p qo'llaniladigan (va qo'llanilishi cheklangan) shakl bu: Wuerden Sie bitte so freundlich sein und Pragmatik funksional konsepsiyaga ko'ra grammatik material taqsimotida bir kurs davomida «istakni izhor qilish»ga oid nutqiy niyatga ikki yoki uch marfa qaytiladi va avval Ich moehte ..., so'ngra Ich heatte gern ... (yuqori kurslarda Wuerden Sie bitte so freundlich sein und ...) shakllari taqdim qilinadi, keyinchalik boshqa ifoda vositalari bilan ham tanishtiriladi. Shu yo'l bilan iloji boricha ko'proq ifoda vositalari «o'yinga tushiriladi». Natijada o'quv materialining tizimli taqsimoti vujudga keladi. Misolda berilgan ifoda vositalarini qiyinlikning ortib borishiga qarab joylashtirishga harakat qiling. Har bir shaklning grammatik hodisalarni funksional mezonlarga ko'ra joylashtirish bo'yicha tavsiyaga ega bo'lasiz.

XULOSA

Pragmatik-funksional konsepsiyaga asosan faqat grammatik material taqsimoti o'zgaribgina qolmasdan, balki ayrim olingan mavzuga oid grammatikaga bo'lgan ehtiyoj ham o'zgaradi. Kundalik turmush sharoitiga oid mavzuda faol muloqot qilish uchun, ya.'ni shu mavzuda so'zlash uchun nemis tilining barcha grammatikasini bilish shart emas. Masalan, suhbat chog'ida majhul nisbatni boshqa sodda shakllar orqali ham ifodalash mumkin, masalan, man olmoshi orqali.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Вахриддинова, М. Р. (2016). Эффективные методы предотвращения конфликтов в Высших учебных заведениях.

2. Rahimovna, B. M. (2020). THE LEXICOGRAPHICAL ASPECTS OF LEGAL TERMS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. *Oriental Art and Culture*, (V).
3. Raximovna, B. M., Farxodovna, K. D., Axmedovna, N. & Ibragimovich, .U. B. (2020) VOCABULARY RETENTION IN COGNITIVE THEORY. *Journal of Critical Reviews*, 7 (2), 402-404. doi:10.31838/jcr.07.02.78.
4. Zoyirova, D. A. (2018). Forming Discursive Competence of Law Students. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
5. Dilsuz, Z. (2019). EFFECTIVE TEACHING OF THE ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE COMMUNICATIVE-CUMULATIVE METHOD IN THE PROCESS OF EDUCATION USING MODERN TECHNOLOGIES. *Сўз санъати халқаро журнали*, 1(5).
6. Toshmatov, O & Abdijalilovna, D. (2020). Teaching EFL and ESP for Law. Activities and challenges during the covid-19 pandemic in Uzbekistan. *Solid State Technology*, 63(6), 8318-8325.
7. Black, Max (1962). “Metaphor”. In: Artunova, A.D. (ed). *Theory of Metaphor*, 153–172. Moscow: Progress.
8. Black, Max (1993). “More About Metaphor”. In: Ortony, A. (ed). *Metaphor and Thought*, 19–41. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Cienki, Alan (2007). “Frames, Idealized Cognitive Models and Domains”. In: Geeraerts, D. (ed). *The Oxford handbook of cognitive linguistics*, 170–188. Oxford: Oxford University Press.
10. Collins COBUILD Advanced Learner’s English Dictionary.(2006). Glasgow:HarperCollins.
11. De Groot, G.R. (1996). *Taal en Wetgeving: Op weg naar een elektronisch bestand van de Nederlandse Rechtstaal*. *Regel Maat*, 4, 154 –162.
12. Hay, David John Mackenzie (2006). *Words and Phrases Legally Defined: Supplement 2006*. London: LexisNexis Butterworths
13. Johnson, Mark (2002). “Law Incarnate”, *Brook. L. Rev.*, 67, 949–953.
14. Kennedy, G. (1998). *An Introduction to Corpus Linguistics*. London/ New York: Longman.
15. Meyer, Charles F. (2002). *English Corpus Linguistics: An Introduction*. Cambridge: Cambridge University Press.
16. Mousavi, Miangah (2006). “Applications of Corpora in Translation”, *Translation Studies*, 12, 43–56.

-
- 17.**..Ametova, O., Ch, F., & Mamadayupova, V. (2019). THE THEME OF LIFE AND DEATH IN JK ROWLING’S BOOKS ABOUT ‘HARRY POTTER’. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(11).
- 18.**Rozmatovna, A. O., & Fotima, A. CORE ELEMENTS OF FANTASY GENRE IN THE WORKS:“HARRY POTTER” BY JK ROWLING AND “RIDING A YELLOW GIANT” BY KHUDOYBERDI TUKHTABAEV. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 24.
- 19.** Dilsuz, Z. (2019). EFFECTIVE TEACHING OF THE ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE COMMUNICATIVE-CUMULATIVE METHOD IN THE PROCESS OF EDUCATION USING MODERN TECHNOLOGIES. Сўз санъати халқаро журнали, 1(5).
- 20.** Shokirovich, T. O., & Abdijalilovna, Z. D. (2020). Teaching EFL and ESP for Law. Activities and challenges during the covid-19 pandemic in Uzbekistan. Solid State Technology, 63(6), 8318-8325.

**“GARRI POTTER”—FENTEZI JANRINING ENG MASHHUR
NAMUNASI**

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, Xorijiy tillar kafedrası o’qituvchisi

Saidova Nozima

saidova_nozima@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Britaniyaning mashhur bolalar asarlari yozuvchisi Joan Roulingning butun duynyo bo’ylab eng ko’p o’qilgan asarlaridan biri Garri Potter haqidagi asosiy faktlar, boshqa tillardagi tarjimalari, turli muharrirlar hamda yozuvchi va jurnalistlarning asar haqida bildirgan fikrlari aks ettirilib, Joan Roulingning sehrGAR bola haqidagi asari mashhurligi sabablari o’rin olgan. Bundan tashqari, ushbu asarning yetti qismining har biri haqida qisqacha ma’lumot berilib, muxlislar e’tiroflari ta’kidlab o’tilgan hamda boshqa fentezi janridagi asarlar bilan qiyoslangan.*

Kalit so’zlar: *Fantaziya, vizual tarjima, kviddich, snich, sarguzasht asar, magl, vol de mort, interaktiv o’yinchoqlar.*

Аннотация: *В этой статье представлены основные факты о Гарри Поттере, одном из самых читаемых произведений известной британской детской писательницы Джоан Роулинг во всем мире, его переводы на другие языки, мнения различных редакторов, писателей и журналистов о произведении и причины популярности рассказа о маленьком волшебнике. Кроме того, дается краткое описание каждой из семи частей этого произведения, выделяются признания поклонников и сравниваются с другими произведениями в жанре фэнтези.*

Ключевые слова: *фэнтези, визуальный перевод, квиддич, синч, преключение, магл, вол де морт, интерактивные игрушки.*

KIRISH

Garri Potter haqida jami sakkizta kitob – “Garri Potter va falsafa toshi”, “Garri Potter va maxfiy xona”, “Garri Potter va Azkaban mahbusi”, “Garri Potter va olovli jom”, “Garri Potter va qaqnus ordeni”, “Garri Potter va shahzoda tilsimi”, “Garri Potter va ajal tuhfalari” yozilgan. Sarguzasht asar tarkibidagi yettita kitobning mazkur yilgacha 500 millionga yaqin nusxasi sotildi. Birgina “Garri Potter va shahzoda tilsimi” (oltinchi kitob) kitobi faqatgina AQShning o’zida dastlabki 24 soat ichida 6,9 million nusxasi sotilgan. Yana bir qiziq ma’lumot, kitobning hatto sotilish tezligi ham aniqlangan: bir daqiqada 80 ta. Asar eng xaridorgir kitoblarning ro’yxatidan tushmay kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Garri Potter sarguzashtlar voqealari “Garri Potter va falsafa toshi”, “Garri Potter va maxfiy xona”, “Garri Potter va Azkaban mahbusi”, “Garri Potter va olovli jom”, “Garri Potter va qaqnus ordeni”, “Garri Potter va shahzoda tilsimi”, “Garri Potter va ajal tuhfalari” kitoblarida obyektiv ochib berildi. Garri Potter yashagan davr tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Britaniyalik taniqli adiba Joan Keyt Rouling qalamiga mansub Garri Potter haqidagi bestseller romanlarning birinchisi — “Garri Potter va falsafa toshi” ingliz tilidan o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilindi. Bu haqda tarjimon Jo‘raali Solijonovning o‘zi “Daryo”ga ma’lum qildi.

140 betdan iborat tarjima Termizdagi “Surxon-nashr” nashriyoti tomonidan 2015-yilda nashr qilindi. Taqrizchilar — filologiya fanlari doktori Poyon Bakirov, filologiya fanlari nomzodi Nasiba Panjiyeva, Termiz davlat universiteti o‘qituvchilari Abdulla Xudoyqulov va Shahnoza Qayumova bo‘lgan.

“Garri Potter va falsafa toshi” romanini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda O‘zbekistonda endi rivojlana boshlagan yangi “vizual tarjima” (rasmlar qo‘shib tarjima qilish) usulidan foydalanilgan.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyat bo‘limi rahbari Mengnor Allamurodov asar haqida shunday dedi: “Joan Keyt Rouling qalamiga mansub mazkur fantastik sarguzasht roman jahon bolalar adabiyoti gultojidir. Uning filmlari haqida barchamiz eshitgan bo‘lsak-da, uning o‘sib kelayotgan o‘zbek farzandlari uchun mos keluvchi ona tilimizdagi bevosita tarjimasi yo‘qligi ko‘ngilni xira qilar edi. 2014-yilning dekabr oyida ushbu roman muallifiga uning tarjima qilinayotganligi haqida rasman xabar jo‘natildi va adibaning e’tirozi yo‘qligidan juda mamnun bo‘ldik. Yozuvchilar uyushmasi tomonidan “Yosh tarjimon” maqomi berilgan Jo‘raali Solijonovning shu kungacha ta’lim sohasida ikki bora xalqaro grant sovrindori hamda ikkita ijtimoiy va ta’limiy loyiha asoschi va boshqaruvchilaridan biri, shuningdek, bir necha hikoyalarning ham tarjimoni. Uning bu asarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjimasi alohida e’tiborga molik, bu esa Surxondaryo viloyatida shu sohadagi rasman tan olingan ilk badiiy ish hisoblanadi, ya’ni viloyatimizda ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima jarayoni boshlandi. Bu barchamiz uchun bir yutuq, deb bilaman. Tarjima asardagi so‘zlarning sodda va bo‘yoqdorlik xususiyatlaridan foydalanilgani, she’riy qismlarining qolipni saqlab qola olganligi har qanday o‘zbek o‘quvchisi uchun osongina tushunarli bo‘la oladi”.

Sakkizta kitobdan iborat roman dunyo bo‘ylab jami 75 ga yaqin tilga tarjima qilingan. Azarbayjon, ukrain, arab, urdu, hind, latv va boshqa tillar shular jumlasidandir. Kitobning dastlabki qismi hatto lotin va qadimgi yunon tillariga ham tarjima qilingan. Endi esa bu asar tarjima qilingan tillar orasiga o‘zbek tili ham qo‘shildi va uni hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘qish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Buyuk Britaniyada chop etiladigan “The Telegraph” gazetasi Joan Rouling qalamiga mansub "Garri Potter va falsafa toshi" romanini mamlakatning so‘nggi chorak asr tarixidagi eng yaxshi asari deb topdi.

Gazeta tahririyati minglab o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovdan keyin ana shunday xulosaga keldi. Britaniyaning "The Telegraph" gazetasi hamda "Waterstone’s" kitob do‘konlari tarmog‘i bilan hamkorlikda o‘tkazgan so‘rovlar xuddi shunday natija bergan. So‘rov tashkilotchilari tomonidan taqdim etilgan eng yaxshi 100 ta asardan o‘quvchilar aynan Joan Roulingning “Garri Potter va falsafa toshi” romanini tanlashi bejiz emas. "Waterstone’s" vakili Roulingning asari muvaffaqiyati haqida to‘xtalib, shunday deydi: “Bu roman so‘nggi o‘n yil mobaynida juda ko‘p o‘quvchilarni o‘ziga jalb etgan asar bo‘ldi. “Garri Potter” kitobning nimalarga qodirligi haqidagi tasavvurlarni o‘zgartira oldi”.¹

Kitobning oxirgi qismlari kitobxonlar tomonidan shu qadar intiqlik bilan kutilganki, “Garri Potter va shahzoda tilsimi” deb atalgan oltinchi kitob chop etilganining dastlabki 24 soati davomida deyarli 9 mln nusxasi sotildi. Uzoq kutilgan oxirgi kitob “Garri Potter va ajal tuhfalari” esa 1 kun davomida 11 mln nusxada sotilib, kitob tarixida eng tez sotilgan deb topildi.

“Garri Potter” asarining ta’siri shu qadar kattaki, asar muallifi Rouling tomonidan kashf etilgan so‘zlar ingliz tili lug‘ati Oksfordga kiritilib, umumxalq foydalanishiga kirgan.

Uelsning janubiy qismidagi maktablardagi o‘quvchilar orasida jismoniy tarbiya darslarida kviddich o‘ynash an’anaga aylanmoqda, deb xabar berdi “Daily Telegraph” gazetasi. Bolalar va o‘smirlar o‘rtasida ancha mashhur bo‘lgan ushbu o‘yin Joan Rouling qalamiga mansub asar qahramoni Garri Potter nomi bilan bog‘liq. O‘quv maskanining jismoniy tarbiya o‘qituvchisi uchar supurgi va sehrlangan koptoklar yordamida o‘ynaladigan kviddichni ancha soddalashtirib, real hayotga moslashtirdi. “Kinodagidan farqli o‘laroq, jamoalarda mitti uchar koptok(snitch)ni tutuvchi o‘yinchi va yugurishga xalaqit beradigan supurgi yo‘q, ammo quvuvchi, darvozabon va ovchi vazifasini bajaradigan ishtirokchilar yordamida ham musobaqalar ancha qiziqarli o‘tmoqda”, — deydi pedagog. Ushbu o‘yin orqali

¹ Byatt, A.S. (7 July 2003). "[Harry Potter and the Childish Adult](#)". The New York Times. Retrieved 1 August 2008.

o'quvchilarda ko'z bilan mo'ljalga olish layoqatini rivojlantirish, tezlik olish reaksiyasini kuchaytirish mumkin. Yangi qabul qilingan "5x60" dasturida Uelsdagi barcha maktablarda jismoniy tarbiya soatlari haftasiga besh soatgacha ko'paytirilib, kviddichni yanada ommalashtirish maqsad qilingan.

"Garri Potter" kitobi nashr etila boshlangan dastlabki davrda juda ko'plab ijobiy fikrlarga sazovor bo'ldi. "Garri Potter va falsafa toshi" nomi bilan chop etilgan dastlabki kitob "The Scotsman" kabi shotland gazetalari e'tiboriga tushib, "haqiqiy klassik asar" degan nomga sazovor bo'ldi. "The Glasgow Herald" gazetasi esa kitobni "sehrli kitob" deya maqtaydi. Tez orada chet el maqtovarlarga ingliz gazetalari ham qo'shib, "The Mail on Sunday" hamda "The Sunday Times" gazetalari kitobni Roald Dal davridan buyon chop etilgan eng yaxshi badiiy asar deya atashadi.

"The Times" gazetasi "Garri Potter" asarini nafaqat bolalar adabiyoti tarixidagi eng ko'p sotilgan bestseller, balki eng yaxshi adabiy tuhfadir deya ta'kidlaydi. "Vogue" jurnali esa J.K.Roulingning Garri Potter haqidagi kitoblari bolalarga allaqachon unut bo'lgan kitob o'qishga bo'lgan mehrni qaytardi deydi. Rouling haqiqiy kult asar yarata oldi va bir soat ichida mashhurga aylandi.

"Garri Potter va qaqnus ordeni" deb atalgan beshinchi kitob chop etilishi bilan kitob seriyalari endi nafaqat maqtovarlar balki tanqidiy fikrlarni ham qarshi oldi. Adabiyotshunos olim va tanqidchi Garold Blum kitobni shunday tanqid qildi: "Roulingning boshi o'lik metaforalar va bir xil kuyni chaladigan plastinkalar bilan to'laligi sababli u boshqa xil yozish usuliga ega emas".

Ursula Le Gvin asar haqida yaxshi fikrda emasligini aytib, "hamma kitobxonlar dastlabki "Garri Potter" kitobining originalligiga qoyil qolayotgan bir paytda, men uning naqadar chalkash, stilistik jihatdan sodda, tasavvuriy ko'chirma va axloqiy jihatdan kam ahamiyatga egaligini payqadam" deya ta'kidlaydi.

Xo'sh, nega endi allaqanday sehr-jodular haqidagi kitob bu darajada mashhur bo'lib ketdi? Axir bu kabi asarlar dunyo bo'ylab oz-muncha yaratilayotgani yo'q. Qolaversa, uchar supurgilar haqidagi filmlar ham kam emas. Gap shundaki, jamoatchilikning aksariyat qismi asar haqida ijobiy fikr bildirgan. O'quvchilarning ko'pchiligi bugungi dunyoning juda yalang'och va primitiv bo'lib qolganligini aytib, ko'ngil allaqanday sirlilikni, biroz sehrgarlikni istashini ta'kidlashdi. Garri Potter haqidagi kitoblar jahon bolalar adabiyotining eng yaxshi asari sifatida baholandi. Mutaxassislarning aytishicha, murakkab texnika, fazo janglari, kimyoviy laboratoriyalarda yaratilgan allaqanday maxluqchalar haqidagi kitoblar, film va multfilmlar, g'arbda an'anaga aylangan komikslar so'nggi yillarda juda ko'payib

ketgan. Joan Ketlin asarlari esa bolalarga biroz yengillik beradi. Ularning xotirjam fikrlashiga ko‘maklashadi.

Fikrimizcha, asarning yana bir yutug‘i shundaki, ular jajjilarga orzu qilish imkonini beradi. Axir hammamiz ham yoshligimizda sehrli qalpoqchamiz yoki tayoqchamiz bo‘lishini istaganmiz-ku. Qachondir uni topib olishga ishonganmiz. Uchar supurgida osmonga parvoz etishni xohlamaganlar dunyo bolalari orasida juda kam topilsa kerak. Lekin Garri Potter faqat bolalar kitobi bo‘lib qolmadi. Uning yana bir muvaffaqiyati shunda bo‘ldiki, kattalar ham bu asar bilan jiddiy qiziqib qoldi. Aslida har bir insonda bolalik orzulari yashirin. Shu sababli, ba‘zan eng jiddiy odamning ham multfilm ko‘rib o‘tirganiga guvoh bo‘lib qolamiz. Axir u ham chindan biror sehrgarlikni ko‘rishni juda istaydi. Biroq bolalardan farqi shundaki, u bunday bo‘lmasligiga o‘zini allaqachon ishontirib qo‘ygan.

Kattalar bu kitob bilan chindan-da qiziqib qolganligi aniq. “Garri Potter va falsafa”, “Garri Potter va fan” kabi asarlarning yaratilishi — buning yaqqol dalili. Kattalar o‘z qiziqishlarini asardan falsafa izlash yo‘li bilan «oqlashadi». Tadqiqotchilar asarni durdona, deb baholash fikridan yiroq. Ular har holda Joan Ketlinni Shekspirga qiyoslashmayapti. Bilasizmi, Mark Tven o‘z asarlariga baho berar ekan, “mening asarlarim vinodan ko‘ra ko‘proq suvga o‘xshaydi, lekin suvni har doim ichsa bo‘ladi”, degan edi. Mutaxassislarning asarga bergan turlicha baho va talqinlarini ham ana shu qarashlar manzarasida tasavvur qilish, balki to‘g‘ridir. Ular Garri Potter sarguzashtlarini haqiqiy falsafa, deb izohlayotgan o‘rinlar ham yo‘q emas. Bir jihatdan bu to‘g‘ri. Chunki bolalarni nega, nimaga, degan savollar qurshovida qoldirayotgan asar ularni borliq haqiqatlarini bilishga undaydi.

“Falsafa esa hayratdan boshlanadi”, - degan edi Platon. Mutaxassislar Garri Potter haqidagi kitoblar fan qonuniyatlarini inkor etayapti, degan xulosani ham berishgan. Yerning tortishish kuchini yenggan bolakaylar obrazida shu maqsad bormi-yo‘qmi, buni aytish mushkul. Bu o‘rinda Artur Klarkning “Yetarli darajada rivojlangan har qanday texnologiya magiyadan farq qilmaydi”, degan fikrini keltirish o‘rinli bo‘ladi. Negaki, qadimda yaratilgan oynai jahonnamo, uchar gilam kabi obrazlar oradan bir qancha vaqt o‘tib, televizor, samolyot shaklida haqiqatga aylangan. Shu sababli, fan qonuniyatlari bilan inkor etish va orzu qilish imkoniyatini aralastirib yubormaslik lozim. Chunki bugungi orzular ertaga ana shu fan uchun kutilmaganda ulkan xizmat qilishi mumkin.

Asarning dastlabki 3 qismi 28 mln nusxada sotilib, dunyo aholisini hayratga solarli songa yetdi. Muallif Rouling noodatiy ismli ajoyib qahramonlar, qiziqarli voqealar rivoji va ham tanish ham notanish atmosfera yarata oldi. Kitoblarning

farqlovchi jihati shundaki, boshqa dunyoning g'ayrioddiy voqealari, kitobxonlarni yoshi, jinsi va ta'bidagi farqlarga qaramay birlashtiradi. Ko'p oilalarning ta'kidlashicha, katta farzandlari hali o'qishni bilmaydigan kichik ukalariga kitob o'qib berishdan charchaydilar. Northwestern Universitetining ingliz tili professori Kristofer Gerbert "Xuddi shunday voqea XIX asrda Charlz Dikkensning "Qadimiy buyumlar do'koni" asari e'lon qilinganda sodir bo'lgandi" deb aytadi. 1841-yilda Angliyadan kelgan kemanding dastlabki yo'lovchilari qirg'oqqa oyoq qo'yishlari bilan kitobning ushbu mamlakatda hali chop etilmagan qismini o'qimagan odamlar ularni qurshab olib, "Kichkina Nel o'ldimi?" degan savolni berishgandi. Gerbertning hamkasbi Lourens Evans bu fikrlarga qo'shimcha tarzda, hatto xat-savodsiz odamlar ham Dikkensni o'qiganini ta'kidlab o'tgan. O'sha davrlarda o'qishni biladigan kishi boshqalarga kitobni o'qib bergan.²

"Garri Potter" asari yoshi katta kitobxonlar orasida ulkan shuxrat qozongan dastlabki asar emas, albatta. A.A.Milnning "Vinni Puh" asari, Roald Dalning kitoblari va K.Grahamning "Majnuntol shamoli" asarlari ham o'z davrida shunday mashhurlikka sazovor bo'lgan. Noterdam Universitetidagi kutubxonalardan birining boshqaruvchisi bunday kitoblar haqida shunday deydi: "Aholining yoshi katta qismi bu kitoblarni o'qib yoshlar allaqachon biladigan narsalarni o'zlari uchun kashf etmoqdalar. Bolalar esa Rouling asarlaridan tashqari ham yana ko'plab qiziqarli, sarguzashtlarga boy asarlar mavjudligini bilib olmoqdalar". "Publishers Weekly" gazetasining bolalar muharriri Diana Robek Garri Potter kitoblari boshqa bolalar adabiyoti namunalari, xususan, fentezi va sarguzasht asarlariga katta ta'sir ko'rsatayotganligini ta'kidlab o'tgan.³

"Garri Potter haqidagi kitoblar oddiy asarlar emas, so'z o'yini va yangi kashfiyotlar dunyosidir" deb gap boshlaydi "Verbatim" jurnalidagi bir maqolada muallif Jessi Randal. O'z qahramonlari, maxluqlar, duolar va predmetlarni nomlashda J.K.Rouling lotin, fransuz va nemis so'zlaridan, stilistik vositalardan va hazillardan foydalanadi. Masalan, Rouling asardagi oddiy odamlarni nomlashda qo'llagan so'z "magl" eski ingliz tilida "dum" degan ma'noni bildirgan, keyinchalik Amerika jargonida "marixuana" so'zi o'rnida qo'llanilgan. Asardagi Voldemort obrazini nomlashda muallif ikkiyoqlama so'z o'yinini qo'llagan. "Vole" so'zi "kemiruvchi" degan ma'noni bildirsa, lotincha "mort" "o'lim" so'ziga to'g'ri keladi. Fransuz tilida "vol de mort" degan birikma mavjud bo'lib, u "o'limdan qochish" degan ma'noni bildiradi. Rouling qo'llagan ba'zi ismlarni tushuntirish esa oddiy,

² www.articles.chicagotribune.com/2000-07-06/features/0007060217_1_harry-potter-books-read

³ www.sltrib.com/home/3630834-155/harry-potter-authors-chair-heading-to

masalan, Potter familiyasi Roulingning bolalardagi qo'shnilariga tegishli bo'lgan bo'lsa, Miss Norris deya nom olgan mushuk Jeyn Ostinning "Mansfield Parki" asaridagir bir obraz nomidan olingan. Ba'zi ismlar Roulingning tilshunoslikni yaxshi o'rganganini namoyon qiladi. Qahramonlardan biri Remus Lyupin nomining dastlabki qismi Rim shahrining asoschilari Remus hamda Romulus nomidan olingan bo'lsa, Lyupin so'zi lotincha "bo'ri" degan ma'nodagi "lupus"dan kelib chiqqan.⁴

XULOSA

Sehrgar bola haqidagi asar 75ga yaqin tilga tarjima qilinib, butun dunyo aholisining eng sevimli kitoblari ro'yxatidan joy oldi. "Garri Potter" asarining har yetti qismi mashhur tanqidchilar, yozuvchi va shoirlar, mualliflar tomonidan maqtovlaru tanqidlarga ko'mib tashlandi. Kitob nafaqat bolalar balki ularning otionalari va boshqa yoshi katta kitobxonlar tomonidan ham sevib o'qilishining sababi turlicha izohlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Будур Н.В., Иванова Э.И. и др.Зарубежная детская литература. – М.: "Академия", 1998, –304 с.
2. Детская литература//Под ред. Зубарева Е. – М.: Просвещение, 1989. – 399 с.
3. Allsobrook, Dr. Marian (18 June 2003). "Potter's place in the literary canon". BBC News. Retrieved 15 October 2007.
4. Byatt, A. S. (7 July 2003). "Harry Potter and the Childish Adult". The New York Times. Retrieved 1 August 2008.
5. Carrington, Rachel. Baby Names Book: Getting Started on Choosing the Perfect Baby Names and Meanings. Speedy Publishing LLC, 2012.–72 p.
6. Colbert, David. The Magical Worlds of Harry Potter, Dover Publications, New York. p 195
7. Darton, Harvey. Children's Books in England: Five Centuries of Social Life. Cambridge University Press, 2011. – 394 p.
8. Fenske, Claudia. Muggles, Monsters and Magicians: A Literary Analysis of the Harry Potter Series. Frankfurt: Peter Lang Publishing, 2008.–471 p.
9. Granjer, John. Harry Potter's Bookshelf: The Great Books Behind the Hogwarts Adventures. – New York: Berkley Publishing Group, 2009. –336 p.
10. Ametova, O., Ch, F., & Mamadayupova, V. (2019). THE THEME OF LIFE AND DEATH IN JK ROWLING'S BOOKS ABOUT 'HARRY POTTER'. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(11).

⁴ www.articles.chicagotribune.com/2000-07-06/features/0007060217_1_harry-potter-books-read

11. Rozmatovna, A. O., & Fotima, A. CORE ELEMENTS OF FANTASY GENRE IN THE WORKS: "HARRY POTTER" BY JK ROWLING AND "RIDING A YELLOW GIANT" BY KHUDOYBERDI TUKHTABAEV. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 24.
12. Dildora Abduazizovna Usarova (2021). PRAGMATIC ASPECTS OF INTERPRETATION. Academic research in educational sciences, 2 (1), 410-414. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00051
13. Усарова, Д. А. (2017). Advantages of web based learning as means of foreign language teaching. Молодой ученый, (25), 319-321.
14. Усарова, Д. А. (2018). Difficulties in translating metaphors. Молодой ученый, (21), 218-219.
15. Dilsuz, Z. (2019). EFFECTIVE TEACHING OF THE ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE COMMUNICATIVE-CUMULATIVE METHOD IN THE PROCESS OF EDUCATION USING MODERN TECHNOLOGIES. Сўз санъати халқаро журнали, 1(5).
16. Shokirovich, T. O., & Abdijalilovna, Z. D. (2020). Teaching EFL and ESP for Law. Activities and challenges during the covid-19 pandemic in Uzbekistan. Solid State Technology, 63(6), 8318-8325.
17. Вахриддинова, М. Р. (2016). Эффективные методы предотвращения конфликтов в Высших учебных заведениях.
18. Rahimovna, B. M. (2020). THE LEXICOGRAPHICAL ASPECTS OF LEGAL TERMS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. Oriental Art and Culture, (V).
19. Raximovna, B. M., Farxodovna, . K. D., . J., Axmedovna, N. & Ibragimovich, . U. B. (2020) VOCABULARY RETENTION IN COGNITIVE THEORY. Journal of Critical Reviews, 7 (2), 402-404. doi:10.31838/jcr.07.02.78.

XITOIY IEROGLIFLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

*Mamatqulov Shexroz O`tkir o`g`li
Samarqanda davlat chet tillar instituti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 2-kurs talabasi
+998 99 0620208*

Annotatsiya: Bunda biz xitoy ierogliflari tarixi, piktogrammalar va ideogrammalarning yasaliishi, murakkab ierogliflar va chetdan kirib kelgan so'zlarning ma'nolarini va bundagi murakkab ierogliflarning qay tarzda yasaliishi, ikki ierogliflarning bir-biriga qo'shish orqali yasaliishi yoki shunga o'xshash bo'lgan hodisalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xitoy ierogliflari tarixi, piktogrammalar, ideogrammalar, murakkab ierogliflar, o'zlashma so'zlar.

Аннотация: Мы описываем историю китайских иероглифов, построение пиктограмм и идеограмм, значения сложных иероглифов и иностранных слов, а также то, как создаются сложные иероглифы путем сложения двух иероглифов или аналогичных событий.

Ключевые слова: история китайских иероглифов, пиктограммы, идеограммы, сложные иероглифы, идиомы.

KIRISH

Mazkur maqolada bugungi kunda jahon miqyosida keng o'rganilayotgan va o'ziga xos xitoy iyeroglif-harfi haqida tadqiqot olib boriladi. Mazkur ieroglif-harf, tovush, so'zni anglatuvchi belgi bo'lib, u xitoy yozuvi hisoblanadi. Dunyoning boshqa tillari yozuvidan farqli o'laroq, xitoy yozuvi belgilar shaklida o'z ifodasini topgan yozuvdan, ya'ni iyerogliflardan tarkib topgan. Tarixdan ma'lumki, Xitoy ierogliflari soni bo'yicha Qadimgi Misr ierogliflaridan ham ortiq chunki, qadim zamonlarda Xitoy da ierogliflarning keskin oshib borishining sababi alifboning yo'qligi va ular faqatgina narsa yoki buyumlarga qarab ongidan paydo qilishgan bular esa ideogrammalardir shuning natijasida Xitoy ierogliflari hozirgi kunda ham eng ko'p ieroglifli mamalakat sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Xitoy ierogliflari haqida umumiy ma'lumot ta'lim yo'nalishiga ta'siri obyektiv ochib berildi. Xitoy ierogliflarining shakllanish davri tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Bekmurotov I. N ., Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida va J.T. Ziyamammedov, M.A.Turatova- "Xitoy Tili" nomli kitoblari mantiqiy izchillik va asosiy manba sifatida tadqiq qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarixdan hammamizga ma'lumki Xitoyning ierogliflari soni 80 mingdan ziyod deyiladi ayrim bitiklarda, ayrimlarida esa undan kam. Qadimgi Xitoy ierogliflari hozirgi zamon shakllangan ierogliflariga qaraganda juda ham qiyin va bir qarashda anglab bo'lmaydigan ierogliflar sirasiga kiradi. Xitoy ierogliflari chapdan o'ngga tepadan pastga qarab yoziladi. Xitoy ierogliflari hozirgi paytda ham o'zining darajasini yo'qotmay kelmoqda. Ko'pchilik olimlar fikricha, hozirgi Xitoy ierogliflarini o'rganish juda ham oson deyiladi sababi esa davrlar o'tishi mobaynida eski ierogliflarning shakllanishidir. Hozirgi davrda biz Xitoy ierogliflarini qariyb 6 yoki 7 mingga yaqinini o'rganamiz va shular orqali gaplashamiz. Xitoy ierogliflari 2 xil ya'ni bular; piktogrammalar va ideogrammalarga bo'linadi. Piktogrammalar nafaqat qadimgi Xitoy ierogliflarida balki hozirgi zamon shakllangan ierogliflarida ham bir xil qo'llaniladi. Piktogrammalar paydo bo'lishi tasvirli yozuvning bosqich-ma bosqich rivojlanishi bilan bog'liqdir. Xitoy ierogliflari tarixi "Piktogramma"larga borib taqaladi. Piktogramma – bu biror narsa yoki hodisa ifodalangan belgili surat. Hozirgi kunga kelib bunday yozuv faqat 3400 yillik tarixga ega toshbaqa kosalarida saqlanib qolgan. Bundan shu ma'lum bo'ladiki, o'sha paytlardayoq ma'lum me'yorlarga asoslangan yozuv mavjud bo'lgan. Piktogrammalar to hozirgi davrga qadar o'zgarib, yozuv belgilariga aylangan. Toshbaqa kosalariga yozilgan yozuvlar davridan to hozirgi zamonaviy yozuvlarga qadar 10 xil yozuv turi mavjud bo'lgan. Ulardan asosiylari 5 ta, bu usullar ham 2 ga bo'linadi va 3 tasi hozirda ham qo'llaniladi. 2 tasi qadimiy yozuv hisoblanib, ularni faqatgina kalligrafiya san'atida uchratish mumkin. Piktogrammalar hozirgi inson kundalik faoliyatida ko'p foydalaniladigan narsa va buyumlarni ifodalash uchun keng foydalaniladi. Piktogrammalar bilamizki, nafaqat inson hayoti balki koinot, o'simlik va hayvonot ga, mehnat buyumlariga kundalik hayotga oid predmetlarni ifodalaydi. Masalan: Rasmda ko'rsatilgandek bularning barchasi piktogrammalar deymiz. Piktogrammalar asosan toshlar, metallar, bambuk poyalari, turli xil idish kabilarga tushirib o'yib yozilgan ulardan ko'rishimiz mumkin 山(shān) tog'.



Murakkab ierogliflarning paydo bo'lishi va shakllanishi mavxum so'z va tushunchalar miqdorining o'sib borishi bilan izoxlanadi. Yangi so'zlarni oddiy piktogramma va belgilar bilan yozuvda ifodalashning imkoni yo'q edi. Yangi so'zlarni hosil qilish piktogrammalar va belgilarni qo'shish orqali hosil qilindi va bunda yangi so'zning ma'nosi va yangi so'z tarkibidagi piktogramma ma'nosi o'rtasida bog'liqlik bor edi. Masalan, 木 mu – daraxtni anglatadi, ikkitasi birgalikda murakkab ieroglifni tashkil etib, 林 lin (o'rmon) morfemasini hosil qiladi, uchta bir ieroglifga birlashib, “changalzor” deb ataladi va soya ma'nosini beradi. Ideogrammalar murakkab sintetik belgilar bo'lib, odatda ikkita belgidan iborat bo'ladi va bu belgilar ma'no jihatdan ideogramma ma'nosiga aloqador bo'ladi. Ideogrammaning ikkala qismi ham ma'no anglatadi, faqat ideogrammaning talaffuzi uning qismlarining talaffuziga bog'liq bo'lmaydi. Talaffuzdagi bu nomuvofiqlik xitoy ieroglifining ideogrammalariga xos xususiyat hisoblanadi. Ideogrammalar hosil qila olish mavxum so'zlarni ifodalashda juda qo'l keladi. Ideogrammalar orqali so'zlar yasash imkoniyati paydo bo'lgan bo'lsada, amalda yangi xosil qilingan so'zlarni yodda saqlash mushkul edi. Bu odatda ma'nosi o'xshash so'zlarning barida asosiy so'z ishtirokini talab qilar edi. Shu kabi ideogrammalar bilan bog'liq murakkabliklar ieroglif yozuvida fonetik usul keng tarqalishiga olib keldi. Bunda so'zlarning ohangidagi farqni yozuvda ifodalash uchun ko'rsatkichlardan foydalanildi. Misol uchun, 马 ma ieroglifi, “ot” ma'nosini beradi, deyarli shunga oxangdosh so'z 吗 ma ieroglifi esa (qo'shimcha nū (ayol) belgisi bilan) ona ma'nosini beradi, quyidagi so'zlarga e'tibor bering: 骂 ma-“so'kmoq” (口 kou-“og'iz” belgisi bilan); 蚂 ma-“chumoli” (虫 chong-“hasharot” belgisi bilan). Shunday qilib, dastlabki ieroglif

belgilaridan bo‘lgan tasvirli belgilar va ko‘rsatkichli belgilarning birikishidan murakkab ierogliflar hosil bo‘ldi. Bular ideogrammalar va fonogrammala edi. Bu to‘rtta ieroglif turlari birgalikda xitoy ieroglif yozuvini tashkil etadi va dastlabki belgilar mustaqil ravishda is‘temolda qo‘llanmasdan, balki faqatgina murakkab ierogliflar tarkibida uchraydi. Fonetik yozuv rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatgan qoidalardan biri bu “o‘zlashtirma so‘z”lardir (xitoycha 假借 jiajie). O‘zlashtirma so‘zlarning mohiyati shunda ediki, bunda yangi so‘zni ifodalash uchun oxangdosh bo‘lgan eski ierogliflardan xech qanday belgi-kalitlarni qo‘shmasdan foydalanildi. Masalan, piktogramma xisoblanadigan, bug‘doyning ma‘lum bir turini anglatuvchi 来 lai ieroglifi “kelmoq” morfemasi uchun o‘zlashtirma bo‘lib xisoblanadi. Qaynatilgan go‘sh uchun idish ma‘nosini beruvchi 豆 dou ieroglifi esa dukkakli donlarni ifodalash uchun foydalanilgan.

Bu qoida bo‘yicha yasaladigan so‘zlarga chetdan o‘zlashgan so‘zlar ham kiradi. Biroq, bunda faqatgina talaffuz oxangi saqlanib, ierogliflar o‘z ma‘nosini yo‘qotadi. Masalan, 蒙古 menggu “Mongoliya”(蒙 meng “qoramtir” va 古 gu “qadimgi” ierogliflaridan). Bu qoidada ieroglif sof holatda fonetik belgiga aylanadi.

XULOSA

Bundan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xitoy ierogliflari va ularning soni aql bovar qilmaydigan darajada ko‘pdir bunda biz faqatgina o‘zimizning aqlimizni ya‘ni bosh miyadagi boshqacha qilib aytganda uxlab yotgan nervlarni ochishimiz kerak bo‘ladi. Xitoy piktografik ierogliflar hozirgi paytga qadar saqlanmoqda muzeyda. Ideografik ierogliflar esa kundan kun ko‘payib yangi so‘zlarni hosil qilmoqda. Donolar aytgandek , “tarixsiz kelajak yo‘q” biz shunga amal qilgan holda yangi kelajakni o‘zimiz quramiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Istrin V.A., Voznikoveniye i razvitiye pisma, M., 1965; Fridrix I., Istoriya pisma, per. S nem., M., 1979; Mahmutxo‘jayev M. H., Bekmurotov I. N ., Xitoy yozuvi (iyerogliflari) haqida, T., 1990.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. T.P.Zadoyenko , Xuan Shuin “Osnovi kitayskovo yazika”
4. L.A.Sultanova, J.T. Ziyamammedov, M.A.Turatova- “Xitoy Tili”
5. Zhongwen.com
6. Studychinese.ru
7. Chinalanguage.com
- 8.Mandarin.about.com

UDK 677.21.621.547

**PAXTANI DASTLABKI ISHLASH TEXNOLOGIK JARAYONIDA SIFATLI
TOLA ISHLAB CHIQRISH YO‘LLARINI O‘RGANISH**

mustaqil tadqiqotchi Qodirova Gulnoraxon Olimjonovna

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

qodirovagulnora1984@gmail.com

professor Muradov Rustam Muradovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti,

rustam.m@list.ru,

Annotatsiya. *Maqolada paxta tozalash korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonidagi texnika va texnologiyalar o‘rganildi. Sifatli tola ishlab chiqarish maqsadida ularning afzallik va kamchiliklari ko‘rib chiqildi va xulosalar berildi.*

Kalit so‘zlar: *paxta, tola, chigit, separator, tosh tutgich, quritish barabani, tozalagich, jin arra, linter, kondensor press*

Аннотация. *В статье исследуются приемы и технологии производственного процесса на хлопкоочистительных заводах. Рассмотрены их преимущества и недостатки при производстве качественного волокна и сделаны выводы.*

Ключевые слова: *волокно, семена, сепаратор, камнедержатель, сушильный барабан, очиститель, джинсовая пила, линтер, конденсаторный пресс*

Abstract: *The article examines the techniques and technologies in the production process at ginneries. In order to produce quality fiber, their advantages and disadvantages were considered and conclusions were drawn.*

Keywords: *cotton, fiber, seeds, separator, stone holder, drying drum, cleaner, gin saw, linter, condenser press.*

KIRISH.

Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida paxta xom-ashyosini dastlabki ishlash texnologik jarayonlarida mashinalarning ishchi organlari ta'sirida ma'lum bir miqdorda chigitlarni sinishi va tolalarni shikastlanishi ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida keyingi jarayonlarda mahsulot sifatiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Avval olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, paxtani tolali chiqindilari asosan to'qimachilik sanoatida muhim xom-ashyo hisoblanadi. Paxtani dastlabki davrida singan chigitlar va shikastlangan tolalar paxta chiqindilarni ajratish va undan samarali foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan va kam miqdorda tolalarni shikastlanishini oldini olish chora-tadbirlari ko'rilgan [1].

Chigitli paxtani tayyor mahsulotga aylantirish uchun bajariladigan hamma ishlar yig'indisi paxtani dastlabki ishlash texnologik protsessi deb atalib bu protsess quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Paxta tayyorlash punktining quritish tozalash chigitli paxtani quritish va tozalash; paxta tozalash zavodining sexida chigitli paxtani quritish va uni xas cho'plardan tozalash; paxta tozalash zavodining bosh korpusida chigitli paxtani jinlash va tolani tozalash, chigitni linterlash va lintni, tolali chiqindilarni tozalash, tola, lint, va tolali chiqindilarni presslab toylash.

Bu davrda chigitli paxtani dastlabki ishlash texnologik protsessini bajarishda paxta tolasini va chigitining tabiiy fizik mexanikaviy xususiyatlarini saqlash va ularni bu vazifani bajarishda chigitli paxta tolasini shikastlanishini oldini olish uchun paxtani dastlabki ishlashni to'g'ri tuzish muhim ahamiyatga ega [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Paxta tozalash zavodlarini ishlab chiqarish quvvatiga qarab, arrali jinli paxta tozalash zavodlari: bitta qatorli (batareyali), yoki ikki qatorli; valikli jinli paxta tozalash zavodlari: ikkita, uchta, to'rtta qatorli joylashtirish mumkin. Arrali jinli paxta tozalash zavodlari tola ajratish bo'limlarida (jinlash bo'limlarida) har bir qatorda 2-4 donagacha, valikli jinli zavodlarda bo'lsa 10-12 donagacha jin mashinalari o'rnatiladi.

Paxta tozalash zavodlarida, ularning paxtani ishlab chiqarish quvvatiga qarab, texnologik jarayon bo'yicha kerakli quritish-tozalash bo'limlari ham har xil joylashgan. Ularning ichida o'rnatiladigan texnologik uskunalari majmuasidagi mashinalar soni, turi, belgilari ham har xil bo'lishi mumkin.

Shu sababli, mahsulotni ishlab chiqarishdan oldin har tomonlama barcha omillarni e'tiborga olishi zarurdir. Hattoki, mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur xom-ashyolar bilan ta'minlovchilar o'rtasida o'zaro aloqa qilib, ushbu xom ashyo va komponentlar mahsulotni talab darajasida ishlab chiqarishga zamin yaratilishini aniqlashi lozimdir. Paxtani qayta ishlash vaqtida kelajakda servis xizmatlarini rivojlantirishda uning o'rni hamda talab va taklifi o'zgarib borishini hisobga olishi zarur hamda uni inobatga olishi zarur.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

To'qimachilik va yengil sanoat talablarini qoniqtirish maqsadida paxta tozalash zavodlarida bajariladigan hamma texnologik jarayonlar sifatli mahsulot ishlab chiqarishga va iloji boricha paxta tolasini, lint hamda chigitining tabiiy xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan [3].

Shu sababli loyhalashtirilayotgan paxta tozalash zavodining texnologik jarayon tizimini tanlashda, hozirgi davrdagi zamonaviy texnologiya, texnika va fan yutuqlarini hisobga olgan holda sifatli mahsulot yetishtirib borish eng asosiy maqsad bo'lishi kerak.

Paxta tozalash zavodining umumiy texnologik jarayoni quyidagi ishlab chiqarish bo'limlarini o'z ichiga oladi:

- quritish tozalash bulimi (QTS);
- tozalash bulimi (TS);
- jinlash va tola tozalash bulimi (JTTS);
- linterlash bulimi (LS);
- presslash bulimi (PS);
- tola chiqindilarini qayta ishlash bulimi (TChQIS).

Shu sababli paxta tozalash zavodi umumiy tozalash samaradorligini oldindan hisoblash bizlar uchun, ishlab chiqarishda, paxta tolasining tabiiy hususiyatini maksimal saqlangan holda, sifatli mahsulotlar olishimizni ta'minlovchi yumshoq rejimda ishlovchi texnologik jarayonni hosil qilishimiz kerak bo'ladi [4].

Ilmiy tekshirish instituti xodimlari tomonidan o'tkazilgan izlanishlar (tajriba) natijalari quyidagilarni tasdiqlaydi:

- agar chigitli paxta massasida yashil organik aralashmalar (G'o'za barglari) 1,0% bo'ladigan bo'lsa, unda paxtaning namligi – 10/12 % ga, 1,5/3,0 % bo'lsa, namlik 14/18 % ga, 3/6 % organik aralashma bo'lsa, chigitli paxta namligi 20/23 % gacha ko'tarilishi mumkin ekan. Bunday namlikdagi chigitli paxta tezda o'z-o'zidan qizib (chirib) ketish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Namligi 13/14 % dan yuqori bo'lgan paxtani saqlaganda o'z-o'zidan qizib, paxta temperaturasi 60/70 °S gacha ko'tarilib, biologik o'zgarishlar natijasida chigitni unib chiqish va moy berish xususiyatlari kamayib ketadi.

Namligi me'yordan yuqori bo'lgan chigitli paxtani paxta tozalash korxonalarida qayta ishlaganda texnologik uskunalarning ish unumdorligi va tozalash samaradorligi kamayadi, tolaning sifati pasayib, tashqi ko'rinishi yomonlashadi.

Masalan: Agar I-nav chigitli paxtaning namligi 8 % dan 9 % gacha ko'tarilsa, bunday paxtadan ishlab chiqarishda olingan tola tarkibida nuqsonlar miqdori 0,25-0,35 % gacha ko'payadi. Chigitli paxtaning tarkibidagi bu komponentlarning kimyoviy tuzilishi har xil bo'lganligi uchun ularning namlanishi va quritish jarayoni ham turlicha bo'ladi [5].

Ma'lumki, iflos aralashmalar paxtaga ishlash jihatidan passiv va aktiv turda bo'ladi. Passiv iflosliklar yengil silkitilganda paxtadan oson ajraladi. Aktiv iflosliklar paxtadan qiyin ajraladi. Aktiv iflosliklarni paxtadan ajratish uchun ularni oldini passiv holatga keltirish zarur taklif qilinayotgan to'rli yuzani tebratish yo'li bilan aktiv iflosliklarni paxtadan tezroq ajratib chiqib ketishi imkoniyati paydo bo'ladi. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishiga to'rli yuz tebratilganda unda paxta bo'lakchasining xarakteristik traektoriyasi o'zgaradi. Bu o'zgarish paxta bo'lagining turli yuzada uzoqroq notekis traektoriyaga xarakatlashi imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda mana shu fikirlarni tajribada tekshirib ko'rish uchun masofa eksperimental qurilma tayyorlanmoqda. Bu moslama turli sirtga tebranma xarakteristik berish bilan birga uning foydali yuzasini o'zgartirish imkonini ham beradi [6].

To'rtli yuzani tebranma qilib tayyorlash murakkab bo'lganligi sababli muallif tomonidan puflovchi havo yordamida paxta tarkibidan mayda iflosliklarni tozalashni taklif qilindi. Bugungi kunda paxta tozalash korxonalari tola tarkibida nuqsonlar miqdori ko'payib bormoqda. Bunga paxtani qayta ishlash korxonalari texnologiyasida chigitning shikastlanishi sababchi bo'lmoqda. Oqibatida tolaning tarkibida tolali chigit qobig'ining parchalari ko'proq hosil bo'lishini ko'ramiz. Bu nuqsonni toladan ajratib olish jarayoni ham juda murakkab, chunki tola bilan yaxshi bog'langan. Shuning uchun paxtani qayta ishlash jarayonida chigitni shikastlantirmoslik yo'llarini axtarish bilan tola sifatini yaxshilash mumkin. Shu bois paxta yumshoq rejimda qayta ishlash texnologiyasini joriy qilish muallif tomonidan tavsiya qilinmoqda. Bunda paxta g'aramlaridan buzib, havo yordamida tashuvchi qurilma quvurlariga bir tekisda o'tish jarayonini amalga oshirish kerak bo'ladi. Buning natijasida quvur devorlariga qamrab urilib, xarakatlanish imkoni paydo bo'ladi.

Shuningdek, tosh tutgich, separator hamda paxta tozalash mashinalarida chigitning shikastlanishi mumkin bo'lgan joylarga materiallar o'rnatish taklif qilinadi. Shunda tolaning tarkibidagi nuqsonlar miqdori kamayishi hisobiga sifati yaxshilanib, yuqori sinf bo'yicha sotish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'z navbatida korxonaga katta iqtisodiy samara keltiradi.

Yuqoridagi takliflar joriy qilinsa paxta quvurlari orqali paxtani qayta ishlash jarayonida chigitning shikastlanishi kamayishiga erishiladi. Buning natijasida tola tarkibida nuqsonlar hosil bo'lishi kamayishiga olib keladi.

Bugungi kunda paxtani qayta ishlash texnologik jarayoniga quyiladigan asosiy talablaridan biri bu qimmatbaho xom ashyoning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda sifatli tolani oshirishdir.

Paxtaning quvurlardagi harakati havo oqimining dinamik bosimidan yuzaga kelgan kuch hisobidan amalga oshiriladi. Bu kuch ta'sirida paxtaning quvur ichida harakat tezligi yuzaga keladi. Paxta bo'lakchasining diametri qancha katta bo'lsa, uning uchish tezligi ham shuncha katta bo'ladi. Mana shu tezlik paxtaning quvur ichidagi muallaq holatida bo'lishini ta'minlash uchun havo oqimining xom ashyoga ko'rsatgan bosimi uning og'irligiga teng bo'lishi kerak.

P.V.Baydyukning o'tkazilgan tadqiqotlar asosida aniqlashicha, paxtaning uchish tezligi uning muallaq holatda turgan tezligidan 1,4 marotaba katta bo'lganda quvur ichida tiqilmasdan xarakatlanish imkoniga ega bo'ladi.

Paxtaning quvur ichidagi uchish tezligini kamaytirish uchun uni titilib xarakatlanishini tashkil qilish kerak bo'ladi. Buning uchun g'aramlardan paxtani quvurlarga bir tekisda titib uzatib beradigan qurilma yaratilgan. (3)

Taklif qilingan o'zgarishlar hisobida paxtani qayta ishlovchi mashinalarga berilishi vaqtida uning sifati buzilishining oldi olinadi. Natijada xom ashyo

shikastlanmaydi, tolaning tarkibida xar xil nuqsonlar paydo bo'lmaydi. Sifat yaxshilanishi hisobiga korxonada katta iqtisodiy samara olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Paxtani titib, bir tekisda quvurlarga uzatish natijasida xom ashyo mayda iflosliklardan ajragan holda havo oqimi ta'sirida xarakatlana boshlaydi. Bu holatdan foydalani toshutgichga o'rnatilgan turli barabanda paxtaning tarkibidagi mayda iflosliklardan ajratib olish imkoniyati paydo bo'ladi. Turli baraban elastik asosiga o'rnatilganligi bilan birga u aylanish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Turli barabani ichki va tashqi qismiga o'rnatilgan qo'zg'alish sidirg'ichlar yordamida vaqti-vaqti bilan tozalab turiladi. Turli barabanni qo'l kuchi yordamida aylantiriladi. Bu uning teshiklariga xar xil aralashmalarni tiqilib qolishining oldini oladi.

Paxtaning tarkibidagi mayda iflosliklarni ko'proq ajratib olish uchun separator konstruksiyasiga bir qator o'zgartirishlar kiritilgan. Separatorning ishchi kamerasida doira shakldagi to'rli sirtning foydali yuzasini oshirish maqsadida uni konus shaklida tayyorlanadi. (5)

XULOSA

Maqolada paxta tozalash korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonidagi texnika va texnologiyalar o'rganildi. Sifatli tola ishlab chiqarish maqsadida ularning afzallik va kamchiliklari ko'rib chiqildi va xulosalar berildi.

Paxta tozalash korxonalarining ishlab chiqarish quvvati va samaradorligi ishlab chiqarilayotgan maxsulotga ya'ni tola sifatiga bog'liq bo'ladi. Tola sifatini yaxshilanishi esa asosan korxonadagi texnologik jarayonga bog'liqdir. Buning uchun paxtani qayta ishlash texnologik jarayonga o'rnatilgan mashinalarda chigit va tolalar shikastlanadigan joylarda zarba kuchini elastik elementlar o'rnatish yo'li bilan kamaytirish kerak bo'ladi. Natijada paxtani yumshoq rejimda ishlash mumkin. Korxonalaridagi texnologik jarayonlar bugungi zamon talabiga munosib bo'lsagina yuqori sifatli tola olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Dotsent X.Sh.Aripov, assistentlar G.O.Qodirova, O.Asqarova (NamMTI) "To'qimachilik sanoat chiqindilaridan samarali foydalanish yo'llarini o'rganish". Namangan 2019 yil.
2. Jabbarov G'.J., Otametov T.U., Xamidov A.X. "Chigitli paxtani qayta ishlash texnologiyasi". Tokent o'qituvchi, 1987 yil.
3. Muradov R., Karimov A., Dadajanov A.. «Paxta tozalash mashinalarining samaradorligini tebranma to'rli sirt yordamida oshirish». NamDU "Ilmiy to'plam". 2004. №2. 53-56 b.
4. Muradov R., Muminov M., Obidov A.«Paxta xom ashyosi uchun toshutgich». Patent olish uchun berilgan ariza. IAP № 20020915. 200 yil.

5. T.f.n., Azimov S., assistent Rejabboyev S. (NamMTI) “Korxonalarni loyixalash” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma. Namangan 2018 yil.
6. Ахмедходжаев Х.Т., Алиев М.А.О повреждаемости семян при пневмотранспортировании хлопка-сырца. «Хлопковая промышленность». 1977 № 2. С.7-8.
7. Каттаходжаев Р.М., Зияев Х.А., Кадырходжаев С.Х. Влияние конструкции узлов пневмотранспортных установок на пороодообразование в волокне и поврежденность семян. «Хлопковая промышленность». 1983. №3.С. 12-13.
8. Саримсаков О., Мурадов Р. Совершенствование процессе подоги хлопка пневмотранспорт. «Хлопковая промышленность» 1992. №3. 10-11.
9. Собиров З.С., Корабельников Р.В., Мурадов Р.. Сепаратор для хлопка-сырца с конусообразной сетчатой поверхностью. «Хлопковая промышленность» 1988. №5. С. 14-15.

ЁШ ҲАРБИЙЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ ВА МАФКУРАВИЙ ОНГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

ТАХИР БУРХАНОВ,

Ўзбекистон Республикаси

Қуролли Кучлари Академияси катта ўқитувчиси

***Аннотация:** Ушбу мақолада бугунги кунда барча тоифадаги ҳарбий хизматчиларнинг маънавий-маърифий ва ахлоқий сифатларига юқори талаблар қўйилиб, шахсий таркибнинг зоявий ва жисмоний жиҳатдан чиниқишини кучайтиришга, унинг жанговар маҳоратини оширишга, интизомни мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратилаётганлиги, умуман ёш авлодни ҳар томонлама етук, баркамол, соғлом турмуш тарзи асосида тарбиялаш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бири эканлиги, миллий, маданий, тарихий анъаналари, урф-одатлари ҳамда умумбашарий қадриятлардан таълим-тарбия жараёнида фойдаланишининг аҳамияти ёритиб берилган.*

***Калит сўзлар.** Баркамол, соғлом турмуш, миллий, маданий, урф-одат, умумбашарий қадриятлар, маънавий-ахлоқий, мавфура, низом, ҳарбий, интизом.*

***Аннотация:** В статье подчеркиваются высокие требования к духовно-нравственным и этическим качествам всех категорий военнослужащих, усиление идейной и физической подготовки личного состава, повышение их боевой выучки, укрепление дисциплины, молодое поколение в целом зрелое, гармоничное, здоровое. Образ жизни - это одна из самых актуальных проблем современности, важность использования в образовательном процессе национальных, культурных, исторических традиций, обычаев и общечеловеческих ценностей.*

***Ключевые слова.** Гармоничный, здоровый образ жизни, национальные, культурные, обычаи, общечеловеческие ценности, духовно-нравственные, идеология, порядок, военная дисциплина.*

КИРИШ

Мазкур мақолада ёшларимизни ҳар томонлама етук, баркамол, соғлом турмуш тарзи асосида тарбиялаш ва бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бири эканлиги асосланган. Чунки, бугунги ёшлар келажаги буюк давлатимизнинг фахри ҳисобланади. Бу истақларини амалга оширувчи асосий омил давлат, яъни миллий жиҳатдан мустақил бўлган демократик давлат ҳисобланади. Агар давлат бўлса-ю, аммо у мустақил бўлмаса, ҳар қандай миллатнинг, халқнинг эркинлиги, мустақил яшаши хом хаёл бўлиб қолаверади.

Кишилиқ тарихидан маълумки, дастлабки мафкуралар (давримиз нуқтаи-назаридан) ўта содда қарашлар мажмуи бўлиб, уларни инсонларга сингдиришнинг ибтидоий усул ва воситалари йиғиндиси ҳисобланган. Мазкур мафкуралар ўзида асосан, инсон ва табиат муносабатини, табиат кучларини кишилар ҳаётидаги ўрнини таъсирчанлик билан ифодалаган. Бунинг сабаби ушбу мафкураларнинг муаллифлари бўлмиш қадимги аждодларимиз тафаккуридаги жараёнлардир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Тадқиқот жараёнида илмий билишнинг обективлик, тарихийлик ва умумийлик усулидан фойдаланилди. Ёш ҳарбийларнинг маънавий ва мафкуравий онгини такомиллаштириш масалаларининг шаклланиш даври тарих нуқатайи-назаридан таҳлил этилди. “Маънавий камолот ва унинг инсон тарбиясидаги ўрни” номли илмий мақола мантиқий изчиллик жиҳатдан тадқиқ қилинди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Маълумки, қадимги аждодларимиз ўзларини табиат олдидаги ожизликларини жуда чуқур ҳис этганлар. Мазкур ожизлик уларда табиат кучларидан кўрқиш ва улардан умид қилиш ҳиссини ривожлантирган. [1]

Шундай экан, мустақиллик ҳар бир давлатнинг бош атрибути бўлиб, уни ўрганиш ва ҳаётга тадбиқ қилиш мустақиллик фалсафасининг асосий масаласи ҳисобланади. Зеро, мустақиллик бўлмаса, миллий давлат ҳам, унинг туб манфаатларини ифода этувчи, порлоқ келажак сари бошлаб борувчи миллий ғоя-мафкуравий ҳаёти ҳам бўлмайди.

Мустақилликнинг жамият ҳаётидаги туб моҳияти ва умумметодологик аҳамияти ҳақида Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёев: “Агар ҳар бир халқ, ҳар бир давлат мустақил бўлмаса, бошқалар унинг нафақат деҳқонини, нафақат ишчисини, ҳатто шоиру олимини ҳам, давлат арбобини ҳам истаганча таҳқирлаши, инсоний шаънини тупроққа қориши мумкин экан. Биз яқин тарихимизда кечган ана шундай аянчли воқеалар мисолида мустақиллигимизнинг аҳамияти ва моҳиятини, кадр-қимматини янада теран англаб етишимиз, уни ҳар қандай ёвуз кучлардан ҳимоя қилишга доимо тайёр туришимиз шарт”, [2] – деган эди.

Қадимги мафкуралар таркибида илмий-фалсафий қарашлар учрасада, лекин уларнинг аксарияти диний мазмунга эга бўлган. Жумладан, бу тотемизм, анимизм, фетишизм каби ибтидоий мафкураларга ҳам хос бўлган. Зеро, улар том маънодаги дин кўринишига эга бўлмасада, ўз даври учун мураккаб мафкура сифатида кейинги авлод (ҳам диний, ҳам дунёвий) мафкуралари учун асос вазифасини ўтаган.

Бугунги кунда барча тоифадаги ҳарбий хизматчиларнинг маънавий-ахлоқий сифатларига юқори талаблар қўйилиб, шахсий таркибнинг ғоявий ва жисмоний жиҳатдан чиникишини кучайтиришга, унинг жанговар маҳоратини оширишга, интизомни мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хизматнинг интеллектуал ва руҳий танглиги ошиб боргани сайин, офицернинг интизомлилигини янада ривожлантириш зарурати кун тартибида долзарб бўлиб қолмоқда. Зеро, интизом армиянинг асосий кучи ҳисобланади.

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, ҳар қандай мафкуравий категориялар тарихан якка ва мустақил ҳолда шаклланмаган. Улар муайян (диний ёки дунёвий мазмундаги) мафкуравий таълимотлар таркибида бир-бирига мутаносиб ҳолда вужудга келган ва ҳаракатланган.

Ҳозирги даврда инсоният ҳаётига техника ва технологияларнинг кириб келиши ҳамда ундан чуқур ўрин олиши натижасида, ахборот алмашинувининг тезлашуви жамиятдаги сиёсий ва мафкуравий жараёнларга ҳам ўзининг катта таъсирини ўтказмоқда. Яъни, бугунги давр мустақил давлатлар аҳолисини сиёсий маданиятига жаҳондаги мафкуравий полигонларнинг таъсирини табора кучайиб бораётганлиги билан характерланади.

Шундай экан, ҳарбий-техник инқилоб ҳарбий интизомнинг ахлоқий асосларини мустаҳкамлаш заруриятини тақозо этади. Кибернетик ва автоматик тизимлар асрида аниқлик, чидамлилиқ, виждонлилиқ, онглилик ва бошқа энг яхши инсоний фазилатларнинг аҳамияти янада ошиб бормоқда. Ҳозирги кунда нафақат тўғри, балки ўз вақтида, ижодий ёндашиб, юксак даражада масъулият, ташаббускорлик ва маҳорат билан ҳаракат қилиш ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Зеро, ўз вақтида амалга оширилмаган тўғри ҳаракат ҳам баъзан тузатиб бўлмайдиган, оғир хатоларга тенг бўлиши мумкин.

Бугун биз инсон борлиқни англаб олишига ҳамда уни баҳолашига катта таъсир ўтказувчи улкан ахборотлар оқими замонида яшамоқдамиз. Албатта, ушбу ахборотлар оқими фуқароларга сиёсий борлиқни турли хил нуқтаи-назардан ёритиб бериш қувватига эга. Ҳозирги кунда ушбу қувват таъсирида фуқаро ўзи яшаётган ижтимоий тузум, давлат, унинг ички ва ташқи сиёсати ҳамда бошқа сиёсий жараёнлар тўғрисида билиш ва баҳолашнинг улкан имкониятига эга бўлиб бормоқда. Лекин шу ўринда қайд этиш лозимки, ушбу билиш ва баҳолашлар шахсда илмий, умуминсоний ва объектив ахборотлар таъсирида вужудга келсагина, фуқарода соғлом сиёсий эътиқодни шакллантириши мумкин. Соғлом сиёсий эътиқод ўз навбатида фуқаронинг сиёсий маданиятини яъни, унинг хулқ-атворидаги сиёсий фаоллик, ватанпарварлик, байналминаллик каби ҳислатларни ривожланиши учун асос бўлиб хизмат қилади.

Ҳарбий хизматчи хулқ-атворининг қоида ва меъёрлари, авваламбор, умумҳарбий Низомларда ўз ифодасини топган. Интизом Низомининг 1-моддасида шундай ёзилган: “Ҳарбий интизом – бу барча ҳарбий хизматчиларнинг қонун, ҳарбий Низомлар томонидан, командирлар (бошлиқлар) буйруқлари билан белгиланган тартиб ва қоидаларга қатъий ва аниқ риоя этилишидир”. Шунингдек, 2-моддада “ҳарбий интизом ҳар бир ҳарбий хизматчининг Ўзбекистон Республикасини ҳимоя қилишга бўлган ҳарбий бурч ва шахсий масъулият, ўз халқига мислсиз садоқатини ҳис қилишига асосланади. Ҳарбий хизматчиларда юксак интизомни тарбиялашнинг асосий усули ишонтиришдир, деб қайд этилган. Табиийки, ишонтириш ўз ҳарбий бурчига сидқидилдан ёндашмаганларга нисбатан мажбурий чоралар кўришни истисно этмайди”, дейилган[3].

Маълумки, даврлар алмашинуви давлат ва жамиятни бошқаришдаги усул ва услублар моҳиятига ҳам жуда катта таъсир кўрсатган. Яъни, бу жараёнда давлат ва жамиятни бошқаришдаги кўплаб усул ва услублар тубдан янгиланган. Уларнинг баъзилари қонуний равишда бутунлай бошқарув соҳасидан четлашган. Лекин, қадимги аجدодларимиз томонидан қўлланган шундай усуллар ҳам борки, улар шу кунгача ҳам давлат ва жамиятни бошқаришда ўз аҳамиятини йўқотмай, тобора такомиллашиб, мураккаблашиб келмоқда. Бундай усуллар сирасига, албатта, мафкура ва мафкуравий категорияларни киритиш мумкин.

Ўзбекистон халқларининг мустақиллигини ҳар томонлама ёвуз кучлардан ҳимоя қилиш асосан ёш ҳарбий хизматчилар зиммасига юклатилган, десак хато қилмаган бўламиз. Шунинг учун ҳам ҳарбийларнинг мамлакат мустақиллигини ҳимоя қилишга бўлган эътиқодини, уларнинг миллий мафкуравий онгини шакллантириб, ривожлантириб бориш орқали маънавий жиҳатдан тарбиялаш энг устувор вазифалардан ҳисобланади.

Ёш ҳарбийларнинг миллий мафкуравий онгининг шаклланганлик даражасига мамлакатимиз мудофаа қобилиятини мустаҳкамловчи асосий маънавий омил ҳисобланади. Зеро, Ўзбекистон Республикасининг Президенти, Олий бош қўмондон Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: ” Биз маънавият ва маърифат ишини ватанпарварлик иши, виждон иши, деб биламиз. Виждони, маънавияти бор инсон Ватанни албатта яхши кўради. Виждон, маънавият дегани – халққа, Ватанга чин юракдан хизмат қилиш деганидир”[4].

Таҷриба шуни кўрсатмоқдаки, қаерда низомий тартибга етарлича эътибор берилмаса, қаерда низомий ўзаро муносабатларга аниқ риоя қилинмаса, қаерда тарбиявий ишларда расмиятчилик ва бир қолипдаги андазалар элементи тугатилмаган бўлса, унда интизом бузилишлари кўп

кузатилади. Талабчанлик шахсий таркиб томонидан муҳим ахлоқий-сиёсий хислат сифатида қаралади. Зийрак офицер интизомли, кўпчилик ичида ўзини намоён этган аскарларга безътибор бўлмай, уларни рағбатлантиришнинг усули ва имкониятини топади.

Бугунги кунда ахборотлашган дунёнинг мустақил давлатлар аҳолисига тақдим этаётган ахборотларни барчасини ҳам, обектив, илмий асосга эга деб бўлмайди. Бу ўз навбатида сиёсий воқеиликни ёритишга қаратилган ахборотларга ҳам таалуклидир. Ҳолислик билан айтганда бугунги кунда тарқатилаётган мазкур ахборотларнинг аксариятида муайян бир шахс, ижтимоий гуруҳ, ёки давлатнинг манфаати устувор қўйилмоқда. Албатта, улар мазкур ахборотларда ўз мақсадларини очик баён этмасдан, бу ахборотларни ғоявий ниқоблаган ҳолда, турли мафкуравий усул ва воситаларни қўллаш орқали фуқаролар сиёсий онгига таъсир кўрсатишга уринмоқдалар.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида айтадиган бўлсак, ҳуқуқий демократик давлат барпо этиш ва халқимиз учун муносиб турмуш тарзини яратиш олий мақсадимиздир. Бу мақсадларга эришишимиз, нафақат ҳарбийларимизга, балки барча ёшларимизга, уларнинг маънавий-ахлоқий ва маърифий тарбиясига бевосита боғлиқ. Шундай экан, ўсиб келаётган авлодни тарбиялашда халқимизнинг бой, миллий, маданий, тарихий анъаналарига, урф-одатларига ҳамда умумбашарий қадриятларга асосланган самарали ташкилий, замонавий педагогик шакл ва воситалар ишлаб чиқилиб, амалиётга жорий этилиши, шахсни тарбиялаш ва уни ҳар томонлама бағрикенг ва камол топтиришнинг устуворлигини таъминлаш, умумий ҳамда педагогик маданиятини ошириш, мамлакатимиз фуқаролари орасида маърифий ишларни такомиллаштириш асосий мақсадимиз бўлмоғи лозим.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES)

1. Турсунов Қ.М., Кўзибоев Ж., Ҳамидов А., Турсунов Й.Қ., Дин ва ҳурфикрлилик тарихи асослари. “Фарғона”, 2000. - 13-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. “Шундай ўлка доим бор бўлсин” // Унинг ўзи. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз.– Т.: “Ўзбекистон”, 2017.– Б.344.
3. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг умумҳарбий Низомлари.-Т.: Шарқ, 2007. –Б. 208.
4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи//

[http://uza.uz/oz/politiss/prezident-shavkat-mirziyevning-zbekiston-respublikasi - муста-31-08-2019](http://uza.uz/oz/politiss/prezident-shavkat-mirziyevning-zbekiston-respublikasi-musta-31-08-2019)

5. Аждодларимиз кўшинни бошқариш ҳақида, 2019. 4 бет

6. Маънавий камолот ва унинг инсон тарбиясидаги ўрни // Журнал оф критикал ревьюс [маилто: артисле_01@маил.ру](mailto:article_01@mail.ru), 2020. 6 бет.

7. Бўлажак офицерларни маънавий камолотини юксалтиришнинг ўзига хос жиҳатлари, 2020. 7 бет

DEKART VA PASKAL RATSIONAL G‘OYALARIDAGI O‘XSHASHLIK VA FARQ

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa va mantiq” kafedrası professori, falsafa fanlari
doktori**

gulnoz68@mail.ru

ruzmatovagulnoz1968@gmail.com

+998 90 345 71 80

Annotatsiya. Falsafiy fikr taraqqiyotida Rene Dekart va Blez Paskal ta’limotlari o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Fransuz madaniyatida Dekart bilan Paskal ikki qarama-qarshi qutb hisoblanib, ularning har biri bu madaniyat an‘analarini o‘zicha tasavvur qiladi. Bu faylasuflar bilishning umumiy usulini ishlab chiqish masalasiga katta ahamiyat berdilar. Ulardan biri matematik xulosa va isbot usullarini umumlashtirishga harakat qilsa, ikkinchisi tabiatshunoslikdagi empirik tekshirish usulini falsafaga tatbiq qilishga harakat qilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi davr Yevropa falsafasi, rasionallik, qalb, aksiomatik-deduktiv uslub, paskalcha induktivlik, “latif materiya”, bo‘shliq, karteziyancha ruh, “geometrik uslubi”.

Аннотация. Учения Рене Декарта и Блеза Паскаля занимают особое место в развитии философской мысли. Во французской культуре Декарт и Паскаль - два противоположных полюса, каждый из которых представляет свои собственные культурные традиции. Эти философы придавали большое значение вопросу разработки общего метода познания. Один пытался обобщить методы математического вывода и доказательства, в то время как другой пытался применить метод эмпирической проверки в естествознании к философии.

Ключевые слова: Европейская философия нового времени, рациональность, сердце, аксиоматически-дедуктивный стиль, индуктивность Паскаля, «тонкая материя», пространство, картезианский дух, «геометрический стиль».

KIRISH

Rene Dekart – fransuz faylasufi, analitik geometriyaning yaratuvchilaridan. Mexanikada u harakat va osoyishtalikning nisbiyligini ko‘rsatdi, ta’sir va aks

ta'sirning umumiy qonunini hamda ikki noelastik jismning urilishida harakatning to'la miqdori saqlanishi qonunini ifodalab berdi. Yangi davr Yevropa falsafasining asoschilaridan biri. Blez Paskal – ham fransuz matematigi, fizigi va faylasufi. Paskalning falsafiy qarashlari rasionalizm va skeptisizm o'rtasida ikkilanib yurar va dinning aqldan ustunligini e'tirof qilgan.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarini V.Kuzen [1], Ye.Droz [2], L.Shestov [3], L.Brenshig [4] o'rgandilar. L.Brenshig Dekart va Paskal o'rtasida antogonizmga urg'u beradi. Bu antogonizm nafaqat falsafa va dinga tegishli, balki ularning ilmiy qarashlariga ham taalluqlidir, deydi. Zamonaviy paskalshunos M.Legern Dekart xarakterini “qahramon”, Paskalni esa “fojivaviy” [5, 176], deb atagan. Lev Shestov masalaga juda chuqur kirib, Paskalni qadimiy faylasuf deb, Dekartni esa zamonaviy faylasuf deb ataydi [3, 2-4].

Lekin shunday tadqiqotchilar borki, ular paskalcha “qalb” tushunchasini rasionallashtirganlar. Xuddi shunday, E.Lefevr unda “aqlning eng yuksak shaklini ko'radi” [6, 167]. Boshqa muallif, V.Marsishevskiy shunday hisoblaydi, Paskal “qalb metaforasidan hissiyot qobiliyati sifatida foydalanadi, aql qobiliyati mulohaza yuritishdan iborat”, “qalb hissiyoti bu “o'z-o'zidan ma'lum intellektuallikdir”” [7, 158]. Mistisizmdan xalos qilib, “qalb” tushunchasini cheksiz rasionallashtirib, Paskal falsafasida karteziyancha ruhni topib, Marsishevskiy uni, hattoki, “Dekart, Leybnis va Spinozadek buyuk rasionalistlar qatoriga qo'shadi” [7, 155].

Paskalda muayyan darajada metodlar dialektikasini kuzatish mumkin. Ana shu faktga yana bir tadqiqotchi R.Taton diqqatini qaratadi, aynan: “Paskalning hamma mulohazalari, qaysi fan sohasida bo'lmasin, uning shu soha ustida ish olib borgandan so'nggina paydo bo'ladi. U nazariyotchining qaysidir bilim sohasidagi abstrakt mulohazalarining natijasi emas. ... Shu xususiyat Paskalni o'sha davr faylasuf-olimlaridan farqlab turar edi. Dekart esa amaliyotchi bo'lmagan sohada, refleksiya yo'l qo'yar edi” [8, 131-132].

Tadqiqotchi L.I.Filippovning, “Paskalning ilmiy metodlari dekartcha metodlarga diametral qarama-qarshi, F.Bekoning induktiv metodlariga yaqin” [9, 138], - degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Nazariy metodologiya sohasida Paskal Dekart an'anasini davom ettiradi, unga qarshi turmaydi. Agar real bilish jarayonida Dekart o'zining metodologiyasi va falsafasiga ko'ra, hissiyot, tajriba, eksperiment, induksiyaning ahamiyatini yuqori ko'targanligini tan olsak, unda ular o'rtasidagi masofa yanada yaqinlashganligini kuzatishimiz mumkin. Lekin nazariy bilimlarida Dekart eksperimentning rolini kamsitmaydi.

Paskal o'zining "universal qoidasi"da aksiomatik-deduktiv uslubni qo'llaydi. Matematikada aql deduksiyasidan tashqari, makoniy kuzatuv, "qalbiy" intuisiya va induksiyani ham qo'llash mumkin. Paskal metodologiyasining ana shu o'ziga xosligini AQShlik tadqiqotchi X.Davidson "plyuralistik metodologiya" deb ataydi. "Metodologiya masalaning yechimi va predmetga qarab, almashtirib turiladi. Paskal idealist faylasuf emas. Tushunchalar va metod texnikasi narsa va hodisalar, ularning xususiyatlari ustidan hukmronlik qilmaydi" [10, 19].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aslida Dekartning rasionalizm, deduktiv metodologiya, gnoseologik ko'tarinkilik, o'ziga xos "antiekzistensial" yo'nalishdagi falsafasi Paskalning yorqin ifodalangan "ekzistensial" dunyoqarashi, mistiklik, induktiv metodologiya va skeptisizmga qarshi qo'yiladi. L.Brenshig Dekart va Paskal o'rtasida antogonizmga urg'u beradi. Bu antogonizm nafaqat falsafa va dinga tegishli, balki ularning ilmiy qarashlariga ham taalluqlidir, ya'ni "Paskal Dekart tuzgan ilmiy modelni butunlay buzib tashlashga harakat qilgan" [4, 158], - deb aytadi. Bunday farq nazariy "kontrast" ularning xarakteriga ham xosdir. Agar Dekart xotirjam, haqiqatni bamaylixotir izlovchi, o'z maqsadini aniq belgilagan va sobitqadamlik bilan uni amalga oshiruvchi, daho, fan va falsafadagi o'z o'rnini aniq biluvchi, nihoyat, ehtiyotkor, sovuqqon inson, stoiklar singari shaxsiy va ijtimoiy hayot fojiiyalarini kuzatuvchi bo'lsa, Paskal – fig'on qiluvchi, abadiy ikkilanuvchi, haqiqatni "entikib" izlovchi, qahramon va fan fidoiysi, bir vaqtning o'zida fandagi, insoniyat hayotidagi, madaniyatdagi nomukammallikdan junbushga keluvchi, ochiq g'oyaviy kurashdan tab tortmaydigan (masalan iezuittlar bilan g'oyaviy kurash), o'tkir aql va qaynoq qalb egasidir. Zamonaviy paskalshunos M.Legern Dekart xarakterini "qahramon", Paskalni esa "fojiiyaviy" [5, 176], deb atagan.

Lev Shestov masalaga juda chuqur kirib, Paskalni qadimiy faylasuf deb, Dekartni esa zamonaviy faylasuf deb ataydi: "Yulian singari Paskal davrni butunlay chappasiga aylantirib yuborishni xohlaydi, zero u Renessans davrida insoniyat erishgan hamma narsadan voz kechishni talab qiladi. Hammasi yangilandi, aynan shunda uning tarixiy taqdiri namoyon bo'ldi. Lekin Paskal yangilikdan qo'rqdi ... Tarix bundaylarga shavqat qilmaydi. Paskal emas, balki Dekart Yangi davr falsafasining otasi hisoblanadi ... Tarixning qarori shu: Paskal bilan g'ururlanadilar,

Dekartning ketidan ergashadilar. Bu hukm mulohazaga o‘rin qoldirmaydi” [3, 2-4]. Albatta, bunday g‘ayrioddiy hukm Paskalning Yevropa falsafasidagi o‘rnini buzib ko‘rsatadi, uning falsafasi ko‘p ma‘noli va ziddiyatli bo‘lgan. L.Shestov nazarda tutgan fikr Paskalning diniy ta‘limotiga tegishli bo‘lib, uning diniy qarashlari ilk xristianlikdagi Avgustin ta‘limotiga hamohang bo‘lgan. Fan va falsafa sohasida mutafakkir nafaqat o‘zining davri bilan hamqadam bo‘lmay, balki o‘z davridan 200-300 yilga o‘tib ketib, hozirgi davrga yaqinlashgan [11, 16].

Dekart bilan Paskalni qarama-qarshi qo‘yishga oshiqib, yuqoridagi tadqiqotchilar, ularning pozisiyalarini buzib ko‘rsatadilar. Paskalning skeptisizmi, induktivizmi yoki mistisizmini mutlaqlashtirib qo‘yadilar. Aslida Paskalning dunyoqarashi keng qamrovli bo‘lgan.

Jumladan, bunda Paskalning Dekart falsafasiga tanqidiy va salbiy munosabati bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Lekin ularning sxolastik falsafaga qarshi umumiy munosabati soyada qoladi. Xuddi shunday Dekartning Paskalga g‘oyaviy ta‘siriga ham e‘tibor berilmaydi. Bir narsaga jiddiy e‘tibor qaratishimizga to‘g‘ri keladi, Paskal nafaqat Dekartning ba‘zi bir g‘oyalarini o‘zlashtiradi, balki buyuk rasionalistning bir yoqlama ta‘limotlarini to‘g‘rilab ketadi.

1647 yilda Paskal Dekart bilan uchrashadi. Unga qadar Paskal Dekartning “Metod haqida mulohazalar”, “Metafizik mulohazalar” va “Falsafa asoslari” nomli asarlari bilan tanishib chiqqan edi. Xuddi shunday “Yozishmalar”ini ham o‘qib chiqadi. Dekartning bu asari 1657 yilda Klersele tomonidan nashr qilingan edi. Paskal avvalam bor, Dekartning “latif materiya” (*matiere subtile*) haqidagi gipotezasiga e‘tiroz bildiradi. Unga ko‘ra latif materiya bo‘shliqni to‘ldiradi, xuddi shunday trubkadagi simobgacha bo‘lgan bo‘shliq “torichelli bo‘shlig‘i”ni Paskal bilan bo‘lgan suhbatda Dekart ma‘qullagan edi. Yosh olim katta nufuzga qarshi hech nima demaydi, lekin faylasuf olim iezuit ruhoniy Noelga qarshi e‘tiroz bildiradi (Noel La-Flesh kollejida Dekartning o‘qituvchisi edi). Noel Paskalni inkor qilish uchun Dekartning tabiatda bo‘shliqning yo‘qligi haqidagi gipotezasidan foydalanadi. Jumladan, Noel “*horror vacui*” nomli sxolastik aqidaga tayangan. Dekart esa bu aqidani eskirib qolgani uchun inkor qilmagan. Faylasuf ko‘lamni moddiy substansiyaning atributi sifatida tushunadi va uni faqat geometrik makon deb talqin qiladi. Ko‘lam barcha tanalarning, shu jumladan, umuman materiyaning ham “ichki joyi”dir, materiyaning ajralmagan holda mavjud. Xuddi shunday uning fizikasida materiyaning qarshi turgan mutlaq bo‘sh makon tushunchasi butunlay yo‘qoldi: “Faylasuflar tushunadigan bo‘sh makon so‘ziga kelsak (ya‘ni hech qanday substansiya yo‘q makon), shu narsa ayon bo‘ladiki, dunyoda makon yo‘q, chunki

ichki joy sifatidagi makon tana ko‘lamidan farq qilmaydi” [12, 473]. Nisbiy bo‘shliq bu shunday makonki, “unda biz o‘ylagandek, bo‘lishi kerak bo‘lgan narsa yo‘q”, masalan, suvi yo‘q idish, balig‘i yo‘q ko‘l, yuki yo‘q korabl va h.k. Buni u tan olgan [12, 473].

Dekart materiya va makonni shunday tushunchasidan “latif materiya” gipotezasi kelib chiqadi. “Latif materiya” butun borliqni to‘ldiradi, narsalar orasidagi o‘rinlarni ham. Shuning uchun ham sxolastik metafizika doimo qo‘llashga uringan “hech qanday sirli kuchlar uchun ham”, bo‘shliq uchun ham joy qolmaydi. Dekart shu yo‘l bilan tabiat hodisalarini (magnetizm, tortilish, issiqlik va h.k.) tushuntirishga harakat qilgan. Dekart fizikasi materiya va mexanik harakat tamoyillaridan kelib chiqib, sxolastikaga qarshi bo‘lgan, lekin eksperimental dalillarning yetishmasligi, uni har bir bosqichini aqliy-mulohazali qilib qo‘yadi. Aynan shu jihat Paskalni e‘tiroziga olib keladi. Paskalning g‘oyalari konkret-aniq yo‘nalishda bo‘ladi. Noelga yozgan xatida “ko‘rinmaydigan, eshitilmaydigan, hech qanday hislar bilan sezilmaydigan materiya” va hech qanday ilmiy eksperiment bilan tasdiqlanmagan gipotezani Paskal inkor qiladi: “Agar shunday asoslashga tayanadigan bo‘lsak, unda eng katta murakkabliklarni ham jo‘n yechish mumkin. Shunda dengizlarning toshqinini ham, magnitning tortilishini ham osongina tushuntirish mumkin, materiya shunday tuzilgan deb” [13, 202]. Tabiat hodisalarini tadqiq qilganida Paskal dalillar, tajribalar va eksperimentlarni ma‘qul topadi. Shuning uchun ham uning tabiat haqidagi tasavvurlari aniq-lo‘nda ko‘rinishga ega. Dekartning mavhum aqliy tuzilmalaridan farq qiladi. Manjoning guvohligiga ko‘ra, “Paskal karteziyancha falsafani xuddi Don–Kixot romanidek, tabiat haqidagi roman deb atagan” [13, 641].

Vakuum bilan o‘tkazilgan eksperimentlardan muvafaqiyatli natijalarga erishgan Paskal o‘z xulosalarida qat‘iy va sobitqadam, umumfalsafiy ma‘noda juda ehtiyotkor edi. Albatta, “torichelli bo‘shlig‘ini” u mutlaq deb olmaydi, uni shartli deb biladi, ya‘ni bu bo‘shliq havo bosimi ostida paydo bo‘ladi. Paskal uni “ko‘rinadigan bo‘shliq” (*vida apparent*) deb atab, “u tabiatda ilgari noma‘lum bo‘lgan yoki hissiy qabul qilinadigan materiya bilan to‘lmagan “bo‘sh makon”” [13, 202] sifatida aniqlaydi. Qachonki, davom etadi Paskal: “ana shu “ko‘rinadigan bo‘shliq” qandaydir materiya bilan to‘lmas ekan, u haqiqiy yoki mavjud bo‘shliq bo‘lib qolaveradi” [13, 641]. Paskalning ana shu xulosalariga Dekartning kinoyali munosabatini adolatli deb bo‘lmaydi: “Ana shu kitobni yozgan o‘spirinning boshida bo‘shliq ko‘p va juda xovliqyapti. Menimcha, undan kattaroq kitobda ham uning asoslari yetarli darajada ishonchli bo‘lmaydi” [14, 376]. Lekin ikki mutafakkir ham o‘zicha haq edi: Dekart - makonda mutlaq bo‘shliqni inkor etgan faylasuf sifatida, Paskal esa – havo bosimi

ostida paydo bo‘ladigan bo‘shliqning tabiiy-ilmiy asosini tan oluvchi olim sifatida. Dekart yosh olimni iqtidorini tan olgisi kelmadi. 16 yoshli o‘spirinni “Kanonik kesishmalar haqida tajriba” muallifi ekanligini shubha ostiga oladi. Bu g‘oya Paskalning otasiga tegishli, deb o‘ylaydi. Analitik geometriya asoschisi proektiv geometriyani mulohazaviy yo‘l bilan rivojlantirish istiqbollarini tan olmadi, xuddi shunday Paskal ham analitik geometriyani kelajagi yo‘q, deb o‘yladi. Paskal Dekart tomonidan ishlab chiqilgan matematikaning analitik yo‘nalishiga yetarlicha baho bermaganligi, tadqiqotda keng qo‘llanilgan algebraik usullarni qabul qilmaganligi, harfli timsollardan voz kechganligi keyingi chuqur tadqiqotlariga zarar keltirdi. Cheksiz zarralarni hisoblash sohasida, differensial va integral hisoblashning haqiqiy ijodkori bo‘lishda, aynan shu umumlashtirish Paskalga yetishmadi. Lekin matematik analiz tarixida Paskal Nyuton va Leybnisdan avval turadi.

Pyui-de-Dom tog‘ida Paskalning g‘oyasi bo‘yicha “suyuqlik muvozanati eksperimenti” o‘tkaziladi. Bu tajribaga ko‘ra, vakuumda havo bosimi ostida bo‘shliq paydo bo‘ladi. Dekart ana shu g‘oyani Paskalga berganligi haqida davo qiladi. Bu bahsning bayonnomasi bo‘lmaganligi uchun kim haqligini uzil-kesil aytib bo‘lmaydi. Paskal esa bu munozarani javobsiz qoldiradi. Lekin Dekart bo‘shliq haqidagi g‘oyani eksperiment yo‘li bilan ham, nazariy yo‘l bilan ham amalga oshirmadi, unga ahamiyat bermadi. Aynan buni Paskal ijodiy o‘ziga xoslik bilan, eksperiment texnikasida topqirlik bilan ro‘yobga chiqardi. Shuning uchun ham tarix bu g‘oyaga mualliflikni adolatli tarzda Paskalda qoldirdi. “Latif materiya” gipotezasi Paskalning isbotiga ko‘ra, ortiqcha bo‘ldi.

Yuqoridagilarning hammasi bir oqimga tegishli Yangi davrning ikki buyuk olimi o‘rtasidagi munozara edi. Ularning ikkisi ham nufuzlarga ko‘r-ko‘rona ergashishga qarshi chiqdi va erkin ilmiy taraqqiyot uchun kurashdi, ular insonning “sog‘lom nurli tafakkur”iga, tajribaga, eksperimentga katta urg‘u berdi. Zero, Dekart va Paskal konkret-ilmiy sohada turli yo‘nalishdan ketgan bo‘lsa ham, xususiy masalalarni hal qilishda bir-biriga qarshi bo‘lsa ham – fanda ularni bir-biriga dushman deb bo‘lmaydi. Ilmiy metodologiya sohasida, ilmiy bilim tamoyillarini tushunishda ular opponent emas, balki hamfikir bo‘lganlar. Bizning fikrimizga ko‘ra, ularni qarama-qarshi qo‘ygan mualliflar nohaq. Paskalcha induktivlik va dekartcha deduktivlik bir hodisaning ikki tomonidir. Inchunun, Paskalga Dekart ta’limoti ta’sir ko‘rsatgani aniq dalildir.

Noel bilan munozarasida Paskal haqiqatni ilmiy tadqiq etishning “yagona qoidasini” shakllantiradi. Birinchidan, “tasavvur yoki tafakkurning bilish darjasida aniq va lo‘nda tasavvur hosil qiladigan narsa yo hodisani qabul qilish” va ishonchli

dalillarni belgilash, ya'ni hech qanday shubha uyg'otmaydigan holatlarni, "aksioma yoki tamoyillarni, masalan, ikki teng narsaga, teng yarimdan qo'shsak, teng narsa hosil bo'ladi..." [13, 201]. Ikkinchidan, aksiomadan mutlaq zaruriy natijani keltirib chiqarish, uning haqiqatligi aksiomaning haqiqiyligidan kelib chiqsin. Bu ikkilangan qoida, Paskalning ta'kidiga ko'ra, har qanday "hayolotdan, ko'rinishdan, injiqlikdan" ehtiyot qiladi, bunday hodisalarga fanda o'rin yo'q. Ana shu karteziyancha tamoyillarni Paskal keyinchalik o'zining "Geometrik tafakkur va ishontirish san'ati" nomli metodologik risolasida ijodiy rivojlantiradi. Bu asar Por-Royalda "Mantiq yoxud fikrlash san'ati" asari uchun tayyorgarlik rolini o'ynaydi.

Ushbu asarda Paskal Dekart singari matematik bilimlarning qat'iyiligidan va apodiktivligidan hayratga tushadi, bu uning quyidagi aforizmida shunday ifodalanadi: "Geometriyadan yuqori narsa, bizdan ham yuqoridir" [13, 349]. "Mukammal ilmiy uslub" g'oyasini ilgari surib Paskal, uni amalga oshirishni ilmiy bilim tuzilishini aksiomatik-deduktiv usuli bilan bog'laydi, bu matematikada keng qo'llaniladi. Agar Dekart o'zining uslubini evristik deb atagan bo'lsa, Paskal evristikani haqiqatni isbot qilish mantig'idan ajratadi. Haqiqatni ochishga emas, balki uni isbot qilish va yolg'ondan ajratishga urg'u beradi. Shu nuqtai nazardan "mukammal uslub" mazmuni quyidagicha ifodalanadi: "hamma terminlarni aniqlash, hamma holatni isbotlash" va "hamma holatni muayyan tartibda joylashtirib chiqish" [13, 348-349]. Lekin bu talabni cheksiz regress tufayli amalga oshirib bo'lmaydi. Noma'lum "birlamchi terminlar"ni doimiy sharhlash hamda isbot talab qilmaydigan aksiomalar zarurati paydo bo'laveradi. Paskal o'z uslubining oltita qoidasini ilgari suradi, ularni "geometrik" deb ataydi.

Difinisiyalar uchun: 1) Hammaga ma'lum terminlarni aniqlamaslik. 2) Difinisiyasiz ikki xil mazmuni bor va noma'lum terminlar kiritmaslik. 3) Difinisiyalarda har doim ma'lum yoki tushunarli bo'lgan terminlarni qo'llash.

Aksiomalar uchun: 1) Ular qanchalik aniq yaqqol bo'lsa ham, tadqiqsiz hech qanday zaruriy tamoyillarni qo'llamaslik. 2) Aksiomalarda yetarli darajada aniq bo'lgan holatlarni belgilash.

Isbot uchun: 1) O'z-o'zidan yaqqol bo'lgan holatlarni isbotlamaslik. 2) O'zidan ma'lum bo'lgan yoki ilgari isbotlangan mulohazalar orqali hamma holatlarni isbotlash. 3) Isbotlash jarayonida ikki xil mazmunli terminlarni qo'llamaslik, anqlovchini aniqlanayotganlik bilan o'rnini almashtirib yubormaslik [13, 356-357]. Ana shu qoidalar aqliy uslub ishlanmasiga, Por-Royal "Mantiq ..."i ilmiy bilimlarining "kompozisiya metodi"ga kirdi. Bu uslub karteziyancha analitik uslubdan

yoki “masalani yechuvchi, kashf qiluvchi uslub”dan farq qiladi. Por-Royal mantiqshunoslari olimlarning evristik intuisiyalariga katta ahamiyat beradilar.

Shunday qilib, Paskal Dekartning metodologiyasini unga tayangan holda rivojlantiradi. Nazariy bilim strukturasi intuisiya va deduksiyaning ahamiyatini tan olgan holda, Paskal intuisiyani Dekartga qaraganda boshqacha talqin qiladi. Buyuk rasionalist uchun “haqlik hissiyotga emas, faqat aqlga tegishli, shunda u narsalarni aniq-tiniq ko‘radi”, shuning uchun ham intuisiya ham, deduksiya ham faqat intellektual bo‘ladi.

Dekartga nisbatan Paskal “tabiiy nur” sohasini kengaytiradi. Unga “bilish darajasiga qarab” faqat aqldan tashqari, tashqi tuyg‘u intuisiyasini hamda ichki hissiyot – “qalb”ni qo‘shadi. Aqlning vazifasi aniq ta’riflar va qat’iy, ketma-ket bir-biriga bog‘langan, mantiqiy isbotdan iborat, lekin u shu bilan cheklanadi. Shunda aql his-tuyg‘u, “qalb”ning zarurligini tan olishi kerak.

Dekartdan farqli ravishda Paskal tashqi hissiyot darajasida bilimning “yaxlitligi va yaqqolligini” tan oladi. “Hissiy qabul qilish” o‘z-o‘zidan doimo haq bo‘ladi.

Agar “dastlabki tushuncha va aksiomalar” orqali matematik predmetlarni bilish intuisiyadan boshlansa, tabiat hodisalarini bilish hissiy qabul qilish tajribasidan boshlanadi. Ular ko‘rgazmali haqiqat bo‘ladi.

Matematikada “dastlabki tamoyillarning” (bular makon, zamon, harakat, son va boshqalar) “tana a’zosi” intuisiyasi, Paskalning tasdig‘iga ko‘ra, inson “qalb”i hisoblanadi. U bizning eng chuqur hissiy tabiatimizdir yoxud “bilish instinktimiz”dir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buyuk mutafakkirlar Rene Dekart va Blez Paskal murakkab va ziddiyatli zamonda yashaganlar. Ularning yuksak yorqin parvozi qorong‘u sxolastika samosida yorqin yulduzdek porladi. Ularning asosiy diqqatlari inson bilimiga qaratildi.

Dekart ta’limoticha, haqiqiy bilishning asosi va mezoni faqat soddalik, aniq va ravshanlikdir. Bundan ko‘rinadiki, Dekart fikricha, u faqat intellektga xosdir, ya’ni bevosita mulohazaga xosdir. Ilmiy tekshirishning boshlang‘ich bosqichi bo‘lib o‘z-o‘zidan ravshan qoidalar bo‘lishiga yana o‘sha geometrik aksiomalar misol bo‘ladi.

Dekartning fikricha, yaxshi aqlga ega bo‘lishning o‘zi kifoya emas, balki uni to‘g‘ri qo‘llay olish muhimdir. Dekart ta’limoticha, hamma odamlarda aqliy tafakkur qobiliyati bir xil. Insondagi intellektual daraja o‘rtasidagi farq esa, uslubiy fikrga bog‘liqdir. Umuman, Dekart ilmiy uslubining asosiy qoidalari shundan iborat.

Haqiqatni mutlaqlik va nisbiylik dialektikasini ko‘rib, unga erishishda insoniy bilimning nomukammalligiga Paskal xuddi Dekart singari katta urg‘u beradi. Lekin ikki mutafakkir ham haqiqiy bilimga ega bo‘lish mumkinligiga ishonganlar. Shu

yerda Dekart haqiqatga erishishni faqat va faqat aqlga, intuisiyaga, diskursivlikka bogʻlagan boʻlsa, Paskal uni aqldan tashqari hissiyotga, “qalbgʻa” bogʻlagan.

Paskal Dekart tufayli falsafaga yaqinlashdi, bu birinchidan. Ikkinchidan, undan “fikrlash tamoyilini oʻzlashtirdi” va ijodiy rivojlantirdi. Uchinchidan, uning aksiomatik-deduktiv uslubini yuqori baholadi va oʻzining “geometrik uslubini” ishlab chiqdi.

Paskal dunyoni fojyaviy qabul qilishi bilan, Dekartning aqlni, ilmni va bilimni buyuk qudratiga ishonuvchan koʻtarinki ruhiyatini qabul qila olmaydi. Albatta, olim ularning hayotdagi ahamiyatini inkor qilmaydi, oʻzi ham ular uchun mehnat qiladi. Lekin gʻamginlik bilan shuni taʼkidlaydiki, “hayotdan ajralgan fanlar” muvafaqqiyati insonlarni baxtli qila olmadi, teng barobar tarzda uning oʻzini ham.

“Mavhum fanlar”insoniy muammolarga befarq, inson haqidagi fan esa hali rivojlanmagan va kuchsiz. Faylasuflar oʻz tomonlaridan bir-biriga zid fikrlarni aytadilar, har bir masala boʻyicha yuzlab qarorlarni qabul qiladilar.

Paskalning dahoviy timsoli nur va fikr bilan yoʻgʻrilgan, lekin unda soyalar ham uchrab turadi. Uning taqdirida juda koʻp anglashilmovchilik va oʻtkir ziddiyat mavjud, bunda Paskalning emas, davrning qoʻli bor. Uni muhokama qilish kerak emas, balki tushunish zarur – bu bizning muqaddas burchimizdir.

Va-nihoyat, Paskalning ijodi biz uchun yana bir qirrasini bilan qimmatli, u shunday mutafakkirlar toifasiga kiradiki (Monten, Gobbs, Kant va b.) urushga qatʼiy qarshi boʻladi. Urushni yovvoyilik va vahshiylik deb hisoblaydi. Paskalning hisobiga koʻra, “tinchlik eng ezgu qadriyatdir”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

- [1] Cousin V. Etudes sur Pascal. – P., 1857.
- [2] Droz E. Etudes sur le scepticisme de Pascal. – P., 1886.
- [3] Chestov L. La nuit de Gethsemani. – P., 1923.
- [4] Bruschi L. Descartes et Pascal. Lecteurs de Montaigne. – N.-Y., – P., 1944.
- [5] Le Guern M. Pascal et Descartes. – P. 1971.
- [6] Lefebvre E. Pascal. – P., 1925.
- [7] Marciszewski W. A Rationalistic Interpretation of “Reasons of the Heart”: A Study in Pascal // In: “Dialectics and Humanism”, Vol. VII, № 4, Autumn 1980.
- [8] Methode ches Pascal. – Paris, 1963.

- [9] Филиппов Л.И. Паскаль // В кн. “История диалектики XIV-XVIII вв.” – М., 1974.
- [10] Davidson H. Le pluralisme methodologique chez Pascal. –P., 1979 // “Actes du Colloque tenu a Clermont-Ferrand 10-13 juin 1976”.
- [11] Стрельцова Г.Я. Блез Паскаль. – М.: МЫСЛЬ, 1979.
- [12] Декарт Р. Избранные произведения. – М.: МЫСЛЬ, 1950.
- [13] Pascal B. Oeuvres completes. – P., Ed. Seuil, 1963.
- [14] Descartes. Correspondence (par Ch. Adam et Michaud). – Т. 7. – P., 1960.
- [15] Ruzmatova G. Eastern melodies in the text of Plato // International Journal of Recent Technology and Engineering. Vol. 8, Issue-2S6, July, (2019). –P. 444-448. IJRTE. ISSN: 2277-3878.
- [16] Ruzmatova G. Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020. ISSN: 1475-7192. –P. 3215-3227.

AFLOTUN QARASHLARIDA ERKINLIK TUSHUNCHASINING TASNIFI

Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti
ruzmatova.dilnavoz@gmail.com
+998 90 805 71 80

Annotatsiya. Maqolada antik davr faylasuflaridan biri Aflotunning erkinlik tushunchasi haqidagi tasavvurlari o‘rganilgan. Qadimgi yunon jamiyatidagi erkinlik dinamikasi ko‘rib chiqilgan. Erkinlikning qonun va davlat bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Erkinlikning salbiy holatlari talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: erkinlik, davlat, qonun, tobelik, jamiyat, ideal jamiyat va davlat, tiraniya, aristokratiya, xalq, adolat.

Аннотация. В статье исследуются идеи одного из античных философов Платона о концепции свободы. Рассмотрена динамика свободы в древнегреческом обществе. Показано, что свобода связана с законом и государством. Интерпретируются негативные аспекты свободы.

Ключевые слова: свобода, государство, закон, подчинение, общество, идеальное общество и государство, тирания, аристократия, люди, справедливость.

KIRISH

Falsafa tarixini o‘rganish falsafaning ijtimoiy ong shakllari o‘rtasidagi o‘rnini aniqlash va u jamiyat moddiy hayotining ijtimoiy amaliyotga bog‘liqligi, nisbiy mustaqilligi, shuningdek, ichki taraqqiyotida, ichki mantiqqa egaligini aniqlashni taqozo etadi. O‘tmish falsafiy ta‘limotlar tarixi bosib o‘tilgan bosqich sifatida qaralib, uni o‘rganish hozirgi davrda katta ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, buyuk mutafakkirlarning falsafiy qarashlarini o‘rganish doimo dolzarb masala bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham ijtimoiy bilimlar sohasida ijod qiluvchi olimlarimiz falsafiy merosini, g‘arbu-sharq olimu-fuzalolari yaratib ketgan babaho ma‘naviy qadriyatlarni o‘rganish ishiga asosiy e‘tiborni kuchaytirmoqdalar. Buning uchun esa hozirgi falsafiy qarash durdonalari bilan qurollanishimiz kerak. «Dunyo tan olgan ko‘p ulug‘ faylasuflarning asarlari hanuzgacha o‘zbek tilida nashr etilmaganligi tufayli aksariyat ziyolilar, xususan yoshlarimiz ularning g‘oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Sokrat va Platon, Nishe va Freyd kabi olimlarning, hozirgi zamon chet

el faylasuflarining kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan o‘zbek tilida chop etish nahotki mumkin bo‘lmasa? ... Mana, misol uchun Freyding nazariy qarashlari, pragmatizm va ekzistensializm g‘oyalari, Berdyaev va boshqalarning falsafasini o‘rgansak, foydadan xoli bo‘lmaydi... Biz ko‘p masalalarda g‘arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualizm, egoizm qarashlarini ilohiylashtirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni hisobga olishimiz, keraklisini e‘tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur” [29]. Mana shundagina falsafiy fikrlar taraqqiyotiga, diyorimizda yaratilgan tafakkur taraqqiyotiga, hozirgi zamon falsafasining asosiy muammolariga to‘g‘ri va xolisona baho bera olamiz. Shuning uchun ham falsafa muammolarini, falsafiy merosni tadqiq qilish doimo kun tartibida turuvchi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolaveradi.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Antik davr falsafasining yirik namoyandasi, yunon faylasufi Aflotunning ijodi falsafiy, ijtimoiy, tarixiy adabiyotlarda, jumladan, falsafa tarixida ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan o‘ziga xos uslubda, o‘z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to‘liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Shuningdek, Aflotunning ijodini har tomonlama yorituvchi A.F.Losev [4], G.V.Drach [1], V.S.Solovev [20], L.I.Shestov [25], Ye.Bravn [26], G.Murray [28] va boshqa tadqiqotchilar ishlarini, risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Antik sotsiumni tarixiy dinamika jrayonida erkinlik haqidagi tasavvurlar kundalik ongdagi doimiylik darajasida ham, huquqlar tizimida hamda falsafiy ta’limotlarda birlashtirilgan nazariy darajada ham ma’lum bir o‘zgarishlarga duchor bo‘lgan. Aynan antik falsafada inson erkinligi va huquqlari o‘rtasidagi prinsipial o‘zaro aloqadorligi, ushbu tushunchaning normativ va regulyativ xarakteri ko‘rsatib berilgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘z ustozlari Suqrot dan farq qilgan holda Aflotun Afinaning demokratik tuzumidan, shu bilan birga, yunon polisi o‘z fuqarolariga taklif qilgan huquq va erkinliklar sohasidan havsalasi pir bo‘lgan. Hamda ushbu

sharoitda Suqrot o'limidan so'ng Aflotun Yunonistonning boshqa shaharlaridan tubdan farq qilgan Spartaga o'z e'tiborini qaratadi.

Sparta tashqi siyosati harbiy faoliyat bo'lgan ustuvorlikdan biri sifatidagi polisni o'zida namoyon etardi. Inson erkinligi hayotining ilk daqiqalaridanoq chegaralanar edi: oqsoqollar kengashi yangi tug'ilgan chaqaloqni yashash yoki o'lishini aniqlab berardilar. Oilada tarbiya topish muddati o'g'il bolalarda ham, qizlarda ham faqat yetti yoshgacha etib belgilangan. Yetti yoshdan keyin ular harbiy san't to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishlari uchun maxsus qo'shinlarga – "agela"larga yuborilardi. Lekin Spartada boshqa polislardan farqli tomoni ayollarning o'rni tan olinardi. Spartalik ayollar qizlik paytlaridanoq yigitlar bilan bir qatorda harbiy saboqlarni o'zlashtirar edilar. Balog'at yoshida esa shahar hayotida faol faoliyat olib borardilar.

Plutarx Spartada shakllangan ijtimoiy tizimni quyidagicha tasvirlagan: "Likurg... hamfuqarolarni boshqalardan alohida yashashni bilmaslik va istamaslikni o'rgatdi, aksincha, ular asalarilarga o'xshab har doim birga o'zlarining boshqaruvchilari atrofida yashashlari zarur edi..." [18, 116].

Shuning uchun ham Suqrotning o'limiga olib kelgan afinaliklar qo'zg'olonidan keyin Aflotun o'zining e'tiborini uning oldida ideal davlat ko'rinishida turgan: bosh ko'tarishlarsiz, tub burilishlarsiz hamda qo'zg'olonlarsiz bo'lgan Spartaga qaratganini hayron qolarli joyi yo'q. Aflotun o'zining "Davlat" nomli asarida inson erkinligining chegaralanishini ko'rsatadi, fuqarolarni esa uch turkumga bo'lishga qaror qiladi: soqchilar, jangchilar va oddiy insonlar. Yolg'on Aflotun bo'yicha hukumatning imtiyozli huquqi sanaladi. Faqat yolg'on tufayli fuqarolar tomonidan davlatning asosiy dogmati qabul qilinadi. Xudo insonlarni uch xil turdan bunyod etgan: "eng yaxshilari oltindan ishlangan, sal kamroq yaxshilari – kumushdan va oddiy xalq – mis va temirdan. Oltindan qilinganlari soqchi bo'lish uchun yaroqli, kumushdan ishlanganlari jangchilar bo'lishi kerak, qolganlar esa jismoniy mehnat bilan shug'ullanishlari zarur" [15, 629].

Aflotun "Davlat"da davlat boshqaruvchilarini – soqchilar, faylasuflar – o'sib borishiga katta e'tibor qaratadi. Aynan faylasuflar narsalarning asl mohiyatini anglashga qodirdirlar. Shu tufayli ham o'z diologiga "G'or" allegoriyasini kiritadi. G'or tasviriga muvofiq u faylasuflarni bilan o'z navbatida asir sanalgan oddiy odamlar farqini ochib beradi. Ular g'orning asirlari, chunki ular noreal narsalarni, ya'ni ularni soyalarini qabul qiladilar. Faqat faylasufgina g'or tutqunligidan qutilib, quyosh bilan ilk uchrashuvdagi achishtiruvchi og'riqni yengan holda, yorug'likka chiqishga qodir.

Shunday qilib, Aflotun bo'yicha faylasuf boshqa davlat vakillariga nisbatan ko'p darajada erkindir. Haqiqatga intilish bo'yicha erkindir hamda bu haqiqatni o'zining ham fuqarolariga yetkazish qobiliyatiga ega. Ammo shu bilan bir qatorda, "soqchiga aylanuvchi faylasuf g'orga qaytib kirishi hamda haqiqat quyoshini hech qachon ko'rmaganlar orasida yashashi kerak" [28, 114].

Eslatib o'tish zarurki, turli davrlar, diniy e'tiqodlar va mamlakatlarga tegishli insonlar uchun ulkan qadriyatlardan biri har doim erkinlik bo'lgan. Hozirgi davr bu g'oyani, ayniqsa, yuqori cho'qqiga ko'tardi. Ammmo erkinlik tushunchasini mazmunini tushuntirish turli madaniyatlarda bir biriga sezilarli darajada to'g'ri kelmasligini ko'rish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, uning bir biriga mos ma'nosini aniqlash uchun Aflotun zamirida erkinlik ma'nosini shakllanishini ko'rish foydadan holi emas. Turli sohalarga aflotuncha an'anani ta'siri ko'rinarli masshtablarga yetishdi. Bertran Rassel sotsial davlat (SSSR) unga Aflotun utopiyasini yodga solishini aytib o'tgan [22, 428].

Agar asosiy e'lon qilingan zamonaviy g'arbiy jamiyat tamoyili – individning hususiy erkinligi g'oyasi bo'lsa, unda Aflotun o'zining "Davlat"ida birinchi o'ringa adolat g'oyasini qo'yadi. Zamonaviy va aflotuncha erkinlik tushunchasini o'xshash va farqli ma'nolarini aniqlashga, uning Aflotun qo'llagan asosiy aloqalarini, shuningdek, mutafakkirning ijodiy davrlari davomida qarashlarining o'zgarishini ochib berishga harakat qilamiz. Erkinlikni keng qamrovli tushunilishi tufayli bu masalani yangicha ko'rish Aflotunda ijtimoiy-siyosiy sohadagi erkinlik va adolat dialektikasi sifatida taklif qilinadi.

Erkinlik tushunchasining talqinini turli yo'nalishlarda berish joiz. Yaqinda, oldingi mafkura qulashidan avval erkinlik tushunchasi asosan, "apofatik", ya'ni jamoaviylikka, jamoaviy-administrativ tizimga, mafkuraviy senzuraga va boshqalarga qarshi bo'lgan ko'rinishda talqin etilgan. Yangi falsafiy lug'atdagi talqin bo'yicha, erkinlik – "bu faoliyat imkoniyatini va tashqi belgilangan maqsad bo'lmagan sharoitlarda xulqini aniqlovchi sub'ekt qatorining madaniyat universalisasi sanaladi..." [6, 608].

VI.Solovev fikri bo'yicha, tanlov erkinligi – bu mantiqan xususiy borliq bilan umumolamiy borliqning, individual mavjudlik bilan universal mavjudlikning chin munosabati haqidagi savolga olib borish mumkin bo'lgan bahsli masala. "...Ruhiiy ezguliklar tabiatidan majburiy bo'lishi mumkin emas. Bu ezguliklar insonda ikkita: yaxshilik, ya'ni *bizning irodamizning o'z-o'zidan ichki joylashuvi* hamda chinlik (yoki huquqiylik), ya'ni *bizning aqlimiz bilan qanday bo'lsa shunday qaqiqatning*

ichki kelishuvi. Bu tasniflardan shuni tushunish mumkinki, erkinlik yoki nomajburiylik u yohud bu mavjudlikdagi ruhiy yoki ichki ezgulikka kiradi” [20, 455].

“Falsafiy lug‘at”da quyidagi ta‘rif berilgan: “Erkinlik va zaruriyat – inson faoliyati bilan tabiat va jamiyat ob‘ektiv qonunlarining o‘zaro munosabatini bildiruvchi falsafiy kategoriya sanaladi...” [24, 397].

Shunday qilib, antik davrda bir necha chegaralanishlar orqali erkinlik va taqdir tushunchalari mos keluvchi ko‘rinishidagi dialektik ikkilik vujudga keladi. Ko‘pincha G‘arb sivilizatsiyasining asosini tashkil qiluvchi g‘oyalar sifatida Aflotunning emas Arastuning g‘oyalarini olib qarashlarini hisobga olish kerak.

Aflotunning o‘zi erkinlik va tag‘dirga talqin bermagan. Ammo biz ularni Aflotun maktablaridan olishimiz mumkin. “Ta‘riflar”da o‘qiymiz: “412 d. Erkinlik – hayot ustidan hukmronlikdir; har narsada mustaqillik, o‘z holicha yashash imkoniyati; mulkdan foydalanishdagi va egalik qilishdagi sahiylik” [13, 615]. “411 b. Taqdir – mavhumlikdan mavhumlikkacha bo‘lgan yo‘l hamda qismat qilmishlarining o‘zboshimcha sababidir” [13, 617].

Aflotunda tushunchadan foydalanish aspektlari jismoniy, tibbiy va boshqa sohalarda uchraydi. Buni sababiy-jismoniy olamda aniq qatiy insoniy narsalarni qo‘shish deya hisoblash mumkin.

Arastu 10 ta kategoriyani ajratgan holda ular orasidan “egalik qilish” va “iztirob” kabilarni topadi. Chamasi, bu yerda ham olamni antropomorf ko‘rish haqida gap ketadi.

Xaydeggerning mashhur fikrlarining “tayanch nuqtasi”dan olamiz: “Til – borliqning uyi” va kategoriyalarni qidirish Arastuda til orqali sodir bo‘ladi. Agarda tushunchani mazmunini maksimal tarzda keng aniqlansa, unda uni nimanidir yoki kimnidir “o‘z xohishiga” ko‘ra, tashqi kuchlar ishtirokisiz yoki shu kuchlarni yengib o‘tishga harakat qilish imkoniyati sifatida sharhlash mumkin. Agar kuzatuvchining nuqtai nazari bo‘yicha ancha qadrli prinsip yoki kuchlar harakatlansa, unda vaziyat anchayin erkin baholanadi.

Endi ushbu mavzuni dunyoviy adabiyotlarda yoritishga e‘tiborimizni qaratamiz. Shuni ta‘kidlash kerakki, masalani ilk qo‘yilishidan boshlab, turli darajadagi nufuzlilarning baholashlarini qutbiy qarama-qarshiligiga uchrash mumkin. Jumladan, Karl Popper o‘zining “Ochiq jamiyat va uning dushmanlari” nomli asarida Aflotunni to‘g‘ridan-to‘g‘ri totalitarizmning mafkurachilaridan biri deya ataydi. Shunga o‘xshash bahoni aflotunchilik ta‘sir ko‘rsatgan uncha mashhur bo‘lmagan mualliflar ham beradilar.

Immanuil Kant esa, aksincha, Aflotun respublikasi "...qonunga muvofiq tarzda har bir inson erkinligi qolgan boshqalarniki bilan to'la mos ko'rinishidagi anchayin insoniy erkinlik..." [2, 285]ka asoslangan deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu davlat tizimini istalgan davlat konstitutsiyasini tuzishda asos qilib olish zarur.

Bizning nazarimizda qiziq bo'lgan bir necha fikrlarni keltirib o'tamiz. Gotfrid Vilgelm Leybnis yozadi: "Aflotunda eng ajib narsa... uning ruh o'z o'zini harakatga keltiruvchi substansiyadir... materiyaga qarama-qarshi bo'lgan faollikni boshlang'ichidir degan ta'kidi sanaladi..." [3, 192].

Fridrix Nisshe o'zining "Insoniy, haddan ortiq insoniy" asarida yunon faylasuflarini "ruh tiranlari" deb ataydi. Albatta, Aflotunni ham hisobga olgan holda uni "qari odatiy sotsialist" [5, 446] deb ataydi.

V.S.Solovev Aflotun o'zining ijodida Suqrotning erkin fikr quyidan pastga, inson ustidan total nazoratni oqlovchi "Qonunlar"ga tushib ketgan deb hisoblagan [21, 624].

Lev Shestov yozadi, Aflotun soyalar chindek tuyuladigan g'ordan chiqib ketishni istaydi hamda xudolar o'zlarining hech qanday chegaralanmagan erkinliklari bilan yashaydigan sohasiga erishishni xohlaydi [25, 379].

Ushbu mavzuga aloqador zamonaviy qarashlardan, Aflotunda erkinlik tasodif sifatida tasavvur qilinadi deganini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. "Fedr"da qalblar g'oyalar saltanatida yashagan holda "qandaydir tasodif" orqali jismga tushib qoladilar. Shu tarzda qalb ontologik jihatdan tasodif bilan taminlanadi [23, 65].

A.F.Losev "Majusiylarning "Taqdir"i mistik va mifologik jihatlar o'chirib qo'yilganda sababiyat haqidagi yangi Yevropa ta'limotiga aylanashidir" [4, 114] deb hisoblaydi. Uning fikricha, yunonlar tasodifni ajratib ko'rsatgan joyda uni xuddi shunday deb nomlagan, yangi olimlar qandaydir koinot "uyg'unligi"ni tirkab qo'yamoqdalar. Aflotunning taqdir va erkinlik to'g'risidagi fikrlari o'sha davr an'anaviy tasavvurlaridan farq qilmagan. Shunda savol tug'iladi: Aflotun ta'limoti – bu erkinlikmi yoki totalitarizm? Javob quyidagi tezisda yotadi: *Afinalik. Forslar, keragidan ortiq monarxiya boshlanqichini sevib qoldilar, afinaliklar esa – erkinlikni; shuning uchun ham na ularda va na bularda mo'tadillik yo'q* [13, 693].

Aflotun erkinlik haqida tizimli ta'limot qoldirmagan. Erkinlik tushunchasi tarixiy o'zgarib borardi hamda Aflotunda savollar ta'rifi uning falsafiy qarashlari kontekstini hisobga olmagan holatda to'g'ri emas. Qalb unda jism zindoniga tashlangan, shuning uchun bu yerda, mana shu dunyoda erkinlik yetarlicha muammolidir.

V.S.Solovevning Aflotun qarashlari evolyusiyasi bahosi bo'yicha fikriga qo'shilish hamda unga qisqacha ta'rif berish mumkin:

a) ilk Suqrot bosqichi – erkinlik fuqaro ezguligi (qul darajasiga qarama qarshi holda) ko'rinishiga ega bo'ladi hamda ijtimoiy-huquqiy ahamiyat kasb etadi, tushunchaning ushbu aspekti Aflotunning butun bir ijodi davomida o'zgarmay qoladi. Faqat erkin inson o'zining shiddati ustidan hukumron bo'lishi mumkin [7, 201]. Jumladan, yunonlar davlati ushbu qadriyat orqali boshqa davlatlardan ajralib turadi [11, 100]. “Suqrot apologiyasi”da tushunchaning metafizik ma'nosini ajratish mumkin. Asosiy ozod bo'lish – bu qalbni tanadan ozod bo'lishidir, shu jumladan kechroq yozgan ko'plab dialoglarida ham shunday. Bu yerda G.V.Drach kabi izlanuvchi tomonidan e'tiborga olingan orfikchilik-pifogorchilik an'analari tasiri ko'rinib turibdi [1, 118]. Bu erkinlik tushunchasi ayrim variatsiyalar bilan, xuddi shu kabi Aflotunning butun bir ijodi davomida o'zgarmay qoladi. Qadriyat munosabatida erkinlik yuqori turadi;

b) yetuklik davriga o'tishda – o'rganilayotgan tushunchaga nisbatan salbiy baholar paydo bo'ladi. Sofistlar bilan bahsda Suqrot erkinlikni barcha narsa mumkinligi sifatida tanqid qiladi. Masalan, “Gorgiy”da [9, 29];

v) yetuklik davri – “Teetet”da falsafa bilan shug'ullanayotgan yoshlar huquqshunoslardan farqli ravishda o'zlarida erkinlikni ham tarbiyalaydi [16, 229]. Metafizik ma'noda tushuncha “Timey”da o'z aksini topadi: barpo etuvchi tafakkur zaruriyatni qo'lga oladi. “Davlat”da ideal jamiyatni qanday qurish haqida gap ketadi. Hokimyatni jamiyatning nisbatan erkin motivatsiyalashgan vakillari sifatida faylasuflar qo'lga kiritadilar [26, 295].

Suqrot ideal davlat poydevorlarini asoslagan holatda tezda erkinlik jamiyatga zarurdir, ammo bu shaxsiy erkinlik emas, balki butun bir davlatnikidir degan izoh beradi. Davlatning markaziy g'oyasi – adolatdir. Bu holat D.Lubke ishlarida ko'p uchraydi [27, 31]. Davlat erkinligi sifatida qonunlar nazarda tutilgan.

Ideal mamlakatlarda hukumdorlar xalqni qullar deb ataydilar. Ideal tuzumdan ilk bor chekinish – bu timokratiyadir. U boyishga intiladi hamda hokimyatda boylar turadigan oligarxiyaga aylanadi. Ezgulik o'rniga boylik ulug'lanadi. Bunday davlatda bir vaqtning o'zida ikki xil davlat paydo bo'ladi – boy va kambag'al.

Ba'zan kambag'allar boylar ustidan g'alaba qozonib, hammani fuqaroviy huquqlarda tenglashtiradilar. Shunday ko'rinishda, demokratiya paydo bo'ladi. Demokratik inson – hammasidan oldin erkin inson hamda davlatning o'zida ham butun boshli erkinlik, ochiqlik, va nima istasa shuni qilish imkoniyati tug'iladi.

Agar oligarxiya boylikni tugal ne'mat sifatida aniqlasa, unga to'ymasdan intilsa, oxir-oqibat o'zini barbod qilsa, unda demokratiyada tugal ne'mat va asosiy qadriyat – erkinlikdir.

“...Demokratik davlatda faqat erkinlik qanchalar ajoyibligi va bu davlatda faqat o'z tabiati bo'yicha kim erkin bo'lsa, o'shagina yashashi darkorligi haqida eshitasan” [10, 250].

Erkinlik uy hayvonlariga va qullarga, otalar va farzandlar, ustoz va shogirdlar munosabatlariga va boshqalarga keng tarqaladi. Va bu haddan ortiq erkinlikdir, inson uchun ham, davlat uchun ham tiraniyaga aylanishi mumkin. Mulk egalari qarshi qo'zg'olon ko'taruvchi omma tomonidan qo'yilgan oxir-oqibat xalqning bo'ysunishiga ko'nikib, tiranga aylanib boradi.

“Siyosat”da o'zga yurtlik hokimyatni uchga ajratadi:

- monarxiya (yana tiraniya va saltanat hukumronligiga bo'lish mumkin);
- kamchilik boshqaruvi – aristokratiya va oligarxiya;
- demokratiya.

Monarxiya boshqaruvga bog'liq bo'lgan holda ham o'ta og'ir, ham juda yengil bo'lishi mumkin. Demokratiya esa na og'ir va na yengil boshqaruvga qodir bo'lolmaydi.

Saltanat san'ati hammani atrofiga o'raydi – ham erkinlarni, ham tobelarni, ulardan to'g'ri foydalanib, ularni baxtli qiladi.

“Siyosat”da ontologik-kosmologik kontekstdagi erkinlik to'g'risida eslatma mavjud: “Xudo ba'zan Koinot harakatini unga o'zi aylanishini aytgan holda yo'naltiradi, ba'zan unga erkinlik taqdim etadi – qachonki Koinotning aylanmasi vaqt o'lchamiga munosib ko'rinishiga yetganda; keyin bu harakat Koinot – bu tafakkurga ega tirik mavjudot bo'lgani uchun o'z-o'zidan ortga qaytadi...” [14, 18]. Ammo Koinotning bu ko'rinishidagi erkinlik davrlar insonlarga falokatli tarzda ta'sir etadi;

g) so'ngi davr (“Qonunlar”) – Aflotun u tomonidan “Davlat”da belgilangan chiziqni davom ettiradi. Individual erkinlik bu yerda undanda muammoli tarzda aks etadi. Davlatda boshqaruvchilar va bo'ysunuvchilarning bo'lishi shart sanaladi. Hokimyat o'zida turli ko'rinishlarni mujassamlashtiradi. Bu ham avlodlar ustidan ota-onalik hokimiyati, ham kichiklar ustidan kattalar hokimyatidir. “Olijanoblar” ham “olijanob bo'lmaganlar”ni boshqarishi kerak. Shuningdek, qullar ham o'zlarining egalari, nimjonlar kuchlilarga, bilimsizlar bilimdonlarga bo'ysunishlari zarur. Shu bilan birga, boshqa asoslardan tashqari kim boshqarishga loyiqqligini qismat aniqlaydi.

Jismoniy mashqlar bilan barcha shug‘ullanishi darkor. Otarining fikriga qaramasdan farzandlar ham bajarishlari kerak, axir bolalar ota-onalariga qaraganda davlatga ko‘proq tegishlidir.

Karl Popper individ qadriyatini ko‘p marotaba ta’kidlab o‘tadi. “Boshlanqich nuqta”ga mos bo‘lgan holda o‘sha individning o‘zida shaxsiy erkinlik mavjud bo‘ladi. Aflotun burchak boshiga umumiy yoki davlat manfaatlarini qo‘yadi. Shu jumladan, ushbu vaziyatda davlat ham erkin bo‘lishi zarur. Agar Popper erkinlikni individning jamoaga omadli ravishda qarshi turishida topsa [19], Aflotun bo‘yicha bunday o‘zaro munosabatlar kosmosga kiritilgan.

Aflotun to‘g‘ridan to‘g‘ri aytadi – eng yaxshi asos – tiraniyadir. Lekin ideal davlatda: “...Erkinlik va do‘stlik idrok bilan bog‘liq holda mavjud bo‘lishi uchun unga ham, bunga ham shubhasiz aloqador bo‘lish kerak” [17, 145]. Shuni e‘tiborga olish kerakki, “tiran” so‘zi Qadimgi Yunonistonda har doim ham yomon ma‘noda qo‘llanilmagan. Shu bilan Aflotun izlanishi tushuntirilmoqda.

Quyidagi tezis takroran: qonun – bu davlat erkinligidir. Aflotunning VIII maktubidan quyidagi satrlarini keltirish o‘rinli bo‘lar edi. “...Bo‘ysunish kabi erkinlik ham, agar ular chegarani bosib o‘tishsa, shu ulkan yovuzlikdir, shu miqdorda – ulkan ezgulik hamdir: xudolarga qullarcha bo‘ysunish yaxshi, insonlarga esa yaxshimas. Idrokli insonlar uchun qonun – xudo, nodonlarga esa - lazzatlanishdir” [12, 507].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, Aflotunning sof aql-idrokka asoslangan (rasonallik) va an‘anaviy mifologiyadan tayanch izlovchi ob‘ektiv-idealistik tendensiya o‘zaro kurashadi. Ikkinchisi g‘alaba qozonadi. Bu g‘alabaga ruhning ko‘chib yurishi haqidagi qadimgi sharq g‘oyalari, shubhasiz ta’sir ko‘rsatadi. Aflotunning ontologiya, kosmologiya, mifologiyaga va erkinlikka oid qarashlari sharq falsafiy ta’limotlariga yaqin turadi. Lekin gnoseologiya, etika va estetikaga oid ta’limotlarida o‘ziga xos yunon ijtimoiy hayotining ta’sirini kuzatishimiz mumkin.

Tadqiqot doirasida, uning xulosalaridan ijtimoiy-falsafiy tafakkurni kengaytirishda, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalarining tegishli bandlarini yozishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, falsafa tarixiga, bilish nazariyasiga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin. Hozirgi kunda turli ta’limotlarni o‘rganib, atroflicha tahlil qilib, zamonamiz talabiga binoan to‘g‘ri xulosa chiqarish va ulardan yoshlarimizni ilmiy-ma‘naviy dunyoqarashlarini kengaytirishda, barkamol inson qilib yetishtirishda foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Драч Г.В. Рождение античной философии и начало антропологической проблематики. М., 2003
2. Кант И. Соч.: В 8 т. Т. 3. М., 1994
3. Лейбниц Г.-В. Соч.: В 4 т. Т. 1. М., 1982
4. Лосев А.Ф. Очерки античного символизма и мифологии. М., 1993
5. Ницше Ф. Соч.: В 2 т. Т. 1. М., 1990
6. Новейший философский словарь / Под ред. А.А. Грицанова. Минск, 1999
7. Платон. Алкивиад 1, 122 //Диалоги. М., 2000
8. Платон. Аристотель. Москва; Харьков, 1999
9. Платон. Горгий 452, 453//Философы Греции. Основы основ: логика, физика, этика.
- 10.Платон. Государство 562 b, c// Платон. Филеб. Государство. Тимей. Критий. М., 1999
- 11.Платон. Менексен 238 c, d//Диалоги. М., 2000
- 12.Платон. Письма// Платон. Политик. Законы. Послезаконие. Письма. Сочинения платоновской школы. М., 1999
- 13.Платон. Политик. Законы. Послезаконие. Письма. Сочинения платоновской школы. М., 1999
- 14.Платон. Политик 269 c, d// Платон. Политик. Законы. Послезаконие. Письма. Сочинения платоновской школы. М., 1999
- 15.Платон. Сочинения в четырех томах /Под общ. ред.А.Ф. Лосева, В.Ф. Асмуса. – СПб.:2007.
- 16.Платон. Теэтет 172 d – 173 b// Платон. Федон. Пир. Федр. Парменид. М., 1999
- 17.Платон. Законы 693// Платон. Политик. Законы. Послезаконие. Письма. Сочинения платоновской школы. М., 1999
- 18.Плутарх. Избранные сочинения / Пер. с древнегреч.Т. Сидаш. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 2008.
- 19.Поппер К. Открытое общество и его враги: В 2 т. Т. 1. М., 1992
- 20.Соловьев В.С. Соч.: В 2 т. Т. 1. М., 1990
- 21.Соловьев В.С. Соч.: В 2. т. Т. 2. М., 1988.
- 22.Социализм // Философский энциклопедический словарь. М., 2002
- 23.Философский и культурологический феномен восточнохристианской цивилизации / Под ред. А.Н. Ерыгина. Ростов н/Д, 2004

-
24. Философский словарь / Под ред. М.М. Розенталя и П.Ф. Юдина. М., 1963
 25. Шестов Л.И. Соч.: В 2 т. Т. 1. М., 1993.
 26. Brown E. Minding the gap in plato's republic. Washington, St. Louis, 2004
 27. Lübke D. Platon. Leipzig; Iena; Berlin, 1984
 28. Murray G. Five Stages of Greek Religion. – New York: Mineola, 2002.
 29. Rakhimjanova D.S. Features of the freedom issues in the Plot's philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 28, No. 16. (2019), pp. 1560-1564. ISSN: 2005-4238 IJAST
 30. Ruzmatova G. Eastern melodies in the text of Plato // International Journal of Recent Technology and Engineering. Vol. 8, Issue-2S6, July, (2019). –P. 444-448. IJRTE. ISSN: 2277-3878.
 31. Ruzmatova G. Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020. ISSN: 1475-7192. –P. 3215-3227.

VOYAGA YETMAGANLAR DEVIANT XULQ-ATVOR PROFILAKTIKASI

Adashboev Nuriddin Mexriddin o'g'li

O'ZMU, Ijtimoiy ish kafedrası 2 kurs magistranti

Annotatsiya: *Ijtimoiy normalar jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi ekanligi, ijtimoiy normalar shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtiruvchi qoidalar majmui ekanligi, globallashuv davrida ijtimoiy normalar tizimidagi jiddiy o'zgarishlar va tendensiyalarning mohiyati, atvorlar og'ishiga ta'sir etuvchi zamonaviy omillar – ni o'rganish tamoyillarining roli. – internet, virtual dunyo, axborot oqimining tahlili, uning sotsiologik jihatlarini o'rganish va yoshlar muammolarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonida ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xavflar va ularni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatan turli jihatlariga ega. Birinchi farq uzoq davom etadigan ijtimoiy zararli odatlar deviant xulq-atvor turmush tarzining ajralmas qismiga aylanadi. Doimiy oilaviy kelishmovchilik, oila va atrof-muhitdan qoniqmaslik, uydagi tushunmovchilik va boshqalar. – bularning barchasi bolaning ruhiyatini jarohatlaydi va u mavjud vaziyatni o'zgartirishga harakat qiladi. Bu o'rinda kamchiliklar, jumladan, nizolar rivojlanishining oldini oluvchi va unga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ijtimoiy institutlarda salbiy rol o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *voyaga yetmaganlar, deviant xulq-atvor, diagnostika, ijtimoiy funktsiya, jinoyatchilik, ijtimoiy norma, o'smir, profilaktika.*

Abstract: *The fact that social norms are an integral part of the management of society, that social norms are a set of rules that harmonize the behavior of a person or social group with a certain social environment, the essence of serious changes and trends in the system of social norms in the period of the globe, the role of the principles of studying the – modern factors affecting the deviation of atvor – the internet, the virtual world, the analysis of the influx of information, the study of its sociological aspects and the study of the problems of young people indicate that in the process of globalization there are serious risks aimed at disrupting our spiritual life, and the development of measures to prevent them. Each of the social vices associated with drunkenness, drug addiction, self-killings, which are included in the Deviant types of behavior, have different aspects in essence according to the occurrence and social consequences. The first difference will be that long-lasting*

social harmful habits become an integral part of a deviant behavioral lifestyle. Constant family disagreement, dissatisfaction with the family and the environment, misunderstanding in the house, etc. – all this injures the psyche of the child and he tries to change the current situation. In this place, social control systems that prevent and combat the development of shortcomings, including conflicts, play a negative role in social institutions.

Key words: *Minors, deviant behavior, diagnostics, social function, crime, social norm, teenager, profilactics.*

KIRISH:

Voyaga yetmaganlarning deviant hulq-atvori —katta yoshdagilarning og‘ma hulq-atvori qonuniyatlariga muvofiq emasligini qayd etish zarur. Jumladan, kriminologiya umum tomonidan qabul qilingan hulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma‘qullanadigan yoki umumiy e‘tirof etilgan hulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma‘qullanadigan yoki umumiy e‘tirof etilgan hulq-atvor normalariga zid bo‘lgan maxsus qadriyatlar tizimi mavjudligi bilan izohlanadi. Va shu sababli jinoyatchilikni, eng avvalo, professional jinoyatchilikni tahlil qilish asosial submadaniyat nazariyasiga asoslanadi. Biroq, voyaga yetmaganlarga tatbiqan bunday yondashuv hamisha ham to‘g‘ri emas. Masalan, ko‘pincha o‘smir sodir etilgan qilmishni inkor etmagan holda, o‘z aybiga iqror bo‘lmaydi yoki o‘zi prinsip jihatidan inkor etmaydigan huquqiy taqiqni buzadi. Ayni vaqtda, ayrim ekspertlar diqqat-e‘tiborni hozirgi vaqtda deviant hulq-atvor guruhiga ko‘proq moddiy jihatdan o‘ziga to‘q oilalarning bolalari va o‘smirlari tushib qolishiga qaratadilar. Umuman olganda, “bugungi kunda jamiyatning qaysidir qatlamlaridan biri, deviant hulq-atvordan himoyalangan, deb bo‘lmaydi, hat bir o‘smir ta‘sirga va bog‘liqlikka duch keladi. Moddiy jihatdan yetarlilik, ota-onalarning yuqori ijtimoiy mavqeyi bolalarning ijtimoiy normalarga rioya qilishning kafili bo‘la olmaydi”.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Voyaga yetmaganlar deviant xulq-atvor profilaktikasi obyektiv ochib berildi. Ibn Sino yashagan davr tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Giddens E. Sotsiologiya. kitobi mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Voyaga yetmaganlarning xulq-atvori profilaktikasi ishida ommaviy axborot vositalari orqali tashviqiy-ma‘rifiy ishlarni olib borish muhimdir. Jamoatchilik fikri so‘rovi ma‘lumotlari bo‘yicha televideniye o‘smirlar va yoshlar uchun axborot

olishning afzalrok manbai hisoblanadi. Shu munosabat bilan ijtimoiy reklamaning roli oʻsadi. Ijtimoiy reklama oʻz takliflari bilan —mehnatni ragʻbatlantiradigan, ijobiy maqsadlarga erishish uchun inson faoliyati motivatsiyasini kuchaytiradi. Reklama ijtimoiy qadriyatlarni yoyadi va targʻib qiladi. U mamlakatlar va xalqlarning yashash tarzini, andozalarini shakllantirishga koʻmaklashadi... Reklamaning ijtimoiy funksiyasi turmush tarzi targʻib qilinishini ham nazarda tutadi.⁵

Deviant hulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga yetmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tashkiliy taʼsir koʻrsatishdir. Huquqiy tarbiyani oldini olish imkoniyatlari tiyishning boshqa vositalariga qaraganda ancha samaraliroqdir. Chunki huquqiy profilaktika choralari odatda, birmuncha kechikadi va qilmish sodir etilgandan keyin amal qila boshlaydi. Oldini olish bilan bogʻliq huquqiy choralar —ishlashi uchun u bolaning ongiga qoʻyilishi, uning eʼtiqodi, tajribasining bir qismiga aylanishi kerak. Buni aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish yoʻli bilan erishish mumkin. Bizga maʼlumki jamiyatimizda sodir qilinayotgan koʻplab jinoyatlar, jumladan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatlar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni oʻrganishda voyaga yetmagan jinoyatchilarning maʼnaviy-ahloqiy shakllanishiga taʼsir etuvchi salbiy holatlarni tahlil qilish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, oilada yoki koʻcha-koʻyda turli xil ahloqsiz xatti-harakatlarning guvohi boʻlgan oʻsmir, ahloqsizlik jinoyatlarini ham sodir qilishga qoʻl uradi. Bunday jinoyatlar qatoriga voyaga yetmagan oʻsmirlar tomonidan nomusga tegish hollarini koʻrishimiz mumkin. Xoʻsh, shu oʻrinda bir savol tugʻiladi, bunday jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, tub mohiyati nimada? Shu oʻrinda biz ushbu jinoyatlarning sodir etilishidagi shart-sharoitlarga, sabablarga toʻxtalib oʻtamiz. Voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan juda koʻpchilik shugʻullanadi. Bular - ota-onalar, oilani katta yoshdagi boshqa aʼzolari, maktabgacha boʻlgan, maktab oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlari muassasalaridagi oʻqituvchilar jamoat tashkilotlari va boshqalardir. Darhaqiqat, ana shu voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan shugʻullanuvchi shaxslarning ular tarbiyasidagi taʼsiri kelajakda oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Oilalardagi ota yoki ona ichuvchi yoki maʼnaviy ahloqsizlik bilan ajralib turadi. Bunda nazarimizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash hamda uning oldini olish birinchi navbatda oila ahloqini qadriyatlarimizga moslashtirishdan boshlashga toʻgʻri keladi.⁶

⁵ Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.

⁶ [http// www.sociologu.ru](http://www.sociologu.ru).

Shu o‘rinda turli xil huquqshunos olimlarning bu boradagi turlicha qarashlari mavjud bo‘lib, bularning barchasi voyaga yetmaganlar tomonidan ahloqsizlik xatti-harakatlarini sodir qilishga oilani roli muhimligi haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, V.Ya.Rubalskaya tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, 47 % voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi ota onaning salbiy ta‘siri yoki befarqligining, 14,8 % oilada hamjihatlik yo‘qligining, 38,3% ota yoki onani yo‘qligining, 23,5 % kattalarning loqaydligi tufayli jinoyat sodir etishning asosini tashkil etadi.⁷

O‘smir yoshdagilarga xos xususiyat shundaki, tashqi jihatdan va o‘z da‘volariga ko‘ra bu katta yosh, ichki xususiyatlari va imkoniyatlariga ko‘ra esa, ular hali bola. O‘smirlarning erkalashga, o‘ziga e‘tibor berilishiga moyilligi, o‘yin qaroqligi mana shu bilan bog‘liq. Shu bilan birga o‘smirlarda o‘zining katta yoshli bo‘layotganligini his etish bilan birgalikda ong, o‘z qadrqimmatini his etish, jinsiy mansubligini anglash uyg‘onadi va faol shakllanadi. O‘smirlik yoshi o‘zida har xil ruhiy jarohat yetkazadigan omillar ta‘siriga tutish xavfi yuqori darajada bo‘lgan shart-sharoitlar jamini ham ifodalaydi. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar ma‘lumotlar buyicha ota-onalar o‘rtasidagi urush-janjallar, o‘smirning nuqtai-nazariga ko‘ra ularda o‘smirni va atrofdagilarni kamsitadigan nuqsonlarning mavjudligi, o‘smirga nisbatan haqoratlovchi munosabat bo‘lish, unga ishonmaslik yoki uni hurmat qilmaslik mana shunday kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan omillardandir. Bularning barchasi bolalar va o‘smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonini qiyinlashtiradi va mana shu asosda ularning hulq-atvorida har xil chetga chiqishlarni keltirib chiqaradi.⁸

O‘smir huquqlari o‘zida butun insoniyatning qadr-qimmatini mujassam etadi. Bu degani bolalik - inson shaxsining rivojlanishida noyob, muhim davr demakdir. Inson huquqlari avvalo, bolalar huquqlaridan boshlanadi. Har qanday jamiyat va barcha insoniyatning kelajagi o‘ta yuqori darajada yosh avlodning moddiy va jismoniy rivojlanish darajasiga, uning inson huquqlarini shaxs va jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini tushunishiga, shuningdek, o‘z taqdiri hamda o‘z harakatlari uchun ma‘suliyatiga bog‘liq.⁹

XULOSA

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat poydevori qurilmoqda. Bunda davlat qurishni huquqiy savodxon, huquq madaniyatini mustahkam egallagan yosh

⁷ Абдурасулова Вояга етмаганлар жиноятчилиги ва унинг олдини олиш муаммолари. —Қонун химоясида| Т. №1. 2001й. 23 бет.

⁸ Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent – Sharq, 2002.

⁹ В.А.Алиев., Г‘.Рафиқов., Т.Султонov., М.Муллаjonova., В.Рахmonov. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. - Т.: 2005,120-127 б

avlod amalga oshiradi. Buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog‘i zarur. Shu sababli yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini bilishi, qonun hurmat qilishi, ularga so‘zsiz bo‘ysunishi madaniyatiga ega bo‘lishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. —Qonun himoyasida|| T. №1. 2001y. 23 bet.
2. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
3. Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent – Sharq, 2002.
4. В.А.Аliyev., G‘.Rafiqov., T.Sultonov., M.Mullajonova., B.Rahmonov. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2005,120-127 b
5. [http// www.sociologu.ru](http://www.sociologu.ru).

IJTIMOIIY FAOLLIKNING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Ismailov Berdiyov Rashidovich

O'ZMU Ijtimoiy ish kafedrası

2 kurs magistiri

Ilmiy rahbar: Latipova Nodira Muxtarjonovna

Sotsiologiya fanlari Nomzodi, professor

***Annotatsiya:** Insonning dunyoga kelishi nafaqat tug'ilishdan iborat tabiiy-biologik hodisa, balki tug'ilgandan so'ng o'z davrining taraqqiyoti darajasiga ko'tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo'lishi, jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, bu jarayonda keksa avlod o'zining yashash, kurash va mehnat tajribasi, bilim va ko'nikmalarini yosh avlodga beradi. Bu esa tarbiya deb ataluvchi shaxsning shakllanishi, rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan ijtimoiy hodisa orqali amalga oshiriladi. Qolaversa, barkamol, yetuk shaxslarni yetishtirish ham ko'payib, o'zgarib boradi. Ma'lumki, har qanday jamiyat o'z a'zolari bilan insonparvarlik munosabatida bo'lishga intiladi va uning maqsadi-insonning o'z-o'zini namoyon qilishi, o'z-o'zini tasdiqlashi, jamiyat tomonidan shaxs sifatida tan olinishi zaruriyatini amalga oshirish uchun yo'l ochib berishdir. Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan siyosiy, ijtimoiy va ijtimoiy o'zgarishlar ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida juda ko'p o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Yangi ijtimoiy sharoitda mavjud pedagogik amaliyotni metodologik va amaliy muammolarni nazariy nuqtai nazardan chuqur anglamasdan amalga oshirib bo'lmaydi, chunki bu muammolarni hal qilmasdan ta'lim va tarbiyaning ta'siri bo'lmaydi.*

***Kalit so'zlar:** Yoshlar, ijtimoiy, faol, psixologik, ong, individual, jamiyat taraqqiyoti, bilim, mahorat.*

***Abstract:** He arrival of a person into the world is not only a natural-biological phenomenon, which consists of birth, but also of the fact that after birth he will rise to the level of the comb of his own time, will acquire the existing socio-historical experience, will determine his place in society, will become an active participant of the historical process, will In this process, the older generation gives its living, struggling and working experience, knowledge and skills to the younger generation. And this is done through a social phenomenon, which plays an important role in the formation, development of a person, which is called upbringing. As, the cultivation of harmonious, mature individuals also increases and changes. It is known that any society seeks to be in a humanitarian relationship with its members, and its purpose*

is to pave the way for the self-manifestation of a person, for self-affirmation, for the realization of the need for his recognition by society as an individual. The political, social and social changes that are taking place today all over the world have brought about a lot of changes in the theory and practice of teaching and learning. In the new social conditions, the existing pedagogical practice can not be carried out without a deep understanding of the methodological and practical problems from the theoretical point of view, since without solving these problems, education and upbringing can not have an effect.

Key words: *Young people, social, activist, psychological, consciousness, individual, community development, knowledge, skill.*

“Tinchlik, iqtisodiy o`shish dinamikasi, ijtimoiy adolat, tolerantlik - bularning barchasi va yana ko`p boshqalari ham, yoshlar salohiyatini tadbir qilishga bog`liq bo`ladi.”

(Antonio Gutierrez, BMT bosh kotibi, 2018 -yil 12- avgust)

KIRISH

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir. Faollik (lotincha —actus|| - harakat, —activus|| - faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu - o‘sha oddiy qo‘limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog‘liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o‘z-o‘zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Ijtimoiy faollikning psixologik tavsifi masalalari obyektiv ochib berildi. Ijtimoiy yetimlikni profilaktik oldini olish masalalari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Psixologiya fanning strukturasi tekshirish, bilimlarning tartibini aniqlash, ular tasnifini amalga oshirish alohida o‘rin egallaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Ijtimoiy amaliyotning turli sohalarida ongli ravishda ishtirok etishga intilayotgan o'z hayotini yaratuvchisi sifatida harakat qila oladigan, shaxsning ijtimoiy yo'nalishini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy harakatlarga tayyorgarlik ko'rish, yosh avlodlarni atrofdagi haqiqatni ijodiy o'zgartirishga qaratilgan faoliyatga jalb qilish maqsadida maktab va boshqa ijtimoiy institutlarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatini tashkil etishda faollashishi zarurligini tushunishga olib keladigan inson tarbiyasi ustuvor vazifadir.¹⁰

Psixologik va pedagogik hodisa sifatida o'smirlarning ijtimoiy faolligini o'rganishga bo'lgan qiziqish, ularning psixofizyologik xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar qilish istagi va istagi tufayli ushbu yosh toifasidagi vakillarning mavjudligi bilan bog'liq. Qadriyatlar tizimining harakatchanligi, ijtimoiy makonni kengaytirishga bo'lgan ehtiyojni ilgari surish, tengdoshlar orasida o'zini himoya qilish va boshqalarning roziligini olish, o'zlarini shaxsiyat va o'smirlarga xos bo'lgan boshqa xususiyatlar sifatida bilish, bu yoshdagi bolalarni maktab, oila, jamoatchilikning eng zaif va diqqatga sazovor joylariga aylantiradi.

Konstruktiv ijtimoiy faoliyatni shakllantirish zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan uyushgan muhitni yaratishni o'z ichiga oladi. Ta'lim muassasalarining devorlarida bunday muhitning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun boshqa ijtimoiy institutlarni (oilalar, jamoat tashkilotlari) tarbiyalash jarayoniga kiritish kerak, bu esa jamiyat hayotining etarli darajada aks ettirilishini ta'minlaydi. Ta'lim muassasalari bolaning eng yaqin atrof - muhitiga-uning oilasiga ta'lim ta'sirining xususiyatlarini hisobga olmaydi. Shu munosabat bilan maktab va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini o'smirlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish omili sifatida ishlab chiqish muammosi o'ta dolzarbdir.¹¹

Ijtimoiy faollik kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg'ulari va hatti-harakatlarini jamlashga jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy voqelikning tegishli tomonlarini o'zgartirishga ta'sir ko'rsatadi.

¹⁰ Slovar prakticheskogo psixologa G'G' Sost. S.Yu.Golovin. – Minsk: Xarvest, M.: OOO —Izdatelstvo ASTI, 2003. – S. 635-721.

¹¹ Взаимодействие школы и семьи в формировании социальной активности подростков тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук Керкис, Сергей Станиславович

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda «ijtimoiy faollik»-shaxsning har sohadan xabardorlik, komillik darajasini ko'rsatuvchi mezon, deyish mumkin. Ijtimoiy faolikka intilib yashashning o'zi g'oya hisoblanadi. Uning mazmunini esa jamiyat ma'naviy yuksalishini ta'minlaydigan bilim, odob axloq, iste'dod, qobiliyat, ijobiy ko'nikma va malakalar, bular asosida shakllangan dunyoqarashlar majmui tashkil etadi. Yoki aniqroq aytsak, ijtimoiy faollik shaxs ma'naviyatini kamolot sari etaklovchi, barcha ijobiy mazmunga ega sifatlarni o'zida mujassam etgan, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan g'oyalar majmuidan iborat. Bo'lajak o'qituvchi talabani ijtimoiy faolligi shaxs sifati bo'lib, jamiyat ravnaqi yo'lidagi g'oyaviy, siyosiy, kasbiy-madaniy va fuqarolik mas'uliyatining qonuniy ifodasidir. har bir bo'lajak o'qituvchi o'z faniga oid ilmiy bilimlarni egallash bilan bir qatorda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarni anglab etishi, g'oyaviy jihatdan qurollangan bo'lishi ham talab etiladi.¹²

XULOSA

Ijtimoiy faollik sifatlarining asosiy elementlarini o'ziga singdirib olgan har bir talaba yosh, bo'lajak mutaxassis sifatida xayot qonuniga mas'uliyat bilan yondashib, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni aniq idrok etishga, o'zi va kasbdoshlarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga, ezgu maqsad yo'lidagi to'siqlarning hech biridan cho'chimay engib o'tishga tayyor bo'ladi. Ya'ni, demokratik xuquqiy davlatning shakllangan ijtimoiy faol fuqarosiga aylanadi. To'la bilimlarga tomon xarakat kilish sifatida soodir bo'ladi. Bilish tevarak-atrofdagi odamning narsa va xodisalarni xissiy idrok kilishdan boshlanadi. Tashqi olamning sezgi, idrok va tasavvurning xosil bulishiga olib keladi, bular real borlikdagi narsalarni inson ongida aks ettiradi. Tevarak-atrofdagi olamga muvaffakiyatli ta'sir etish uchun bu olam rivojlanishining ob'ektiv konuniyatlarini bilish kerak. Fakat xissiy bilish yordamidagina bu konunlarning moxiyatini tushunish mumkin emas. Abstrakt tafakkur tabiat va jamiyat xayoti rivojlanishining ob'ektiv konunlarini bilishga xizmat kiladi.¹³

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

¹² Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya: Ucheb.posobie dlya institutov G'Pod red. M.V.Gomezo i dr. –M., 1984. – 256 s.

¹³ Galperin P.Ya., Talo'zina N.F. Formirovanie znaniy i umeniy na osnove teorii poetapnogo usvoeniya umstvenno'x deystviy. – M.: 1968

-
- 1 Словар практического психолога Сост. С.Ю.Головин. – Минск: Харвест, М.: ООО —Издательство АСТ, 2003. – С. 635-721.
 2. Возрастная и педагогическая психология: Учеб.пособие для институтов Под ред. М.В.Гомезо и др. –М., 1984. – 256 с.
 3. Galperin P.Ya., Talo‘zina N.F. Formirovanie znaniy i umeniya na osnove teorii poetapnogo usvoeniya umstvenno‘x deystviy. – М.: 1968
 4. Взаимодействие школы и семьи в формировании социальной активности подростка тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук Керкис, Сергей Станиславович

YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNING TARQALISHI VA UNING PROFILAKTIKASI

Xoldorov Muhiddin

O'ZMU Ijtimoiy ish kafedrası talabasi

Ilmiy rahbar: Latipova Nodira

Sotsiologiya fanlari nomzodi, Professor

muhiddin2020@mail.ru

Annotatsiya: *Hammamiz bilamizki, giyohvand moddalarni iste'mol qila boshlagan odam, qaysi tipda bo'lmasin, avvalo, unga odat yaratadi. Ammo bir yil o'tgach, preparat mehnatga yaroqsiz bo'lib qoladi. Natijada u jinoyatga qo'l urishga majbur bo'ladi. Ya'ni navbatdagi giyohvandlik vositasini qabul qilish maqsadida o'g'irlikni o'z uyi – oilasidan boshlaydi. Giyohvandlik va giyohvandlikning yosh avlod tarbiyasiga, insoniyat kelajagiga katta zarar yetkazishi butun jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Shuning uchun ham bu falokatga qarshi kurash hozirgi kunda yer maydonidagi global muammolardan biriga aylandi. Asr vabosiga qarshi kurashish barchamizning ishimiz. O'zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir fuqaro bu harakatdan chetga chiqmasligi kerak. Bu jarayon umummilliy kurashga aylanishi kerak. Shundagina minglab yoshlarning kelajagini, oilalarimiz tinchligini asrab-avaylaymiz. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichining o'ziga xos shart-sharoitlari, aholining katta qismini ijtimoiy yo'qotish giyohvand moddalar iste'moli dinamikasining o'sishiga olib keladi. Turli sabablarga ko'ra mavjud dori-darmonlarga qarshi chora-tadbirlar tizimi barqaror emas va haqiqiy holatga mos kelmaydi. Vaziyatning asosiy xususiyati shundaki, giyohvandlik muammosi yosh avlod o'rtasida tobora keng tarqalmoqda.*

Kalit so'zlar: *giyohvandlik, yoshlar, deviant xulq-atvor, diagnostika, zaharli modda, sotsiologik tadqiqot, jinoyatchilik*

Abstract: *We all know that the person who started to consume drugs, no matter what type, first creates a custom for him. But a year later, the drug becomes unfit for Labor. As a result, he will be forced to touch upon the crime. That is, for the purpose of accepting the next narcotic remedy begins the theft from his home – his family. The fact that drug abuse and Drug Abuse cause great damage to the upbringing of the younger generation, the future of mankind, worries the entire world community. Therefore, the fight against this disaster has now become one of the global problems in the land area. Fighting the plague of the century is the work of all of us. Every citizen who knows himself to be a child of this country should not deviate from this act. This process must be turned into a nationwide struggle. Only then will we be able to preserve the future of thousands of young people, the peace of our families. Specific*

conditions of the modern stage of development of society, the social loss of a large part of the population, lead to an increase in the dynamics of drug consumption. The existing system of anti-drug measures for various reasons is not stable and does not correspond to the actual state of affairs. The main feature of the situation is that the problem of drugs is increasingly common among the younger generation.

Key words: Drug, young people, deviant behavior, diagnostics, toxic substance, sociological research, crime.

KIRISH

Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish bo'lib, aslida giyohvandlik deviant xulq-atvorning bir ko'rinishidir. Giyohvandlik (narkomaniya). Shaxsga va jamiyatga bugun buzg'unchi ta'sir ko'rsatuvchi, og'ir sotsial oqibatlariga ko'ra giyohvandlik asosiy o'rin tutadi. Sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, odamlar rohat olish, o'tkir hissiyotlarga kirishish uchun giyohvand moddalarga berilib qoladilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishi va uning profilaktikasi masalalari obyektiv ochib berildi. Yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishi va uning profilaktikasi masalalari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Psixologiya fanning strukturasi tekshirish, bilimlarning tartibini aniqlash, ular tasnifini amalga oshirish alohida o'rin egallaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Giyohvandlar asosan yoshlar ichida ko'p uchraydi. Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik boshqa odamlar ta'siri ostida, asosan do'stlari, tanishlari orqali giyohvand moddalarga berilib qolmoqdalar. Xavfli tomni shundaki, narkotiklar qabul qilishni boshlanish etaplarida odam hech qanday yomon ta'sir, og'ir sezmaydi, aksincha giyohvand moddani qabul qilganda kayfiyat ko'tariladi. Jism shunday rohat oladiki, buni ko'pchilik sog'liqqa yaxshi yordam beradi, tinchlantiradi deb o'ylaydi. Spirtli ichimliklar bilan bog'liq giyohvandlik bilan og'rigan odamda tajovuzkorlik va nazoratsiz g'azab paydo bo'ladi. Ko'pincha, bu odam avval o'zini, keyin atrofidagi odamlarning ko'nglini qoldiradi. Deviant xatti-harakatni tashxislash uchun ba'zida odamning o'ziga qarash, uning mohiyatini aniqlash kifoya. Odamlarning o'zlarini sindirishlari va turli xil zaharli moddalarni olishni boshlashlari juda oddiy: ular dunyoda o'zlarining potentsiallarini anglay olmaydilar. Shaxsning deviant xatti-harakati har doim uning atrofidagi odamlarning hayoti va farovonligiga zarar etkazadigan keskin salbiy ko'rinishlarning mavjudligini anglatadi.¹⁴

¹⁴ Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка мойил ўқувчиларни аниқлаш ва уларни тарбиялаш. Т.: “Камалак”. 2017. 128 б

Voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishning oldini olish eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish inson aql-idrokining buzilishi, ya'ni kuchli hayajonlanish, g'azablanish, shavqatsizlik, befarqlik, qiziqishlar doirasining torayishi, eslab qolish, diqqat - e'tibor berish qobiliyatining pasayishi, jinsiy buzuqliqlarning asosiy sabablari hisoblanadi. Eng dahshatlisi, ushbu moddalarni surunkali iste'mol qiluvchilarning OITS kasalligiga chalinishi ehtimoli bir necha bor ortadi. Spirtli ichimliklarni doimiy ravishda uzoq vaqt davomida iste'mol qilish natijasida shaxsdagi intellektual va ahloqiy fazilatlar yo'qolib boradi, ijtimoiy foydali narsalar o'rnini mast bo'lishga intilish egallab oladi. Frantsuz olimi Morel alkogolizm bilan kasallangan shaxsning to'rtta avlodini tekshirib ko'rgan. Mazkur tadqiqot natijalari ham hayratlanarlidir, birinchi avlod vakillarining ahloqi buzilgan; ikkinchi avlodni tom ma'noda alkogolizmga chalingan; uchinchi avlod vakillari vahima kasalligi va g'amginlikka muhtalo bo'lganlar bo'lib, odam o'ldirish va o'z-o'zini o'ldirishga moyil kishilardir, to'rtinchi avlodda esa aqli zaiflar, tentaklar, bepushtlar bo'lgan. Ushbu kuzatishlari asosida u alkogolizm jamiyat a'zosini jismonan va ruhan buzadi, degan xulosaga keladi. Voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalariga ruju qo'yishining asosiy ijtimoiy sabablari ham mavjud. Bularga notinich oilalar, shaxs yashayotgan muhit, jamiyatning munosabati va o'tish davridagi iqtisodiy qiyinchiliklar va boshqa muammolar kiradi. Shuningdek, hozirgi kunda alkogolizm yoki giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchi voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etish hollari kuzatilmoqda.¹⁵ Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasiga muvofiq, alkogolizm, giyohvandlikka yo'liqqan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo'lsa, sud jazo chorasi bilan birga ularga tibbiy yo'sindagi majburlor choralarini ham tayinlashi mumkin.

Jamiyatda, oilada voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklarga, giyohvandlik vositalariga nisbatan salbiy qarashlari uchun vaziyat yaratilishi lozim, bunday yashash sharoitini umuman qabul qilmaslik, ularda ixtiyoriy davolanishga imkoniyat tug'dirish va kelajakda spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalaridan umuman voz kechishiga erishish lozim. Shunindek, narkotik moddalarining noqonuniy

¹⁵ Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида. -Т.: Ўзбекистон, 2000

tarqalishining oldini olish va ularning mahfiy bozori bilan qattiq va qat'iyat bilan kurashish, giyohvandlik yoki alkogolizm kasalligidan azoblanayotgan shaxslarga insonparvarcha munosabatda bo'lish lozim. Narkotik moddalari tarqalishining oldini olishda ko'proq ularning ziyonligi haqida aholini, asosan voyaga yetmagan shaxslarni ogohlandirish katta ahamiyatga ega.

Voyaga yetmagan shaxsni jazolashdan ko'ra, uni davolash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, alkogolizm yoki giyohvandlik kasalligiga chalingan, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish yoki narkolog mutaxassisida davolash chorasini qo'llash mumkin va ushbu majburlov chorasi jinoiy jazoga nisbatan yaxshi samara beradi, deb o'ylayman. Giyohvandlik moddalariga ruju qo'ygan voyaga yetmaganlarni jazolashdan tashqari ommaviy axborot vositalari yordamida tarbiyaviy ishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Deviant xatti-harakatlarning diagnostikasi mutaxassislar tomonidan olib borilishi kerak bo'lgan juda murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. Ularning orzularini buzmaslik, o'zlariga va o'zlarining istiqbollarga bo'lgan ishonchni buzmaslik uchun siz bolalar va o'smirlar bilan juda ehtiyot bo'lishingiz kerak.¹⁶ Deviant xatti-harakatlarning sabablari butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. Keyinchalik oqibatlarni to'g'irlashga urinishdan ko'ra, bunday og'ishning rivojlanishini oldini olish yaxshiroqdir. Deviant xatti-harakatlarning diagnostikasi patologik belgilarni o'z vaqtida aniqlash va ularning rivojlanishining oldini olishni o'z ichiga oladi.

XULOSA

O'spirin va yoshdagi har qanday salbiy ko'rinishlarga qarshi kurash, shuningdek, deviant xatti-harakatlarning oldini olish nafaqat huquqni muhofaza qilish idoralari, balki boshqa davlat va jamoat tuzilmalari va muassasalari, shu jumladan yoshlar va o'spirinlar uchun ijtimoiy xizmatlar faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu markazlarning faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak: deviant xulq-atvorni to'g'irlashning tibbiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik usullari bilan birgalikda o'spirinlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish; repressiya mexanizmini bosqichma-bosqich huquqbuzarliklarning oldini olish bilan o'spirinlarning ijtimoiy-psixologik

¹⁶ www.pedagog.uz

moslashuvi choralari bilan almashtirish; xuddi shu nomdagi aloqa klublarini tashkil etish orqali yashash joyida o'spirinlar uchun aloqa muhitini yaratish.¹⁷

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. T.: "Kamalak" .2017. 128 b
2. Xolmatova M., Muravyev N. Yoshlar oilaviy hayot bo'sag'asida.-T.: O'zbekiston, 2000
3. Социальные причины девиантного поведения девочек-подростков в условиях трансформации российского общества диссертации и автореферата по ВАК РФ 22.00.04, кандидат социологических наук Мухамадеева, Зинфира Фанисовна
4. Sulaymonov J.B., Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599
5. www. pedagog. Uz

¹⁷ Социальные причины девиантного поведения девочек-подростков в условиях трансформации российского общества диссертации и автореферата по ВАК РФ 22.00.04, кандидат социологических наук Мухамадеева, Зинфира Фанисовна

OILALARDA AJRALISH VA UNING OQIBATLARI

*Azamova Kumush Salim qizi
O'ZMU Ijtimoiy ish kafedrası
2 kurs magistiri*

*Ilmiy rahbar: Abduxalilov Abdulla
Sotsiologiya fanlari doktori
Kumush2020@mail.ru*

Annotatsiya: Ajralish muammosi hozirgi kunda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilaviy ajralishlarning mavjudligi ham respublikamizda keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga jalb etib, bu muammoning yechimini topish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rishga undaydi. Chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, ajralish natijasida millionlab odamlar-birinchi navbatda bolalar, ayollar, erkaklar va hatto ajralishlarning yaqinlari ham "ma'naviy farovonlik" oladilar.

Insoniyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, odamlarning kundalik hayoti kundan-kunga urbanizatsiyalashgan bir vaqtning o'zida ilmiy-texnik taraqqiyotning keng doirasi kengayib borayotgan bir vaqtda, onalar kasalliklari, bolalar o'limi, zaif, nogiron bolalarning tug'ilish darajasi, onaning yomonlashuvi va oilaviy hayotda har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, oila qurishga qodir., ularga oilada bolalar tug'ilishi va shularga bog'liq masalalar haqida ilmiy asoslangan bilimlarni o'z vaqtida va yuqori darajada berish talab etiladi. Umuman olganda, bu masala kecha yoki bugun yuzaga kelgan muammo emas. Insoniyat tarixi, nikoh-oila munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq ko'hna muammolardan biridir.

Kalit so'zlar: oila, ajralish, nikoh, er-xotin muammosi, salbiy oqibatlar, bola tarbiyasi, bola, yolg'izlik.

Abstract: The problem of divorce remains one of the most pressing problems of society at the moment. The presence of family divorces also attracts the attention of the general public in our republic and encourages us to take the necessary measures to find a solution to this problem. Because, as already mentioned above, as a result of the divorce, millions of people — first of all, children, women, men and even the relatives of the divorcees—receive "spiritual prosperity".

At the present stage of the development of mankind, at the same time when the daily life of people is urbanized from day to day, a wide range of scientific and technical progress is being made at the same time, there is an increase in the number of maternal diseases, child mortality, the birth rate of vulnerable, disabled children, the deterioration of maternal and, since they are still able to build a family, in

addition to their comprehensive training in family life, they are required to provide them with a timely and high level of scientifically-based knowledge about the birth of children in the family and shular related issues. In general, this issue is not a problem that arose yesterday or today. It is one of the dilapidated problems associated with the history of mankind, the emergence of marriage-family relations.

Key words: *Family, divorce, marriage, couple problem, negative consequences, child education, child, loneliness.*

KIRISH

Gap nikoh-oila munosabatlari haqida borar ekan, shubhasiz jiddiy muhokama qilinadigan masalalar qatorida nikoh-oila munosabatlarining buzilishi, er-xotinlarning ajralish muammosi turadi. Nima uchun oilalar buziladi? Ajralish o'zi nima? Ajralish bu yaxshimi yoki yomonmi? Oilalarning ajralishiga yo'l qo'yish kerakmi?

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Oilalarda ajralish va uning oqibatlari asarlari obyektiv ochib berildi. Ibn Sino yashagan davr tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Kovalev S.V. Psixologiya sovremennoy semi. kitobi mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Psixologiya fanning strukturasi tekshirish, bilimlarning tartibini aniqlash, ular tasnifini amalga oshirish alohida o'rin egallaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O'zbekistonda ham ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tibori qaratilib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganmoqdalar. Ularning e'tibori bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu o'rinda haqli ravishda agar ajralishlar shu qadar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradigan bo'lsa, uni rasmiy ravishda ta'qiqlab qo'ysa bo'lmaydimi? — degan savol yuzaga kelishi mumkin. Albatta mumkin, masalan, dunyoning ayrim

davlatlarida, jumladan, Italiya, Niderlandiyada yaqin-yaqin zamonlargacha ajralish huquqiy jihatdan nihoyatda murakkab jarayon edi. Biroq bu usul ham oila mustahkamligini ta'minlashda kutilgan natijalarni bermaydi. Balki ajralishni ta'qiqlash, ajralish erkinligini bermaslik, o'z navbatida nikoh yoshining o'sishini, oila qurmaslik, nikohgacha va nikohdan tashqaridagi jinsiy aloqa, psixologik nosog'lom oilalar miqdorining ortishi nikoh-oila munosabatlari zamirida yuzaga keladigan jinoyatlar, qotillik, xiyonat kabilarning ortishiga olib keladi. Albatta bularning ham shaxs, inson ruhiyati, oilada bola tarbiyasi, qolaversa jamiyat uchun zarari oldingilardan kam emas. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda ajralish erkinligi deyarli barcha davlatlar nikoh-oila qonunchiligida qayd etilgan. Bu o'rinda muhimi ajralishni ta'qiqlash va unga rasmiy ravishda halaqit qilish emas, balki ajralishlarning oldini olish, unga olib keladigan sabablar va omillarni bartaraf etishdir. Shunday qilib ajralish fojiami yoki fojiadan qutulishmi? Ayrimlar agar oilada farzandlar bo'lmasa bu fojiadan qutulishdir, er-xotinlarning o'zaro munosabatlari maqsadga muvofiq ravishda shakllanmayotgan bo'lsa, ularda o'zaro tushunish, o'zaro hurmat, bir-birlariga nisbatan emotsional yaqinlik, mehr-oqibat bo'lmasa, oila o'z funksiyalarini bajarmayotgan bo'lsa, bunday juftlar ajralib ketgani ma'qul deb hisoblaydilar.¹⁸

Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari mavjuddir. Bu xususiyatlar oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablar, ularning amalga oshish jarayoni, oqibatlari, ajralishgacha va undan keyingi davrlardagi er-xotinlarning ahvoli kabilarda ifodalanadi. Shunday xususiyatlardan biri ajralish niyatini bildirib rasmiy tashkilotlarga murojaat qiluvchi ajralish tashabbuskori kim ekanligida namoyon bo'ladi. Sharq oilalarida, ayniqsa o'zbek (qishloqlarda) oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq erkaklar bo'ladilar va aksincha, Yevropa xalqlari oilalarida, yosh oilalarda va urbanizatsiyalashuv darajasi yuqori bo'lgan shahar oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq ayollar bo'ladi.¹⁹

Biz sizga ajralishlarning sabab-oqibatlari haqida fikr-mulohazalarimizni bildirishdan oldin o'zbek oilalarida ajralishlarning o'ziga xos xarakteri, ya'ni boshqa (ayniqsa chet mamalakatlardan) millatlardan farq qiluvchi jihatlarga to'xtalib o'tishni lozim topdik. Bu quyidagi ob'ektiv omillarga bog'liq bo'lishi mumkin: birinchidan, qishloq joylarda ajrashgan ayol erkakka nisbatan jamoatchilik tomonidan ko'proq tanqidiy muhokama qilinadi. Ikkinchidan, qishloq joylarda ajralishgandan so'ng ayollarning ahvoli erkaklarga nisbatan yomonlashadi, negaki o'zbek millatidagi o'ziga xos urf-odatlar o'zbek ayolining uy-joylarni eriga qoldirib, o'z ota-onasinikiga

¹⁸ www.kitob.uz

¹⁹ Kovalev S.V. Psixologiya sovremennoy semi. –M., 1988.

(uning aka-ukalari o‘z oilasi, xotini, bolalari bilan yashayotgan va ajrashgan ayol uchun ahvolni yanada jiddiylashtiruvchi joyga) borib yashashga majbur bo‘ladilar. Uchinchidan, qishloq ayollarida ajralishgandan so‘ng qayta oila qurish imkoni nihoyatda kamdir. Mana shu ob‘ektiv sabablarni hisobga olgan holda qishloq joylardagi o‘zbek ayollari muammoli (er-xotin orasidagi munosabatlar nihoyatda ziddiyatli, nizoli, ular orasidagi mehr-oqibat yetarli ifodalanmagan oila) nikohga ham ko‘nikib yashayveradilar. Ba‘zi ayollar, aslida eri bilan birga yashamayotgan bo‘lsalar-da (hatto yillab), erlaridan «o‘ch olish» maqsadida, uning boshqaga uylanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun rasmiy ravishda, sud orqali ajrashishga ko‘nmaydilar. Qishloq joylardagi ajralishgan erkaklar ayollarga nisbatan bir muncha imtiyozli vaziyatda bo‘ladilar: ular ajralishgandan so‘ng o‘z yaqinlari tomonidan ko‘proq qo‘llab-quvvatlanadi. Bolasi yo‘q bo‘lgan holatda esa ajralishgan erkak uchun turmushga chiqmagan ayolga uylanish sezilarli darajada muammo tug‘dirmaydi.

Bundan tashqari u ajralishdan so‘ng oldingi sharoitda — o‘z (ota-onasining) uyida qoladi va navbatdagi yangi oila qurish imkoniga ega bo‘ladi. Shuning uchun qishloq joylarda ajralishlarning tashabbuskorlari ko‘proq erkaklar bo‘ladilar.

Agar ajralish «ozodlik» deb hisoblanadigan bo‘lsa, unda hozirgi zamon nikoh-oila qonunchiligiga ko‘ra bu «ozodlik» «kimga qanchaga tushadi?» Shahar joylarda istiqomat qiladigan Yevropa xalqlariga mansub bo‘lgan yosh oilalarda bu quyidagi formula tarzida bo‘lishi mumkin. Ayollar uchun: Ajralish q ozodlik + bola + aliment ± uy + yolg‘iz onalarga beriladigan imtiyozlar + yangi oila qurish muammosi.

Erkaklar uchun: Ajralish q ozodlik - bola - aliment ± uy + yangi oila qurish imkoniyati. Agar ajralishlarning ayol va erkakka ko‘rsatadigan asosiy ta’sirlarini sanaydigan bo‘lsak, ular quyidagicha bo‘ladi: Jamiyat uchun — Noto‘liq oilalar soni ko‘payadi, oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi, bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo bo‘ladi, fohishabozlik ortadi, teri-tanosil kasalliklarning ortishi kuzatiladi, shaxsning ijtimoiy faolligi susayadi. Erkak uchun — yolg‘izlik hissining ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, turli kasalliklar. Ayollar uchun — yolg‘izlikni his qilishning ortishi, qayta oila qurish imkoniyatining cheklanganligi, nevrozlar, stresslar, turli xastaliklar, o‘z joniga qasd qilish. Yuqoridagilar bilan birga, o‘zbek oilalar ajralishganda o‘zgacha xususiyatlar ham kuzatiladi. Psixolog olim Fahriddin Ro‘ziqulov ajralishning asoratlari mavzusida o‘tkazgan maxsus tadqiqot natijalariga ko‘ra aksariyat holda ajralish qurboni ayol bo‘ladi. Ya’ni ajralish erkaklarga nisbatan ayollarni kelgusi oilaviy baxtiga, bolalarning tarbiyasiga, oila byudjetiga, ayolning salomatligiga, o‘z ota-onasi bilan

bo‘lgan ota-ona va farzand munosabatlariga, ajralishgan ayolning ruhiyatiga kuchli salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga ayol uchun katta hayotiy muammolarini — qayta oila qurish va yolg‘izlik muammosini keltirib chiqaradi. Bu qishloq va shahar ayollarida deyarli bir xil ifodalanadi. Ammo shaharlik ayollar shahar turmush tarzida jinsiy hulq jihatdan birmuncha erkin bo‘lganlari hamda o‘z kasb faoliyatlari bilan faol shug‘ullanganlari tufayli qishloq ayollariga nisbatan yolg‘izlikdan kamroq jabr ko‘radilar. ²⁰

Noto‘liq oiladagi bolalar tarbiyasi. Noto‘liq oila haqida gapirilganda shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, noto‘liq oilalar ham turlicha yuzaga keladi. Oilalar er-xotinlardan birining vafot etganligi tufayli yoki ularning ajralishi tufayli noto‘liq bo‘lib qolishi mumkin. Albatta oilada ota yoki onaning vafot etishi bu ulkan fojia, avvalo bu fojia hech kimning boshiga tushmasin, lekin bunday oilalarda marhumning ruhi hurmati, unga nisbatan, uning sha‘niga ijobiy munosabatlar saqlanib qoladi. Biroq er-xotinning ajralishi sababli yuzaga kelgan noto‘liq oilalarda «tirik yetim» bolalar qoladi. Birinchidan, «tirik yetimlik» jamoatchilik o‘rtasida, ayniqsa bolalar jamoalarida (bog‘chada, maktabda, tengdoshlar davrasida) nisbatan kuchliroq qoralanadi. Ikkinchidan, bunday oilalarda ota yoki ona tomonidan, ularning yaqinlari tomonidan sobiq turmush o‘rtog‘i sha‘niga, uning shaxsiyatiga salbiy bo‘yoqlar beruvchi munosabatlar shakllanadi. Sobiq er-xotinlar tomonidan bir-birlarini qoralovchi fikr-mulohazalar ko‘proq bildiriladi.

Bular albatta, bu toifa noto‘liq oilalardagi o‘zaro munosabatlarning shakllanishida qator noxushliklarning yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. ²¹

Ajralish faqatgina ajralgan er-xotinlar emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatar ekan. Ayniqsa ajralish otasiz o‘sayotgan qiz bolaning his-tuyg‘ulariga, otasiga bo‘lgan mehriga, qiz bolada shakllanadigan ota obraziga va otasiz o‘sayotgan qizning ruhiyatiga kuchli salbiy ta‘sir qiladi. Bu esa nafaqat qiz bolaning bolalik davrida balki kelgusida o‘zi mustaqil oila qurganda ham o‘z asoratini ko‘rsatishi mumkin.

Ko‘p tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha va rivoyatlarda ifodalanishicha ilmiy jihatdan o‘z tasdig‘ini topganligi asosida o‘z otasiga mehr va hurmati yetarli ravishda shakllanmagan qiz kelajakda oila qurganda turmush o‘rtog‘iga ham hurmatini yetarli ravishda ifodalay olmaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra ajralish oiladagi otasiz o‘sayotgan o‘g‘il bolaning o‘qishiga va tarbiyasiga salbiy ta‘sir etishi kuchli bo‘lar ekan. Shu bilan birga ajralish

²⁰ Oilani o‘rganish psixodiagnostika metodikalari. Tuzuvchilar: N.A.Sog‘inov, F.G‘.Habibullaev. –T.,: 1996. –38 b.

²¹ Shoumarov Sh.B., Shoumarov G‘.B. Muhabbat va oilaviy hayot. –T.,: —Ibn Sinol, 1996. –96 b.

kelin-kuyovlarning, ota-onalarining ruhiyatiga, salomatligiga, qudalar orasidagi munosabatiga, qarindoshlar va jamoa orasidagi obro‘si va oila byudjetiga salbiy ta‘sir qiladi. O‘ziga xos xususiyatlaridan biri kuyov tomonga nisbatan ko‘pgina mezonlar bo‘yicha kelin tomon, ya‘ni kelinning ota-onalari ruhan ko‘proq jabrlanar ekan.

Ma‘lumki, o‘zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajralishgan oilaga to‘g‘ri keladigan «tirik yetim» bolalar soni o‘zbek oilalarida 2-2,5 martaga ko‘p. Shu bilan birga, «ajralish madaniyati»ning quyi saviyada ekanligi va o‘ziga xos milliy xususiyatlari bilan ifodalanishi o‘zbek oilalarida ko‘proq salbiy oqibatlariga olib keladi. Shunga ko‘ra ajralishlarning salbiy asoratlari o‘zbek oilalarida boshqa millatlar oilalaridagiga nisbatan kuchliroq ifodalanadi.²²

XULOSA

Shuning uchun ham hozirgi vaqtda ajralish muammosini ilmiy asosda o‘rganish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda. Bu o‘rinda ajralish omillari va sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki aksariyat hollarda mahallalarda nikohni bekor qilish borasida o‘tkaziladigan sud ishlarida ajralmoqchi bo‘lgan oila buzilishining asl sababini aniqlab, nikohni bekor qilish ishlarida oddiy xatolarga yo‘l qo‘yilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Oilani o‘rganish psixodiagnostika metodikalari. Tuzuvchilar: N.A.Sog‘inov, F.G‘.Habibullaev. –T.: 1996. –38 b.
2. Shoumarov Sh.B., Shoumarov G‘.B. Muhabbat va oilaviy hayot. –T.: —Ibn Sino, 1996. –96 b.
3. Kovalev S.V. Psixologiya sovremennoy semi. –M.:, 1988.
4. Sulaymonov J.B., Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599
5. www.kitob.uz
6. www.ziyonet.uz

²² www.ziyonet.uz

IJTIMOYIY YETIMLIKNI PROFILAKTIK OLDINI OLISH

Igamberdieva Gulmira Botir qizi

O'ZMU Ijtimoiy ish kafedrası

2 kurs magistiri

Ilmiy rahbar: Alekseeva Viktoriya Sergeevna

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

guli2021@mail.ru

***Annotatsiya:** Bolalar uylari va maktab-internatlarda tarbiyalanayotgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni internat muassasalarining institutsional xususiyatlari uyg'unligi va bu jarayonga bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarining ta'siri tufayli o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilish-iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy kafolatlar majmuasi bo'lib, uning maqsadi yetim bolalarning turmush darajasini o'ta og'ir sharoitlarda saqlash, hayotga moslashishiga yordam berishdan iborat. Bugungi kunga kelib yetim bolalarni ijtimoiy-pedagogik ijtimoiylashtirish tizimini rivojlantirish juda dolzarb bo'lib, nafaqat davlat, balki viloyat va shahar miqyosida ham hal etishni talab etmoqda. Natijada ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ijtimoiylashuvining mintaqaviy tizimini moliyaviy, huquqiy, psixologik-pedagogik ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. BMT ta'rifiga ko'ra yetimlar sonidan tashqari, har ikki ota-ona ham tirik bo'lsa-da, xuddi yetimlardek yashaydigan bolalar ham bor. Adabiyotshunoslar bu holatni "ijtimoiy etim" deb ta'riflaydilar.*

***Kalit so'zlar:** yetim bola, ijtimoiy himoya, patronaj oila, ijtimoiy ishchi, Mehribonlik uylari, ijtimoiylashuv, bolalar muassasalari, profilaktika.*

***Abstract:** The process of socialization of children deprived of orphans and parental care, brought up in children's homes and boarding schools has its own characteristics due to the combination of institutional features of boarding institutions and the influence of psychological and pedagogical characteristics of children on this process. Social protection of orphan children is a complex of economic, social and legal guarantees, the purpose of which is to maintain the standard of living of orphan children in extreme conditions, to help them adapt to life. To date, the development of a system of socio-pedagogical socialization of orphan children is very urgent, requiring a solution not only at the state, but also at the regional and city level. As a result, the issues of financial, legal, psychological and*

pedagogical provision of the regional system of socialization of children deprived of parental care are of urgent importance. In addition to the number of orphans by the definition of the UN, there are children who live just like orphans, although both parents are alive. Literary critics describe this situation as "social orphan".

Key words: *Orphan child, social protection, patronage family, social worker, orphanages, socialization, children's institutions, profilactics.*

KIRISH

Birlashgan Millatlar tashkilotining ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, urushlar, tabiiy ofatlar, talofatlar, ijtimoiy xaos, iqtisodiy muammolar kabi tobora keng tarqalgan global voqealar dunyodagi yetim soniga ta'sir etib, 2015-yilda 140 milliondan oshib ketgan.²³ Islom fiqh adabiyotiga ko'ra, balog'atga yetguncha otasidan ayrilgan bolalarni tasvirlash uchun "yetim" atamasi ishlatiladi. Holbuki, zamonaviy xalqaro adabiyotlarda "etim" atamasi 18 yoshga yetmasdan ota-onasidan bir yoki ikkalasini ham yo'qotadigan bolalarni belgilaydi.²⁴ Jahon aholisining 2,2 milliarddan 7,6 qismibolalardan iborat ekanligini hisobga olsak, dunyodagi bolalar umumiy sonining 6.5% yetim deb taxmin qilinadi; va afsuski, bu raqam aytilgan sabablar tufayli ortib bormoqda.²⁵

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Ijtimoiy yetimlikni profilaktik oldini olish masalalari obyektiv ochib berildi. Ijtimoiy yetimlikni profilaktik oldini olish masalalari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Psixologiya fanning strukturasi tekshirish, bilimlarning tartibini aniqlash, ular tasnifini amalga oshirish alohida o'rin egallaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bolalarning dastlabki ijtimoiylashuvi funksiyasi shundan iboratki, dunyoga kelgan inson bolasi o'zida "aqli odam"ning faqatgina kurtaklari, salohiyatiga ega bo'ladi xolos. Chaqaloq jamiyatga asta-sekin olib kirilishi va "insoniy dastur" bo'yicha rivojlanishi lozim. Aks holda, undagi insoniylik kurtaklari rivojlanmay qolishi, qobiliyatlarning asoslari abadiy o'chishi mumkin.

²³ "Orphans", UNICEF, <https://www.unicef.org/media/orphans>

²⁴ "Yetim", *Islam Ansiklopedisi*, <https://islamansiklopedisi.org.tr/yetim>

²⁵ "World Population Prospects: The 2017 Revision", United Nations, <https://www.un.org/development/desa/publications/world-population-prospects-the-2017-revision.html>

Ko'plab bolalar insoniyatga har yili tibbiyot va bolalar muassasalarida, bolalar uylarida oshno bo'ladilar. Bu hol ko'pincha baxtsiz hodisa tufayli emas, balki ijtimoiy falokat natijasida yuz beradi. Tug'ilishi istalmagan bolalar ota-onalariga kerak bo'lmay qoladi. Yoki bo'lmasa, ona bolani tarbiyalash uchun vositalar va shart-sharoitga ega bo'lmagani sababli undan qachonlardir, hayot yaxshilanib o'z iziga tushganda qaytib olish to'g'risidagi g'ira-shira umid bilan "tilxat berib" voz kechadi. Hattoki, bu bolalar yetarli oziq-ovqat, g'amxo'rlik, tegishli tibbiy xizmat olganlari taqdirda ham ularning rivojlanishi gospitalizm sindromi – kommunikativ -hissiy aloqalarning yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan oqibatlar tufayli xiralangan bo'ladi, bunday bolalar odatda, faqat intellektual jihatdan emas, balki jismoniy rivojlanishda ham orqada qoladilar, ularning tili kechroq chiqadi, keyinroq ularda muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar namoyon bo'la boshlaydi, bu qiyinchiliklarni har doim ham, hatto yuqori malakali tibbiy-pedagogik korreksiya yordamida ham bartaraf etib bo'lmaydi.

Oila bolalarning ijtimoiylashuviga faqatgina o'zining mavjudligi bilan emas, balki qulay axloqiy-ruhiy iqlimi, barcha a'zolari o'rtasidagi sog'lom munosabatlar orqali ta'sir o'tkazadi.

Ijtimoiy yetimlikni ko'payishining oldini olishning samarali pedagogik shartlari:

- yetim bolaning mustaqil hayotga muvaffaqiyatli moslashishi uchun asos bo'lgan shaxsni o'zini himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish;
- taqlid qilinadigan va haqiqiy hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf etishda yetim bolalarning faoliyatini rag'batlantirish;
- o'z imkoniyatlariga ishonchni oshirish, boshqalarning tajovuzkorlik holatida konstruktiv pozitsiyalardan ijobiy hissiy aloqa tajribasini olish;
- o'zingizni, harakatlaringizni va harakatlaringizni, harakatlaringizni va boshqa odamlarning harakatlarini yetarli darajada baholash uchun o'rnatishni shakllantirish, qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishning mumkin bo'lgan oqibatlarini tahlil qilish.

Ijtimoiy yetimlarning ko'payishining oldini olish uchun quyidagi faoliyat yo'nalishlari mavjud:

- ❖ yetim bolaning shaxsiy rivojlanishining xususiyatlarini tuzatish;
- ❖ bolalar va kattalar bilan tenglik tamoyillari asosida munosabatlar tizimini shakllantirish, boshqa shaxsning fikri va pozitsiyalarini hisobga olish;

- ❖ intizomga ongli munosabatda bo'lish sharoitlarini yaratish va qaror qabul qilish va harakatni amalga oshirishda muqobil tanlash qobiliyatlarini shakllantirish;
- ❖ ta'lim ishining o'zgaruvchan tabiati, uning, shaxsiy javobgarlikni shakllantirish va faoliyatda proaktiv bo'lish qobiliyati;
- ❖ mustaqil ravishda o'zlashtirilgan yetim bolaning yashash joyini kengaytirish.²⁶

Ijtimoiy yetimlarning ko'payishini oldini olishni tashkil etish jarayoni muayyan qonunlarga bo'ysunadi:

- ✚ birinchisi profilaktik jarayonning samaradorligi va bolaning ijtimoiy his-tuyg'ularini shakllantirishning o'zaro bog'liqligini nazarda tutadi;
- ✚ ikkinchisi - profilaktik jarayonning samaradorligini ushbu bolalarda uning mazmunini maqsadga yo'naltirishga bog'liqligi, ularning aqliy, jismoniy va shaxsiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar va imkoniyatlarini nazarda tutadi;
- ✚ uchinchisi-profilaktika jarayonining samaradorligi va muammolarni ta'minlashning yetarliligi o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro bog'liqlikni nazarda tutadi.

Patronaj oilalari hozirgi vaqtda yetim bolalarning ijtimoiy moslashuvining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Bola, haqiqatan ham, oila muhitiga "sho'ng'iydi", chunki u katta o'qituvchi bo'lib, unga g'amxo'rlik qiladi va uning rivojlanishini kuzatadi. Lekin homiylik oilalar eng muhimi kafolat bermaydi-bola, albatta, bir oilada bo'ladi deb. Ba'zi bolalar 7-10 yil davomida bir nechta oilalarni almashtiradilar.

Ijtimoiy yetimlikning oldini olish shakli ijtimoiy ishchini o'z joyida ishlashiga imkoniyat yaratib berish, aynan Ijtimoiy xodimning bosh vazifasi - oilaning muammolariga kirib borish, bola qarovsiz bo'lib qolguniga qadar unga yordam ko'rsatish; bolani oilada ushlab turish, uning ketib qolishiga yo'l qo'ymaslik, chunki bu narsa bola ko'chaga ketib qolgandan keyin uni izlash, davolash, reabilitasiya qilish va qayta tarbiyalashga sarf qilinadigan xarajatlarga nisbatan minglab marta arzonroqdir. Ijtimoiy ishchi aynan ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bn faoliyat ko'rsatib, ularni oilaga joylashtirishning maqbul yo'lini bolaning vaziyatidan kelib chiqib tanlaydi.

²⁶ Профилактика воспроизводства социального сиротстватема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук Бекова, Эсет Курейшовна

XULOSA

Mehribonlik uylarida yashovchi dunyo bolalarining 80-90% ijtimoiy yetim ekanligi aniqlangan va tadqiqot shuni ko'rsatdiki, 750 xil Mehribonlik uylarida yashovchi 30.000 nafar boladan 80% aslida bitta tirik ota-onasi bor.²⁷ bu yerdan ko'rinib turibdiki, ko'pchilik ota-onalar uchun muayyan muammolarga duch kelganda mavjud bo'lgan yagona yechim ular uchun farzandlarini Mehribonlik uylariga berish hisoblanadi. Natijada hozir ko'p ijtimoiy yetimlar bu oromgohlarda yashashi kerak bo'lib qolmoqda. Shuning uchun masala ijtimoiy yetimlilik faqat shaxslar tomonidan hal qilinishi kerak emas, balki global jamiyat yechim topishda mas'uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Профилактика воспроизводства социального сиротстватема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук Бекова, Эсет Курейшовна
2. "Yetim", *Islam Ansiklopedisi*, <https://islamansiklopedisi.org.tr/yetim>
3. "World Population Prospects: The 2017 Revision", United Nations, <https://www.un.org/development/desa/publications/world-population-prospects-the-2017-revision.html>
4. "Orphans", UNICEF, <https://www.unicef.org/media/orphans>
5. "Every child needs the love of family", Global Child Advocates, <https://globalchildadvocates.org/socialorphans>

²⁷ "Every child needs the love of family", Global Child Advocates, <https://globalchildadvocates.org/socialorphans>

BANK KREDITLARI GAROV TA'MINOTINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.

*Toshkent arxitektura qurilish insituti
Ko'chmas mulkni baholash va boshqarish yo'nalishi 2 kurs magistranti
Taylaqova Zarifa Abdumalik qizi
zarifatayloqova@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada banklarning kredit ta'minotini baholashda ma'muriy yondashuvlarga barham berish va bu baholash tashkilotlari o'rtasida o'zaro raqobatni kuchaytirish va garov ta'minotini haqqoniy va oqilona baholash, kredit ta'minoti sifatida olingan mol-mulkni zarur hollarda sotish, bank kreditlari ta'minotiga qo'yilgan garovni baholashda yuqori malakali va tajribali baholovchilarni jalb etish, bank kreditlari ta'minotini baholash bo'yicha tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish bilan bog'liq muammolar yoritilgan.

Kalit so'zlar: bank kreditlari, garov ta'minoti, baholash usullari, xarajatli, daromad va qiyosiy yondoshuvlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, связанные с устранением административных подходов в оценке кредитного предложения банков и через эту оценку взаимной конкуренции между организациями и справедливой и обоснованной оценкой залогового предложения, реализацией имущества, полученного в качестве кредитного предложения в необходимых случаях, привлечением высококвалифицированных и опытных оценщиков при оценке залогового предложения.

Ключевые слова: банковские кредиты, обеспечение, методы оценки, стоимость, доход, сравнительный подход.

Annotation: In this article, the problems related to the elimination of administrative approaches in the evaluation of credit supply of banks and through this evaluation of mutual competition between the organizations and fair and reasonable assessment of collateral supply, sale of the property obtained as a credit supply in necessary cases, attraction of highly qualified and experienced appraisers in the evaluation of the collateral.

Keywords: bank loans, collateral, valuation methods, cost, revenue and comparative approaches.

KIRISH

Mamlakatimizda bank kreditlari bo'yicha garov ta'minotini baholash amaliyotini takomillashtirish, xususan, banklarning kredit ta'minotini baholashda ma'muriy yondashuvlarga barham berish va bu orqali baholash tashkilotlari o'rtasida o'zaro raqobatni kuchaytirish ustuvor masalalardan biri. «Bank kreditlari garov

ta'minotini baholash amaliyotini takomillashtirish yo'llari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar shu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Garov ta'minotini haqqoniy va oqilona baholash, kredit ta'minoti sifatida olingan mol-mulkn zarur hollarda sotish, bank kreditlari ta'minotiga qo'yilgan garovni baholashda yuqori malakali va tajribali baholovchilarni jalb etish, bank kreditlari ta'minotini baholash bo'yicha tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish bilan bog'liq muammolar tahlil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasibaholashning nazariy asoslarini o'rganish orqali iqtisodiy mohiyatini ochib berish, bank kreditlari garov ta'minotini baholashning xarajat, daromad va qiyosiy yondashuvlarini tahlil qilish vazifalari belgilab olindi. Albatta, har bir ilmiy ishning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va yangiligi mavjud. Mazkur ilmiy ish ham bu kabi yangi g'oya va tashabbuslardan xoli emas. Bugungi kunda texnologik uskunar sotib olish uchun xorijiy valyutada ajratilayotgan kreditlar bo'yicha garov ta'minoti sifatida uskunalar qabul qilish bilan birga eksport operatsiyalari va shartnomalarini ham hisobga olish tartibi ishlab chiqilgan. Shuningdek, bank kreditlari bo'yicha transport vositalar, mashina va uskunalar garov sifatida qabul qilinganda amortizatsiya muddatini hisobga olish orqali garov riskini kamaytirish yo'llari belgilab berilgan. Bank kreditlari bo'yicha garov riskini pasaytirish maqsadida garov aktivlari portfelida yuqori likvidli aktivlarni diversifikatsiyalashning asosiy yo'nalishlari sifatida tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari mavjud. Tadqiqot ishi davomida bank kreditlari garovi bo'yicha baholashda yo'l qo'yiladigan miqdorlarni aniqlashga asosiy masala sifatida e'tibor qaratiladi. Asosiy masaladan kelib chiqqan holda ishchi gepoteza sifatida bevosita bank kreditlari garov ta'minotini baholashga doir tadqiqotlarini yanada takomillashtirish g'oyasi ilgari surilmoqda.

Baholash tashkilotlari va baholovchilar faoliyatini tashkil etish, shuningdek bank kreditlari garov ta'minotini baholashning xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bank kreditlari bo'yicha qo'yilgan ko'chmas va ko'char mulklarni baholash tartibi boshqa xo'jalik sub'ektlarining buyurtmalari uchun amalga oshiriladigan baholash jarayonidan deyarli farq qilmaydi. Bank kreditlari garov ta'minotini baholash jarayonini tashkil etish va amalga oshirish bosqichlari tavsiya qilindi(1-jadval).

Bizning nazarimizda, baholash jarayonini tashkil etishda bankning vakolatli xodimining ishtiroki juda muhim hisoblanadi. Chunki, kreditning to'lovi bilan og'liq

muammo vujudga kelganda garov hisobidan ushbu riskni bartaraf etish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Baholash jarayonini tashkil etish bosqichlari

Bosqichlar	Bosqichlarning mazmuni	Amalga oshiriladigan ishlar
<i>1-bosqich</i>	Baholovchi bankning va kredit oluvchining vakolatli xodimi bilan texnik jihatlarini kelishib olish	Baholanayotgan ob’ekt aniqlanadi, uni baholash jarayoni zarur ma’lumotlar hajmi va ularni shakllantirish tartibi, baholash jarayonida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklar va chegaralar hamda baholash o‘tkazish muddatlari kelishib olinadi
<i>2-bosqich</i>	Shartnoma tuzish	Shartnoma ikki tomonlama yoki uch tomonlama bo‘lishi mumkin. Uch tomonlama shartnomada bank ham buyurtmachi sifatida baholash haqidagi hisobotni olish va imzolash huquqiga ega bo‘ladi.
<i>3-bosqich</i>	Joriy maslahat	Baholovchi bankning vakolatli xodimini garov ta’minoti bo‘yicha kredit muddati amal qilgan davrida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli holatlar haqida ogohlantiradi, shuningdek ayrim masalalarni birgalikda muhokama qiladi.
<i>4-bosqich</i>	Baholovchi bankga qisqa hisobot-rezyume taqdim etish.	Baholovchi garov ta’minoti sifatida baholanayotgan ob’ektning bahosi yuzasidan bankka qisqa hisobot rezyume taqdim etgandan so‘ng u bo‘yicha e’tirozlar bo‘lmasa hisobotni tayyorlashga kirishadi.
<i>5-bosqich</i>	Buyurtmachiga taqdim etish	Ob’ektning baholash haqidagi hisobotni buyurtmachiga taqdim etadi.

Amaliyotdan ma'lumki, tijorat banklari ayrim hollarda muammoli kreditlarni garov hisobidan so'ndirishga majbur bo'lganda garov bilan bog'liq egalik huquqi, kadastr tasdiqlagan loyiha, foydalanish imkoniyatlari kabi qator muammolar vujudga keladi. Bularning barchasi, baholash jarayonida bankning vakolatli xodimini ishtirok etishi va uch tomonlama shartnoma tuzish bilan ma'lum darajada o'zining yechimini topadi. Biroq, mamlakatimiz amaliyotida kredit oluvchining ta'minot ob'ektini baholash jarayonida bankning vakolatli xodimi bevosita ishtirok etmaydi. Fikrimizcha, ushbu jarayonni tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish orqali garov ob'ektini baholash jarayonida bankning vakolatli mas'ul xodimini bevosita ishtirok etishini belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Bunda mas'ul xodim bozor qiymatini aniqlash bo'yicha baholash hisobot tuzulgunga qadar garov mulkining ochiq bozorda sotilish darajasi; kredit shartnomasi muddati davomida garov ob'ektining qiymati o'zgarishi; garov ob'ektini auksionda sotish va boshqa ko'zda tutilmagan xarajatlar vujudga kelganda ularning garov ta'minoti qiymatiga ta'siri; garovga qo'yilayotgan ob'ekt kredit oluvchiga qanchalik darajada zarur va uning biznes faoliyatida qanday rol o'ynashi kabilarga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Tahlillar va o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda bank kreditining garov ta'minoti sifatida qo'yilgan ob'ekt bo'yicha garov ob'ekti hisobidan muammoli kreditlarni so'ndirishda uni realizatsiya qilish hamda garov ta'minotini baholash jarayonida bankning ishtirok etmasligi bilan bog'liq ziddiyatli holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda o'z-o'zidan bank kreditlari garov ta'minotini baholash jarayoniga ta'sir etuvchi talab va taklif omiliga e'tibor qaratish talab etiladi.

Ma'lumki, baholashning xarajat, daromad va qiyosiy yondashuvlari mavjud bo'lib, bunday amaliyot bank kreditlari garov ta'minotini baholashda hamqo'llaniladi. Bank kreditlari garov ta'minotini baholashdagi yondashuvlar, qo'llash usullari, har bir yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

«Baholovchi yondashuvning birini tanlashdan oldin uning oldida turli xil variantlar paydo bo'ladi. Bunday yondashuvlarning barchasi bitta bozordagi qiymatlarga asoslangan bo'lsa ham, lekin ular bozorning turli xil segmentlaridagi ma'lumotlar hisoblanadi. Rivojlangan bozorlarda barcha hisob-kitoblar aynan bir xil qiymatni keltirib chiqarishi lozim. Ammo real hayotda rivojlangan bozorlarning o'zi mavjud emas, ya'ni talab va taklif hech qachon tenglikda saqlanmaydi».

**Bank kreditlari garov ta'minotini baholash yondashuvlari qo'llanilishi,
afzalliklari va kamchiliklari.**

Aniqlash usullari	Qo'llash shartlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Daromad yondashuvi			
1. Daromad larni kapitallash tirish usuli	Bir maromda daromadlar olayotganda	<p>*Garov o'ektining haqiqiy bahosini muqobillik asosida aniqlashga xizmat qilishi.</p> <p>*Muammoli kreditlar yuzaga kelganida banklarning kredit lari bo'yicha yo'qotishlarining oldini olishga qaratilishi.</p> <p>*Garov ob'ektidan bank tomo nidan samarali foydalanish yo'nalishlarini aniqlab olish imkonini berishi.</p> <p>*Garov ob'ektiga nisbatan foyda olish manbai sifatida ham yondashuv shakllanishiga xizmat qilishi va boshqalar.</p>	<p>*Barcha hisob-kitoblarning bashorat ma'lumotlari va ekspertlarning dastlabki xulosalari asosida amalga oshirilishi.</p> <p>*Garov ob'ektining haqiqiy baho sini aniqlash bilan bog'liq muammo larning yuzaga kelishi mumkinligi.</p> <p>*Baholanayotgan ob'ekt to'liq qurib bitkazilmagan va to'liq daromad beradigan darajaga yetkazilmagan holatlarda xatoliklar ehtimoli yuqori.</p> <p>*Inflyatsiya sharoitida daromad yondashuvini qo'llashning kutilgan samarani bermasligi va boshqalar.</p>
2. Pul oqimlarini diskontlash usuli	Barcha ob'ektlarga qo'llash mumkin		
Xarajat yondashuvi			
1.Sof qiymat usuli	Ishonchli va asosli buxgalteriya balansiga ega bo'lishi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lmasligi	<p>*Garov ob'ektining tarkibiy qismlari asosida baholash amalga oshirilishi mumkin.</p> <p>*Garov ob'ektining eskirish darajasi va texnologiyalarning joriy holati hisobga olinadi.</p> <p>*Baholash natijalari moliyaviy hisob-kitoblarga asosan aniqlanadi.</p>	<p>*Baholash sanasida garov ob'ekti bo'yicha bozor holati inobatga olmaydi, baholash hujjatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi</p> <p>*Garov ob'ekti qiymati belgilanayotganda garov</p>

		*Garov ob'ekti qiymati o'zgarishiga undan foydalanish yo'nalishlari ta'sir ko'rsatadi.	riski bilan bog'liq yo'qotishlarga e'tibor qaratilmaydi. *Garov ob'ekti keltirishi mumkin bo'lgan daromad e'tibordan chetda qoladi. *Kreditorning joriy va istiqboldagi holati hech qanday ahamiyat kasb etmaydi.
2. Tugatish qiymati usuli	Faoliyatni to'xtatish, aktivlarni sotish va majburiyatlarni bajarish		
Qiyosiy yondashuv			
1. Kapital bozori usuli	O'xshash ob'ektlar bo'yicha ma'lumotlar etarli bo'lishi zarur	*Garov ob'ekti qiymati o'xshash ob'ektlarning bozordagi bahosi tahliliga asosan belgilanadi. *Garov ob'ekti bahosi bozordagi joriy savdo amaliyotlari asosida belgilanadi. *Aksiya va obligatsiyalar bahosiga tarmoq omillarining ta'sirini hisobga oladi. *Rivojlangan bozor sharoitida garov ob'ektining real baho sini belgilab beruvchi yondashuv hisoblanadi.	*Hisob-kitoblarda aktivlar baho lari bo'yicha keskin o'zgarishlarning inobatga olinmasligi. *Tahlil qilinayotgan ma'lumotlar da ko'pgina tuzatish va o'zgartirish lar kiritilishi mumkinligi. *Investorlarning kelgusidagi daromadlilikini hisobga olishni nazarda tutmaydi. *Ayrim holatlarda ma'lumotlar bazasining mavjud emasligi qo'shimcha murakkabliklarni keltirib chiqarishi.
2. Bitimlar usuli			
3. Tarmoq koeffitsientlari usuli			

Yuqorida ko'rib chiqilgan baholash yondashuvlarining amaliyotda qo'llanilishi bo'yicha to'xtalib o'tamiz. Amaliyotda qo'llanilgan yondashuvlar doirasida olingan natijalarni muvofiqlashtirish amalga oshiriladi. Baholash natijalarini muvofiqlashtirish – baholashga nisbatan turli yondashuvlar yordamida

olingan natijalarni o'lchash va taqqoslash yo'li bilan baholash ob'ektining yakuniy qiymatini aniqlashdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Bank kreditlari garov ta'minotini baholash usullari va muammolari doirasida amalga oshirilgan o'rganishlar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar va takliflar ishlab chiqildi:

Xorijiy mamlakatlarda garov ta'minotini, shu jumladan, bank krediti garov ta'minotini baholash, ularga ta'sir qiluvchi omillarni ta'siri bo'yicha ko'p yillik nazariy va amaliy ilg'or tajriba to'plagan. Ushbu davlatlarning ilg'or tajribalari va qonunchiligini o'rganish hamda ularni mamlakatimiz bank amaliyotiga qo'llash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bank kreditlari garov ta'minotini baholash – bankdan kredit olish maqsadida kredit oluvchi tomonidan taqdim etilgan mulkning real bahosini baholovchi tashkilotning baholash yondashuvlari asosida aniqlashga qaratilgan faoliyatidir.

Bank krediti garov ta'minoti sifatida qabul qilinayotgan holda mulkning bozor bahosi muhim hisoblanadi, aynan shu jarayon banklarning krediti bo'yicha qo'yilayotgan garov ta'minotini baholashning zaruriyatini vujudga keltiradi. Bank krediti bo'yicha garov ta'minotini baholashda bank (mamlakatimiz baholash amaliyotida banklar ishtiroki mavjud emas), kredit oluvchi (uning garovga qo'ygan ko'char va ko'chmas mol-mulki) va mustaqil baholovchi tashkilot ishtirok etadi.

«Garov to'g'risida»gi Qonunga bank krediti garovi sifatida qo'yilayotgan ko'char yoki ko'chmas mulkni baholashning zarurligi haqidagi alohida modda kiritish maqsadga muvofiq. Bu, o'z navbatida, bank kreditlari va garov munosabatlarini samarali tartibga solish imkonini beradi.

«Bank kreditlari garov ta'minotini baholash» tushunchasiga «bankdan kredit olish maqsadida kredit oluvchilar tomonidan taqdim etilgan mulkning real bahosini (bozor qiymatini) baholovchi tashkilotning baholash yondashuvlari asosida aniqlashga qaratilgan faoliyati» sifatida mualliflik ilmiy ta'rifi shakllantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Murojaatnoma (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
- 2.«Baholash faoliyati haqida» gi Qonun 19.08.1999 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2008 yildagi №PQ-843 sonli Qarori.

4. 10-sonli mulkni baholashning milliy standarti (MBMS №10) (O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasining 2009 yil 12-oktyabrdagi 01/19-18/21-son qaroriga ilova, O‘zbekiston Respublikasi xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish bo‘yicha Davlat Qo‘mitasi tomonidan 18.08.2015 yildan chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasi “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga izoh.

TRANSLATION IS A SELF-PORTRAIT OF THE TRANSLATOR.

Burxonova Zarina Baxodir kizi

Second year student of Uzbekistan State World Languages University

Mail: burxanovazarina@gmail.com

Phone: +998 (91) 982-94-32

Annotation: *The article analyzes how important it is to convey not only the meaning of the translated work, but also the personality of the author, culture and morality. In order to convey the meaning of the translated work to the listener, it is necessary to make full use of the literature. To do this, the interpreter must adhere to the culture of speech.*

Key words: *communication, personality, style and rhythm, contemporary of the translator.*

Аннотация: *В статье анализируется, насколько важно передать не только смысл переведенного произведения, но и личность автора, культуру и нравственность. Чтобы донести до слушателя смысл переведенного произведения, необходимо в полной мере использовать литературу. Для этого переводчик должен придерживаться культуры речи.*

Ключевые слова: *общение, личность, стиль и ритм, современник переводчика.*

THE TRANSLATOR FROM THE CREATOR ONLY ROSE IN NAME.
VASILY TREDIAKOVSKIY.

INTRODUCTION

Translation can be considered as the most important means of intercultural communication, when the thoughts of the speakers of another language are expressed by means of one language. If we talk about the types of human activity, translation, undoubtedly, is one of the most ancient, associated with the need of the human world for communication and understanding. Whatever the translations, they can be considered good, deserving of praise, if they convey the most important thing: the individuality of the translated author in all the originality of his style, that is, the personality that the author describes. It is from literary translation that we demand that it reproduce before us not only the images and thoughts of the translated author, not only his plot schemes, but also his literary manner, his creative personality, his style. If this task is not completed, the translation is worthless. This is slander against the writer, which is all the more disgusting in that the author almost never has the

opportunity to refute it. This slander is very diverse. Most often, it consists in the fact that instead of the true personality of the author, another person appears before the reader, not only not similar to him, but clearly hostile to the author.

REFERENCES AND METHODS

In the course of researching this article, books on speech culture were methodologically analyzed. The objective method of scientific knowledge was used in the research process.

DISCUSSION AND RESULTS

When Simon Chikovani, a famous Georgian poet, saw his poem translated into Russian, he turned to the translators with a request: "I ask them not to translate me at all."

By this he wanted to say that he does not want to appear before Russian readers in the fantastic form that translators give him. In the words of Chikovani himself: "If the translators are not able to reproduce my true creative personality in translation, let them leave my works alone."

For he does not mean that a bad translator will distort this or that line, but that he will distort Chikovani himself, give him a different face.

"I," says the poet, "opposed the sugaring of Georgian literature, against kebabs and daggers in my work." And in the translation "there were kebabs, wine, wineskins, which I did not have and could not have, because, firstly, this was not required by the material, and secondly, kebabs and wineskins are not my installation" [1]

It turns out that instead of the real Chikovani, we were shown someone else who not only does not look like him, but is deeply hated by him - the dagger figure of a Caucasian who is just right to dance Lezginka on the stage. Meanwhile, it was with such a barbecue interpretation of the Caucasus that Chikovani fought in his poems. So the translator in this case acted as an enemy of the translated author and forced him to embody in his work the tendencies, ideas and images he hated.

Because, willingly or unwillingly, the artist reflects himself in his style.

Often it happens that the translator is only concerned about how to more accurately, more truthfully convey in their native language works of a particular writer, whom they even love in their own way, but the gap that lies between their aesthetic, political and moral views, fatal causes the translator, despite his subjective intentions, to depart far from the original text. Nikolai Zabolotskiy, a remarkable artist of the word, has always made the sternest demands on the skill of the translator. In this is the main danger of bad translations: they pervert not only individual texts, but also the very essence of the creator being translated. This happens far more often than is claimed. The translator, for example, puts on a self-made mask on the creator and passes off this mask as his living person. Because it is

a matter of manner, every creation of the artist is, in fact, his self-portrait, for, freely or unwillingly, the designer displays himself in his manner.

It often happens that the translator, in fact, only worries about what, as it were, it is more correct, more truthful to convey in his native language the works of the same or another writer, whom he also prefers from his point of view, but the abyss lying between their aesthetic, political and moral views, fatally forces the translator, in spite of his personal plans, to move away from the unique word. Nikolai Zabolotskiy, an excellent text designer, has always demonstrated cruel requests for the professionalism of a translator.

“If,” he wrote, “a translation from a foreign language does not read like a good Russian work, then this translation is either mediocre or unsuccessful” [2]

Before undertaking the translation of any foreign author, the translator must accurately establish for himself the style of this author, the system of his images, and rhythm.

He should read this author aloud as often as possible in order to catch the tempo and cadence of his speech, which are so essential not only in poetry but also in fictional prose. For example, one cannot translate "Ossian" without reproducing his inner music. It is impossible to convey John Ruskin, or Walter Pater, or other masters of rhythmic ornamental prose, without reproducing the varied pulsation of rhythms in which the main charm of these authors is.

Fiction, much more often than is commonly thought, tends to cadence, to a rhythmic sequence of vocal rises and falls, to alliteration and internal rhymes. “[The rhythm of prose],” says Andrei Fedorov, “is created not so much by the correct alternation of sound units (for example, stressed and unstressed syllables, whole groups of syllables, male and female endings), but by the ordered arrangement of larger semantic and syntactic elements of speech by their following in a certain order - repetitions of words, parallelisms, contrasts, symmetry, the nature of the connection of phrases and sentences.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

To sum up, I want to note that the translator must reveal the true meaning of the translation activity, which has been carried out from ancient times to our time, he should understand that its development is determined by two major trends, the first of which implies an orientation towards the original text, the second implies an orientation towards features of the perception of the life of the reader, contemporary of the translator. Accordingly, the translator faces mutually exclusive tasks - to translate someone else's text from one language to another, but at the same time create a truly fictional work; convey all the linguistic, figurative, national, historical features of the original text, but present them in such a way that they are understandable and close to the modern reader; to recreate the spirit of another era,

another culture, but in such a way that it finds a response in who the translated text is intended for.

REFERENCES

1. "Literary Gazette", 1933 √38
2. N. Zabolotskiy "Mastery of translation".
3. Pulatov, Sh., Madalimov, T., Mullajonov, I., Qodirov, M., & Valiyev, L. (2020). Some Characteristics of Modern Indian Philosophy. International Journal of Multidisciplinary Research and Publications, 2(11), 47-49.
4. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
5. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
6. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
7. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
8. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYA VA DO'STLIK MASALALARI

Sodiqova Shirin Baxtiyarovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
shirinsadikova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning asosan didaktik janrda yozilgan ruboiy va g'azallari tahlilga tortilgan. Ularning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ahamiyati misollar yordamida yoritilgan. Navoiy asarlarining bugungi kundagi ahamiyati tahlil etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: didaktika, obraz, ruboiy, g'azal, nazm, navo, nasr, janr.

Аннотация. В статье анализируются рубай и газели Алишера Навои, написанные преимущественно в дидактическом жанре. Их значение в современной общественно-политической жизни иллюстрируется примерами. Проанализировано значение произведений Навои сегодня.

Опорные слова и выражения: дидактика, образ, рубайи, газель, назм, наво, проза, жанр.

Abstract. The article analyzes the rubai and gazelles of Alisher Navoi, written mainly in the didactic genre. Their importance in modern social and political life is illustrated by examples. The significance of Navoi's works today is analyzed.

Key words and expressions: didactics, image, rubaiy, gazelle, nazm, navo, prose, genre.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar asri bo'lgan bugungi kunda ta'lim-tarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Lekin tarbiya masalasi sharq xalqlarida doimo etakchilik qilgan va o'z qiymatini hech yo'qotmagan. SHarqona ta'lim va tarbiya dunyo miqyosida ham alohida o'ringa ega. SHarq madaniyatida ta'lim-tarbiya masalalari yoritilgan didaktik ruhdagi asarlar Mir Alisher Navoiy nomi bilan bog'liqdir. Navoiy o'z asarlarida axloqiy qarashlarini yaxshi fazilatlar bilan birga yomon illatlarni ham ko'rsatish orqali ifoda etadi. Uning nazdida insoniylik yaxshi g'oyalarga amal qilish va uni targ'ib etish bilan bog'liqdir, turli illatlar esa odamni insoniylikdan uzoqlashtiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tadqiq etish jarayonida Alisher Navoiyning asarlari metodologik jihatdan olindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Alisher Navoiy asarlarida ustoz-shogirdlik masalasi obyektiv ochib berildi. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi kitobi mantiqiy izchillik sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

*Nokasu nojins avlodin kishi bo‘lsin debon
CHekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami –
Kim kuchuk birla xo‘tukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmas aslo odami²⁸.*

Haqiqatdan ham jonzotlar orasida faqat insongina ta‘lim-tarbiyasi tufayli barcha mahluqotlardan ajralib turadi. Biroq unda yoshlik davridanoq yovuzlik, adovat, hasad, tuhmatchilik va yolg‘onchilik kabi illatlar shakllansa, uni har qancha tarbiya etilgani bilan bartaraf etib bo‘lmaydi. Zero, tarbiya insondagi o‘zgarmas hislatlardandir. Tarbiyani inson dunyoga kelishi bilanoq, balki ona qornidaligidanoq boshlamoq zarur ekanligini g‘azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy mahorat bilan yuqoridagi misralarda ifoda etgan. SHuningdek, Navoiy faqat ta‘limotlar orqali insonga ta‘sir etib bo‘lmashligini yaxshi biladi. Ba‘zan insonga yomon xulqli va badfe‘llar davrasida bo‘lmoqlik ham yaxshi ta‘sir ko‘rsatishi aytib o‘tiladi. Negaki inson faqat yaxshi muhitda yashasa, yaxshilar qadriga etmasligi mumkin. Navoiy asarlaridan yaxshilarga alohida hurmat e‘tibor ko‘rsatish, shu bilan birga badfe‘l odamlar bilan ham murosaga kelishlik insonga xos fazilat ekanligini tushunish mumkin.

Ma‘lumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so‘zining ma‘nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lgan kishi, demakdir²⁹. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular, fazilat va illatlar, ezgulik va yovuzlik, do‘st va dushmanlik, diyonat va hiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahorat bilan aks ettirilgani e‘tiborga molikdir.

*Nafsing etsa shuxlug‘, charx emgagidin qil adab,
Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib³⁰.*

²⁸ Алишер Навоий “Хикматлар”. Ўзбекистон. – Т. 2011. – Б.8.

²⁹ Ўша асар. – Б. 3.

³⁰ Ўша асар. – Б. 19.

Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridan olingan mazkur misrada bolaga yoshligidanoq etarli va to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya berish kerakligi, bu nechog‘lik mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondoshish zarurligi uqtiriladi.

SHuningdek, “Devoni foniy” da shunday misralar keltiriladi:

*Ba piri, ey javon, gar davlati ayn ul-yaqin hoqi,
G‘ubori rohi piron to‘tiyo kun dar javoniho.*

YA’ni, ey yigit, qariganda asl haqiqat gavharini topishni istasang, yoshlikda ulug‘lar izi tuprog‘ini ko‘zingga to‘tiyo qil³¹. Darhaqiqat, yaxshi xulqlilar bilan birga bo‘lish, ular suhbatidan o‘rganish insonni komillikka erishtiradi.

Navoiy asarlari orqali hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan ijtimoiy masalalarga mohirona yondoshgan tarbiya, ta‘lim masalasidagi etkchi muammolardan biri bu millatlararo hamjihatlik masalasi ekanligini yaxshi bilgan. O‘rta asrlarda mahorat va odillik bilan qayd etib o‘tilgan mazkur muammo, bugungi kunda etakchilik qilmoqda. Alisher Navoiy turli xalq va millat vakillarini samimiyat bilan sevadi, ularni hurmat qiladi. Uning qaysi bir asarini olmang, turli xalq vakillari obraziga duch kelasiz, unda ularning do‘stlik, birodarlik g‘oyalari jo‘shqin ifoda etilganligini ko‘rasiz:

Ko‘ngulni olsa malohat bila tafovut yo‘q,

Xitoyi o‘lsinu yo armani va yo hindu...

Men tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab

Menga lo‘li bila hindu, anga qo‘ng‘irotu qiyot³²

kabi misralarda u xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, tengma-teng qo‘yuvchi belgilarga e‘tiborni jalb etadi hamda insonni irqi, elati, etiqodiga qarab, unga turlicha munosabatda bo‘lish kabi yomon illatlarga qarshi kurashadi. Bugun dunyoda ba‘zi xalqlar, davlatlar va millatlar orasida bo‘layotgan turli mojarolar, birodarkushlik urushlarining oldini olish, xalqlarni do‘stlikka chorlash g‘oyalari shoir oldindan bashorat qilgandek tuyuladi.

Alisher Navoiyning ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya masalalariga fikrlarida insonparvarlik g‘oyalari bosh o‘rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o‘z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo‘lgan umuminsoniylik axloq qoidalarini o‘rgandi, asar qahramonlari obrazida o‘z

³¹ Алишер Навоий “Ҳикматлар”. Ўзбекистон. – Т. 2011. – Б.375 (Форсий ҳикматларни Эргаш Очилов таржима қилган).

³² Иноятлов С. Дўстлик ва адолат куйчиси // Адолат газетаси // 2020 йил, 18-сон

qarashlarini aks ettirdi. “Xamsa” dagi Farhod, SHirin, SHopur, Qays, Layli, Dilorom kabi obrazi fikrimizning yorqin dalilidir.

Buyuk alloma umri davomida ilm-ma’rifatni yuksak qadrlagan va homiylik qilgan. SHoir insonning ma’naviy kamolotini, eng avvalo, uning ilm va hunar sohibi bo’la olganligida, deb biladi. U ilmga o’zidan o’zi erishib bo’lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo’la oladi, deb hisoblaydi.

Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma’no mujassamdir. Ularda ta’lim-tarbiya, ilm-ma’rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o’rinni egallaydi. Masalan,

*Oz-oz o’rganib dono bo’lur,
Qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur.*

Alloma kishi bilimga ega bo’lishi uchun oz-ozdan o’rganib borishi lozimligini, bilimlari yig’ilib insonni komillikka erishishini ta’minlashini uqtiradi. Buni tomchi-tomchi suvlar yig’ilib, daryoga aylanishiga o’xshatadi.

*Haq yo’lida kim senga bir harf o’qitmish ranj ila,
Aylamak bo’lmas ado aning haqin yuz ganj ila.*

Navoiy ushbu misralarida birinchi ustoz tolibiga savod chiqarishda ko’maklashadi, bu bilan uning hayot yo’lini belgilab beradi. Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham to’lay olmaslikni bayon qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, Navoiy ijodiyoti zamon va makon tanlamaydi. Uning asarlaridagi ta’lim-tarbiya, ahloqqa oid fikrlar hozirda ham nazariy va amaliy jihatdan e’tiborlidir. Necha asr avval yozilgan bo’lishiga qaramay, yuqoridagi ruboiy va misralarida keltirilgan odamiylik, samimiylilik, oqillik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, do’stlik, hamjihatlik masalalari sharqona tarbiyada hanuzgacha o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Aksincha, kundan kunga zamonaviy hayotda Navoiyning asarlarini o’rganish, ular asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotda, davlatlararo do’stona munosabatlarni rivojlantirishda ham asosiy omillardan biri hisoblanmoqda.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. Alisher Navoiy “Hikmatlar”. O’zbekiston. – T. 2011.
2. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish. Fan. – T. 2007.
3. Muxtorov A., Sanaqulov U. O’zbek adabiy tili tarixi. O’qituvchi. – T. 1995.
4. Inoyatov S. Do’stlik va adolat kuychisi // Adolat gazetasi // 2020 yil, 18-son.

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA
O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA MUNOSABATLARI**

Salayev Odil Suderovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Yaponshunoslik fakulteti,

Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari

[*odil1246@mail.ru*](mailto:odil1246@mail.ru)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi do‘stlik, strategik sheriklik munosabatlari, ikki davlat rahbarlarining davlat tashriflari va erishilgan natijalar, shuningdek, siyosiy, savdo-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar sohalarda olib borilayotgan samarali ishlari va Markaziy Osiyo bo‘yicha qarashlari haqida qisqacha izoh berish va bugungi kunda ikki davlat o‘rtasida olib borilayotgan siyosiy jarayonlarni tahli qilish maqsad qilingan.

Ishning yangiligi sifatida O‘zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoevning hukumat tepasiga kelishi bilan tashqi siyosat sezilarli tarzda faollashgani va ochiq siyosat rejimiga o‘tilayotganligini ko‘rish mumkin.

Xulosamizga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasida xususan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ham aloqalarni yuqori darajaga ko‘tarish tashqi siyosatning asosiy usvor yo‘nalishi ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida Toshkent Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yaratishga o‘z hissasini qo‘shadi. SHuningdek, ushbu siyosat doirasida mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash bilan bir qatorda iqtisodiy va geosiyosiy jihatlar ham mavjud. Eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish modelini amalga oshirish, milliy eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularning tarqatish markazlarini kengaytirish milliy siyosatning bir qismi sifatida o‘rganish bugungi kun talabi deb hisoblash mumkin.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, Rossiya, Markaziy Osiyo, Raqamli iqtisodiyot, Harakatlar strategiyasi, Atom elektrostansiyasi, Lukoyl, Gazprom.*

Abstract

This article describes the friendship and strategic partnership between Uzbekistan and Russia, the state visits of the two leaders and the results achieved, as well as the effective work in the political, trade, economic, military, technical, cultural and humanitarian spheres. The purpose is to give a brief overview of his views on Central Asia and to analyze the political processes taking place between the two countries today.

The novelty of the case is that with the coming to power of the President of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev, foreign policy has become more active and the transition to an open policy regime.

In conclusion, the high level of relations between the two countries, especially with the Central Asian states, shows that the main priority of foreign policy. As part of the Action Strategy of Uzbekistan for 2017-2021, Tashkent will contribute to the creation of good neighborliness and mutually beneficial cooperation in the Central Asian region. The policy also covers regional security, as well as economic and geopolitical issues. Implementing an export-oriented development model, supporting national exporters and expanding their distribution centers can be seen as a requirement of today as part of national policy.

Keywords: *Uzbekistan, Russia, Central Asia, Digital Economy, Action Strategy, Nuclear Power Plant, Lukoil, Gazprom.*

KIRISH

Prezident SHavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomalarida 2020 yilni – “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qildilar. SHuni mamnuniyat, g‘urur va iftixor bilan ta’kidlash mumkinki, bu murojaatnoma nafaqat 2020 yil uchun qo‘llanma va yo‘llanma vositasida, balkim, O‘zbekistonni yaqin o‘rta muddatga taraqqiyot yo‘lini belgilab beruvchi Dastur sifatida fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy hujjat sifatida baholash mumkin. Umuman, har qanday fan, jumladan, iqtisodiyot, qolaversa, jamiyat matematika yutuqlaridan o‘rinli foydalanmasa yuksaklikka erisha olmaydi. Jahon tajribasida ilm-fan rivojiga asoslanib keskin rivojlanishga erishgan va erishayotgan AQSH, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Singapur, Xitoy, Rossiya kabi qator davlatlarni misol qilib keltirish mumkin.

SHuningdek, “Joriy yilda matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo‘nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratilib beriladi”, deb aniq va ravon ko‘rsatilgan. Murojaatnomada “Raqamli O‘zbekiston – 2030 dasturini ishlab chiqishni ikki oy muddatda yakunlash lozim”, deb aniq vazifalar belgilandi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish esa, o‘z navbatida, puxta matematik ko‘nikmalarni taqazo etadi.³³

Hozirgi kunda O‘zbekiston ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy-gumanitar sohalarda bir nechta davlatlar bilan, jumladan Janubiy Koriya, Xitoy, AQSH, Yaponiya, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bu mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi alohida o‘rin tutadi.

So‘nggi yillarda Rossiya - O‘zbekiston munosabatlari ikki davlat rahbari - SHavkat Mirziyoyev va Vladimir Putinning siyosiy irodasi va sa’y-harakatlari tufayli jadal va izchil rivojlanib bormoqda. Bunday tendensiya nafaqat siyosiy muloqot, balki savdo-iqtisodiy, harbiy, harbiy-texnikaviy hamkorlik, gumanitar hamda madaniy sohalarda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy dunyoda hech bir davlat global iqtisodiyotga integratsiyasiz muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi integratsiya

³³ http://www.economyjournal.uz/maqola/Jumaev_1_son.pdf

darajasi bilan ichki iqtisodiyotning rivojlanish darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjud. Bugungi kunda keng targ'ib etilayotgan raqamli iqtisodiyot ichki iqtisodiyotning rivojlanishida mamlakatlarning global iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasiga bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning etakchi davlatlari YAIMdagi ulushi yil sayin o'sib bormoqda. Masalan, uning AQSH iqtisodiyotidagi ulushi 10,9 foiz, Rossiyada 3,9 foiz, Hindistonda 5,5 foiz, Belarusda 6,5 foiz va Xitoyda 10 foizni tashkil etadi.³⁴

Tashqi iqtisodiy aloqalarning barqarorligi va diversifikatsiyasi milliy iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasi va barqarorligiga, uning tarkibini shakllantirishga, faoliyat samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi raqamlar misolida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab iqtisodiy integratsiya tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lib kelgan.

Ta'kidlash joizki, Rossiya-O'zbekiston ikki tomonlama munosabatlarining yangi bosqichga chiqishi bir qator samarali natijalarga sabab bo'ldi. Bu borada i.f.d., professor N.X.Jumayev ikki davlat o'rtasida olib borilayotgan samarali ishlar haqida to'xtalib o'tgan.

Birinchidan: Shu davr mobaynida o'zaro 70 dan ortiq delegatsiya tashrifi amalga oshirilgan.

Ikkinchidan: Ikki davlat hududlari o'rtasida 21 marotaba hududlararo uchrashuvlar o'tkazilgan.

Uchinchidan: So'ngi yillarda mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 40 foizdan ziyodga o'sgan. Ushbu ko'rsatgichlar aloqalarning bugungi sur'ati va miqyosidan dalolat beradi.

SHu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2017 yil 5 aprel kuni Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chog'idagi qabul marosimida so'zlagan nutqida "Rossiya biz uchun hayot sinovlaridan o'tgan ishonchli strategik sherik va ittifoqchi bo'lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo'lib qoladi" deb aytgan so'zlari buning yaqqol isbotidir.³⁵

Prezident SHavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida mamlakatda olib borilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar jamiyat hayotining turli sohalaridagi ijobiy o'zgarishlarga, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash omili bo'lmoqda.

YUqoridagi fikrlarni tasdig'i sifatida quydagilarni keltirish mumkin:

- Birgina valyutani erkin konvertatsiya qilishga yo'l ochilgani xorijiy, xususan, rossiyalik investorlarning xavotirlariga barham berganini aytish joiz.

³⁴ <https://www.gazeta.uz/uz/2020/02/21/digital-2023/>

³⁵ Мирзиёев Ш.М. "Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз" - Т.: Ўзбекистон, 2017. – бет 381.

- Davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning keng miqyosda izchil rivojlanishi rossiyalik mutaxassislarning o'zbek hamkasblari bilan soliq, moliya va kadastr sohalarida faol tajriba almashayotganliklarida ham ko'rish mumkin.

- Ikki davlat o'rtasida strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, ko'p qirrali, shu jumladan, moliyaviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar moliya, soliq va bojxona organlarini modernizatsiya qilish, byudjetni rejalashtirish, mahalliy byudjetlar mutanosibligiga erishish, moliyaviy nazorat bo'yicha samarali mexanizmlarni takomillashtirish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ilg'or tajriba, texnologiyalar va bilimlarni jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratish, qo'shma loyihalarni moliyalashtirish, Rossiyaning etakchi ta'lim muassasalari negizida soha uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida hamkorlik imkoniyatlari kengaymoqda.³⁶

- Prezident SHavkat Mirziyoev tashabbusi bilan chegaralardan o'tishda "yashil yo'lak" tashkil etilgani natijasida O'zbekiston meva-sabzavotlarini Rossiyaga etkazib berish qariyb 36 foizga oshgani, Rossiyaning etakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani davlatlar o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarining yanada yaxshilanayotganidan dalolat beradi.

- Birgina "Lukoil" kompaniyasi O'zbekistonga 7 milliard dollar investitsiya kiritgani, Qandim gazini qayta ishlash majmuasi ishga tushirilgani, "Rosatom" Atom energiyasi bo'yicha davlat korporatsiyasi bilan energetika sohasida sheriklik va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha kelishuvga erishilgani bugungi kunning yoqqol isboti hisoblanadi.³⁷

MUHOKAMA

2018 yil oktyabr oyida Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning O'zbekistonga tashrifi chog'ida Rossiya O'zbekistonning muhim savdo sherigidir deb ta'kidlab o'tdi.

Hozirda Rossiya - O'zbekiston o'rtasida erkin savdo tartibi amal qilmoqda. Buning natijasida ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 30 foizga o'sgan.

Ikki davlat rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan muzokarlarda tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish, transport va energetika sohalarida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilingan.

Mavzu doirasidagi ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik masalalarining yangi bosqichga o'tganligi o'rganilganda davlat rahbarlari tashrif doirasida umumiy qiymati 25 milliard dollar bo'lgan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hujjatlar imzolangan. SHuningdek, ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida 2019-2024 yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturining qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Muzokarlarda madaniy-gumanitar aloqalarni, ayniqsa, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash

³⁶ <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-prezidenti-rossiya-moliya-vazirini-qabul-qildi>

³⁷ <http://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-vladimir-putin-bilan-uchrashdi>

va turizm sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Hozirda yirik loyihalardan biri hisoblangan Rossiyaning O'zbekiston iqtisodiyotidagi eng yirik sarmoyadori "Lukoil" kompaniyasi ishtirokidagi navbatdagi yirik loyiha amalga oshirildi. Uning umumiy qiymati 3,4 milliard dollardan ortiq. Korxonaya yiliga 8,1 milliard kubometr gaz qazib chiqarish va qayta ishlash quvvatiga ega.

Bundan tashqari Rossiyaning boshqa bir energetika giganti - "Gazprom" kompaniyasi ham O'zbekistonda faol ish olib bormoqda. U o'zbek gazini sotib olish va geologiya-qidiruv ishlarida ishtirok etmoqda. Mahsulotni taqsimlashga doir kelishuvga asosan, "SHoxpaxta" gaz konini o'zlashtirish bo'yicha pilot loyihani amalga oshirish davom ettirilmoqda.

Telekommunikatsiya sohasida "VympelKom" kompaniyasining "YUnitel" MCHJ shu'ba kompaniyasi O'zbekiston bozorida 2006 yildan buyon faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunga kelib, uning umumiy investitsiyalari hajmi 1,15 milliard dollardan ziyod. Kompaniyaning aloqa bozoridagi ulushi qariyb 50 foiz (10 million abonent)ga teng.

Rossiyaning "Evrotsement" xoldingi tarkibidagi "Ohangaronsement" OAJ O'zbekistonda sement ishlab chiqarish quvvati bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Hozirgi kunda xolding tomonidan Toshkent viloyatida "quruq usul" bilan sement ishlab chiqariladigan yangi zavodni barpo etish bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda. CHirchiq qishloq xo'jaligi texnika zavodi AJ bazasida "Rostselmash" zavodi ishtirokida kombaynlar ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxonaya muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.³⁸

SHuningdek, 2018 yilning 7 sentyabr kuni ikki davlat hukumat rahbarlari Abdulla Aripov hamda Dmitriy Medvedevlar uchrashuv chog'ida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy, investitsion va madaniy-gumanitar hamkorlik masalalarini muhokama qildi. Muhokama doirasida atom energetikasi, sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Kelishuv natijasi o'laroq O'zbekiston hududida atom elektr stansiyasini loyihalashtirish va qurish, shuningdek, ishga tushirish va foydalanishda hamkorlikni ko'zda tutuvchi bitim imzolandi.³⁹

SHuningdek, 2018 yil oktyabr oyida Toshkentda ikki davlat Prezidentlari ishtirokida "O'zbekiston - Rossiya" hududlararo hamkorlik forumi o'tkazildi. Bu Rossiya Federatsiyasi sub'ektlari va O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy birliklari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqot uchun doimiy maydonga aylanishiga zamin yaratdi.

³⁸ <http://xs.uz/uzkr/post/vladimir-tyurdenev-rossiya-federatsiyasi-prezidenti-vladimir-putinning-ozbekistonga-davlat-tashrifi-ikki-mamlakat-munosabatlarida-muhim-voqeaga-ajlanadi>

³⁹ <http://xs.uz/uzkr/post/abdulla-aripov-moskvada-dmitrij-medvedev-bilan-uchrashadi>

Rossiya - O'zbekiston munosabatlarining holati va istiqbollarini baholaganda, ikki tomonlama iqtisodiy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish o'rinlidir. Birgina 2018 yilning yanvar - avgust oylarida O'zbekiston tashqi savdosida Rossiyaning ulushi 18,3 foizni tashkil etgan. Binobarin, bu ko'rsatkich Rossiya O'zbekistonning etakchi savdo sherigiga aylanib borayotganligidan dalolat. O'zaro tovar ayirboshlashning ijobiy dinamikasini inobatga olgan holda, 2018 yil yakunida ko'rsatkichlarni besh milliard dollarga etkazish vazifasi qo'yilgani buning yaqqol dalilidir.

NATIJARLAR

Toshkent shahrida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi hududlararo hamkorlik I Forumi davlatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning mustahkamlanishiga va rivojlanishiga zamin yaratdi. Mazkur forumda Rossiyaning 17 ta hududidan 1000 ga yaqin ishbilarmon doira vakillari, yirik kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi.⁴⁰

SHuningdek, 2018 yilning 3 oktyabr kuni Oliy Majlisning ikkala palatasi rahbariyati bilan uchrashuv chog'ida Valentina Matvienko parlamentlararo hamkorlik munosabatlari rivoji xususida OAV vakillariga bergan intervyusida O'zbekiston va Rossiya o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarga ega ekanligi hamda Rossiya uchun O'zbekiston ishonchli ittifoqchi va strategik hamkor mamlakat ekanligini ta'kidladi.⁴¹

Qolaversa, so'nggi uch yilda mamlakatlarimiz o'rtasida barcha sohadagi o'zaro munosabatlar jadallik bilan rivojlanayotganiga e'tibor qaratildi.

Bu o'z navbatida ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar, parlamentlarimiz, hukumatlarimiz, fuqarolik jamiyatlarimiz o'rtasida o'rnatilgan o'zaro muloqotlar izchillik bilan rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa shuki, globallashtirish jarayonlarida hech bir davlat yakka holda muvaffaqiyatga erisha olmasligi, mamlakatlar o'zaro manfaatlaridan kelib chiqqan holda sa'y-harakatlarini birlashtirishi lozim.

O'zbekiston va Rossiya hamkorligi uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasi nihoyatda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Boisi ikki mamlakat ham deyarli bir vaqtning o'zida davlat uchun muhim sanalgan axborot texnologiyalari (IT)ni joriy etish bo'yicha dasturni amalga oshirishga kirishmoqda. Xususan, 2018 yilda Rossiyada "Raqamli iqtisodiyot" hukumat dasturi tasdiqlanib, uch yillik tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. O'z navbatida, raqamlashtirishning yangi bosqichiga kirib kelayotgan O'zbekistonda 2020 yil "Ilm ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi, mamlakat Prezidentining AKT sohasini takomillashtirishga qaratilgan qarorlari hayotga tatbiq etildi.

⁴⁰ <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-rossiya-hududlararo-hamkorlik-birinchi-forumi-boshlandi>

⁴¹ <http://www.xs.uz/uzkr/post/valentina-matvienko-songgi-uch-jilda-mamlakatlarimiz-ortasida-barcha-sohadagi-ozaro-munosabatlar-zhadallik-kasb-etmoqda>

Ikki mamlakat tomonidan mazkur sohada belgilangan maqsadlarni birgalikdagi sa'y-harakatlar asosida amalga oshirish mumkin bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot, texnoparklar faoliyatini yo'lga qo'yish, pochta aloqasini takomillashtirish, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislar malakasini oshirish va IT-mutaxassislarni tayyorlash shular jumlasidandir. Ushbu vazifalarni to'laqonli ro'yobga chiqarishning imkoniyati bor. Zero, O'zbekiston va Rossiya kadrlar tayyorlash jabhasida hamkorlik qilish uchun allaqachon mustahkam poydevorga egadir.

SHu maqsadda hududlararo formatda erishilgan kelishuvlar borasidagi ishlarni kuchaytirishimiz lozim.

2021 yil bo'lib o'tishi kutilayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Rossiyaga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi yaqin kelajakda amalga oshiriladigan ulkan ishlar uchun debocha hisoblanadi.

SHu o'rinda ishonch bilan aytish mumkinki, milliy iqtisodiyot salohiyatini to'la ochish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan yangi-yangi islohotlar Rossiya-O'zbekiston aloqalarini yanada mustahkamlash, Markaziy Osiyoda barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kitoblar

1. Mirziyoev SH.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" - T.: O'zbekiston, 2017. – bet 381.

Vebsayt

1.<http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-prezidenti-rossiya-moliya-vazirini-qabul-qildi>

2. <http://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-vladimir-putin-bilan-uchrashdi>

3.<http://xs.uz/uzkr/post/vladimir-tyurdenev-rossiya-federatsiyasi-prezidenti-vladimir-putinning-ozbekistonga-davlat-tashrifi-ikki-mamlakat-munosabatlarida-muhim-voqeaga-ajlanadi>

4.<http://xs.uz/uzkr/post/abdulla-aripov-moskvada-dmitrij-medvedev-bilan-uchrashadi>

5.<http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-rossiya-hududlararo-hamkorlik-birinchi-forumi-boshlandi>

6.<http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-rossiya-tovar-ajirboshlash-hazhmi-10-milliard-dollarga-etkaziladi>

7.<http://www.xs.uz/uzkr/post/valentina-matvienko-songgi-uch-jilda-mamlakatlarimiz-ortasida-barcha-sohadagi-ozaro-munosabatlar-zhadallik-kasb-etmoqda>

ALISHER NAVOIY E'TIROF ETGAN ISTE'DOD

A.Azizqulov

SamISI dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiy homiyligida Hirotda etishib chiqqan olimlar, xususan, Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosining tarbiyaviy ahamiyati falsafiy jihatdan tahlil etiladi. Maqolada Alisher Navoiyning Husayn Voiz Koshifiyga nisbatan aytgan fikrlari ham yoritilgan. SHuningdek maqolada qomusiy bilim egasi bo'lgan Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy merosi bugungi globallashuv davrida ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, ilmiy meros, axloq, odob, tarbiya, ma'naviy meros.*

Аннотация: *В статье дается философский анализ воспитательного значения научного наследия ученых, выросших в Герате под эгидой Алишера Навои, в частности, Хусейна Ваза Кашифи. В статье также освещены высказывания Алишера Навои о Хусейне Вазе Кашифи. В статье также утверждается, что научное наследие Хусейна Ваза Кашифи, энциклопедиста, имеет большое образовательное значение в сегодняшнюю эпоху глобализации.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, Хусейн Воиз Кашифи, научное наследие, этика, этикет, воспитание, духовное наследие.*

Annotation: *This article provides a philosophical analysis of the educational significance of the scientific heritage of scholars who grew up in Herat under the auspices of Alisher Navoi, in particular, Hussein Waz Kashifi. The article also covers Alisher Navoi's remarks about Hussein Waz Kashifi. The article also argues that the scientific legacy of Hussein Waz Kashifi, an encyclopedic scholar, has an important educational value in today's era of globalization.*

Keywords: *Alisher Navoi, Hussein Voiz Kashifi, scientific heritage, ethics, etiquette, upbringing, spiritual heritage.*

KIRISH

XV asrda Temuriylar saltanatining Movarounnahrda poytaxti Samarqanddagi kabi Xuroson mulkining markazi Hirotda shahri ham ilm-fan va madaniyat markaziga aylanadi. Temuriy shahzodalarning ilm fanga homiyligi, ijodkor olimlarga bevosita ko'magi madaniyat va ma'naviyatning yuksalishiga zamin bo'ladi. O'lkada hukm surgan tinchlik va osoyishtalik, ijod ahliga berilgan erkinlik hamda ularga g'amxo'rlik hosilasi sifatida Hirotda Lutfiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Fasih Havofiy, Qosimi Anvar,

Davlatshoh Samarqandiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Husayn Boyqaro singari buyuk shoir va tarixchilar, rassomlar etishib chiqadilar va o'zlarining sermaxsul ijodlari bilan o'lka xalqlari ma'naviy taraqqiyotida muhim hissa qo'shdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

R.J.Mahmudov Husayn Voiz Koshifiy va Alisher Navoiyning ilmiy ijodini keng o'rgandilar. Alisher Navoiyning ilmiy merosi nafaqat o'tmishda, balki kelajakni ham asoslab beradigan she'riyat poydevoridir.

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xurosonda ilm-fan va san'atning ravnaq topishida buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning xizmati katta bo'lgan. O'zining shaxsiy mablag'i hisobidan robotlar, ko'priklar, hammomlar, shifoxonalar bilan birga ko'plab madrasalarni bunyod ettiradi hamda iqtidorli ilm toliblarini va mudarrislarni o'zining himoyasiga oladi. Alisher Navoiyning bevosita homiyligida barakali ijod qilib ko'plab asarlarni bizga meros qilib qoldirgan Husayn Voiz Koshifiy ham shular jumlasidandir.

Husayn Voiz Koshifiy (1442/46-1505) islom dinining yirik nazariyotchilaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, astronomiya, notiqlik san'ati, tibbiyot kabi sohalarga oid 200 dan ortiq asarlar yozgani ma'lum [1, 241-245]. Husayn Voiz Koshifiyning iste'dodini yuqori baholar ekan, uni o'z himoyasiga oladi, unga yaqindan homiylik qiladi. Alisher Navoiy o'zining «Majolis un nafois» tazkirasida Husayn Voiz Koshifiyga alohida o'rin ajratar ekan shunday deydi: «Mavlono Husayn voiz – «Koshifiy» taxallus qilur. Sabzavorlikdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahardadur va Mavlono zufunun va rangin va purkor voqe' bo'libtur. Oz fan bo'lgaykim, dahli bo'lmagay. Xususan, va'z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mutaayyin va mashhur ishlari bor...» [2, 377-378]. Alisher Navoiy Husayn Voiz Koshifiyni o'z davrining barcha ilm sohalari bilan shug'ullangan olim sifatida e'tirof etmoqda.

Husayn Voiz Koshifiyning salmoqli ilmiy merosi orasida «Axloqi Muhsiniy» asari alohida o'rin ahamiyat kasb etadi. Asarni SHarq axloq falsafasining nodir durdonasi deb baholash mumkin. Koshifiy mazkur asarida axloq odob mavzusida yaratilgan ko'plab asarlarni chuqur tahlil etib, o'zining xulosalari bilan mazmunan boyitadi.

Xususan, «Axloqi Muhsiniy» asarida bayon etilgan barcha mavzular kishini yaxshi xulqqa chorlagani va bag'rikenglik g'oyalarini keng targ'ib qilganligi bois har

bir o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi. Mavzularda shukr va sabr qilishlik va uning fazilatlari bayon etilib, hayo, pokizalik, oliyhimmatlik, sobitqadamlilik, adolatli bo'lish, avf etish, shafqatli va marhamatli bo'lish kabi axloqiy fazilatlari targ'ib etiladi. SHunindek, Koshifiy kishi faoliyatida chiroyli xulq va muloyimlik fazilatlarining mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Omonat va diyonat, vafo va ahd, rostgo'ylik kabi axloqiy fazilatlar xususida batafsil to'xtalib o'tadi. Ohistalik va shoshilmaslik, andishalilik kabi xislatlarni kishi axloq odobida tutgan o'rnini bayon etadi. SHijoat, g'ayrat, fursatni g'animat bilish kishi uchun zarur fazilat ekanligiga alohida to'xtalib o'tadi. Koshifiy o'quvchini farosatlilikka, sir saqlashlik, huquqqa rioya qilishlik, doimo yaxshilar bilan hamsuhbat bo'lishlikka va yomon ishlardan yiroq bo'lishga chaqiradi.

Husayn Voiz Koshifiy «Axloqi muhsiniy» asarlarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda avvalo odob axloq qoidalari mukammal ishlab chiqilishi bilan birga turli millatlar va dinlar vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlik, tinch-totuvlik kabi bag'rikenglik tamoyili ilgari surilgan

[3, 129]. Xusayn Voiz Koshifiy ilgarni surgan barcha millat va din vakillarning tengligi g'oyasi hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, avvalo, Husayn Voiz Koshifiy temuriylar saltanatidagi barqaror ijtimoiy va ijodiy muhit natijasida yuzaga kelgan Ikkinchi Uyg'onish davrida etishib chiqqan allomalardan biridir. Ikkinchidan, Husayn Voiz Koshifiyning barakali ijod qilishida shaxsan buyuk mutafakkir alloma Alisher Navoiyning xizmatlari katta bo'lgan. Uchinchidan, Husayn Voiz Koshifiy tomonidan bayon etilgan axloq-odob tamoyillari hozirgi globallashuv sharoitida barkamol yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. R.J.Mahmudov. Husayn Voiz Koshifiy/Ma'naviyat yulduzlari. T. 2001y.241-245 betlar
2. Alisher Navoiy Majolis ul-nafois.To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2011y. 377-378 betlar
3. Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy. Axloqi muhsiniy. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashri, 2011. - 129 bet
4. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.

5. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari.
//“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue
2020 21-27 P.
6. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi
// Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

IJTIMOIIY TARAQQIYOTNING GNOSEOLOGIK PARADIGMA (COGITO PARADIGMA) SI

Saitmurodov Jobirjon Boymurod o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti "Falsafa va mantiq" kafedrası
tayanch doktoranti
e-mail: jobir_gdu@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada ma'rifatchilik falsafasi tabiiy tartibi sub'ektning oiqlona tafakkuriga mutanosib hamda o'rganishning imkoni bo'lgan voqelikning mutlaqlashtirishdan kelib chiqadigan ilmiylikning mumtoz turini qaror toptirdi. O'ziga ontologik voqelik, o'ziga xos ijtimoiy organizm sifatidagi ijtimoiy tizimni tushunish gnoseologik paradigma (cogito falsafasi) doiralarida rivojlanayotgan ijtimoiy falsafaning asosiy yutug'iga aylanishini tushuntirib beradi.*

Kalit so'zlar: *Gnoseologik paradigma (Cogito), homo sapiens, onglilik, tabiiy huquq, ijtimoiy bitim, erkinlik, burch, ma'naviy (ijtimoiy) olam, ijtimoiy turg'unlik, ijtimoiy harakatchanlik, taraqqiyot.*

Аннотация: *В статье естественный порядок философии Просвещения пропорционален рациональному мышлению субъекта и определяет классический тип науки, вытекающий из абсолютности изучаемой реальности. Самоонтологическая реальность объясняет, что понимание социальной системы как особого социального организма становится главным достижением социальной философии, развивающейся в рамках эпистемологической парадигмы (cogito философии).*

Ключевые слова: *эпистемологическая парадигма (Cogito), homo sapiens, сознание, естественный закон, общественный договор, свобода, долг, духовный (социальный) мир, социальная стагнация, социальная мобильность, развитие.*

Abstract: *In the article, the natural order of Enlightenment philosophy is proportional to the rational thinking of the subject and determines the classical type of science that results from the absoluteness of the reality that can be studied. The self-ontological reality explains that the understanding of the social system as a specific social organism becomes a major achievement of social philosophy, which develops within the framework of the epistemological paradigm (cogito philosophy).*

Keywords: *Epistemological paradigm (Cogito), homo sapiens, consciousness, natural law, social contract, freedom, duty, spiritual (social) world, social stagnation, social mobility, development.*

KIRISH

Gnoseologik paradigma yangi zamon falsafasida shakllangan bo‘lib, bunda bilim va o‘rganish muammosi falsafiy e‘tiborda birinchi o‘ringa ko‘tariladi. Yangi zamon falsafasi Dekartning: *Cogito ergo sum* farazidan kelib chiqadi. Ushbu faraz asosida yangi falsafaning etakchi falsafiy mazmuni bo‘lgan o‘rganish hamda uni amalga oshirishning mumtoz shakli sifatidagi falsafiy tanqid nazariyasi rivojlanadi. *Cogito* falsafiy paradigmasi falsafiy tafakkurni har qanday o‘rganish va harakatning oqilona sharti bo‘lgan hamda uning mantiqi, ham fan mantiqini, ham xatti-harakatlar mantiqini belgilovchi transsendental ongni ajratib ko‘rsatishga olib keladi. Bunday ongning yashirin amal qilishi hissiy tajribani, narsalarning ko‘zga ko‘rinadigan olamini hamda ijtimoiy hayot olamini oqilonalashtiradi. Fan Galiley zamonida vujudga kelgan shaklida falsafa uchun *cogito* ning ifodasiga aylanadi. Bunday sharoitlarda insonning oqilona salohiyatiga tayanadigan ijtimoiy falsafaning yangi turi shakllanadi. Bu falsafa inson salohiyatiga ham umumiy hayot tamoyillarini va ijtimoiylik asoslarini ilmiy izohini beruvchi salohiyatlar, hamda ushbu tamoyillar va asoslarni vujudga keltiradigan salohiyatlar sifatida murojaat qiladi.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Insonning aqlliligi (aynan shu zamonda o‘zi uchun mag‘rur bo‘lgan *Homo sapiens* nomini o‘zlashtirib oladi) uning olamdagi o‘rnini belgilaydi – barcha mumtoz yangi Evropa falsafasi mana shundan kelib chiqadi. Onglilik, tafakkurning tiniqligi, ilmiy bilim hamda buyumlar orasida to‘g‘ri yo‘l topish imkonini yaratadi. Ma‘rifat davridagi fanning jadal rivojlanishi, shuningdek XVIII asrdagi sanoat inqilobi buni tasdiqlaydi. Onglilik, maqsadni aniq tushunish salohiyati insonning hayoti uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yangicha falsafa va fan yutuqlariga tayangan holda jamiyatning yangicha konsepsiyasini taklif etganlardan biri Tomas Gobbs edi. Dekartning fikriga ko‘ra, ilmiy mushohadaning universal usulini belgilaydigan matematik tafakkur an‘anasiga erishgan holda ingliz faylasufi o‘z ijtimoiy nazariyasining boshlang‘ich qoidasini ilgari suradi: insonda asosiy tabiiy huquq – yashash huquqi mavjud. Bu huquq barcha jismlar singari o‘zining tinch yoki harakat holatini saqlab turishga intiladigan barcha jism singari inson jismining tabiiy xossalaridan kelib chiqadi Gobbs yozib o‘tganidek “odatda yozuvchilar tomonidan *jus natural* deb atalmish tabiiy huquq har qanday insonning o‘z kuchlarini o‘zining tabiatini, ya‘ni o‘z hayotini saqlab qolish uchun o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanishdagi erkinligi, o‘z mulohazasiga ko‘ra buning uchun eng maqbul vosita hisoblangan barcha narsani qilish erkinligidir” [1, 117].

Gobbsning fikriga ko‘ra, ushbu tabiiy huquqdan yana bir tabiiy qonun, ya‘ni ong bilan ko‘rsatilgan yoki topilgan umumiy qoida kelib chiqadi, bu qoidaga muvofiq insonga hayot uchun halokatli bo‘lgan yoki hayotni saqlab qolish vositalaridan judo etadigan barcha narsalarni qilish ta‘qiqlanadi. Shuning uchun inson o‘z hayotini har qanday vositalar bilan, xatto boshqa inson hayoti hisobiga himoya qilishi mumkin va

lozim, biroq bunda ushbu tabiiy holatda oxir-oqibatda barchaning hayotiga tahdid solishni boshlaydigan “barchaning barchaga qarshi urushi” vujudga keladi. Mazkur “barchaning barchaga qarshi urushi” holatidan chiqish yo‘li faqat bitta – bir inson jismi hayotini himoyalashning har qanday vositasini oqlagan ong yangi hayotning, qismlari ko‘plab tabiiy shaxslarga aylanadigan sun‘iy hayotni himoyalash zaruratini tushunish tomon sakrashni amalga oshirishi lozim. Bu sun‘iy tana davlat bo‘lib, u kishilar orasidagi sun‘iy bitim tufayli vujudga keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik va mantiqiylikning o‘zaro bog‘liqligi, ob‘ektivlik, tizimlilik qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gobbs ta’kidlashiga ko‘ra: “Bu kelishuv yoki hamdamlikdan kattaroq narsadir. U har bir insonning har bir inson bilan agar har bir inson boshqa har bir insonga: *men ushbu inson yoki insonlar yig‘ilishiga vakolat beraman hamda sen ham sening huquqlaringni unga berasan va uning barcha harakatlariga ruxsat etasan deya oladigan sharoitda o‘zimni boshqarish huquqlarimni senga beraman*” shaklida tuzilgan bitim vositasida bir shaxsda ifodalangan real birlikdir. Agar bu sodir bo‘lsa, bir shaxsda birlashgan insonlar ko‘pligi davlat deb ataladi” [2, 146].

Ijtimoiy bitim nazariyasi shu tarzda shakllangan bo‘lib, unga muvofiq insonlarning ijtimoiyligi, birgalikdagi hayoti va uning tashkil etilishi insonlar tomonidan o‘z manfaatlarini o‘z faoliyatlarini anglash natijasidir.

Ijtimoiy bitim konsepsiyasining turli ko‘rinishlari ko‘plab falsafiy qarashlarda, va eng avvalo, Jan Jak Russoning falsafiy qarashlarida ko‘rinadi. Fransuz mutaffakiri Gobssdan farqli ravishda “Barchaning barchaga qarshi urushi”ni tabiiy holat deb hisoblamagan, balki aksincha bu inson salohiyatini rivojlanishiga, biroq ayni vaqtda insonlar o‘rtasida farq vujudga kelishiga imkon yaratgan inson va tabiatning uyg‘unlik zamon edi. Ushbu shaxsiy antropologik farqlar xususiy mulk o‘rnatilishi tufayli mulkdagi notenglikka, boylar va qashshoqlarning to‘qnashuviga olib keldi. Qashshoqlar ijtimoiy kelishuvni o‘rnatishi lozim bo‘lgan ijtimoiy bitim sababiga ham aylandi. “Ijtimoiy bitimga ko‘ra inson o‘zining tabiiy erkinligini hamda uni jalb qilgan va u egallashi mumkin bo‘lgan narsalarga cheklanmagan huquqini yo‘qotadi; u fuqarolik erkinligini hamda o‘zi ega bo‘lgan barcha narsaga mulk huquqini qo‘lga kiritadi” [3, 164].

Ijtimoiy bitim konsepsiyasi ijtimoiy tashabbusni inson qo‘liga topshiradi, hamda har bir insonning oqilona harakati, salohiyati buning uchun etarli kafolat deb hisoblaydi. Mana shu zamonda Daniel Defo tomonidan yaratilgan Robinzon Kruzoning davrga xos qiyofasi ushbu fikrni o‘ta yorqin namoyish etadi, biroq ijtimoiy bitim nazariyasi insonning ijtimoiy faolligiga falsafiy asos yaratgan holda bir nuqsonga ega edi. Bu nazariya inson faolligini jazolash tahdidi bilan erkinligini

cheklagan. Gobbs, har qanday shaxsiy yoki jamoaviy salohiyatlardan ustun turadigan davlat qudrati oldidagi dahshatgina bu haqida insonlarning o‘zi bitimga kelgan qonun doiralarda insonlarni tutib turishi mumkin. Jazo faollikning teskari tomonidir va bundan qochish uchun doimo inson o‘zini tashqi kuch bilan belgilangan qandaydir doiralar ichiga qo‘yadi, deb hisoblagan.

Ushbu nuqsonni bartaraf etish ijtimoiylikni antologik asoslashini boshqacha tasavvuriga muhtoj edi. Avval boshdanoq erkin va o‘z maqsadlarini oqilona belgilash salohiyatiga ega bo‘lgan tabiiy insondan boshlamaslik kerak edi, chunki bunday inson uni o‘z manfaatlarini chegaralovchi boshqa insonlar hamjamiyatida o‘z erkinligini yo‘qotish vaziyatiga muqarrar holda paydo bo‘ladi. Insonlarning manfaatlarini, ularning ehtiyojlari (hayotni mulkni va hokazolarni saqlab qolish) insonlarni harakatga soladi, aql esa ushbu manfaatlariga erishish yo‘llarini belgilash uchun zarurdir. Ijtimoiy bitim nazariyasi insoniy hayot muammolarini hal qilish vositasi sifatida ongga tayanadi. Ijtimoiylik barpo etilishida ongning roliga bunday asosli yondoshuv garchi ijtimoiy hayotni oqilonalik yog‘dusi bilan yoritsada (oqilonalik ziddiyatli emas!) undagi eriklik ziddiyatini olib tashlay olmadi. Inson haqiqatan ham erkin bo‘lishi va ayni vaqtda inson bo‘lib qolishi uchun erkinlikning asosini, shu bilan birgalikda ongning o‘zidagi ijtimoiylikni topish zarur edi. Ijtimoiy hayotning yangi ontolgik asosini *cogito* paradigmasi doiralarda izlashga Kant va Hegel urinib ko‘rdi.

Kant ijtimoiy bitim g‘oyasiga aniq tayangan holda yozishiga ko‘ra “Barcha kishilar inson o‘z burchi bilan qonunga bog‘liq ekanligini tushungan ammo ular *faqat o‘z-o‘ziga bo‘ysunganligini va bundan kamroq bo‘lmagan holda umumiy qonunchilikka bo‘ysunishni o‘ylab ko‘rmagan*” [4, 274].

Nemis mumtoz falsafasining bobokoloni fikriga ko‘ra, agar inson qonunga bo‘ysungan tasavvur qilinsa, qonun o‘ziga hurak sifatidagi qandaydir manfaatni yoki majburlashni olishi lozim, chunki qonun insonning o‘z irodasidan vujudga kelmagan. Biroq bunday holatda burchning oliy asosini, ya‘ni uning ontologik asosini topish borasidagi barcha urinishlar, Kantning fikriga ko‘ra, behuda bo‘lib chiqadi. Haqiqatan ham shu tarzda na burchni, na ijtimoiy majburiyatni topa olmasdan balki, qandaydir manfaatdan yuzaga keladigan harakat zaruratini topa oldilar. Burch shu bilan birgalikda maqsadga muvofiq faoliyat olami huquq va ma‘naviyat olami, ya‘ni ijtimoiy olam insonning irodasi o‘zi oliy qonun chiqaruvchi bo‘lganda qonunlarni o‘zi belgilaganda va qandaydir manfaatlariga bog‘liq bo‘lmagandagina namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi Kant [5, 273]. Bu esa Kantning firiga ko‘ra, har bir ongli mavjudot irodasi uchun qat‘iy ko‘rsatma, ya‘ni qonun asosidagi amaliy ongning harakatidir. Umumiy huquqiy qonun sifatida u: “Sening o‘zboshimchaligingni erkin namoyon bo‘lishi umumiy qonunga ko‘ra har bir insonning erkinligiga mos keladigan darajada harakat qil” [6,140] deb ko‘rsatadi. Umumiy axloqiy qonun sifatida u:

“Sening irodang quvvati ayni vaqtda umumiy qonunchilik tamoyili quvvatiga ega bo‘ladigan tarzda harakat qil” [7, 347]. deb ko‘rsatadi. Bu nimani anglatadi? Bu qat’iy ko‘rsatma harakatlanayotgan insondan u o‘z harakati qoidasi (kuchi) bilan umumiy qonunchilikni (“Hamma shunday harakat qilishi lozim”) belgilasa, bu ko‘rsatma qandaydir manfaatga asoslanmaydi. U shartsizdir, chunki o‘zida ma’noga ega. U o‘zida mavjud va u o‘zi uchun mavjud. U ontologik jihatdan o‘ziga etarlidir. Bu erda erkinlik ham amalga oshiriladi: erkinlik hech qanday hissiy intilishlar bilan begilanmagan (Erkinlikning salbiy ta’rifi) va bu erkinlik o‘z-o‘zi uchun amaliy bo‘lish, ya’ni qaror qilish imkoniyatiga ega bo‘lishning sof ong salohiyatidir (erkinlikning ijobiy ta’rifi) [8, 274]. Ana shunda ijtimoiy bitim nazariyasi hal qila olmagan burch va erkinlik o‘rtasidagi ziddiyat ham hal qilinadi: “Garchi, biz amaliy ong taqdim etadigan ma’naviy saltanat erkinligi orqali imkoniylikning qonunchilik a’zolari bo‘lsakda... shu bilan birgalikda biz ushbu saltanatning boshlig‘i emas, balki tobelarimiz” [9, 409], –deb ta’kidlaydi Kant. Erkinlik va burch bu mustaqil, ya’ni insonga doimiy xos xususiyatlardir. Erkinlik va burch ma’naviy (ijtimoiy) olam voqeligini belgilaydigan insonning mustaqil harakatiga mos keladi, Kantning xulosasi mana shundan iborat. Agar Kant ijtimoiy bitim nazariyasini to‘g‘ridan to‘g‘ri tanqid qilmagan bo‘lsa, Hegel ushbu nazariyani butkul rad etadi. Davlat – jamiyat bitim konsepsiyasi umumiylikni insonlar o‘zboshimchaligiga sub’ektiv iroda maqsadlariga tobe qilib qo‘yadi, Hegel esa yagona irodaga o‘zida va o‘zi uchun oqilona bo‘lgan ob’ektiv iroda tamoyilini qarama-qarshi qo‘yishga intiladi. U jamiyatning ilk tizimli falsafasini yaratadi va buni huquq falsafasi nomi ostida bayon qiladi.

YAngi zamon fani va falsafasi tabiat oqilona barpo etilganligini unga ong bilan erishish mumkinligini tan oladi, biroq ayni vaqtda ma’naviy olam oqilona emasligi, chunki bu erda erkinlik harakat qilishi borasidagi tasavvur saqlanib qolishi davom etdi. Hegel ma’naviy olam ham ongli ekanligini, erkinlik mantiqqa egaligini, qonunlarga ham ong bilan etishish mumkinligini isbotlashga intiladi. Falsafaning vazifasi ma’naviyatning ichki parchalanganligini, uning tuzilishi oqilona ekanligini ko‘rsatishdan iborat [10, 10]. Buning uchun esa “vaqtga bog‘liq hamda unda mavjud bo‘lgan manguilikni ichki mohiyatini o‘rganishga o‘tuvchi ko‘rinish zarur” [11, 15].

Ma’naviylik olamini belgilovchi bunday substansiya sifatida erkin iroda yoki substansiya hamda irodani belgilovchi erkinlik yuzaga chiqadi (Hegel uchun esa ma’naviylik asl insoniy olamga xos bo‘lgan ijtimoiylikka o‘xshashdir). Ratsionalist va mutlaq idealist bo‘lgan Hegel uchun iroda fikrlashning o‘ziga xos usulidir. U mavjud hayotni o‘ziga “ko‘chirib” o‘tkazadigan, mavjud hayotni o‘ziga etkazishga intiladigan tafakkurdir, ya’ni iroda atrof olamda o‘zini tasdiqlash bilan nihoyasiga etuvchi muayyan intilishdir. Ob’ektiv tafakkurning aynan shu usuli atrof olamni o‘zgartirish shaklida insoniy olamni oqilona tashkil etish shaklida mavjuddir.

SHunday qilib, gegelcha ijtimoiy falsafa gobbscha bitim an'anasidan boshqacharoq bo'lsada, universal tafakkurni Gegel uchun ijtimoiy olamga o'xshash bo'lgan butun ma'naviylik olamining asosi hisoblagan holda *cogito* paradigmasiga ham mos keladi.

XVII-XVIII asrdagi yangi Evropa falsafasi ijtimoiy olamning ontologik asosini topgan holda, ushbu olamni oqilona tuzilishini yo davlat (Gobss va uning izdoshlari) yohud ma'naviylikning voqeligi (Kant, Gegel) sifatida belgilagan. Bunda antik falsafa an'anasi saqlanib qoladi, biroq Galileydan so'ng fanning yangi turi rivojlanishi falsafa va fanning yaqinlashuvi, insoniy olamning yangicha ontologik tasavvurlari tug'ilishiga olib keladi.

YAxlit organizm sifatidagi jamiyat g'oyasi insoniy mavjudlikning barcha sohasidagi yangi ontologik tasavvurlarga tegishlidir. Bu g'oya Ogyust Kont tomonidan bayon qilingan edi. Aynan shu g'oya fransuz faylasufini alohida fan sifatidagi sotsiologiyani yaratishga olib keldi [12].

YAxlit sifatidagi organizm uning qismlarini shunchaki yig'indisiga olib kelmaydigan va yaxlitlikni o'rganishdan oldin uning qismlarini o'rganish zarur bo'lgan biologiyaning yutuqlariga tayangan holda, Kont sotsiologiya ham mana shu yo'ldan borishi lozim deb hisoblaydi. Kontning ta'kidlashiga ko'ra, "Ijtimoiy hodisalar o'zaro bog'liq bo'lganligi bois ularni bir-biridan alohida o'rganib bo'lmaydi; bundan ijtimoiy hayotning turli tomonlarini birdaniga ko'rib chiqish zarurati vujudga keladi" [13,51].

Alohida shaxslarga qarama-qarshilik sifatida jamiyat mustaqil kuchdir, deb hisoblaydi Kont. Mustaqil kuch sifatidagi jamiyat o'zining tartib qonunlariga (ijtimoiy turg'unlik) va o'zining o'zgarish qonunlariga (ijtimoiy harakatchanlikka) ega. Kontning fikriga ko'ra, ijtimoiy organizm ular uchun shaxsiy hissiyotlar muhim bo'lgan insonlardan, xayrixoxlikning ijtimoiy hislariga birlashishi hamda intellektual rivojlanishni vujudga keltiradigan mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvdan yaratiladigan oilalardan shakllanadi. Jamiyat mavjudligining uch shaklidan har biri navbatdagi shaklni tayyorlaydi. Butun ijtimoiy organizm esa shaxsiy oilaviy va ijtimoiy ma'naviyat uyg'unligi tufayli mavjuddir.

Ogyust Kontning jamiyat falsafasi, ham falsafada, ham ijtimoiy fanda o'zining alohida tarkibiy qismlari ustida turadigan, hamda ularda mavjud bo'ladigan, biroq ularga tobe bo'lmagan qandaydir yaxlitlik sifatidagi jamiyat to'g'risidagi tasavurni yaratib berdi. Qadimiy ijtimoiy falsafada xumron bo'lgan jamiyat-davlat g'oyasidan hamda o'z fuqarolari ustida turadigan, biroq ayni vaqtda jamiyat qiyofasi bo'lgan davlat aks etgan ijtimoiy bitim nazariyasidan farqli o'laroq, organizm sifatidagi jamiyat g'oyasi na hukumat, na oila, na jamiyatda mavjud biron bir narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan qandaydir qiyofasiz yashirin kuch sifatidagi ijtimoiylikni tasavvur qilgan ushbu g'oya Gegelning ruhning rivojlanish bosqichlari huquqiqdir. Axloq, ma'naviylik, (ma'naviylik darajasida esa oila fuqarolik jamiyati

(davlat) ijtimoiy tizimning unsurlari sifatida yuzaga chiqmaydigan, balki uning ongi faoliyati sifatidagi g'oyani rivojlanish mantiqini namoyon etadigan ob'ektiv ruh borasidagi Gegelcha dialektikasidan ham farq qiladi.

Ma'rifatchilik falsafasi tabiiy tartibi sub'ektning o'qlona tafakkuriga mutanosib hamda o'rganishning imkoni bo'lgan voqelikning mutlaqlashtirishdan kelib chiqadigan ilmiylikning mumtoz turini qaror toptirdi. O'ziga ontologik voqelik, o'ziga xos ijtimoiy organizm sifatidagi ijtimoiy tizimni tushunish *cogito* falsafasi doiralarida rivojlanayotgan ijtimoiy falsafaning asosiy yutug'iga aylandi.

Karl Marksning falsafasi *cogito* falsafasi doiralaridagi ijtimoiylik tasavvurining mumtoz ifodasiga aylandi. Marks bir tomondan, ontologik jihatdan mustaqil bo'lgan murakkab tizim sifatidagi jamiyat to'g'risidagi tasavvurni rivojlantirishda davom etdi. Ustiga ustak u mazkur tizim jamiyatda harakatlanuvchi insonlarning irodasi va ongiga bog'liq bo'lmagan o'zining o'ziga xos ob'ektiv qonunlari bo'yicha rivojlanish g'oyasini asoslab berdi. Bu erda aksincha insonlarning ongi va ularning istaklari, ularning hayoti bilan, ya'ni insonlarning ijtimoiy munosabatlarga va aloqalar tizimiga kirishi bilan belgilanadi, boshqa tomondan Marks ijtimoiy hoidsasining o'zini yangicha tarzda ko'rib chiqadi. YAngi Evropa falsafasida Gobss zamonalaridan beri ijtimoiy ahvol ijtimoiy aloqalarning o'zi, garchi inson bularga kirmasada, ongli inson uchun tayyor qilib qo'yilgan deb hisoblanadi. SHuning uchun insonlar bularni bitim tuzish yo'li bilan qaror toptirishlari mumkin – go'yoki ular nima haqida bitim tuzishlarini biladi (!).

Marks esa insonlarning o'ziga xos o'zaro harakatining o'zi biologik asoslarga tayanib emas balki, ular ishlab chiqargan narsa – mehnat harakati qurollari asosida barpo etishidan kelib chiqadi. Mehnat harakati quroli ijtimoiy aloqalarning tug'ilishiga va bu bilan insonni ijtimoiy mavjudotga aylantiradi. Ilk mehnat qurollari paydo bo'lganda inson uchun biologik (tabiiy) ma'noga ega bo'lmagan narsalar paydo bo'ldi. CHunki bularni na eb bo'ladi, na kiyib bo'ladi, bular hech qanday biologik ehtiyojni qondirmaydi, balki faqat ijtimoiy ma'noga ega, chunki ularni kelgusi harakatlar uchun ishlatish mumkin. Bu esa hayotiy ehtiyojlarni qondirishga olib keladi, biroq qurol yaratish haraktani sodir etgan holda, inson undan foydalanish harakatini, boshqa harakat bilan boshqa inson bilan o'zaro harakatni sodir etadi, ya'ni o'zining tabiiy yashash maydonini emas, balki uni ijtimoiylik olamiga olib kiradigan ijtimoiy aloqalar maydonini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiylikni tushunadigan inson ijtimoiy holatni vujudga keltirmaydi, balki insonlarning munosabatlari atrofida aylanadigan ishlab chiqarish buyumlari ijtimoiy holatni vujudga keltiradi. Bu ijtimoiy holatni ichida esa shakllangan munosabatlar tufayli o'z hayotini tushunishga qodir bo'lgan inson paydo bo'ladi.

Ijtimoiy hayotga va undagi o'zgarishlar mohiyatiga bunday qarash Karl Marks tomonidan tarixni materialistik tushunish deb ataldi. Ushbu ibora bilan Mark uning ijtimoiylikni asoslash konsepsiyasi inson ongi va irodasi emas, balki inson uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqrashiga yo'naltilgan maxsuldor faoliyat ijtimoiy asosi ekanligini ta'kidlashga uringan edi. Ushbu faoliyat avval boshdanoq insonni moddiy ehtiyojlari bilan ish ko'radi hamda inson mavjudligining moddiy sharoitlarini o'zgartirishga yo'naltirilgandir. Ushbu faoliyat jarayonida harakatlanayotgan insonning maqsadlariga kirmaydigan munosabatlar shakllanadi. Biroq bu munosabatlar endi uning hayotining aniq holatiga aylanadi va bularni u endilikda hisobga olishi lozim. Yangi zamon mumtoz falsafasida ishlab chiqilgan jamiyatning ontologik tasavvurlari XIX asrda rivojlangan jamiyat va inson to'g'risidagi aniq fanlarning uslubiy asosiga aylandi. Ular XX asr hamda zamonamizning jamiyatshunosligida ham o'z rolini o'ynashda davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Garchi O.Kont sotsiologiyaning bobokoloni hisoblansada, uning sotsiologiyani tushunishi ijtimoiy hayotning turli soahalarida aniq tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi zamonaviy tasavvurlarga mos kelmasligini ta'kidlash joiz. Kont uchun sotsiologiya - jamiyat to'g'risidagi fan sifatida garchi fransuz faylasufi o'z falsafasini ijobiy falsafa sifatida oldinchi chayqovchi falsafaga qarshi qo'ysada hali ijtimoiy falsafa bilan bir qatorda turgan.
2. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
3. O'sha erda. S. 15.
4. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
5. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
6. Pulatov Sh.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
7. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.

8. Pulatov, Sh., Madalimov, T., Mullajonov, I., Qodirov, M., & Valiyev, L. (2020). Some Characteristics of Modern Indian Philosophy. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications*, 2(11), 47-49.
9. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 P.
10. Гегел. Философия права // Соч., т. ВИИ, М.-Л., 1934. С.10
11. Гоббс Т. Левиафан. М., 1936. С.117
12. Кант И. Соч. в 6 тт., т.4, ч.1. С.274. (Курсив Канта – В.К.)
13. Кант И. Соч. в 6 тт., т.4, ч.1. С.409
14. Кант И. Соч. в 6 тт., т.4, ч.1. С.347
15. Руссо Ж.-Ж. Трактаты. М., 1969. С.164).
16. См. уточненный перевод Э. Соловеева: Соловев Э.Ю. И.Кант: взаимодополнительность морали и права. М., 1992. С.173. Ср. Кант И. Соч. в 6 тт., т.4, ч.2. С.140
17. См.: Кант И. Соч. в 6 тт., т.4, ч.1. С.274; т.4, ч.2. С.120
18. Социология Конта в изложении Ригголажа. СПб., 1898. С. 51
19. Там же. С. 146. (Курсив Гоббса – В.К.)
20. Там же. С.273

UDK 553.98 551.76 (470.6)

**BUXORO-XIVA NEFTGAZLILIGI REGIONI DENGIZKO‘L
KO‘TARILMASINING MEZOZOY YOTQIZIQLARI
NEFTGAZLILIGINING MIQDORIY TASNIFI**

Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullaevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchi;

Dononov Jasur Ural o‘g‘li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti assistenti

jasur@dononov.mail.ru

Raximberdeva Maftuna Allaberdievna

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti stajyor-o‘qituvchi

Annotatsiya. Organik moddalarning fatsial-genetik turi, ularning katagenetik hosil bo‘lishi, neftgaz hosil qiluvchi ona jinslar va jinslarda organik uglerodning miqdori haqidagi ma‘lumotlar asosida hajmiy – genetik metod yordamida uglevodorodlarning generatsiya va emigratsiya miqdori hisoblangan. Olingan natijalar CHordjou pog‘onasida mezozoy yotqiziqlarining neftgazga istiqbolliligi yuqori ekanligidan dalolat beradi va hududni tadqiqot qilishda geologiya qidiruv ishlarini asosli rejalashtirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: resurslar, generatsiya, emigratsiya, neft, gaz, sinekliza, formatsiya, yarus, botiqlik, yotqiziqlar.

Аннотация. На основе сведений о фацциально-генетическом типе органического вещества, степени его катагенетического преобразования, толщине нефтегазоматеринских пород и содержании органического углерода в породах проведен расчет количества генерированных и эмигрировавших углеводородов с помощью объемно-генетического метода. Полученные результаты указывают на высокие перспективы нефтегазоносности мезозойских отложений Чорджойской ступени и позволяют обоснованно планировать геологоразведочные работы на исследуемой территории.

Ключевые слова: ресурсы, генерация, эмиграция, нефть, газ, синеклиза, формация, ярус, прогиб, отложения.

Annotation. Based on information about the facies-genetic type of organic matter, the degree of its catagenetic transformation, the thickness of oil and gas source rocks and the content of organic carbon in the rocks, the number of generated and emigrated hydrocarbons was calculated using the volumetric genetic method. The

obtained results indicate high prospects for the oil and gas potential of the Mesozoic sediments of the Chordjawstep depression and allow reasonably planning exploration work in the study area.

Key words: resources, generation, emigration, oil, gas, scurvy, formasia, heaven, sunken, deposits.

KIRISH

Amudaryo sineklizasi Turon plitasining eng yirik tektonik elementi hisoblanib, uning chekka yon tomonlarida pogʻonasimon pasayish kuzatiladi. Sineklizaning markaziy qismi choʻkindi qoplamada ham kuzatiladigan poydevorda uzilishlar bilan chegaralangan bir qator botiqlik va vallar bilan tavsiflanadi. Amudaryo sineklizasida Buxoro, CHordjou, Bagadjin pogʻonasi, Badxiz-Karabil koʻtarilma zonasi va Beshkent egikligi ajratiladi [5].

CHordjou pogʻonasi Buxoro pogʻonasidan janub tomonda joylashgan boʻlib, shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 500 km, eniga 400 km dan 125 km gacha choʻziladi. Janubiy-gʻarbda va shimoliy-sharqda pogʻona Amudaryo daryosi yonidan va Buxoro pogʻonasini janubiy egilmasidan oʻtuvchi hududiy tektonik uzilishlar bilan chegaralangan.

Rayonning platforma qoplamasini tuzilishida yura-kaynozoy komplekslari ishtirok etib, bunda titon tuzli qatlami bilan bir-biridan 2 qavat ajratiladi. Amudaryo botiqligi neft va gazga samarali rayonlardan biri hisoblanib, uglevodorod uyumlarini izlash uchun etarli asoslar mavjud. Buxoro-Xiva regionining mineral-xomoshyo bazasini doimiy ishlatilishi sababli uglevodorod uyumlarini kamayishiga olib kelgan va shuning uchun yangi konlar izlash va ularni aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu bilan bogʻliq regionda quyi-oʻrta yura yotqiziqlarida uglevodorod resurslarini ishonchli miqdoriy baholash vazifasi paydo boʻladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Buxoro-Xiva neftgazliligi regionini dengizkoʻl koʻtarilmasining mezozoy yotqiziqlari neftgazliligining miqdoriy tasnifi obyektiv ochib berildi. Metodologik jihatdan tekshirish, bilimlarning tartibini aniqlash, ular tasnifini amalga oshirish alohida oʻrin egallaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amudaryo botiqligining tektonik elementlarini neftgazliligini alohida prognozlash bu masalani samarali echish imkonini beradi. CHordjou pogʻonasini

neftgazliligini prognozlash uchun asosiy etiborni stratigrafik kesimiga qaratish muhim, chunki bu pog'onada tuz-angidrit qavatida keng rivojlangan bo'lib, bu o'z navbatida yuqori yura yotqiziqlarida ishonchli qopqoq tog' jinslari vazifasini o'taydi va uglevodorod to'plamlarining asosiy massasi yuqori yura yotqiziqlariga to'planishiga asos bo'lgan.

Quyida o'rta yura yotqiziqlari to'liq qalinlikda Dengizko'l vali chegaralarida № 102 O'rtabuloq va № 1 p Pomuq, № 2 p Berdiquduq quduqlarida ochilgan. Ko'kdumaloq maydoni atrofida bevosita bu yotqiziqlar 1044 m va 1103 m qalinlikda № 15, 20 Ko'kdumaloq quduqlarida ochilgan. Bundan tashqari ularni yuqori qismi № 1 Ko'kdumaloq va № 1 Oxir quduqlarida ochilgan [5].

Metodik qism. Quyida o'rta yura yotqiziqlarining stratigrafik kesimi terrigen, asosan mayda bo'lakli ohaktoshlar, gillar, alevrolitlar va argillitlar qatlamlanib kelgan jinslardan tashkil topgan. Bu qavatning xarakterli jihati ko'mirlashgan o'simlik qoldiqlari va ko'mir bilan boyiganida bo'lib, to'q-kulrangdan tortib qora rangacha o'zgargan. SHuningdek, ko'mirlashgan o'simlik qoldiqlari bilan boyiganligi bir tekis bo'lmay quyida qismi ko'mirlashgan yuqori qismi esa ko'mirsiz.

Terrigen yotqiziqlari ustida muvofiq ravishda karbonat yotqiziqlari yotadi va yoritilayotgan rayonda bir tekis tarqalgan bo'lib, atrofda har turdagi kompleks fatsial o'zaro bog'liq bo'lgan karbonat jinslaridan tashkil topgan. Bu qatlam faqatgina rifdan tashqarida burg'ilangan № 1 va 15 Ko'kdumaloq quduqlarida to'liq ochilgan bo'lib, 228 m va 217 m ni tashkil etdi, hamda rif chegarasi yaqinida joylashgan № 1 Oxir quduqida 364 m ni tashkil etdi. Ko'kdumaloq rif massivi chegaralarida karbonat yotqiziqlari to'liq qalinligi bo'yicha burg'ilab ochilmagan. Bundan kelib chiqqan holda, rif massivi ichida qo'shni konlarga o'xshash bo'lib, yuqori yura karbonat qatlami qalinligi 500-520 m ga etishi mumkin. Kellovoy yarusini kutilayotgan umumiy qalinligi 130 m ni tashkil etadi. Quyida o'rta yura yotqiziqlarini umumiy qalinligi 1310 matrofida [5].

Karbonat formatsiyasi. Oksford+kimeridj yarusi – J₃o+km. Yura yotqiziqlari qirqimi qalin xemogen cho'kindilar bilan yakunlanib, titon yarusi va yuqori yura oksford-kimeridj karbonat yarusini yuqori qismiga mos keladi. CHordjou pog'onasi yuqori yura yotqiziqlarining tuz—angidritli formatsiyasi bir tekis tarqalgan bo'lib, quyida joylashgan karbonat formatsiyasidagi uglevodorod uyumlari uchun qoplama hisoblanadi.

Biogerm qirqimini stratigrafik ekvivalenti nisbatan chuqur suv osti fatsiyalardan, qalinligi kamaygan biogerm hosilalari bilan o'ralgan va yuqori radioaktivlik (gamma aktiv pachka) bilan tavsiflanadigan (biogerm kesimiga nisbatan) kuchli gillashgan va

zich ohaktoshlardan tashkil topgan bo‘lib, Ko‘kdumaloq, G‘arbiy Alan va boshqa maydonlarda ochilgan [5].

Tuz-angidritli formatsiya. Titon yarusi – J₃tt. Mahsuldor karbonat yotqiziqlari bevosita keng tarqalgan va tuz-angidritli formatsiya sifatida ajratiladigan galogen jinslar qalinligi bilan yopiladi. YOshi jihatidan yura tizimining yuqori qismi titon yarusi yotqiziqlarini o‘z ichiga oladi. Formatsiya tosh tuzlari va angidritlardan iborat. Bu formatsiya kesimida beshta pachka ajratiladi. Bular neft va gazga geologik qidiruv ishlar olib borilishi natijasida (pastdan yuqoriga) quyidagicha nomlanadi: quyi angidritlar, quyi tuzlar, o‘rta angidritlar, yuqori tuzlar va yuqori angidritlar.

CHordjou pog‘onasining janubiy-sharqiy qismida titon yarusi tuz-angidritli formatsiyalar qalinligi taxminan 840 m, yura yotqiziqlarini umumiy qalinligi 2270 m ni tashkil qiladi.

CHordjou pog‘onasi uglevodorod resurslarini baholash uchun, tog‘ jinslari tarkibidagi organik moddalarning fatsial-genetik turi, ularning katagenetik hosil bo‘lish darajasi, neftgaz hosil qiluvchi ona jinslar qalinligi va ularning tarkibidagi organik uglerod (S_{org}) miqdori haqidagi malumotlar dastlabgi materiallar sifatida xizmat qiladi [5].

YOtqiziqlarda organik moddalar sochma shakilda uchraydi. Amudaryo botiqligida quyi-o‘rta yura yotqiziqlari kesimi uchun S_{org} miqdorining o‘rtacha qiymati 1 % tashkil qiladi [1].

1-jadval

Turon plitasida yura davrida organik moddalar (OV) va cho‘kindi materiallarini to‘planishining o‘rtacha tezligi, t/km². yil

YOshi	Davomiyligi mln. yil	Turon plitasi	
		cho‘kindilar	OV
J ₁₋₂	30	85	2
J _{3cl-oxf}	8	115	0,8

CHordjou pog‘onasida bir qancha tektonik elementlar ajratilgan: Dengizko‘l, Ispanli-CHandir, Qandim ko‘tarilmalari, Beshkent, Karako‘l, Birgutli, Kushob egelmalari, Uchqir-Pitnyak vali (1-rasm).

2-jadval.

Turon plitasi (TP) yura yotqiziqlarida cho‘kindi materiallari va tarqalgan organik moddalarning (ROV) absolyut massasi

YOshi	Cho‘kindi materiallar massasi	Saqlanib qolgan ROV massasi	Cho‘kindilarga dastlabgi saqlanib qolgan ROV massasi
	TP	TP	TP
J ₁₋₂	1734	34,4	39
J _{3cl-oxf}	606	5,2	4,2

CHordjou pog‘onasida bir qancha tektonik elementlar ajratilgan: Dengizko‘l, Ispanli-CHandir, Qandim ko‘tarilmalari, Beshkent, Karako‘l, Birgutli, Kushob egelmalari, Uchqir-Pitnyak vali.

3-jadval

CHordjou pog‘onasi bo‘yicha hisoblash ko‘rsatgichlari

№	YO shi	Davo miyligi mln. yil	Turon plitasi, t/km ² yil		S _{org} , %		ρ _{mn} , t/m ³	k _{g,n} ^{gen} , %		S ^g , %	M _{ost} , %
			cho‘kindi	O V	CHordjou	Buxoro		Neft	Gaz		
2	J _{3cl-oxf}	8	115	0,8	0,3	0,3	0,68	16,8	6,6	2,2	62

Neft gaz hosil qiluvchi ona jinslar tarqalgan nuqtalarda neftning generatsiya zichligi (q^{gen}_n, t/km²) quyidagicha hisoblangan [3,4]:

$$q_n^{gen} = S_{org} \rho_{mn} h_{mn} k_n^{gen} 10^6 / S^g M_{ost}, \quad (1)$$

bu erda, k_n^{gen} – neft generatsiyasi koeffitsienti, % (dastlabgi organik moddalar massasi (OV) (1-jadval); S_{org} – neft gaz hosil qiluvchi ona jinslarda qoldiq organik uglerod konsentratsiyasi, %; ρ_{mn} – Neft gaz hosil qiluvchi ona jinslar zichligi, t/m^3 , CHordjou pog‘onasida glinali jinslarning yotish chuqurligidan kelib chiqib bog‘liqlik tenglamasi bo‘yicha aniqlangan.

N – glina yotqizilarining yotish chuqurligi,

r – korrelyasiya koeffitsienti,

n – aniqlangan uchastkalar miqdori;

h_{mn} – neft gaz hosil qiluvchi ona jinslar qalinligi, m;

$J_{1-2} = 500$ m, $J_{3kl-ox} = 400$ m,

S^g – katagenez bosqichida qoldiq organik moddalarga uglerod konsentratsiyasi, %;

M_{ost} – organik moddalarning (OV) qoldiq massasi, %.

Tahlil natijalari. CHordjou pog‘onasida J_{1-2} quyi-o‘rta yura yotqizilarida neftning generatsiya zichligi [1,2]:

$$q_n^{gen} = \frac{1 \cdot 3,9 \cdot 500 \cdot 28,4 \cdot 10^6}{2,2 \cdot 56,4} = \frac{5538000000}{124,08} = 446324951,6 \text{ t}/km^2$$

Gazning generatsiya zichligi (q_g^{gen}) quyidagicha baholanadi, nm^3/km^2

$$q_g^{gen} = S_{org} \rho_{mn} h_{mn} k_n^{gen} 10^9 / S^g M_{ost}, \quad (3)$$

bu erda k_n^{gen} – dastlabki katagenez jarayonida organik moddalarning dastlabgi massasidan foyizda gaz generatsiyasi koeffitsienti.

CHordjou pog‘onasida quyi-o‘rta yura J_{1-2} yotqizilarida gaz generatsiyasi zichligi:

$$q_g^{gen} = \frac{1 \cdot 3,9 \cdot 500 \cdot 7,20 \cdot 10^9}{2,2 \cdot 56,4} = \frac{1404000000000}{124,08} = 113152804642 \text{ m}^3/km^2$$

CHordjou pog‘onasida yuqori yura J_3 yotqizilarida neft generatsiyasi zichligi:

$$q_n^{gen} = \frac{0,3 \cdot 0,68 \cdot 400 \cdot 16,8 \cdot 10^6}{2,2 \cdot 62} = \frac{1370880000}{136,4} = 10050444 \text{ t}/km^2$$

CHordjou pog‘onasida yuqori yura J_3 yotqizilarida gaz generatsiyasi zichligi:

$$q_n^{gen} = \frac{0,3 \cdot 0,68 \cdot 400 \cdot 6,6 \cdot 10^9}{2,2 \cdot 62} = \frac{13453856000000}{136,4} = 3948387097 \text{ m}^3/km^2$$

Neftgaz hosil qiluvchi yotqizilarning hisoblash uchastkalarida neft va gaz emigratsiyasi zichligi $q_{n(g)}^{em}$ quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$q_{n(g)}^{em} = q_{n(g)}^{gen} K_{n(g)}^{em},$$

bu erda, $K_{n(g)}^{em}$ – neft (gaz) emigratsiyasi koeffitsienti

Emigratsiya koeffitsienti (K^{em}) katagenez bosqichlari davomida organik moddalarning sinbitumoid tarkibi va konsentratsiyasini o'zgarishini empirik modeli bo'yicha hisoblanadi. Neft va gazning prognoz resurslarini baholash uchun ushbu maqolada K_n^{em} analogik qabul qilingan.

Gazning emigratsiya zichligini hisoblashda K_g^{em} doim 0,9-0,95 atrofida qoladi, neftning emigratsiya zichligini hisoblashda K_n^{em} 0,20 qabul qilingan.

$$q_n^{em} = 892649,9 \cdot 0,20 = 178529,98 \text{ t/km}^2$$

$$q_g^{em} = 226305609,28 \cdot 0,90 = 203675048,352 \text{ m}^3/\text{km}^2$$


Quyida – o'rta yura yotqizilarda neft va gaz generatsiya va emigratsiya zichligi koeffitsientlarini hisoblash shuni ko'rsatadiki, CHordjou pog'onasining sharqiy qismida bu ko'rsatkichlar Buxoro-Xiva regionini bo'yicha nisbatan katta qiymatga ega ekanligi ko'rinadi. Maksimal qiymati quyidagicha: $q_n^{gen} = 0,89 \text{ mlnt/km}^2$ va $q_g^{gen} = 0,22 \text{ mlrd m}^3/\text{km}^2$, $q_n^{em} = 0,17 \text{ mln t/km}^2$ va $q_g^{em} = 0,2 \text{ mlrd m}^3/\text{km}^2$.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqori yura yotqizilarda neft va gaz generatsiyasi zichligi koeffitsientining qiymati markaziy va sharqiy qismlarda ortib borgan. Dengizko'l ko'tarilmasi va Beshkent egekligida maksimal qiymati quyidagicha: $q_n^{gen} = 0,25 \text{ mln t/km}^2$ va $q_g^{gen} = 0,98 \text{ mlrd m}^3/\text{km}^2$

Yuqorida tahlil qilingan ishlar Amudaryo havzasining CHordjou pog'onasida mezozoy yotqizilarning neftgazga samaraliyilgini miqdoriy tavsiflash imkonini beradi. Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rinib turibdiki CHordjou pog'onasida quyi-o'rta yura yotqizilari neftgaz samarali bo'lishi mumkin. Lekin geologik tarkibidan kelib chiqib quyi-o'rta yura yotqizilarda ishonchli qopqoq jinslar uchramaydi, shuning uchun, hosil bo'lgan uglevodorodlarning asosiy qismi yuqori yura yotqizilarda to'plangan.

Shunday qilib barcha mavjud ma'lumotlarning tahlili va hisoblash natijalari Amudaryo sedimentatsion havzasida mezozoy yotqizilarning neftgazlilik samaradorligi yuqori ekanligini ko'rsatadi.



1-rasm. Buxoro-Xiva neftgazli oblastida tektonik elementlarning sxemasi

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

- 1.«Рассеянное органическое вещество горных пород и методы его изучения» Издательство «Наука» Сибирское отделение – 1977// и. д. Полякова «Закономерности накопления органического вещества в древних осадочных толщах»
2. А.И. Дьяконов, Б.А. Соколов, Ю.К. Бурлин «Теоретические основы и методы прогноза, поисков и разведки месторождений нефти и газа» УХТА 2002
3. «Методические основы прогнозирования нефтегазоносности» Москва "Недра" 1990
4. В.В.Доценко «Учебное пособие эмиграция нефти и газа» Ростов-на-Дону 2010
- 5.Результати параметрическое скважин на Дегизкульской поднятий.

BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIDA RAQAMLI HUKUMAT

*Azamat Fayzullaev
ToshDSHU talabasi*

***Annotsiya.** Raqamli transformatsiya Birlashgan Arab Amirliklari hukumatining yangi imkoniyatlar va muammolarga qanday moslashishini shakllantirish uchun juda muhimdir. Amirliklar bugungi kunga kelib davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha aniq dasturlarga ega va bu borada katta tajriba orttirgan davlat sifatida tanildi. Mazkur maqolada, BAA raqamli hukumatining tashkil qilinishi, uning tarkibiy tuzilishi va hukumat faoliyatining samarador, ochiq va shaffofligini ta'minlashdagi ahamiyati borasida ma'lumotlar beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Raqamli transformatsiya, Raqobat, Global Media, Telekommunikatsiya, Mobil hukumat tashabbusi.*

***Annotation.** Digital Transformation is critical to shaping how the UAE government adapts to new opportunities and challenges. Today, the United Arab Emirates has clear programmes for the application of digital technology in all aspects of public and social life and has been recognized by a country with extensive experience in this field. This article provides information on the establishment of the digital government in the UAE, its structure and its role in ensuring the efficiency, openness and transparency of government activities.*

***Keywords:** Digital Transformation, Competition, Global Media, Telecommunications, Mobile Government Initiative.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya dunyodagi hukumatlarining yangi imkoniyatlar va muammolarga qanday moslashishini shakllantirish uchun juda muhimdir. Raqobat, xarajatlar va byudjet cheklovlari, fuqarolarning o'zgaruvchan talablari hamda boshqa bir qator o'zgarishlar dunyo hukumatlarini raqamli formatda ishlash va innovatsion AKTni qabul qilishga undaydi. Osiyo va dunyoda birinchilardan bo'lib Janubiy Koreya va Singapur raqamli transformatsiyalarning imkoniyatlarini tan oldi va o'zlarida bu tizimni to'la joriy qildi.

Bugungi kunda Birlashgan Arab Amirliklari ham raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan mamlakatlardan hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar Amirliklar aholisining kundalik xaridlaridan tortib, uning diplomatik aloqlariga qadar

bo'lgan barcha sohalarga kirib borgan. Global Media Insighning 2020 yildagi ma'lumotlariga ko'ra BAA aholisning 9,52 million nafari ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchisi hisoblanadi bu 100 fozga yaqin ko'rsatkich demakdir. (9,61 million aholi 2020 y.) Bu ko'rsatkich bo'yicha u 22 ta Arab davlati orasida birinchi o'rinda turadi va dunyo miqyosida ham birinchi o'ntalikdan joy olgan. So'nggi yillarda mamlakatda elektron hukumatni yaratish bo'yicha ham muntazam ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Mazkur maqolada BAA da raqamli hukumatning shakllanishi va uning imkoniyatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tadqiq qilish jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. **Birlashgan Arab amirliklarida raqamli hukumat siyosati** obyektiv ochib berildi. Bugungi kundagi rivojlangan davlatlar davri tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Gusterin P.V., "Gorod Arabskogo Vostoka kitobi mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Raqamli hukumat siyosati strukturasi tekshirish, bilimlarning tartibini aniqlash, ular tasnifini amalga oshirish alohida o'rin egallaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Birlashgan Arab Amirliklari hukumati tashabbusi bilan 2021-yilga qadar hukumat tizimlarini to'liq elektronlashtirish va ularda raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etishga doir samarali chora-tadbirlar rejasi qabul qilingan edi. Bu rejaga muvofiq, mamlakatda neft va tabiiy gaz qazib chiqarish, mehmonxonalarda mijozlarga samarali xizmat ko'rsatish, savdo markazlarida xaridorlar uchun sifatli va yangi mahsulotlarni etkazib berish hamda xaridorlar xavfsizligini ta'minlash, turizm salohiyatini yanada rivojlantirish belgilangan. Hozirgi kunga kelib, BAA ko'zlangan maqsadlariga to'liq erisha oldi, mamlakatda ishonchli va xavfsiz raqamli hukumat tizimi vujudga keldi. Endilikda fuqarolar hamda xorijlik sayyohlar uchun mamlakat hukumatiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish, o'zlari qiziqirgan masalalar yuzasidan javob olish hamda takliflar berish imkoniyati yaratildi. Bu narsa, albatta, BAA iqtisodiy tizimining barqarorligini ta'minlashda juda katta ahamiyat kasb etadi. SHayx Muhammad bin Rashid Al-Maktum ikki yil ichida barcha uyali aloqa vositalari orqali ham mamlakat hukumatiga murojaat qilishni ta'minlash borasida chora-tadbirlarni samarali yakunlashga va'da bergan edi.

Hukumat qarori bilan asos solingan Telekommunikatsiyalarni boshqarish hokimiyati (Telecommunications Regulatory Authority) "Mobil hukumat tashabbusi" deb nomlangan dastur qabul qilgan va shu dasturga doir bir nechta hujjatlar rasmiylashtirilgan. Bular:

1. Mobil hukumat yo‘riqnomalari (Mobile Government Guidelines).
2. Mobil hukumat yo‘l xaritasi (Mobile Government Roadmap).
3. Mobil hukumat tashabbusini qo‘llab-quvvatlash uchun Milliy reja (National Plan to Support Mobile Government Initiative).

BAA Mobil hukumati tizimining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. Uzluksiz faoliyat yuritish.
2. Kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun hamda yiliga 365 kun xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash.
3. Tezkor va ishonchli xizmatlar yo‘nalishlarni ta‘minlash.
4. O‘zgarishlarga tezligi bilan moslashish.
5. Targ‘ib qilish uchun munosib echimlarni o‘ylab topish.
6. Insonlarning yashash sharoitlarini osonlashtirish.
7. Kishilarda baxtiyorlik hissiyotini yanada oshirish.

Mobil hukumat tizimi doimiyligini ta‘minlash bilan shug‘ullanuvchi bir qancha tizimlar mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Federal Tarmoq tizimi (Federal Network - FedNet).
2. Raqamli innovatsiya markazi (Centre of Digital Innovation – CoDI).
3. Birlashgan Arab Amirliklari hukumati ilovalari (the UAE Government Apps)
4. Bir ilova (One App).
5. Milliy xaridorlar bilan aloqalar menejmenti (The National Customer Relations Management).

Birlashgan Arab Amirliklaridagi iqtisodiy, madaniy, xalqaro savdo-sotiq va turizm markaziga aylanib ulgurgan shahar – Dubaydir. Dubay shahri Dubay amirligining ma‘muriy markazi hisoblanadi. SHahar Fors ko‘rfazi sohilida joylashgan eng yirik portdir. Maydoni – 35 kv. km. aholisi – 3 million 300 ming kishi. Dubay shahriga 1833-yilda asos solingan, shaharni shundan beri al-Maktumlar sulolasi boshqarib kelmoqda. Dubay shahrida hozirgi kunda Burj Xalifa, Burj al-Arab, Dubay favvorasi, Akvarium, Dunyo sun‘iy orollar arxipelagi, Palma oroli, Mushrif bog‘i, “Birgalikda” haykali, Bastakiya (Dubayning tarixiy qismi) kabi sayyohlar diqqatiga sazovor bo‘lgan o‘nlan monumental obidalar va zamonaviy inshootlar mavjud. Ularni idora etish, sayyohlarni jalb etish maqsadida ushbu joylarda ham eng zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Dubay amirligi hukumati shaharni “smart city” (“aqli shahar”) ga aylantirishni maqsad qilgan. Dubay hukumati 2021-yil

dekabr oyiga qadar barcha qog‘ozbozlik ishlaridan voz kechib, samarali elektron hukumat tizimini joriy etish niyatida. Bunda aqlli va barqaror o‘svuchi shaharlarni barpo etish hamda internet ilovalari orqali mijozlarga turli xizmatlarni taklif qilish ishlari ko‘zda tutilgan. SHuningdek, mijozlar uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida xizmatlarni qayta sozlash uchun ma‘lumotlarni yig‘ish va ularni almashtirish xizmatlari ham joriy etilishi maqsad qilingan. Dubay shahrida allaqachon yo‘l va transport xizmatlari uchun to‘lovlarni nol smart-kartalari orqali yig‘ib olish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. 2020-yil mart oyida Dubayda 100 foiz qogozsiz shtamp ishga tushirilgan. Dubay hukumati qog‘ozsiz tizimni yaratish strategiyasi uchun katta mablag‘ sarflagan. Bu loyiha “Smart Dubai” deb nomlanadi hamda sifatli, raqamli va qog‘ozbozlikdan yiroq bo‘lgan xizmatlarni taklif etish bilan shug‘ullanadi.

Dubay hukumati ishlab chiqqan “Smart Dubai” strategiyasi 2021-yilning dekabriga qadar Dubay hukumatining an‘anaviy xizmatlari va operatsiyalarini raqamli shaklga o‘tkazishga imkon beradigan mukammal birlashtirilgan qog‘ozsiz hukumat infratuzilmasini barpo etishga qaratilgan. Bu har yili davlat operatsiyalari uchun foydalaniladigan 1 milliarddan ortiq qog‘ozni yo‘q qilishga yordam beradi hamda aholiga tezkor va sifatli yordam ko‘rsatish ishlarini osonlashtiradi.

Dubayda 2017-yilda Dubay hukumatining yagona interaktiv xizmat ko‘rsatish markzai ham ochilgan edi. U mijozlarga boshqa davlat xizmatlari markazlariga tashrif buyurishni talab qilmasdan davlat xizmatlari to‘plamini sifatli etkazib beradi. Bu markaz bir nechta federal va mahalliy boshqaruv idoralari tomonidan boshqariladi.

Birlashgan Arab Amirliklarining poytaxti, yirik shahar Abu-Dabida ham raqamli texnologiyalar joriy etilgan. Abu-Dabi hozirgi kunda Birlashgan Arab Amirligida ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 56 foizini beradi. Mamlakat iqtisodiyotining uchdan ikki qismi Abu-Dabi hissasiga to‘g‘ri keladi, shahardan yiliga davlat uchun 400 milliard dollar foyda keladi. Abu-Dabida “Faqat bir marta” loyihasi ishga tushirilgan. Unga binoan, Abu-Dabi hukumati xizmatlaridan foydalanuvchilar yoki iste‘molchilar har safar hukumatga murojaat qilganida shaxslarini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etishi talab qilinmaydi, bunday usuldan butunlay voz kechilgan. Ushbu siyosatdan foydalanish uchun foydalanuvchilar o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni faqat bir martagina Abu-Dabi hukumatining markaziy veb-sayti orqali topshiradilar. Ushbu ma‘lumotlar saqalanib qoladi va hukumat ularning xavfsizligini ta‘minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birlashgan Arab Amirliklari Arabiston yarimoroli hamda Fors ko‘rfazi bo‘yida joylashgan davlatlar ichida, umuman olganda, butun dunyoda o‘z iqtisodiyoti va

siyosati uchun raqamli texnologiyalarni joriy etgan juda kuchli mamlakatdir. BAA iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi mamlakat iqtisodiyotining gurkirab rivojlanishiga, Dubay, Abu-Dabi singari turistik shaharlar nufuzining yanada ortishiga sabab bo‘ladi. Mamlakat iqtisodiyoti uning tabiiy resurslarigagina bog‘liq bo‘lmasdan, balki turizm salohiyatiga hambevosita bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. استراتيجية إنترنت الأشياء في دبي [Dubai Internet of Things Strategy] URL: <https://www.government.ae/ar-ae/about-the-uae/strategies-initiatives-and-awards/local-governments-strategies-and-plans/dubai-internet-of-things-strategy>
2. استراتيجية القوة الناعمة لدولة الإمارات [The UAE Soft Power Strategy] <https://government.ae/ar-ae/about-the-uae/strategies-initiatives-and-awards/federal-governments-strategies-and-plans/the-uae-soft-power-strategy>
3. الاستراتيجية الوطنية للأمن السيبراني-2019 [National Cybersecurity Strategy 2019] URL: <https://www.government.ae/en/about-the-uae/strategies-initiatives-and-awards/federal-governments-strategies-and-plans/national-cybersecurity-strategy-2019>
4. محمد بن راشد في رسالة الموسم الجديد [Mohammed bin Rashid's Letter of the New Season] URL: <https://www.albayan.ae/across-the-uae/news-and-reports/2019-08-31-1.3638375>
5. Gusterin P.V., “Gorod Arabskogo Vostoka” – 2007
6. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma‘rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
7. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta‘limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
8. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 P.
9. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
10. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

11. The Government and Politics of the Middle East and North Africa. Encyclopedia.
12. www.memoriamedia.net
13. www.meetup.com
14. www.weforum.org
15. www.researchgate.net

**MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA
QILISH YO‘LLARI.**

*Toshkent arxitektura qurilish insituti
Qurilish iqtisodiyoti yo‘nalishi 2 kurs magistranti
Bozorov Bobur Haqberdievich
boburbozorov96@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshqaruv hisobi hamda korxonalar faoliyatida kalkulyasiyaning tutgan o‘rni, kalkulyasiyaning mazmun-mohiyati, mahsulot tannarxi kalkulyasiyasi usullari, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar birligining tannarxini aniqlash, ya‘ni to‘g‘ri kalkulyasiya qilish uslublari, kalkulyasiya tuzish vaqtiga ko‘ra farqlanishi, kalkulyasiya tuzishdagi muammolar, kalkulyasiya qilishning tarkibiy muammolari, kalkulyasiya qilishning umumiy muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv hisobi, kalkulyasiya usullari, kalkulyasiya metodlari, mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish xarajatlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются управленческий учет и роль бухгалтерского учета в деятельности предприятий, содержание и сущность расчета, методы расчета себестоимости продукции, произведенной продукции, выполненных работ и определения себестоимости единицы оказанных услуг, то есть методы точного расчета, разница по времени расчета, проблемы в организации учета.

Ключевые слова: управленческий учет, методы расчета, методы расчета, себестоимость продукции, себестоимость продукции.

Abstract: In this article, Management Accounting and the role of accounting in the activities of enterprises, the content and essence of the calculation, methods of product cost calculation, the products produced, the work done and the identification of the cost of the unit of services provided, that is, the methods of accurate calculation, the difference according to the time of calculation, the problems in the creating calculation, structural issues of calculation, as such, general problems are observed.

Keywords: management accounting, calculation methods, calculation methods, product cost, production costs.

KIRISH

Bugungi kunda an‘anaviy (traditional) va zamonaviy (innovative) buxgalteriya hisobi amaliyoti o‘rtasidagi o‘zaro farqli jihatlar boshqaruv hisobi yo‘nalishini ham

yangidan tadqiq etish zaruriyatini ko'rsatmoqda. SHuningdek, an'anaviy hisobda foydalanilgan tahliliy va tannarx hisoblash usullari va ularning natijaviy ko'rsatkichlari o'z navbatida joriy amaliyotning yangi bosqichida hisoblashning zamonaviy modellarini ishlab chiqishni talab etadi. Xususan, o'tgan yili Davlat dasturi doirasida 21 trillion so'm va 1 milliard dollarga teng 76 mingta ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirildi. Bu kabi dasturlarning davomiyligini ta'minlash va kutilgan samarali natijalarga erishishda xarajatlarni boshqarishning muqobil usullarini yaratish muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish yo'llari obyektiv ochib berildi. *Хорнгерен Ч.Т., Фостер Дж. (2004) Бухгалтерский учет. Управленческий аспект. М.: Финансы и статистика* nomli kitoblari mantiqiy izchillik va asosiy manba sifatida tadqiq qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda firma va kompaniyalar buxgalteriya hisobi sohasidagi ish vaqtlarining deyarli 90 foizini boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritishga sarflaydilar. Rossiya Federatsiyasi Savdo va iqtisodiy rivojlanish Vazirligi qoshida boshqaruv hisobi masalalari bo'yicha kengash tashkil etilganligi, AQSHning Bufallo shahrida 1919 yildan buyon professional tashkilot Xarajatlar hisobi bo'yicha mutaxassislar milliy assotsiatsiyasining (*National Association of Cost Accountants*) faoliyati ushbu sohaning rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi ⁴². Xarajatlarning boshqaruv mexanizmini me'yorlarga asosan tashkil etmay korxonalarini samarali rivojlantirib bo'lmaydi. Boshqaruv mexanizmlarining asosiy vazifalaridan biri sifatning maqbul darajasini saqlab qolgan holda, ishlab chiqarishda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar miqdorini kamaytirishga imkon beruvchi xo'jalik mexanizmlarining yangi usullarini vujudga keltirish va undan samarali foydalanishdir.

¹ Management And Accounting Web URL: <http://maaw.info/AccountingHistoryDatesAndEvents>.

1-jadval

Qayta ishlash sanoati sohalarida ishlab chiqarish narxlari indeksi (foizda)

Саноат соҳалари	2019-01	2019-02	2019-03	2019-04	2019-05	2019-06
Ишлаб чиқариш нархлари индекси	108,8	101,0	100,0	98,7	100,8	100,1
Қайта ишлаш саноати	111,4	101,0	100,4	99,5	100,2	99,9
Озиқ-овқат саноати	100,8	100,3	101,1	100,1	100,6	100,1
Ичимлик	100,9	100,4	99,9	100,6	100,2	100,5
Тўқимачилик	99,9	100,2	99,7	99,8	100,1	100,2
Кимёвий маҳсулотлар	134,4	100,6	100,1	95,9	99,6	100,1
Нефтни қайта ишлаш саноати	105,8	98,6	98,9	99,7	100,6	98,6
Бошқа турдаги минерал маҳсулотлар	100,2	101,9	103,9	103,8	98,7	98,6
Металлургия саноати	171,9	100,1	100,2	98,1	100,5	100,7
Тайёр металл маҳсулотлари (машина ва ускуналардан ташқари)	114,5	100,1	100,1	100,1	100,1	100,0
Электр жиҳозлар саноати	100,0	99,5	100,0	100,0	100,0	100,0
Автотранспорт воситалари, тиркама ва ярим тиркамалар	100,7	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0


Iqtisodiyotning tarkibiy sohalarida ishlab chiqarish narxlari indeksi 2019 yilning dastlabki olti oyi davomida o‘shir xususiyatiga egaligi narxga ta’sir etuvchi omillar tarkibini, xususan, ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarni maqbul usullar asosida hisoblashni talab etadi. Qayta ishlash sanoatining metallurgiya (7%) va ichimliklar (5%) ishlab chiqarish sohalarida narxlarning sezilarli darajada oshganini, koks va neftni qayta ishlash (-1.4%) va boshqa nometall-mineral mahsulotlar (-1.4%) ishlab chiqarish sohalarida esa, aksincha, narxlarning pasayish sur’atini kuzatish mumkin.

Boshqaruv apparatini qarorlar qabul qilishda zaruriy va tezkor ma’lumotlar bilan ta’minlash, qilingan xarajatlarni o‘z vaqtida nazorat qilish, axborotlarni doimiy yangilab borish va qayta ishlashda kalkulyasiya uslublariga nisbatan talablar belgilanadi.

Kalkulyasiyalash tuzish vaqtiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi: dastlabki va yakuniy kalkulyasiyalash.

Boshqaruv hisobi vazifalarini samarali hal etishda mavjud muammolar va xatolarni reglamentlash muhim ahamiyatga ega. Qabul qilinayotgan qarorlarning boshqaruv tizimida tavsiflanadigan tahlil etishdagi xatolar: - hisob yuritishning

tahliliy funksiyasi muhimligini tushunmaslik; - korxonadagi mavjud hisob yuritish va tahlil qilish tizimi mahsulot ishlab chiqarishning zararsiz hajmini aniqlash imkonini bermaydi; - chetlanishlarni tahlil qilishga etarlicha e'tibor qaratilmaydi.



1-расм. Калькуляциянинг тузиш вақтига кўра фарқланиши.

Boshqaruv hisobi imkoniyatlarini to'liq ochib berishda u bilan bog'liq muammolarni o'rganish talab etiladi. Kalkulyasiyalashning asosiy muammolari:



2-расм. Калькуляция қилишнинг таркибий ва умумий муаммолари

Korxonaning qaysi tarmoqqa mansubligiga ko'ra kalkulyasiyalash ikki variantda amalga oshirilishi mumkin: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz. YArim tayyor mahsulotli variantda har bir bosqich bo'yicha mahsulot tannarxi hisoblab chiqariladi. Oxirgi bosqich tannarxi barcha tayyor mahsulot tannarxi bo'lib hisoblanadi.

YArim tayyor mahsulotsiz variantda tayyor mahsulot tannarxiga barcha alohida bosqichlar bo'yicha uni ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Boshqaruv hisobining umumiy taktikasi, ya'ni joriy davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, dalillash, qabul qilingan qarorlarni tahlil va nazorat qilish, shuningdek, kalkulyasiyalash usullari va uni tuzishdagi muammolar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

□ rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asosan yirik ishlab chiqarish hajmiga ega korxonlarda umumiy ma'lumotlarni qamrab oluvchi "informatsion-mikromuhit" yaratish;

□ ishlab chiqarish korxonlari faoliyatini kengaytirish va rag'batlantirish maqsadida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq energiya-tejamkor va atrof-muhit holatiga salbiy ta'siri kam bo'lgan ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi (ma'muriyatga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan tashqari) asosiy vositalarga nisbatan turli nisbatda pasaytirilgan mulkiy soliq stavkalarini joriy etish;

□ kalkulyasiya qilish usullarini ishlab chiqarishga mosligi yuzasidan baholashda boshqaruv hisobini dasturiy natijaviyligini ta'minlovchi avtomatlashtirilgan tizim yaratish;

□ ishlab chiqarish jarayonida me'yoriy darajalar asosida iqtisod qilingan moddiy resurslar bo'yicha rag'batlantirish choralarini joriy etish;

□ bozor mexanizmlari ta'sirida narxning chegaraviy karidorlari belgilangan sharoitda kalkulyasiya qilish usullarini foydaga bevosita va bilvosita ta'sirini muqobil variantlarni qo'llash orqali tanlash;

□ bozor talablari asosida rivojlanayotgan investitsiyaviy muhit jozibadorligi indekslarining boshqaruv hisobi tizimiga oid ko'rsatkichlar bilan bevosita bog'liqligi, ularni hamjihatlikda yuritishni tatbiq etish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Babaev YU.A. (2007) *Buxgalterskiy uchet* Izdatelstvo: «Velbi» Karpova T. P. (2004) *Janr: Buxgalterskiy uchet* Izdatelstvo: «YUNITI-DANA».

2. *Murojaatnoma* (2018) *O'zbekiston Respublikasi Prezident SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi*.

3. Xorngren CH.T., Foster Dj. (2004) *Buxgalterskiy uchet. Upravlencheskiy aspekt. M.: Finansy i statistika*.

**NARXLARNI SUN'IY RAVISHDA OSHIB KETISHIGA
OLIB KELUVCHI MUAMMOLAR, KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF
ETISH YO'LLARI**

*Toshkent arxitektura qurilish insituti
Qurilish iqtisodiyoti yo'nalishi 2 kurs magistranti
Bozorov Bobur Haqberdievich
boburbozorov96@gmail.com*

***Annotatsiya:** Maqolada narxlarni sun'iy ravishda oshib ketishiga olib keluvchi muammolar, kambag'allikni bartaraf etish yo'llari xorijiy tajribalardan kelib chiqib yoritilgan omillar hamda Respublikamizda olib borilayotgan islohatlar. SHuningdek, Iqtisodiyot qonunlariga asoslangan omillar, bugungi kunda kambag'allikni oldini olish chora-tadbirlari, Dunyo bo'yicha aholining kambag'alligiga sabab bo'luvchi omillardan biri COVID-19 pandemiyasiga qarshi ijtimoiy himoya tizimlari ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** inson salohiyatini rivojlantirish, pandemiya, ijtimoiy himoya tizimi.*

***Аннотация:** В статье освещаются проблемы, приводящие к искусственному росту цен, пути ликвидации бедности, факторы, вытекающие из зарубежного опыта, а также реформы, проводимые в нашей стране. Также были разработаны факторы, основанные на законах экономики, меры по предотвращению бедности сегодня, системы социальной защиты от пандемии COVID-19, одного из факторов, вызывающих бедность населения во всем мире.*

***Ключевые слова:** человеческое развитие, пандемия, система социальной защиты.*

***Annotation:** In the article, the problems leading to an artificial increase in prices, the ways to eliminate poverty are highlighted by factors arising from foreign experience, as well as the reforms carried out in our country. Also, factors based on the laws of the economy, measures to prevent poverty today, social protection systems against the pandemic of the COVID-19, one of the factors that causes the poverty of the population around the world, have been developed.*

***Keywords:** human development, pandemic, social protection system.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida kambag'allikka qarshi kurash iqtisodiy rivojlanish siyosatimizda ustuvor vazifa etib belgilandi.

«Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir», deb ta'kidlangan edi murojaatda.

Iqtisodiyot qonunlariga asosan, «kambag'allik kambag'allikni keltirib chiqaradi». Mazkur jarayon bir necha sabablarga ko'ra sodir bo'ladi.

Birinchidan, daromadlari past mamlakatlar sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash uchun etarlicha pul sarflay olishmaydi, kambag'al aholi esa sifatli pullik ta'lim va tibbiyot xizmatlarga qurbi etmasligi sababli inson salohiyati pasayib, kambag'allikdan qochib qutula olmaydilar.

Ikkinchidan, kambag'al aholining daromadlari pasayib borgan sari, iste'mol bozorining sig'imi mutanosib ravishda kichrayib boradi va buning natijasida sanoat mollari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ayniqsa, xizmatlarga bo'lgan talab pasayib boradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi, byudjet daromadlarini kamaytiradi va kambag'allarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini kamaytirib yopiq siklik jarayon ko'rinishiga keladi.

Uchinchidan, aksariyat hollarda kambag'allarning dunyoqarashi daromad yuqori bo'lganlardan farq qiladi. YUqorida aytib o'tilgan sabablarga ko'ra, ular orasidan ijodkor va tadbirkorlik qobiliyatiga ega insonlarning etishib chiqishi ehtimoli kamroq. SHuningdek, odatda kambag'al oila a'zolari orasida jinoyatchilik ko'rsatkichlari nisbatan yuqoriroq bo'ladi.⁴³

Boshqacha qilib aytganda, kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillar mamlakatda inson salohiyatini rivojlantirishga, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va aholining iqtisodiy faoliyatiga to'sqinlik qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Razzoqov A., ning Iqtisodiy ta'limotlar tarixi nomli darslik kitobi keng tahlil etishda asosiy vosita bo'ldi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Narxlarni sun'iy ravishda oshib ketishiga olib keluvchi muammolar, kambag'allikni bartaraf etish yo'llari obyektiv ochib berildi. O'zbekistonda oxirgi uch yil mobaynida kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga real jami daromad 43,9 foizga, o'rtacha hisoblangan nominal oylik ish haqi 79,7 foizga yoki 2016 yildagi 1293,8 ming so'mdan 2019 yilda 2324,5 ming so'mga oshganligi keng tahlil qilindi.

⁴³ «Аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимидаги муаммоларни айнан қўлда бoшқариш режимида ҳал этишга тўғри келмоқда» — Обид Ҳақимов. <https://kun.uz/news/2020/08/11/aholini-ijtimoiy-qollab-quvvatlash-tizimidagi-muammolarni-aynan-qolda-boshqarish-rejimida-hal-etishga-togri-kelmoqda-obid-hakimov>

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jahon bankining «O‘zbekiston fuqarolarini tinglab» loyihasi doirasida, uy xo‘jaliklari orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 2020 yilning yanvar-mart oylari uchun o‘rtacha kambag‘al xonadonning oylik daromadi taxminan 1,5 million so‘mni tashkil etib, taqqoslama narxlarda bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12 foizga oshgan.

Mazkur muammoni hal qilishga hukumat tomonidan katta hajmdagi sa‘y-harakatlar qaratilgan. Jumladan, mamlakatda kambag‘allikka qarshi kurashish uchun zarur institutlar yaratildi. Bu avvalambor Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi, kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini belgilab beradi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yaqinda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlik fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish institutlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mas‘ul davlat organi sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan qatlamlarini aniqlash va manzilli ko‘mak berish borasida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

SHuningdek, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash va qishloq joylarini obodonlashtirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, «Obod qishloq» dasturining amalga oshirilishi tufayli 1,7 mln qishloq aholisining yashash sharoitlari yaxshilandi. Birgina 2019 yilda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish uchun jami 600 million AQSH dollariga teng 6,1 trln so‘m ajratildi.

Biroq, erishilgan natijalarga qaramay, hozirgi kunda O‘zbekistonda 400 mingdan ortiq oila turmush sharoitlari yaxshilanishiga muhtoj (Jahon banki mezonlariga ko‘ra, 2015 yil oktyabridan boshlab Global kambag‘allik darajasiga kuniga 1,9 AQSH dollardan kam daromad olganlar kiritilgan). Norasmiy sektorning mehnat bozoridagi ulushi 40-50foizni tashkil etadi. Biroq, kambag‘al uy xo‘jaliklarining faqat 23 foizigina ijtimoiy nafaqa olishadi.

Pandemiya davrida aholining kambag‘al va eng zaif qatlamlariga ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatuvchi muassasalar faoliyatini isloh qilish zarurati kuchaydi. SHu bois bu muammolarni hal qilish jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Moddiy yordamni taqsimlashda kerakli nazorat, shaffoflik va manzillilikni ta‘minlash maqsadida raqamli texnologiyalar asosidagi tizimli echimlarni joriy qilish asosida avval etarlicha manzilli bo‘lmagan va samarasiz tizimdan yangi tizimga o‘tilmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimi bu – kambag‘allik va tengsizlikni kamaytirish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar va dasturlar majmuasidan iborat davlat siyosatidir.

G‘arb davlatlarida ijtimoiy himoyaning markazlashgan tizimi 20-asrning boshlarida Germaniya va Buyuk Britaniyada ijtimoiy ta‘minot tizimlarining yaratilishi davrida, bir oz keyinroq esa AQSHda – Buyuk depressiya davrida muvaffaqiyatga erisha boshladi. 100 yil oldin ijtimoiy himoya tizimlari faqatgina bir necha mamlakatda rasman mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ushbu tizim deyarli barcha davlatlarda amal qilmoqda. Mamlakatlar o‘z imkoniyatlari, milliy sharoitlari va ustuvorliklariga asoslanib ijtimoiy himoya tizimlarini quradilar.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi nafaqat moddiy yordam berishga, balki aholining yordamga muhtoj qatlamlarini kambag‘allikdan chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda 1990 yillardan boshlab nafaqa ko‘rinishidagi ijtimoiy yordam oluvchilarni rasmiy tadbirkorlikka jalb qilish uchun majburiy talablar joriy qilingan. Bu amaliyot qo‘llanilgan mamlakatlarda (Koreya, AQSH, YAngi Zelandiya, Buyuk Britaniya va boshqalar), aholi bandligi oshgani kuzatilgan.

Turli tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikdagi inson farovonligini faqatgina daromadlarga asoslangan baholash o‘rniga boshqa ko‘p kriteriyali tizimlari bilan o‘lchash kambag‘allikka qarshi kurashishning samarasini yanada oshiradi. Kambag‘allik bu faqatgina daromadlar emas, bu turli o‘lchamli (*toza ichimlik suvi, sog‘liqni saqlash, sanitariya holati, boshqa zarur xizmatlar*) hayot sifatini ifodalovchi ko‘rsatkichdir. Maqsadli ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimidagi bu o‘zgarishlar qisman Avstriya, Belgiya, Avstraliya, Kanada, CHexiya, Daniya va boshqa mamlakatlarda 2000 yillarning o‘rtalarida rasmiy kambag‘allik darajasini kamaytirishga omil bo‘lgan.

Turli mamlakatlar kambag‘allik darajasini kamaytirish uchun turli modellarni qo‘llashadi. Misol uchun, shved modeli ikki maqsadni ko‘zda tutadi: to‘liq bandlik va daromadlar tengsizligini kamaytirishni ta‘minlash. Mazkur mamlakatida, ishsizlarni o‘qitish va qayta tayyorlash, talab yuqori bo‘lgan sohalarda ishlash qobiliyatini tiklashni ma‘qul ko‘rishadi.

Xitoyda qishloq xo‘jaligini, shu jumladan, qishloq hududlarini rivojlantirish va er islohotlariga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

CHexiyada esa kambag‘al aholini moddiy tomondan qo‘llab-quvvatlash uchun asosiy nafaqadan tashqari mahsulotlar va pul ko‘rinishidagi qo‘shimcha ko‘maklar beriladi.

AQSHda kambag'allarga ko'rsatilayotgan yordam aholining 15 foizidan 20 foizigacha qismini qamrab oluvchi maxsus dasturlar orqali tarqatiladi. Eng ko'p tarqalgan yordam turlari bu oziq-ovqat talonlari, arzon uy-joy olish dasturlari, qariyalar uchun tibbiy va ijtimoiy yordam turlari, bola parvarishlash bo'yicha nafaqalar va boshqa turdagi qo'llab-quvvatlash turlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston sharoitida ham rivojlangan mamlakatlardak kambag'allikni qisqartirishga kompleks yondashuv eng maqbul echimdir. Mazkur siyosat mehnatga layoqatli aholini imkon qadar ish bilan ta'minlash va bir vaqtning o'zida muhtoj odamlarni kambag'allik chegarasidan chiqarishga qaratilgan davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab quvvatlashga qaratilgan.

SHu bilan birga, qashshoqlikni zudlik bilan bartaraf etishning imkoni bo'lmagan sharoitda kam ta'minlanganlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning daromad olishi va inson kapitalini rivojlantirishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish nazarda tutilmoqda.

O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Bunday mamlakatlarda davlat jamiyat hayotidagi ishtiroki ancha muhim bo'lib, u o'z fuqarolari oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini keng ko'lamda amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Kuchli ijtimoiy siyosat degani davlat institutlari tomonidan ijtimoiy ne'matlarni jamiyatning eng kam himoyalangan va eng zaif a'zolari foydasiga taqsimlash demakdir. O'tgan yillar davomida O'zbekistonda boshqa ko'plab mamlakatlardan farqli o'laroq, kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilgani shubha ostiga olinmay kelinmoqda. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekistonda haqiqatan ham ijtimoiy adolat tushunchasiga mos keladigan davlat siyosati modeli tanlanganini ta'kidlash mumkin. Nima uchun bunday bo'ldi?

Ming yillar davomida xalqimiz yashab turgan zaminimizda odamlar bir-biriga yordam berishi, og'ir hayotiy vaziyatlarda qolgan qashshoq va zaif aholi qo'ni-qo'shni, mahalla va jamiyatdan madad olishi lozim, degan an'anaviy dunyoqarash shakllangan. O'zbekistonda ijtimoiy shartnoma ijtimoiy axloqning ko'p asrlik tamoyillariga asoslangan.

SHunday bo'lsa-da, uzoq vaqt davomida, kambag'allikning mavjudligi siyosiy sabablarga ko'ra rasmiy darajada deyarli tan olinmagan, kambag'allikni aniqlashning qonuniy tasdiqlangan mezonlari yo'q edi, bu holda samarali ijtimoiy siyosat olib borish juda mushkul masala edi. Biroq, kambag'allik muammosi yo'qolmadi, hatto 2007 yilda uni bartaraf etish uchun tegishli strategiyani ishlab chiqishga harakat

qilindi. BMTTD, Jahon banki va OTB bilan birgalikda «2008-2010 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisi farovonligini oshirish strategiyasi» ishlab chiqildi. Biroq tan olish kerak, yaqin davrgacha mahalla qo‘mitalari orqali kambag‘allarni real ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmadi.

Aniqlangan kamchiliklar shundan iboratki, narxlarni nazorati sustlashdi natijada, sun‘iy ravishda narx-navo ko‘tarilib bordi, tabiiyki bundan xalq jabr ko‘rdi.

Bu erda shuni ta’kidlash kerakki, moddiy yordam ko‘rsatish mexanizmi hali ham Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom» bilan belgilanadi. Ushbu qoidaga muvofiq, bolali oilalarga nafaqalar, bola parvarishi bo‘yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to‘lash to‘g‘risidagi qaror qabul qilishga vakolatli mahalla fuqarolar yig‘ini yoki komissiyaga belgilangan. Komissiya fuqarolar yig‘ini raisi boshchiligida fuqarolar yig‘ini tomonidan saylanib kelgan. Komissiya a‘zolari 2 yil muddatga, fuqarolar yig‘ini raisi esa – o‘z vakolatlarining butun muddati davomida saylangan. Ushbu komissiya a‘zolarining soni kamida 15 kishini tashkil etishi lozim.

Mazkur mexanizm, komissiya a‘zolari o‘zlari yashayotgan mahallalarda qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj aholini bilgan holda ob‘ektiv qarorlar qabul qilishni nazarda tutadi. Ammo, boshqa tomondan, jamoaviy qaror qabul qilishning bunday mexanizmi juda murakkab, etarlicha shaffof emasligi va berilgan vakolatlar suiiste‘mol qilinishini istisno qilmaydi, ayniqsa, ko‘plab jarayonlar ortiqcha hujjatlar va sertifikatlar taqdim etilishini talab qiladi. Balki shuning uchundir, ijtimoiy yordam ajratish mexanizmidagi qiyinchiliklar va kamchiliklar ta’sirida Prezident qabulxonalariga samarasiz yoki hatto adolatsiz moddiy yordam ajratish amaliyotlar haqida murojaatlar soni oshib ketishiga olib keldi.

2019 yilda butun mamlakat bo‘ylab 6,1 milliondan ortiq xonadonda aholining muammolarini o‘rganish uchun tuzilgan ishchi guruhlar tomonidan o‘rganishlar o‘tkazildi. Fuqarolar bilan o‘tkazilgan so‘rovlar natijasida hal qilinishini talab etiladigan 935,6 mingta muammo aniqlanib, ularning aksariyati hal qilindi. Aholi uchun eng og‘riqli muammolar orasida: suyultirilgan gaz ta’minoti (respondentlarning 18,9 foizi), bandlik (11 foiz), sog‘liqni saqlash (8,5 foiz), elektr energiyasi ta’minoti (8,1 foiz), bank kreditlari (7 foiz), moddiy yordam (5,7 foiz), ichimlik suvi (5,5 foiz), kadastr masalalari (5,3 foiz), uy-joy (4,4 foiz), tabiiy gaz (3,4 foiz), ko‘mir ta’minoti (2,3 foiz), pasport nazorati (2,1 foiz) va maktabgacha ta’limga oid masalalar (1,5 foiz) o‘rin olgan.

Joriy yilda, pandemiya bilan bog‘liq qator cheklovlar natijasida aholi turmush darajasi sohasida vaziyat yanada murakkablashdi. SHu bois ijtimoiy muammolarni aniqlash ishlari yanada muhim ahamiyat kasb etib, faol davom ettirilmoqda. Joriy yilning 1 avgust holatiga ko‘ra, aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari bo‘yicha murojaatlar soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ikki baravar ko‘paydi.

SHuningdek, moddiy yordam va ijtimoiy nafaqalarni olish uchun arizalar soni ijtimoiy himoyaga murojaat etuvchilarning umumiy sonining 48 foizini tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 1,9 baravar ko‘p.

Pandemiya bilan bog‘liq so‘rovlarning yangi toifalari ham ishlatila boshlandi. Karantin davrida fuqarolarni moddiy yordam, oziq-ovqat va himoya vositalari bilan ta‘minlash to‘g‘risidagi murojaatlar umumiy murojaatlar sonining 16 foizini, oziq-ovqat va asosiy ehtiyojlarning narxi va tanqisligi to‘g‘risidagi murojaatlar esa 8 foizni tashkil etdi.

YUqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, oxirgi 2-3 yilda aholining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimida o‘tgan yillar davomida to‘plangan mavjud muammolarni sektorlar tomonidan yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida qo‘l rejimida tezkor hal etish o‘zining samarasini ko‘rsatdi. Ammo tan olish lozimki, ko‘p hollarda «inson omiliga» haddan tashqari bog‘liqlik muammolarni echishda boshqa muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi va tadqiqot jarayonida aniqlangan kamchiliklar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish lozimligini ko‘rsatmoqda. Ayrim yordam turlarini ajratishning aniq mezonlari bo‘lishi, unga muvofiqlikni aniqlash mustaqil axborot manbalariga asoslanishi lozim. YOrdam ajratish mezonlari va tartiblari, ajratilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aniq va butunlay shaffof bo‘lishi lozim. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalarini qo‘lda boshqarishdan aniq va ravshan integratsiyalashgan tizimga o‘tkazish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, o‘tgan yilidan boshlab mamlakatimizda bu borada muhim qadamlar qo‘yildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 apreldagi 308-son qaroriga muvofiq, «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda, bu oilalar ehtiyoji va talabgorlarning belgilangan mezonlarga muvofiqligi darajasini oshkora, real vaqtda baholashni ta‘minlaydi.

Ehtiyoj darajasi oila a‘zolarining daromadlari, mol-mulk, bank hisobvaraqlari, olingan kreditlar, turli idoralarning tegishli ma‘lumotlar bazalarida mavjud bo‘lgan avtomobillar haqidagi ma‘lumotlarni hisobga olish yo‘li bilan aniqlanadi. Ushbu hisob-kitoblarga asosan ijtimoiy xizmatlar, yordamga muhtoj aholi va oluvchilarning

yagona ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Mazkur tizimni sinovdan o'tkazish uchun Sirdaryo viloyatida 2019 yilning 1 oktyabridan boshlab pilot loyiha sifatida sinab ko'rildi.

Ushbu tizim faoliyatini samarali amalga oshirish uchun aholiga ko'rsatilayotgan yordam to'g'risidagi ob'ektiv ma'lumotlar «Ijtimoiy himoya yagona reestriga» kiritib borilishi kerak. Ushbu vazifa xonadonlarni o'rganish jarayonida ham amalga oshiriladi. Mazkur ma'lumotlar asosida va ayrim oilalarning turmush darajasiga karantin cheklovlarining salbiy ta'sirini hisobga olgan holda, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga mas'ul idoralar tomonidan joriy yilda moliyaviy yordam va ko'makka muhtojlar ro'yxati tuzildi.

Ushbu ro'yxatlardan kam ta'minlanganlar; imkoniyati cheklangan fuqarolar; ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar; yolg'iz keksalar; doimiy ishsiz fuqarolar; karantin tufayli ishsiz qolgan fuqarolar; epidemiologik jihatdan nochor hududlardan qaytgan fuqarolar o'rin olishgan.

Bu yo'nalishda keyingi muhim qadam joriy yilning 4 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarori bo'ldi. Qarorda joriy yilning 1 sentyabrdan boshlab ijtimoiy nafaqalarni tayinlash to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish va ularni tayinlash tartib-taomillari «Elektron hukumat» tizimining ajralmas qismi bo'lgan «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilib, joriy yil oxirigacha respublikaning barcha hududlarida amalga oshirilishi belgilangan.

Ushbu tizimni joriy etishning asosiy maqsadlari – aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etishning yagona tizimini yaratishdan iborat.

XULOSA

Mamlakatdagi kambag'allikni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lgan – ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish faqatgina kompleks yondoshuvlar orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

So'nggi yillarda kambag'allikni engishga hissa qo'shadigan boshqa sohalarda ham salmoqli sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Ularga yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qishloq joylari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq joylarda infratuzilmani takomillashtirish, sog'liqni saqlash, kasb-hunar ta'limi va tarbiyasini yaxshilash hamda iqtisodiy migratsiya kiradi. Bu sohalarda

oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar mamlakatimizning uzoq muddatli kambag'allikni qisqartirish dasturining muhim qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
2. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «SHarq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. – 480 b.
3. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
4. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
5. Razzoqov A. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Oliy ta'lim muassasalarining talabalari uchun darslik / A.A.Razzoqov, SH.H.Tashmatov, N.T.O'rmonov. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 320 b.
6. SHodmonov SH.SH., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. – 784 b.
7. Камаев В.Д. Экономическая теория: Краткий курс: учебник / В.Д.Камаев, М.З.Илчиков, Т.А.Борисовская. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2007. – 384 с.
8. Симкина Л.Г. Экономическая теория. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2008. – 384 с.
9. Станковская И.К., Стрелетс И.А. Экономическая теория: учебник / И.А.Стрелетс. – 3-е изд., испр. – М.: Эксмо, 2008. – 448 с.
10. Сулаймонов Ж.Б. Взгляды Абдуррахмана ибн Халдуна о развития общества и цивилизации// Международный научно-практический журнал “Экономика и социум”. 12 (79)2020 г. //https://iupr.ru//a78cf8ac-3ef5-4670-8fcd-a900ec94fdfb.

**QISQA MUDDATLI PORTLASH SODIR BO'LGANDA
TOG' JINSLARINING BUZILISH RADIUSINI ANIQLASH ORQALI
BURG'ULASH-PORTLATISH ISHLARI PASPORTI PARAMETRLARINI
HISOBLASH.**

Nurxonov Xusan Almirza o'g'li

Qarshi muxandislik –iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

[*knurkhonov@mail.ru*](mailto:knurkhonov@mail.ru)

Mansurova Sevara Abdukarim qizi

Qarshi muxandislik –iqtisodiyot institute magistranti

Annotatsiya: *Ishlarning aksariyati tog' jinslari massivida buzilgan tog' jinsini ajratib turadigan yoriqlar tizimini shakllantirishga va uning paydo bo'lish vaqtini belgilashga imkon beradigan qo'shimcha ochiq sirt hosil qilishga bag'ishlangan. Shuning uchun portlatish ketma-ketligining qo'shimcha ochiq sirt hosil bo'lishini hisobga olgan holda ma'dan konlarini burg'ulash va portlatish texnologiyasida burg'ulash shpurlarini fazoviy joylashishiga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy muammo hisoblanadi.*

Kalit so'zlari: *shpur, skvajina, tog' massivi, kon laximi, portlovchi modda, to'lqin, patron, zaryad, detonatsiya, kavjoy, qatlam.*

Аннотация: *Подавляющее большинство работ посвящено образованию системы трещин, отделяющих разрушенную породу от разрушаемого массива и образующих дополнительной открытую поверхность, что позволяет устанавливать время ее образования. Поэтому исследование влияния очередности взрывания на пространственное расположение шпуров при буровзрывной технологии проведения горных выработок с учетом образования дополнительной открытой поверхности является актуальной научно-прикладной задачей.*

Ключевые слова: *шпур, скважина, горный массив, горные выработке, взрывчатое вещество, волна, патрон, заряд, детонация, забой, пласт.*

Abstract: *The overwhelming majority of works are devoted to the formation of a system of cracks separating the destroyed rock from the destroyed rock mass and forming an additional open surface, which makes it possible to establish the time of its formation. Therefore, the study of the influence of the sequence of blasting on the spatial arrangement of holes in the drilling and blasting technology of mine workings, taking into account the formation of an additional open surface, is an urgent scientific and applied problem.*

Key words: *hole, borehole, rock mass, mine workings, explosive, wave, cartridge, charge, detonation, face, formation.*

KIRISH

Maksimal samaradorlikka erishish uchun burg'ilash texnologiyasi bo'yicha ish olib borish amaliyoti qisqa muddatli portlashdan foydalanishni o'z ichiga oladi, bu esa o'yuvchi shpurlarning o'lchamlariga bog'liq xolda tog' jinsi massivi buzilishiga bog'liq va o'yuvchi shpur portlash natijasida loyixadagi kon laximining ko'ndalang kesim yuzasi o'lchami o'zgarib boradi. Biroq, hozirgi vaqtda shpurlarni joylashtirish sxemalarini loyihalashda ularning portlashlari ketma-ketligi hisobga olinmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ishning maqsadi - portlashning tartibini va qo'shimcha ochiq sirtini shakllantirishni hisobga olgan holda, shpurlarni joylashtirish sxemasini tuzish tamoyillarini asoslashdir. E. G. Baranov o'zining ilmiy ishlari natijasida olib borgan bir qator portlovchi moddalarini batafsil tahlil qilib ularni guruhlash va tizimlashtirish o'rtasida optimal sekinlashuv oralig'ini o'rnatishga bag'ishlangan bir qator ishlari mavjud.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Qisqa muddatli portlash sodir bo'lganda tog' jinslarining buzilish masalalari obyektiv ochib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tog' jinsining ayrim namunalarida kuchli to'liqining tarqalishi bo'yicha ilgari olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tog' jinsining zararli to'liqning ta'siridan tog' jinsining buzilishining nisbiy radiusi quyidagi bog'liqlik bilan aniqlanishi mumkin:

$$\frac{R}{r} = \frac{12,748 \rho_{AA} D_{AA}}{\rho_i A}, \quad (1)$$

bu yerda: R – buzilish radiusi, m;

r – PM ning berilgan zaryad radiusi, m;

ρ_{BB} – PM patronining zichligi, kg/m^3 ;

D_{BB} – PMning detonatsiya tezligi, m/s;

ρ_n – tog' jinsining zichligi, kg/m^3 ;

A – bo'ylama to'liqning tarqalish tezligi - adiabatik zarb chiziqli tasvirining birinchi koeffitsienti, m/s.

Sferik zarbali to'liqining paydo bo'lishida butun cho'zilgan zaryadda emas, balki uning faqat bir qismi qatnashishini hisobga olsak $l = \frac{2}{3}R$, portlovchi modda

patronlar diametriga qarab portlovchi modda shpurining zaryadi atrofida tog' jinsining buzilish radiusini aniqlashimiz mumkin:

$$R = \sqrt{\frac{d^2}{8} \left(\frac{12,748 \rho_{BB} D_{BB}}{\rho_n A} \right)^3}, \quad (2)$$

bu yerda d – patron diametri, m.

Shunday qilib, PM zaryadining massasiga bog'liq xolda, patron zichligi va portlash tezligiga qarab, zarba to'liqini bilan tog' jinsini maydalash ishlarining maksimal radiusini aniqlash imkonini beradi. Bu esa, kon laximlarining kavjoyida shpurlar orasidagi masofani loyihalashtirish imkonini beradi.

Tog' jinrlarini buzilish radiusini aniqlash va sferiksimon kuch to'liqining shakllanishida butun uzaytirilgan zaryad emas, balki uning faqat bir qismi ishtirok etishi hisobga olinsa,

$$l = \frac{2}{3} R,$$

berilgan diametrning birlik zaryadining uzunligini aniqlash mumkin va l_{zab} ning minimal uzunligini belgilash va zaryadning chuqurligini hisobga olgan holda, PM ning shpur zaryadining massasini aniqlash mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, tog' massivini buzilishining nisbiy radiusi PM portlashining mahsulotlarining akustik qat'iyligiga bog'liq va tenglama bilan tavsiflanadi:

$$\frac{R}{r} = 0,7164(\rho_{\hat{A}\hat{A}} D_{\hat{A}\hat{A}})^{0,3333}, \quad (5)$$

bu yerda: R – massiv buzilish radiusi, m;

r – PM zaryadining konsentratsiyalangan radiusi, m;

ρ_{BB} – PM patronining zichligi, kg/m^3 ;

D_{BB} – PM detonatsiya tezligi, km/s.

Biroq, erkin sirt mavjud bo'lganda, zarba to'liqlarining muhitlar bo'linishi chegarasidan va eritmaning zarba to'liqlarining paydo bo'lishidan kelib chiqqan holda, sinishning nisbiy radiusi oshadi va quyidagi bog'liqlik bilan aniqlanishi mumkin:

$$\frac{R}{r} = 0,3104(\rho_{\hat{A}\hat{A}} D_{\hat{A}\hat{A}})^{0,4679}. \quad (6)$$

Bu esa, PM zaryad zonasiga yaqin erkin sirt mavjud bo'lganda, sinishning nisbiy radiusidagi o'zgarishlarning bog'liqligini aniqlash imkonini beradi:

$$K_{\hat{n}\hat{a}\hat{i}\hat{d}} = \frac{0,3104(\rho_{\hat{A}\hat{A}} D_{\hat{A}\hat{A}})^{0,4679}}{0,7164(\rho_{\hat{A}\hat{A}} D_{\hat{A}\hat{A}})^{0,3333}} = 0,4369(\rho_{\hat{A}\hat{A}} D_{\hat{A}\hat{A}})^{0,1346}. \quad (7)$$

Bu esa, qo'shimcha ochiq sirt hosil bo'lishini hisobga olgan holda, kon laximini kavjoyida shpurlarni joylashtirish tizimini loyihalash tamoyillarini shakllantirish imkonini beradi:

- yordamchi va chegaralovchi shpurlar ishini yengillashtirish uchun o'yuvchi shpurlari orqali ochiq yuza sirtni yaratishni ta'minlashi kerak;
- yordamchi va chegaralovchi shpurlar bir turdagi PM bilan portlatilganda, buzilish radiusini aniqlash uchun ular bir-biriga nisbatan ikki qator masofada joylashgan bo'lishi kerak;
- qisqa sekinlatkich seriyasida PM portlatilgan shpurlar qatori orasidagi masofa ochiq sirt ta'sirini va massiv buzilish radiusini hisobga olgan holda tog' massivining buzilish radiusi yig'indisi sifatida aniqlanishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra portlash xavfi yuqori bo'lgan qatlamlarda portlashning usullari va patentlangan usulini hisobga olgan holda shaxta markazining qiyaligi uchun pasport tuzildi. A.A. Skochinskiy burg'ulash sxemasi va ularni portlatish ketma-ketligini hisobga oladi. Bir vaqtning o'zida portlatilgan shpurlar orasidagi masofa 0,43 m, portlovchi shpurlari guruhlari orasidagi masofa 0,51 m.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Shpur zaryadining massasiga bog'liqligi uning detonatsiya xarakteri va tog' jinslarini buzilishining adibiatik ko'rsatkichi bilan asoslanadi.
2. Qo'shimcha ochiq yuzaning mavjudligi kon massasining buzilish radiusining oshishiga olib keladi, buzilish radiusining o'sish koeffitsienti esa portlovchi moddaning portlash mahsulotlarining akustik qattiqligining quvvat funksiyasidir.
3. Shpurlarning fazoviy joylashishiga bog'liqligi ularni portlatish ketma-ketligiga qarab loyixalanadi, kirma (zaxodka) da PM ning solishtirma sarfini kamaytirish va portlash samaradorligini oshirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Ю.Д.Норов, П.А.Шеметов. Фойдали қазилмаларни қазиб олишда бурғулаш ва портлатиш ишлари. Навоий – 2002 й.
2. Шеметов П.А., Норов Ю.Д. Буровзрывные работы. Тошкент, 2006. –100 с.
3. Эткин М.Б., Азаркович А.Е. Взрывные работы в энергетическом и промышленном строительстве. М.: МГГУ, 2004.

**YER USTI TRANSPORT TIZIMLARIDA TASHISHNI TASHKIL ETISHDA
YUKSIZ QATNOVLARNI OPTIMAL REJALASHTIRISH.**

*Assistant O'rozov Begzod Abdulkarimovich
Assistent Hamraqulov Yorqin Murtazakulovich
Magistr Yaxyoyeva Madina Qo'chqorovna
Jizzax politexnika institut
e-mail: urazov.bekzod86@mail.ru
e-mail: hamraqulovyorqin479@gmail.com*

Аnnotatsiya. Maqolada bazis planidan to optimal planni topgungacha bo'lgan hisoblashlarda sikllar sonini kamaytirish maqsadida to'ldirilgan kataklarning ma'lum qiymatini ko'chirish mumkinligi keltirilgan. Qiymatlarni ko'chirish yo qatorlar (gorizontal) yoki ustunlar (vertikal) bo'ylab amalga oshirilishi mumkin. Ko'chirishda albatta qatorlar va ustunlar bo'yicha avtotonnalar balansini buzilmasligi kerak. Boshqacha aytganda bir katakdagi qiymatni ikkinchi katakka ko'chirishdan hosil bo'lgan balansning buzilishi boshqa bir ko'chirish bilan to'g'rilanishi kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, qiymatlari kamayadigan kataklar uchun yig'indisi ko'payadigan kataklardagi yig'indisidan katta bo'lishi lozim. Aks holda bunday ko'chirish planni yaxshilashga olib kelmaydi.

Kalit so'zi. Transport, kontur, usul, qator, qiymat, katak, basis, ko'chirish, kataklar, optimal plan.

**ОПТИМАЛЬНОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ ХОЛОСТОГО ПРОБЕГА ПРИ
ОРГАНИЗАЦИИ ПЕРЕВОЗОК В НАЗЕМНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ
СИСТЕМАХ**

*ассистент Урозов Бегзод Абдукаримович
ассистент Хамракулов Ёркин Муртазакулович
Джизакский политехнический институт
Магистр Яхёева Мадина Кўчқоровна
e-mail: urazov.bekzod86@mail.ru
e-mail: hamraqulovyorqin479@gmail.com*

Аннотация. В статье приведена возможность перемещения определенного значения заполненных ячеек с целью уменьшения числа циклов в вычислениях от базового плана до нахождения оптимального плана. Перемещение значений может осуществляться либо по строкам (по

горизонтали), либо по столбцам (по вертикали). При перемещении, конечно, не должен нарушаться баланс автотонн по строкам и столбцам. Другими словами, нарушение баланса, вызванное переносом значения из одной ячейки в другую, должно быть исправлено с помощью другого переноса. Следует отметить, что для ячеек, значения которых уменьшаются, сумма должна быть больше, чем сумма ячеек, которые увеличиваются. В противном случае такой переезд не приведет к улучшению ситуации.

Ключевое слово. Транспорт, контур, метод, массив, значение, ячейка, база, перемещение, ячейки, оптимальный план.

OPTIMAL PLANNING OF THE IDLE RUN IN THE ORGANIZATION OF TRANSPORTATION IN LAND TRANSPORT SYSTEMS

Assistant Urozov Begzod

assistant Khamrakulov Yorqin

magistr Yaxyoeva Madina

Jizzakh Polytechnic Institute

e-mail: urazov.bekzod86@mail.ru

e-mail: hamraqulovyorqin479@gmail.com

Abstract:. *The article shows the possibility of moving a certain value of filled cells in order to reduce the number of cycles in calculations from the basic plan to finding the optimal plan. The values can be moved either in rows (horizontally) or in columns (vertically). When moving, of course, the balance of autotones in rows and columns should not be disturbed. In other words, the imbalance caused by transferring a value from one cell to another must be corrected with another transfer. Note that for cells whose values are decreasing, the sum must be greater than the sum of the cells that are increasing. Otherwise, such a move will not lead to an improvement in the situation.*

Keywords: *Transport, contour, method, array, value, cell, base, move, cells, optimal plan.*

KIRISH

Keltirilgan masalani potentsiallar usuli bilan yechilishi mumkin. Birinchi navbatda minimal element usuli bilan boshlang'ich bazis planini tuzamiz. Bunda birinchi, ikkinchi va hokazo navbatda o'zgaruvchilarga qiymat berilgan kataklar mos

ravishdagi raqamlar bilan belgilangan. Bu raqamlar kataklarning chap tomonidagi pastki burchakda yoziladi.

Keyingi bosqich tuzilgan bazis rejani optimalligini tekshirish va u optimal bo'lmasa, bu rejani optimal darajagacha o'zgartirishdan iboratdir.. Yuqorida keltirilgan boshlang'ich bazis planini tuzish metodlari musbat qiymatlarga ega bo'lgan y_{ji} o'zgaruvchilarning shunday sonini beradiki, (matritsadagi to'ldirilgan kataklar soni), bu son $m+n-1$ qiymatiga teng yoki undan kichik bo'ladi (m - matritsadidagi qatorlar, n - ustunlar soni). Chunki y_{ji} o'zgaruvchiga har bir qiymat berilgan qator yoki ustun keyingi tekshirishdan chiqariladi (o'chiriladi), oxirgi qiymat berilganda esa ustun va qator birdan o'chiriladi (bunda to'ldirilgan kataklar soni $m+n-1$ qiymatiga teng bo'ladi). Ba'zan y_{ji} o'zgaruvchiga qiymat berilganda ustun va qator bir necha marta birato'lasiga o'chirilishi mumkin, bunda matritsadagi to'ldirilgan kataklar soni $m+n-1$ qiymatidan kichik bo'ladi. Bunday holni buzilish deyiladi va bunda keyingi hisoblarda bir siklda ketma-ket to'xtab qolish, ya'ni cheksiz iteratsiyalar bilan plani yaxshilay olmaslik xavfi paydo bo'ladi. Buning oldini olish uchun kataklar sun'iy ravishda istalgancha kichik bo'lgan son ε bilan yoki nollar bilan to'ldiriladi va kataklar bilan keyingi iteratsiyalarda xuddi to'ldirilgan kataklardek ish ko'riladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Yer usti transport tizimlarida tashishni tashkil etishda yuksiz qatnovlarni optimal rejalashtirish obyektiv ochib berildi. Бегматов, Б., Ҳаққулов, Б., & Ҳаққулов, К. (2020). Транспорт Воситаларини Синаш Усуллари Таҳлили kitobi mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Psixologiya fanning strukturasi tekshirish, bilimlarning tartibini aniqlash, ular tasnifini amalga oshirish alohida o'rin egallaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bazis planidan to optimal plani topgungacha bo'lgan hisoblashlarda sikllar sonini kamaytirish maqsadida to'ldirilgan kataklarning ma'lum qiymatini ko'chirish mumkin. Qiymatlarni ko'chirish yo qatorlar (gorizontal) yoki ustunlar (vertikal) bo'ylab amalga oshirilishi mumkin. Ko'chirishda albatta qatorlar va ustunlar bo'yicha avtotonnalar balansi buzilmasligi kerak. Boshqacha aytganda bir katakdagi qiymatni ikkinchi katakka ko'chirishdan hosil bo'lgan balansning buzilishi boshqa bir ko'chirish bilan to'g'rilanishi kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, qiymatlari kamayadigan kataklar uchun C_{ji} yig'indisi ko'payadigan kataklardagi C_{ji}

yig'indisidan kata bo'lishi lozim. Aks xolda bunday ko'chirish plani yaxshilashga olib kelmaydi. Masalan, A_1B_4 katak qiymati 50-ni A_4B_4 katagiga, bunga mos ravishda A_4B_1 katak qiymatidan 50-ni A_1B_1 - ga ko'chirish maqsadga muvofiqdir.

Tuzilgan rejaning optimalligini potentsiallar yordamida tekshirilib ko'riladi. Potentsiallar bu har bir i ustun va j qatorlarga yoziladigan maxsus sonlardir.

Transport masalasini potentsiallar metodi bilan echish shunday y_{ji} o'zgaruvchilar sistemasini topish demakdirki, bunda quyidagi shartlar bajarilsin:

$$V_j - U_i \leq C_{ji}, y_{ji} = 0 \quad \text{bo'lsa,} \quad (1)$$

$$V_j - U_i = C_{ji}, y_{ji} \geq 0 \quad \text{bo'lganda.} \quad (2)$$

(1), (2) - shartlari bo'yicha optimal planda hamma to'ldirilgan kataklar uchun qator va ustunlar potentsiallar ayirmasi mos kataklardagi C_{ji} qiymatiga teng bo'lishi va barcha bo'sh kataklarda esa bu ayirma C_{ji} qiymatidan kichik bo'lishi lozim.

Potentsiallar quyidagicha topiladi.

- Biror ustun yoki qator potentsialiga 0 qiymat beriladi, masalan, $U_1 = 0$. Endi 8.12-shart bo'yicha V_1 ni topish uchun C_{11} ga U_{11} qo'shish kerak, ya'ni $V_1 = C_{11} + U_{11} = 20 + 0 = 20$. Shu shartdan foydalanib, $U_4 = V_1 - C_{14} = 20 - 15 = 5$ va hokazo. Shunday qilib, biror ustun potentsialini topish uchun shu ustundagi biror to'ldirilgan katak qatorining potentsiali ma'lum bo'lishi kerak yoki aksincha.

Bunda biror qator potentsialinini topish uchun esa qatoridagi biror to'ldirilgan katak ustuni potentsialiga shu katakdagi C_{ji} qiymati qo'shiladi, biror ustun potentsiali topish uchun esa shu ustubdagi biror to'ldirilgan katak qatori potentsialidan katakdagi C_{ji} qiymati ayriladi, ya'ni

$$V_j = U_i + C_{ji},$$

$$U_i = V_j - C_{ji}$$

bu yerda i, j -to'ldirilgan katak indeksleri.

- Hamma potentsiallar topilgandan keyin boshlang'ich basis plan optimalligini tekshirish mumkin.

• Agar hamma bo'sh kataklar uchun (1) –shart bajarilsa, ya'ni hamma bo'sh kataklarda V_j va U_i potentsiallar ayirmasi C_{ji} dan kichik toki unga teng bo'lsa, topilgan plan optimal bo'ladi. Boshqacha aytganda bu plan barcha cheklash tengmalarini qanoatlantiradi va samaradorlik funksiyasini ekstremal qiymatini ta'minlaydi.

• Agar optimallik sharti bajarilmasa (bizning misolimizda optimallik sharti masalan, A_2B_1 katagida bajarilmaydi) bu katak uchun optimallik shartini qanchaga bajarilmasligi (Δ_{ji}) topiladi. Masalan, B_1A_2 katagi uchun

$$\Delta_{12} = V_j - U_i - C_{ji} = V_1 - U_2 - C_{12} = 20 + 65 - 60 = 25 > 0 \text{ bo'ladi.}$$

Agar bunday kataklar bir necha bo'lsa (bizning misolimizda $\Delta_{32} = 35, \Delta_{52} = 35, \dots, \Delta_{72} = 36$), ularning hammasi uchun Δ_{ji} topiladi va uning qiymati eng ko'p bo'lgan katakdan boshlab yopiq kontur chiziladi.

• Yopiq kontur gorizont va vertikal chiziqlardan iborat bo'lib, konturning bir uchi Δ_{ji} qiymati noldan katta bo'lgan katakda, boshqa hamma uchlari to'ldirilgan kataklarda yotadi. Kontur quyidagicha ko'riladi. Δ_{ji} qiymatli katakdan qator (yoki ustun) bo'yicha to'g'ri chiziq, to'ldirilgan katakkacha o'tkaziladi va bu yerdan chiziq yo'nalish to'g'ri burchakka o'zgartirilib, to'g'ri chiziq ustun (yoki qator) bo'yicha yana birorta to'ldirilgan katakkacha davom ettiriladi. Shuni hiobga olish kerakki, Kontur chiziqlari doimo Δ_{ji} qiymatlik katakkacha davom ettiriladi va hamma vaqt kontur uchlarning soni juft bo'ladi. Bunda kontur chiziqlarining kesishishidan hosil bo'lgan burchaklarni, uni uchlari deb qaralmaydi. Kontur uchlariga faqat uning to'ldirilgan kataklarda yotadigan burchaklari kiradi. Bizning misolimizda kontur uchlari $A_4B_1, A_1B_1, A_1B_7, A_2B_7, A_2B_4, A_4B_4$ kataklarida yotadi.

Tuzilgan kontur uchlariga ketma-ket (-) va (+) ishoralarni beramiz. Birinchi Δ_{72} katakka (-) belgisi beriladi va (+) ishorali to'ldirilgan kataklar qiymatlaridan eng kichigini tanlab olamiz. Misolimizda bunday katak A_2B_4 bo'lib, uning qiymati -200 . Shu miqdordagi yukni hamma (+) ishorali kataklar qiymatlaridan ayiramiz va (-) ishorali kataklar qiymatlariga qo'shamiz. (1-jadval).

1-Jadval.

Kataklar qiymatlarini “yopiq kontur” uchlari bo'ylab ko'chirish bilan rejani yaxshilash

Yuk oluvchi punktlar, J	Koef fistient	Yuk jo'natuvchi punktlar I					b_j
		A_1	A_2	A_3	A_4	A_5	
		$U_i \backslash V_j$	0	-65	27	5	
B_1	20	20	60 +25	67	15	42	1300
B_2	-64	30	1	57	75	77	400
B_3	0	0	30	27	45	47	600
B_4	22	57	87	30	17	10	550
B_5	37	37	67 +35	10	57	30	700
B_6	10	10	40 +35	37	35	57	500
B_7	1	1	30 +36	27	45	47	300
α_i		1700	600	550	1200	300	4350

Bunday operatsiyalardan keyin yangi reja xosil qilamiz. (2-jadval).

2- Jadval.

Yuksiz qatnovlar optimal reja

	I	A_1	A_2	A_3	A_4	A_5	
J	U_i V_j	0	-29	27	5	12	α_i
B_1	20	20 350	60	67	15 950	42	1300
B_2	-28	30	1 400	57	75	77	400
B_3	0	0 600	30	27	45	47	600
B_4	22	57	87	30	17 250	10 300	550
B_5	37	37 150	67	10 550	57	30	700
B_6	10	10 500	40	37	37	57	500
B_7	1	1 100	30 200	27	45	47	300
b_j		1700	600	550	1200	300	4350

• Yangi reja uchun yana potentsiallar topiladi va ular yordamida rejaning optimalligini qaytadan tekshiriladi. 2-jadvalda topilgan reja optimaldir, chunki hamma bo'sh kataklarda (1) -shart bajariladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Бутаев Ш.А., Мадаминов Ю.И. Совершенствование методов управления процессами автомобильных перевозок грузов. Ташкент:Фан, 1988.-150 с.
2. Модели и методы теории логистики: Учебное пособие. 2-е изд./Под ред. Лукинського В.С. СПб: Питер. 2007. -448 с.
3. Рахматullaev M. Qosimov S.X. .. Yuk oqimini logistik kuzatuv va komplekslarini mahalliyashtirish omillari. Ipmiy-texnik jur. 23 (8) 52.4.
4. Умиров, И. Ё., & Ҳамрақулов, Ё. М. (2020). АВТОМОБИЛЛАРДАН ЧИҚАЁТГАН ГАЗСИМОН ЧИҚИНДИЛАРНИНГ АТМОСФЕРАГА АРАЛАШИШИ. Academic research in educational sciences, (1)
5. Бегматов, Б., Ҳаққулов, Б., & Ҳаққулов, К. (2020). ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СИНАШ УСУЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Academic research in educational sciences, (3).

YOSHLARNI ILM-FAN VA INNOVATSIYALARGA JALB QILISH BO‘YICHA TAKLIFLAR

Safarova Setora Ulug‘bek qizi

QarMII 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar - Toshmamatov Bobir Mansurovich, QarMII tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. YOshlarni ilm-fan va ilmiy innovatsion faoliyatga keng jalb qilish, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish, yoshlarning ilmiy-texnik, ilmiy-innovatsion hamda “startup” loyihalar bo‘yicha qiziqishlarini ortirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, innovatsiya, innovatsion faoliyat, tadqiqot, startup, ilmiy ish, loyiha, tijoratlashtirish.

Abstract: The article analyzes the opportunities for the rapid development of economic and social spheres of the country, the full use of scientific and innovative potential with the full mobilization of scientific, intellectual and financial resources. Proposals have been developed to involve young people in science and innovation, to develop the integration of education and industry, to increase the interest of young people in science and technology, science and innovation and startup projects.

Keywords: science, innovation, innovation, research, startup, research, project, commercialization.

Аннотация. В статье анализируются возможности для быстрого развития экономической и социальной сфер страны, полноценного использования научного и инновационного потенциала с полной мобилизацией научных, интеллектуальных и финансовых ресурсов. Были разработаны предложения по вовлечению молодежи в науку и инновации, развитию интеграции образования и промышленности, повышению интереса молодых людей к науке и технологиям, науке и инновациям, а также к стартап-проектам.

Ключевые слова: наука, инновации, инновации, исследования, стартап, исследования, проект, коммерциализация.

KIRISH

Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma‘rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka etaklash yo‘llari, qonun va qoidalarini izlaganlar.

Bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda barcha iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohasida ko‘plab tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi davlatimiz rahbari tomonidan rahbarligining ilk yillaridayoq chizilgan yo‘l xaritasi “2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ilgari surilgan g‘oyalar asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm – fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab borish, yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan, jahon standartlariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, hududlarda yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llab quvvatlash, hududlarni sifatli, yuqori texnologiyali mahsulotlar va xizmatlar bilan ta’minlash maqsadida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish, yoshlarning ilmiy-texnik, ilmiy-innovatsion hamda “startup” loyihalarni moliyalashtirish, amaliyotga joriy qilish va tijoratlashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarni ilm-fanga, ilmiy-innovatsion faoliyatga jalb qilishning prinsipial yangi usullarini ishlab chiqish va joriy etish muammosi dolzarbdir.

SHu munosabat bilan mamlakatning innovatsion rivojlanishining eng muhim yo‘nalishi yoshlarning, avvalambor talabalarning innovatsion ijodiy faolligini rag‘batlantirish va ularning salohiyatini ijodiy va ilmiy rivojlantirish, ularning biznes g‘oyalarini tijoratlashtirish uchun juda ko‘p turli xil imkoniyatlar yaratish darkor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 avgustdagi “YOshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4433-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 maydagi “Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 313-sonli qarorida hududlarda yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatga keng jalb qilish, yoshlar texnoparklarini tashkil etish, oliy ta’lim muassasalariga investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida texnopark, foydali, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy markazlar tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan [1-2].

Bu borada Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ham iqtidorli talaba yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, OTMlarning jozibadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy-innovatsion ishlanmalari, starap loyihalarini amaliyotga keng joriy qilish, ilmiy-innovatsion ishlanmalarini tijoratlashtirish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, QarMII Energetika fakulteti “Muqobil energiya manbalari” kafedrası 5312400-Muqobil energiya manbalari (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi iqtidorli talabalari Toshmamatov B.M. ilmiy rahbarligida “Qattiq maishiy chiqindilardan gazzimon yoqilg‘i olish qurilmasini ishlab chiqish va joriy qilish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda va bu ishlarning natijasi sifatida “Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash qurilmasi” ga foydali modelga patent FAP 01557 (29.10.2020) olingan. Olib borayotgan ilmiy-innovatsion loyiha ilmiy-texnik va ijtimoiy yo‘nalishga ega bo‘lib, loyiha natijalari O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada rivojlanishni ta’minlaydigan malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy va texnologik zahiralarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Jumladan, loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida respublikamizda yangi rivojlanib kelayotgan muqobil energetika yo‘nalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlanadi, sohani rivojlantirish uchun energiya samaradorlikni oshirishga mo‘ljallangan texnologik reglamentlar, texnik shartlar ishlab chiqiladi, qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash, tashish, qayta ishlash asosida bioenergiya olishning energiyasamarador tizimi ishlab chiqiladi, qattiq maishiy chiqindilarni atrof-muhut, aholi salomatligiga ta’siri bartaraf etilib, atmosferada “Parnik effekti” hosil bo‘lishini kamaytirilishiga erishiladi. SHu bilan birga aholiga qulay va ekologik havfsiz sharoit yaratish, mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida YAshil iqtisodiyotni rivojlantirishga asos soluvchi ilmiy-texnik echimlar va muqobil energiya manbalaridan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqiladi [4,5,6].

Maqolada yoshlarni ilm-fan va ilmiy innovatsion faoliyatga qiziqtirish va keng jalb qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish jarayonida adabiyotlarni o‘rganish, kuzatish, anketalar va ilg‘or tajribalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biz xohlaymizmi yoki yo‘qmi, hayot haqiqatlari shundayki, o‘qitishning etakchi usullaridan biri tajriba usuli hisoblanadi. U umumiy ta’lim qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, nafaqat ko‘nikmalarni, balki kompetensiyalarni shakllantiradi, ta’limni hayot bilan bog‘lash prinsipini amalga oshiradi va, ehtimol, talabaga fan bilan shug‘ullanishga imkon beradi, chunki eng qimmatli va uzoq muddatli bilimlar o‘zlarining ilmiy-ijodiy, tajriba o‘tkazish jarayonida mustaqil ravishda olinishi ma’lum. SHuning uchun, ehtimol, talabalarga bu yo‘ldan yurish imkoniyatini berish yaxshiroqdir. Zero, bolalarning ijodkorligi va yoshligidanoq ilm-fanning ulkan yutuqlarini bilishi - bu uning ilm-fanning yuksak cho‘qqilarini egallash uchun qo‘yilgan birinchi dadil qadamdir.

Ilm-fan rivoji - mahsulotlarning raqobatbardoshligini va mamlakatning jahon bozoridagi obro'sini ta'minlashning asosiy omilidir. SHuning uchun dunyoning etakchi davlatlari tadqiqot ishlariga katta e'tibor berishadi, bunga katta mablag' sarflaydilar. Tajriba va ilmiy - tadqiqot ishlarini boshlash hech qachon kech emas, lekin eng yaxshisi bu boshlang'ich maktablar o'quvchilarida ilm-fan, innovatsion faoliyat haqida ta'surot uyg'otish va motivatsiya berishdan boshlash zarur.

YOshlarni ilm-fanga va ilmiy-innovatsion faoliyatga jalb qilish bo'yicha iqtidorli innovator yoshlarni O'rta maktablar, mahalla yoshlari va OTM talabalariga birlashtirilib, ularni uzviy bog'lovchi **"UCHLIK ZANJIRI"** hosil qilinsa yoshlar orasida ilm-fan, ilmiy-innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi qatlam soni ko'payadi, yoshlarning ishsizlik muammosiga qisman barham beriladi va ularning startap loyihalar, ratsionalizatorlik takliflari ortib mamlakatimizning import hajmi qisqaradi.

XULOSA

Agar biz maktab bitiruvchilari hayotda nimani xohlashlarini biladigan muvaffaqiyatli odamlar bo'lishini istasak, u holda bolalar tarbiyasida tadqiqotchi xulq-atvorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Demak, biz, yoshlarni maktab davridayoq ilm-fanga, ilmiy-innovatsion faoliyatga qiziqтира olsak, yoshlarni, OTM ga o'qishga kirgan maktab bitiruvchilarini ilmiy-faoliyatga jalb qila olamiz!

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 avgustdagi "YOshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 maydagi "Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 313-sonli qarori.
3. B.M. Toshmamatov, G.N. Uzakov, S.M. Shomuratova, L.Z. Temirova, "Calculation of energy efficiency of the solar installation for the processing of municipal solid waste", International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 6, Issue 12, pp 12097-12102, December 2019, India.
4. Uzakov G.N., Toshmamatov B.M, Mamedova D.N., Temirova L. Experimental solar installation for the processing of municipal solid waste EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5 | Issue: 3 | March 2020 - Peer Reviewed Journal. SJIF Impact Factor: 6.260| ISI I.F.Value:1.241| Journal

DOI: 10.36713/epra2016 ISSN: 2455-7838(Online). India. PP. 299-303

5. Uzakov G.N., Toshmamatov B.M., Baratova S.R. Utilizatsiya tverdykh bytovykh otxodov s ispolzovaniem solnechnoy energii. Nauchnye gorizonty, Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal № 2 (18) | 2019, Rossiya, 255-260 s.
6. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
7. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
8. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
9. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
10. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY HAYOTI VA IJODINING MUSTAQILLIKKACHA O'RGANILISHI

SamDU magistranti

Abdulkarimov Anvar Ravshanxon o'g'li

Annotatsiya. O'zbek adabiyotshunosligida Hamza ijodi nihoyatda ko'p o'rganilgan masalalardan sanaladi. Uning ijodini o'rganish, talqin va targ'ib etish masalasi, ayniqsa Sho'ro davri adabiyotshunosligining yetakchi masalalaridan biri edi. Shu ma'noda bu davrda nihoyatda ko'p ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Hatto adabiyotshunoslikda Hamzashunoslik degan alohida yo'nalish paydo bo'ldi. Hamza nomidagi mukofot ta'sis etilib, uning nomi bir qator geografik obyektlarga qo'yildi. Hamzani e'tirof etib yozilgan asarlarda inqilobchi Hamza, ateist Hamza, Sho'rolarga xizmat qiluvchi Hamza obrazlarini turli rakurslarda ko'rish mumkin. Shuningdek, Hamzaning boy ijodiy merosi ichidan faqat siyosiy tuzumga xizmat qiladigan asarlarnigina saralab olib, targ'ib qilish hodisasi ham ko'p uchragan.

Ushbu maqolada ma'rifatparvar adib Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayot yo'li, uning shaxsiyatiga xos bo'lgan xususiyatlarning turli davrlarda turlicha talqin etilgani haqida so'z boradi. Tarixiy haqiqatni qaror toptirish uchun Hamza shaxsiga va ijodiga xolisona yondashuv lozimligi, maktab darsliklarida ham ayni shu jihatga ahamiyat berilishi zarurligi masalalari muhokamaga tortilgan. Shuningdek, ushbu maqolada shoir shaxsidan inqilobchi, dahriy timsollari zo'rma-zo'rakilik bilan yasalgani, aslida adibning ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlari noto'g'ri talqin qilingani haqida mulohazalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Hamzashunoslik, dahriy, dindor, ma'rifatparvarlik, Shohimardon voqeasi, shaxsiyat, ijod, talqinlar.

ABSTRACT. Hamza's creation is one of the much studied issues in Uzbek literature. Actually studying, promotion, discussion his works was one of the most important issue of the Soviet period. So, a lot of scientific and literal works were created during this period. Even in literature, there was appeared a special range called Hamzashunism. There was created an award named after Hamza and his name was given to a number of geographical objects. In the confessed works Hamza as the revolutionary Hamza, the atheist Hamza, the serving man to the Soviets different given characters for Hamza can be viewed in different foreshortening. Even there was an evendance of selecting among his rich heritage only his works which served for political system for confessing.

The article is written about enlightening writer Hamza Hakimzoda Niyazi, the different interpretations of his personality in different periods. It was discussed that in order to determine the historical truth, it is necessary to take an objective approach to the personality and creation of Hamza, and to pay attention to this aspect in school textbooks. Also there is a word about forcibly creating revolutionary and atheistic character of poet's personality, in fact, the author's works in the spirit of enlightenment were misinterpreted in this article

Keywords: *Hamzashunism, atheism, religion, enlightenment, the story of Shahimardon, personality, creativity, interpretations.*

KIRISH.

Sobiq sovet hukumati davrida davlat va siyosat ko'rsatmasiga ko'ra maqtab, ko'tar-ko'tar qilingan shoiru adiblardan xalq qancha uzoqlashsa, tanqid va ta'qibga uchraganlarga diqqat-e'tibori o'shancha ortardi. Hamzaning millat tarixidagi xizmati va ijodkorlik qismatiga zohirbinlik nuqtai nazarida baho berilgani uchunmi yoki o'zga bir sabab tufaylimi unga tarafdorlar sonining oshgani sezildi. Va shoirning:

Yo'q o'zingda zarrai fazli kamolot, ey Nihon,

Elga sen ko'p nosih o'lma, sahv guftoring g'alat, –

degan tanbehi go'yo bir qadar isbotini ham topdi.

Bundan tashqari, qalbi Vatan dardi, millat muhabbati bilan yongan shoirlarni o'limidan keyin ham vaqt sinovdan o'tkazib turadi. Ammo qanaqa g'araz, qanday bir usullarda qoralanib, uydirmalar to'qilmasin, Vaqt va kelajak ularning sha'ni-shavkatini kafolatlab, yuziga hatto gard qo'ndirmaydi. Qodiriyda, Fitrat yo Cho'lponda shunday bo'lmaganmidi?! Shunaqa shoir, yozuvchi, olimlar bo'ladi, ismi-sharifi umumiy ro'yxatdan o'chirilib tashlanadimi, yozganlari chetga suriladimi – adabiyotda biror bir bo'shliq yoxud kentiklik sezilmaydi. Nomiga bo'lsa-da, eslaydigan o'quvchi ham topilmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ishda hamzashunoslikda amalga oshirilgan salkam bir asrlik tarix yoritilgan bo'lib, unda qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy-tipologik metodlardan foydalanilgan.

NATIJALAR.

Hamza milliy shoirlarimizning u peshvolaridan, milliy-ma'naviy tarkibi toza adabiyot bag'rida ildiz yozgan azamat bir chinordir. Davr va zamon shamollari na egib biladi uni, na qulatib... Hamza darveshvash ijodkor, his va ehtiroslari yolqinli shoir. Taassurot, kechinma va ohangdorlik uning g'azallarida boshqacha bir uyg'unlik kasb etgan. Mashrabga o'xshab Hamza ham isyonkor va talvinchi: holdan holga yuksalish, kayfiyat manzaralarini har gal yangi mazmunga xizmat ettirishni u

xush ko‘radi. Bunday shoirlarda xato, nuqson, adashuv, ikkilanish, hatto nimalardandir kechish ham bo‘ladi. Chunki ular belgili “ijodiy” niyat, so‘nik qalb bilan qalam tebratolmaydi. Dolzarb mavzularda qatorlashtirib she‘riy “haykalcha”lar yasash ham qo‘lidan kelmaydi. Chin shoir g‘oyaviy xato va chalg‘ishlarining tamaliga yetib borib so‘zlash esa tiriklik va adabiyot manfaatiga xizmat qiladi. Aytaylik, Hamzanikiday zidiyatli, qaltis yo‘lni bosib o‘tishga andak-mundak shoirning mardligi, jur‘ati, shiddati urvoq ham bo‘lolmaydi. Ana shu haqiqat mushohada etilganda ehtimolki, adabiy tanqid “chumchuq”ni “qarchig‘ay”, “qarg‘a”ni “bulbul”, “tulki”ni “arslon” deb ta‘riflashlardan bir muncha tiyilardi.

O‘zbek adabiyoti Hamza Hakimzoda kabi ijodiy taqdiri chigal boshqa bir ijodkorni topish qiyin masala hisoblanadi. Adibning maktab darsliklariga kiritilishi, undagi ma‘lumotlar masalasi ham bir qadar bahsli muammolardan hisoblanadi. Dastlab Sarvar Azimov hamda Yusuf Sultonovlarning 1975 yilda chiqqan “O‘zbek sovet adabiyoti” darsligi haqida. Bu kitobda Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi haqida alohida bob keltirilgan. Bu kitobning nechanchi sinfga mo‘ljallangani haqida yozilmagan, faqat “O‘rta maktab uchun darslik” degan izoh berilgan, xolos. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi quyidagi bo‘limlarga bo‘lingan holatda bayon etilgan: “Yoshlik yillari”, “Ijodining boshlanishi”, “Hamza Hakimzoda – ma‘rifatparvar”, “Hamza Hakimzoda – revolutsiya kuychisi”, “Sotsializm qurish yillaridagi ijodi”, “She‘rlarining badiiy xususiyati”, “Hamza Hakimzoda – birinchi o‘zbek sovet dramaturgi”, “Boy ila xizmatchi”, “Jamila obrazi”, “Solihboy obrazi”, “Qodirqul obrazi”, “Dramaning kompozitsiyasi”, “Boy ila xizmatchi” dramasi ahamiyati”, “Hamza Hakimzoda traditsiyalarining davom ettirilishi”, “Hayotining so‘nggi yillari”. Yuqoridagi bo‘limlardan Hamzaning hayot yo‘liga doir ma‘lumotlarni ko‘rib chiqamiz.

Bu ma‘lumotlar o‘zbek sovet peziyasi Hamzaning “Yasha, Sho‘ro!”, “Uyg‘on!”, “Biz ishchimiz”, “Berma erkingni qo‘ldan!” kabi she‘rlari bilan boshlanishi, o‘zbek sovet dramaturgiyasining dastlabki namunlari ham uning dramalaridan ekanligi uqtirilgan. Hamzaning fikri-tafakkurining o‘zgarishida 1905 yilgi va undan keyingi inqilobiy voqealarning o‘rni kattaligi haqida ma‘lumotlar beriladi. Bolaligi, otasining kasbi tabibliigi, otasi ham ilm- ma‘rifatga yaqin odam bo‘lganligi borasida ham fikrlar bayon etilgan. “Hamza Hakimzoda – ma‘rifatparvar” deb nomlangan bobda uning ma‘rifatchilik borasida amalga oshirgan ishlari sanab o‘tilgan. Bu ishlarni, bilamizki, Hamza o‘sha davrda xalqning ma‘rifatli bo‘lishini o‘ylab amalga oshirgan. Ammo mazkur kitobda bu inqilobchi Hamzaning inqilobiy ruhdagi ishlari sifatida baholanganini ko‘rishimzi mumkin. Shu bilan birga,

Hamzaning darslik tuzish borasidagi ishlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan: "O'quvchi bolalar uchun o'z ona tilida darslik va qo'llanmalar yo'q edi. Shuning uchun Hamza Hakimzoda ana shunday darslik va qo'llanmalar tuzishga kirishadi. 1914-1915 yillarda yozgan "Yengil adabiyot", "Boshlang'ich maktablar uchun o'qish kitobi" kabi asarlari uning bu sohadagi birinchi tajribalari edi. Bu kitoblariga kiritgan she'r, hikoya va masallarida ("Ilm ista", "To'g'ri so'z bola", "Toshbaqa bilan chayon") yozuvchi yosh avlodni ilm-ma'rifatga havaslantiradi, rostgo'y, g'ayratli va hushyor bo'lishga chaqiradi.

Bu asarlaridan yana shu narsa ko'zga tashlanib turadiki, Hamza Hakimzoda bolalarga yaxshi tarbiya berish uchun xalq og'zaki adabiyotidan ijodiy foydalangan. U o'zbek xalq ertaklari va masallarini yangi mazmun bilan boyitib, yana xalqqa taqdim etgan. Bu ishda u rus va o'zbek klassik yozuvchilaridan o'rnak olgan".⁴⁴ Ushbu parchadan bilishimiz mumkinki, Hamzaning ma'rifat borasida amalga oshirgan ishlari tahsinga sazovor. U maktablar ochibgina qolmay, bu maktablarda o'qiydigan o'quvchilar uchun darsliklar ham yaratdi. Bu ishlarning ma'rifiy ko'lami nihoyatda keng hisoblanadi. O'sha davr kitoblarida bo'lgani kabi bu kitobda ham Chor Rossiyasining siyosati qattiq qoralangan. Hamzaning faoliyatiga eng katta to'siq sifatida yuqorida nomi zikr etilgan hukumat ko'rsatilgan. Ushbu kitobni o'qish davomida qiziq bir paradokslilik holatga duch keldik. Biz bilamizki, Hamza Hakimzoda Niyoziy Avloniy, Behbudiy, Fitrat kabi jadidchilik faoliyatini yuritgan vakillardan hisoblangan. Ammo Sho'ro davri darsliklarida Hamza jadid sifatida ta'kidlanmagan, aksincha, u jadidchilar bilan murosaga kela olmaydigan, ularga teskari munosabatdagi inson sifatida tasvirlangan. Quyidagi parchaga e'tiboringizni qarating:

"Burjua millatchi yozuvchilari, jadid yozuvchilari o'zbek adabiy tili taraqqiyotini bo'g'ishga uringanlar. Ular o'zbek xalqi singdira olmaydigan arxaik so'zlardan ko'plab ishlatib, o'zbek tilini qiyinlashtirishga harakat qilganlar".⁴⁵

Bu ma'lumotlar haqiqatdan uzoq. Chunki jadidlar adabiyotni xalqdan uzoqlashtirish emas, balki xalqqa yaqinlashtirishga harakat qilishgan. Ular adabiyotni xalqqa yaqinlashtirish maqsadida turli shakllar, janrlarni sinab ko'rganlar.

Endi 1979-yilda chop etilgan "O'zbek sovet adabiyoti" maktab darsligi haqida mulohaza yuritamiz. Sarvar Azimovning ushbu kitobida Hamza haqidagi ma'lumotlar inqilobga hamd-u sano o'qish bilan boshlanadi. Birgina abzasda 3 marta revolyutsiya degan so'zga duch kelish ham uchraydi, bu ham o'sha davr uchun xos xususiyatlardan biridir. Mazkur kitobda Hamza tug'ilganidayoq inqilobchi, ateist

⁴⁴ Азимов С. Султонов Ю. Ўзбек совет адабиёти. Ўрта мактаб учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. 96 б.

⁴⁵ Азимов С. Султонов Ю. Ўзбек совет адабиёти. Ўрта мактаб учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. 99 б.

bo‘lib tug‘ilganday taassurot qoldiradigan ma‘lumotlar keltirilgan. Hamzaning tarjimai holidan parcha keltiriladi: “Otam o‘qimishli bo‘lgani uchun, - deb yozadi u avtobiografiyasida, - 1898 yilda o‘zbekcha, forscha tom savodli bo‘lib, 1899 yildan 1906 yilgacha madrasada eski usul bilan dars o‘tishda davom etdim”. Madrasada, asosan, diniy darslar o‘qitilar edi. Bu Narsa Hamzaga yoqmaydi. U madrasadan chiqib, o‘zicha bilim olishga kirishadi. Rus tilini sevib o‘rganadi, badiiy adabiyotga qiziqadi. O‘zbek va fors-tojik adabiyotlari hamda ulug‘ rus adabiyoti klassiklari asarlarini qunt bilan o‘qiy boshlaydi, xalq ertaklari, dostonlari va ashulalarini zehn qo‘yib tinglaydi”.⁴⁶

Ushbu parchadan Hamza Hakimzoda Niyoziy haqida quyidagi ma‘lumotlarni bilib olishimiz mumkin:

-Hamzaning otasi o‘qimishli bo‘lgani;

-yetti yil davomida madrasa ko‘rgani;

-o‘zbekcha va forscha tom savodli bo‘lgani;

-madrasa ta‘limidan so‘ng rus tilini mustaqil o‘rgangani va bu til orqali rus adabiyotiga muhabbat qo‘ygani.

Ammo yuqorida ta‘kidlaganimizdek, tug‘ilganidayoq dinga narat va inqilobga muhabbat bilan dunyoga kelganday taassurot qoldiradigan fikrlar berilishi kishida haqli e‘tiroz uyg‘otadi. Ammo o‘sha davrda zamon shunday fikrlarni talab qilgan. Shu bois darslik mualliflari ham hukmron mafkura talablaridan kelib chiqqan holda ma‘lumotlarni taqdim etgan. Keyingi tahlillarda ham ushbu pozitsiyadan yondashamiz. Ushbu darslikda Hamzaning mumtoz an‘analar ruhida ulg‘aygani haqida ham ma‘lumotlar beriladi. Jumladan, uning Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy ijodini sevib o‘qigani, Muqimiy va Furqat kabi shoirlariga ergashgani haqidagi ma‘lumotlar ham keltiriladi. Uning “Nihoniy” taxallusini qo‘llagani haqida aytilsa-da, bu taxallus bilan g‘azallar bitganiga negadir to‘xtalinmagan.

Bu darslikda Hamza Hakimzoda Niyoziyning ma‘rifatchilik faoliyati haqida ham ma‘lumotlar berilgan. Chunonchi, “1914-1915 yillar mobaynida Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida maktab ochib, o‘qituvchilik qiladi. U keng xalq ommasiga ma‘rifat tarqatishni nazarda tutadi va maktabiga bolalarni jalb qilishga intiladi. Shuning uchun ham, uning o‘zi aytganidek, “oylik vazifa to‘lab, o‘quvdan ojiz qolgan faqir va bechora bolalar”ning o‘qiy olishlari uchun “Yordam jamiyati” tashlik etadi.

⁴⁶ Азимов С. Аҳмедов Қ. Султонов Ю. Ўзбек совет адабиёти. 9- синф учун дарслик. Бешинчи нашри. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1979. 70 б.

O'sha vaqtlarda o'lkada muntazam maktablar juda oz bo'lib, ularning eshigi faqat bir guruh boy bolalarigagina ochiq edi. Mehnatkashlar bolalarining o'qishi uchun imkoniyat yo'q edi. Savodlilarning umumiy soni 1,6 foizdan oshmas edi. Bunday og'ir sharoitda, zulmat hukmronligida, Hamza Hakimzodaning xalqni ma'rifatli qilish yo'lidagi olijanob tashabbusi uchqunday chaqna ko'rindi".⁴⁷

Yuqoridagi ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki, Hamza Hakimzoda Niyoziyning tashabbuslari, ilg'or tajribalari sovet hukumati tomonidan ham ham tan olingan. Uning maktab ochish, umuman, maorif sohasidagi fidoyiligi masalasi doimo e'tirof etilgan. Ayniqsa, yo'qsillarning farzandlarini tekinga o'qitish g'oyasi mafkuraviy qoliplarga juda ham mos tushganligi sababli darsliklarda ayni shu jihatlarga asosiy e'tibor qaratilgan. Uning darsliklar yaratgani haqida ham fikrlar bildirilgan. E'tiborli jihati shundaki, sovet davrida yaratilgan darsliklarning deyarli barchasida Hamza ijodini o'rganishda "Ulug' Oktyabrning otashin kuychisi" mazmunidagi boblar mavjud bo'lgan. Bu bobda shoirning tug'ma revolutsioner bo'lgani, inqilob uchun qanday fidoyiliklar ko'rsatgani kuchli pafosda tahlil qilingan. Va bu bobda, albatta, Leninning fikrlaridan iqtiboslar keltirilgan.

"Hayotining so'nggi yillari" deb nomlangan bobda Hamzaning umri oxiri hikoya qilinadi. Uning Shohimardonga borishi, u yerda faoliyat yuritishi, xalq hayotini yengillashtirishga harakat qilishi, xurofotga berilgan aholini uyg'otishga uringani haqida ma'lumotlar uchraydi: "Hamza qishloq aholisi o'rtasida eski urf-odatlar, diniy xurofotlarga qarshi otashin agitatsiya olib bordi. Shu bilan birga, yangilikning, sovet tuzumining fazilatlarini ko'rsatib berishga zo'r e'tibor berdi.

Hamza Hakimzoda Respublika miqyosida ham aktiv jamoat arbobi sifatida ko'zga ko'rinadi. U 1929 yil fevralda chaqirilgan Farg'ona okrug sovetlar syezdiga vakil qilib saylanadi.

Hamza Hakimzoda sotsialistik qurilishimizning barcha sohalarida aktiv qatnashadi. U eski turmush qoldiqlariga, diniy xurofotlarga, sinfiy dushmanlarga qarshi keskin va mardona kurash olib boradi. O'zbek sovet adabiyoti va san'atining yuksak g'oyaviyligi uchun, burjua millatchiligiga qarshi va har qanday yot ta'sirlarga qarshi murosasiz kurashadi. Unga xalq muhabbati va ishonchi yanada ortadi. Bir to'lda qora kuchlar esa Hamzaga suiqasd uyushtiradilar va 1929 yil 18 mart kuni uni fojiona o'ldiradilar".⁴⁸

⁴⁷ Азимов С. Аҳмедов Қ. Султонов Ю. Ўзбек совет адабиёти. 9- синф учун дарслик. Бешинчи нашри. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1979. 72 б.

⁴⁸ Азимов С. Аҳмедов Қ. Султонов Ю. Ўзбек совет адабиёти. 9- синф учун дарслик. Бешинчи нашри. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1979. 99 б.

Hamza Hakimzodaning o‘limi bilan bog‘liq ma‘lumotlarda bir qator mavhumliklar uchraydi. Jumladan, uning suiqasd asosida o‘ldirilishi va tasodifiy qurbonga aylanishi o‘rtasida nomutanosiblik bor. Biz oldingi boblarda Nabijon Boqiy hamda Q.Rajabovlarning fikrlariga tayanib, Hamzaning o‘limi chuqur o‘ylangan hodisa bo‘lsa-da, tasodifan amalga oshib qolgani haqida mulohaza yuritgandik. Shu naqtayi nazardan, Hamzaning toshbo‘ron qilib o‘ldirilishi masalasi yuzasidan hali ham olimlar turli-tuman fikrlarga borishmoqda. Bir til, bir yurt, bir din va millatga mansub kimsalarning shoirni o‘ldirishi izohlab bo‘lmas bir vahshiylik va qabohatdir. Lekin o‘lmas shoirning qotillari kimlar ekanligi to hanuz to‘liq ma‘lum emas. Bu qonli tarixning yashirin “qatlam” va sirlarini ochish o‘z-o‘zidan qator jumboqlarga aniqlik kiritadi.

Bizningcha, din arboblari – mulla-yu eshonlarni Hamzaga qarshi qayragan g‘ayridin kommunistlar bo‘lib (chunki Hamzaning vujudidan qaynab-toshib chiqqan milliy ruh va shuur ularga umuman yoqmagan), uning ijodiyotini soxtalashtirib, g‘ayriilmiy tamoyilda talqin va targ‘ib qilishda ham ularning ishonchli olimu shoirlari bosh-qosh bo‘lishgan.

Hamza martaba, mavqe, unvon, mukofot, boylik, shon-shuhrat, nomini abadiylashtirish qayg‘usida qalam tebratmagan. Qalamni u qilichdan-da o‘tkirroq ekaniga ishongani bois, xavf-xatarlarni nazarga ilmay, o‘lim tahlikasini ham go‘yo qo‘shiqqa aylantirgan:

Haq yo‘lida jon bersak, bo‘lsak millat qurboni,

Din xizmatina kirsak, bo‘lsak millat qurboni.

Mana shunday she‘rlarni yozish uchun insonda qanchalar jasorat va yurak bo‘lishi kerak?! Balki, shuning uchun ham adabiyotshunos va adib Ulug‘bek Hamdam o‘zining “Hamza – o‘zbek adabiyoti asoschilaridan birimi?” deb nomlangan maqolasida ko‘plab jadid shoirlari kabi Hamzani ham baxtli ijodkorlar safida qo‘yadi: “Akademik Naim Karimov yozadi: “XX asr boshlarida tug‘ilgan va shakllangan jadid adabiyoti o‘z oldiga yangi adabiy badiiy vazifa qo‘ydi va vazifani o‘tash jarayonida shu vaqtga qadar adabiyotimiz xazinasida bo‘lmagan yangi adabiy tur va janrlar, tasvir vositalari va usullarining yuzaga kelishini taqozo etdi”. Binobarin, bugungi, zamonaviy o‘zbek adabiyoti aynan keyingi yangilanish yo‘lidan, jadidlar boshlab bergan qutlug‘ yo‘ldan rivojlanib borayotganligining o‘ziyoq adabiyotimizda yuz bergan so‘nggi tub burilishning naqadar ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. XX va XXI asr mobaynida adabiyotimizning deyarli barcha sohalarida yuz bergan asosiy o‘zgarishlar, yangilanishlar ana shu ikkinchi tub burilish maydonida sodir bo‘ldi va bo‘lmoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Chunki tub burilish bo‘lishi uchun

istakning va hatto iste'dodning o'zi yetmaydi. Buning uchun davrning qo'ynida yangilanish ehtiyoji paydo bo'lishi kerak. Behbudiy, Hamza, Fitrat, Qodiriy va Cho'lponlar ana shunday ehtiyoj tug'ilgan paytda dunyoga keldilar. Garchand ularning shaxsiy qismatlari fojiali yakun topgan esa-da, (birontasi o'z ajali bilan o'lmagan, aksincha, yangi o'zbek adabiyoti yo'l boshlovchilarining hammasi ayni ijodlari gullagan vaqtda qatag'on qilingan!) nomlari zikr etilgan ulug'lar ijodkor sifatida chindan-da baxtlidirlar".⁴⁹

9-sinf uchun chiqarilgan 1986-yildagi darslik⁵⁰ ham yuqoridagi ma'lumotlar bilan deyarli bir xil. Maktabning har bir darsligiga Hamza hayoti va ijodining kiritilishiga e'tibor qaratishgan.

XULOSA.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1.Sovet davri darsliklarida Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti va faoliyati hukmron mafkura nuqtayi nazaridagina yoritilgan. Bu ma'lumotlarda o'lg'usi shoirni bolalikdan boshlab inqilobchi bo'lgan, degan iddaolar bo'rtib bo'y ko'rsatib turadi.

2.Hamza faoliyatining muhim jihatlari ham sovet davri darsliklarida atroflicha yoritilgan, jumladan, uning dastlab madrasa ta'limini olganligi, fors-tojik tillarini puxta o'rganganligi, undan so'ng rus tilini o'rganib, bu til orqali rus adabiyoti bilan tanishganligi haqidagi malumotlar o'z tarjimayi holiga asoslangan holda keltiriladi. Bunda ham asosiy urg'u Hamzaning rus tili bilimdoni ekanligini maqtashga berilganini kuzatamiz.

3.Hamza hayotining maorif bilan bog'liq jihatlari ham keng yoritilgan. Ayniqsa, uning maktablar ochgani, yangi darsliklar yaratgani yuksak baholangan. Biroq bu ishlarning barchasini Hamza go'yo azbaroyi inqilobchi bo'lgani uchungina qilgan degan iddaoni ilgari surish noto'g'ri. Chunki boshqa millat fidoyilari kabi o'sha paytda Hamza ham millatning ma'rifatli bo'lishi uchun jon kuydirgan bo'lishi haqiqatga yaqin bir holatdir.

4.Hamzaning o'ldirilishi, fojiviy tarzda toshbo'ron qilinishi haqida mavhum ma'lumotlar keltirilgan. Go'yoki, Hamza xalqqa faqat yaxshilik qilgan-u, mutaassib xalq uni toshbo'ron qilganday taassurot qoldiradi. Ammo keyingi yillardagi tadqiqotlar bunday emasligini, Hamzaning diniy ulamolar qo'li bilan qatl ettirishda Sho'ro hokimiyati uchun yaxshigina manfaat bo'lganini ko'rsatmoqda.

⁴⁹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ulugbek-hamdam-hamza-yangi-ozbek-adabiyoti-asoschilaridan-birimi.html>

⁵⁰ Азимов С., Аҳмедов Қ., Султонов Ю. Ўзбек совет адабиёти. 9-синф учун дарслик. Ўн биринчи нашри. – Тошкент: 1986. Б. 256.

5.Sovet davrida chiqqan barcha darsliklarda Hamzaning hayot yo'li shonli tarzda hikoya qilingan, ularning barchasida deyarli bir xil ma'lumotlar uchraydi. Shu fikrning o'ziyoq, qanchalar cheklangan vaziyatda Hamza hayotini o'rganishganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Азимов С. Султонов Ю. Ўзбек совет адабиёти. Ўрта мактаб учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи Азимов С., *Ахмедов Қ., Султонов Ю. Ўзбек совет адабиёти. 9-синф учун дарслик. Ўн биринчи нашри. – Тошкент: 1986. Б. 256.
2. Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. – Toshkent: Sharq. 2013. – 368 b.
3. Амонов Ш. Ҳамза шеърятининг манбалари, матний тадқиқи. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент: 2010.
4. Ахмедов Ш. Ҳамза лирикасининг хусусиятлари (девон мисолида). Филол. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент: 1992.
5. Қуронов М. Тарихий ҳақиқатни қарор топтириш. “Халқ сўзи” газетаси, 2014 й. 23 август, № 163 сон.
6. Набижон Б. Ҳамза монологи. <http://www.dunyouzbeklari.com/?p=157326>
7. Ҳамза. Тўла асарлар тўплами, 4-жилд, Т.: “Фан” 1989 йил.
8. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
9. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
10. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/hamza-hakimzoda-niyoziy-kim-edi-dahriymi-yo-dindor>
11. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ulugbek-hamdami-hamza-yangi-ozbek-adabiyoti-asoschilaridan-birimi.html>

BADIIY TARJIMANING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI VA TARJIMA MAHORATI

Abdullaeva Ruqiya Muhammadovna

*ToshDShU Sharq filologiyas va tarjimashunoslik
fakulteti tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika*

kafedrası 1-bosqich magistranti.

ruqiya.abdullaeva.86@gmail.com

+998909558644

Annotatsiya: Tarjimada lingvomadaniy aspektlardan to'g'ri foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Biz badiiy tarjimada bu yo'nalishning nuqtai nazarini va qanday qilib lingvomadaniyatga oid so'z va fikrlarni to'g'ri shaklda yetqizib berish masalalarini ko'rib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tarjima sohasidagi ishlarni amalga oshirish uchun tanlangan xorijiy tillardagi til birliklarini puxta o'rganish lingvomadaniy tahlil jarayonida katta ahamiyatga egadir. Undan tashqari madaniyatlararo farqni idrok etish uchun asl matn tilidagi xalq mentaletini ham tushunish va o'rganish talab etiladi. Tarjima normalariga muvofiq tarzda leksik, grammatik, stilistik uslublarini o'z o'rnida qo'llay olish tarjima sifatini yaxshilaydi.

Hattoki rangni ifodalaydigan so'zlarda ham har xil xalqning madaniy an'analari ko'zga tashlanadi, qizil rangni olib qaraydigan bo'lsak, AQSH da "havf" Fransiyada "aristokratizm" Hindistonda "hayot va ijod" Yaponiyafa "g'azab" Xitoyda esa baxt timsolidir. Bundan shuni aytish mumkinki rang tushunchasi o'zida ijtimoiy madaniylik bilan birga emotsional va hissiy omillarni o'zidan aks ettiradi.

Badiiy adabiyotda rang bilan bog'liq iboralardan foydalanish muallif maqsadiga kiradi. Aksincha muallif ijodiy fikrlarining ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llaniladigan tildagi nozikliklarni o'zida aks ettiradigan vosita hisoblanadi. Badiiy matnlarni tarjima qilishda tarjimonning vazifasi muallif maqsadini tarjima qiladigan tilda to'laligicha etkazib berishdir. Badiiy adabiyotda ranglardan qahramoni ismlarini atashda va uning xulq atvoridan kelib chiqib xolda ham keng foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Lingvomadaniyat, aspekt, kognitiv, semiotick, aksiologik, transformatsiya, muloqot, madaniyat, normativ.

Abstract: The correct use of linguistic and cultural services in translation is one of the most pressing problems. We strive to explore the perspective of this trend in literary translation and how to correctly convey words and ideas about linguistic culture.

Thorough study of linguistic languages in foreign languages chosen for performing work in the field of translation is of great importance in the process of linguocultural analysis. In addition, understanding cross-cultural differences requires understanding and studying the mentality of people in the original language. Application of lexical, grammatical and stylistic techniques in accordance with the norms for improving the quality of translation.

Even the words for color reflect the cultural traditions of different peoples, while the red symbol for "danger" in the States, aristocracy in France, life and creativity in India, anger in Japan and happiness in China. We can say that the concept of color, along with social social, reflects emotional and emotional factors.

The author's task is to use color expressions in fiction. Rather, it is a tool that reflects the intricacies of the language used to develop the author's creative thinking. When translating literary texts, the task of the translator is to fully convey the author's intention in the language in which he is translating. In fiction, colors are also widely used to refer to the protagonist and are based on his or her character. Catch 22 by the American writer Joif Heller features Captain Black. The Russian translation of the work (translated by A. Kistyakovsky), the translator calls this person Captain Gnuz, who embodies the negative aspects of the work in terms of darkness, evil, ugly, ugly meanings in the English point. Gnuz is able to explain the meaning of the original text in Russian. The correct use of language and cultural services in translation is one of the most pressing problems. We strive to explore the perspective of this trend in literary translation and how to correctly convey words and ideas about linguistic culture. The linguistic study of the linguistic languages chosen for performing work in the field of translation is of great importance in the process of linguocultural analysis. In addition, understanding cross-cultural differences requires understanding and studying the mentality of people in the original language. Application of lexical, grammatical and stylistic techniques in accordance with the norms for improving the quality of translation.

Even the words for color reflect the cultural traditions of different peoples, while the red symbol for "danger" in the States, aristocracy in France, life and work in India, anger in Japan and happiness in China. We can say that the concept of color, along with social social, reflects emotional and emotional factors.

The author's task is to use color expressions in fiction. Rather, it is a tool that reflects the intricacies of the language used to develop the author's creative thinking. When translating literary texts, the task of the translator is to fully convey the

author's intention in the language in which he is translating. In fiction, colors are also widely used to refer to the protagonist and are based on his or her character.

Keywords: *Lingvomadaniyat, aspect, kognitiv, semiotick, aksiologik, transformation, muloqot, madaniyat, normativ.*

KIRISH

Ma'lum bir xalq madaniyatining aynan shu xalq so'zlashadigan tilda aks etishini tushunamiz. Lingvomadaniyatda xalqning nafaqat bugungi kundagi turmush tarzi, balki asrlar davomida shakllanib kelgan milliy, tarixiy, diniy madaniyati aks etadi. Har bir tildagi folklor janrlar, maqollar, iboralar, shu tilda muloqot qiladigan xalqning asrab- avaylanadigan, eng ko'p o'rganiladigan muhim ahamiyatga ega bo'lgan xalq og'zaki merosi hisoblanadi. Bu sohaning vazifasi til orqali xalqning bugungi kungacha shakllangan madaniyatini o'zida aks ettira olishidir.

Madaniyat lingvomadaniyatning asosi bo'lib xizmat qiladi. Madaniyatda eng avvalo shu olam va inson tushunchasi bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq holatda amalga oshadi. Jamiyatdagi har bir shaxs bolaligidan ona tilini xalqning madaniyati bilan birga o'ziga singdirib oladi. Xalq madaniyatining barcha nozik tomonlari shu xalqning o'z tilida aksini topgan bo'ladi. Birgina iboralarning o'zini olib qaraydigan bo'lsak, unda butun xalq ruhi, ideologiyasi o'z aksini topgan bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Til va madaniyatning ham jamiyatda o'z vazifalari mavjud:

1. **Kognitiv vazifa.** Lingvomadaniyatning bu funksiyasi fanda namoyon bo'ladi. Til madaniy bilimlarning tashuvchisi hisoblanadi. Til vositasida olamni va o'zimizni anglaymiz.
2. **Representativ vazifa.** Til va madaniyat odamlarning ruhiy va moddiy faoliyati davomida erishgan natijalarini mustahkamlashlariga yordam beradi. Predmet va ma'lumotlarni keying avlodlarga yetqazish uchun xizmat qiladi.
3. **Semiotik vazifa.** Boshqacha qilib aytganda belgilar funksiyasi. Umumqabul qilingan fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, til- bu belgilar tizimidir. Bular tarkibiga madaniyatga oid belgilar ham kiradi.
4. **Muloqot vazifasi.** Til – insonlar orasidagi oddiygina muloqot vositasi bo'lib qolmasdan, ular orasida madaniy ma'lumotlar tashuvchi vosita hamdir.
5. **Aksiologik funktsiya.** Baholay olish funksiyasi bo'lib, nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini ajratib olishni o'rgatadi.
6. **Normativ funktsiya.** Urf- odat va an'viylikka oid bo'lgan axloqiy normalar. Bunga milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar kiradi.

Tarjimada lingvomadaniy aspektlardan to'g'ri foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Biz badiiy tarjimada bu yo'nalishning nuqtai nazarini va qanday qilib lingvomadaniyatga oid so'z va fikrlarni to'g'ri shaklda yetqizib berish masalalarini ko'rib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Muloqotga kirisha bilish ko'nikmasini shakllantirish. Bu prinsip tarjima bilan shug'ullanadigan kadrlarning turli madaniyatlararo muloqotlarda yuzaga keladigan holatlardagi real yondashuvga tayyorgarlik darajasini oshirish deganidir. Ya'ni har qanaqangi murakkab vaziyatda tarjima matnini qiyinchiliksiz to'g'ri yoritib berishni ta'minlash kerak.

Birlashtira olish. Tarjimondan turli sohalardagi boy bilimga ega bo'lishini talab qiladi. Bir vaqtning o'zida ham professional axborot yetqazuvchi vazifasini, ham akademik ijtimoiy bilim egasi bo'lishini talab qiladigan prinsip.

Tarqoq ma'lumotlardan foydalana olish. Bu prinsip tarjimondan tarjimaga qadar ega bo'lgan turli sohalardagi ma'lumotlaridan aynan tarjima asnosida foydalan olish qobiliyatini rivojlantirish ko'nikmasini nazarda tutadi.

Tarjima sohasidagi mutaxassislarining lingvomadaniy bilimlarini puxta egallashlarini tarjima nazariyasi fanlari orqali shakllantirish kerak va bu bilimlaridan turli janrlardagi materiallarni tarjima qilish jarayonida amaliy foydalanishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishni ustuvor yo'nalishga aylantirish kerak.

Tarjima sohasidagi ishlarni amalga oshirish uchun tanlangan xorijiy tillardagi til birliklarini puxta o'rganish lingvomadaniy tahlil jarayonida katta ahamiyatga egadir. Undan tashqari madaniyatlararo farqni idrok qila olish uchun asl matn tilidagi xalq mentalitetini ham tushunish va o'rganish talab etiladi. Tarjima normalariga muvofiq tarzda leksik, grammatik, stilistik uslublarini o'z o'rnida qullay olish tarjima sifatini yaxshilaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Badiiy tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimondan nafaqat xorijiy tilni puxta egallashi, balki shu til tarixini, madaniyatini, xalqaro madaniy aloqalarga oid bilimlarni, psixologiya sohasini, xalqlar va dinlar tarixini bilishi ham talab etiladi. Tildan universal vosita va etnik madaniyat sifatida foydalanish mumkin. Lekin madaniyatni tilga oid birliklarda semantika shaklida ko'rsata olish uchun yuqorida sanalgan sohalarda yuqori bilimga ega bo'lish muhimdir. Shuning uchun xorijiy tilni puxta o'rganishda albatta shu tilni professional o'rganish fanlari bilan bir qatorda shu tilning metodikasini, madaniyatini, adabiyotini, mamlakatshunosligini, og'zaki va yozma tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlarini ham qo'shib o'rgatishga jiddiy ahamiyat berish kerak. Natijada bo'lajak mutaxassis shu xorijiy tilni chet tilida

yozilgan manbaalardan qabul qila oladigan va baholaydigan darajaga yetishi, tarixiy va madaniy merosga hurmat va e'tibor bilan yondashishi, ma'lumotlarni ijtimoiy va madaniy nuqtai nazaridan farqlay olishi, badiiy tarjimani amalga oshirishda mantiqiy ketma- ketliklardan foydalana olishni shakllantirishi, asl matndagi mohiyatni buzmasdan tarjimada to'g'ri ochib bera olishi professional darajaga ko'tariladi.

Badiiy tarjimada lingvomadaniyat aspektlarining yanada chuqurroq va to'liqroq yoritilishida nimalarga e'tibor berishimiz kerakligini keeling ko'rib chiqamiz:

1. **Transformatsion metodlardan foydalanish**, ya'ni murakkab va qo'shma gaplarni oddiy sodda gaplarga aylantirib, tarjima orqali uzatish metodi. Bu metodga misol qilib grammatik transformatsiya (bu jarayonda so'zma- so'z tarjima xavfli hisoblanadi), sintaktik transformatsiya (asl matnni ma'no va leksik jihatdan ma'nosi o'zgarmagan holda ekvivalent matnga o'girish), leksik transformatsiyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

2. **Matnni tarjimadan oldin tahlil qilish metodi**. Matn tuzilishini, tarjima matnini yetqazib beruvchi auditoriyani, ma'lumot tarkibini, matn janrini, tarjima maqsadini tarjimani amalga oshirmasdan tahlil qila olish.

3. Atoqli otlar, geografik nomlar, millat nomlarining tarjimasini bilish
4. Ingliz tilidagi fe'llar nominalizatsiyasi va ularning shakllarinin tarjimasini
5. Siyosiy idiomalar tarjimasini
6. Antonimlar tarjimasidagi o'ziga xos xususiyatlar
7. Qisqartma so'zlar tarjimasini
8. Tarjimadagi siyosiy tuzatishlar tilga oid taktlardan foydalanish

Tarjimada har qanaqangi janrda o'ziga xos murakkabliklar mavjud. Masalan oddiygina yumor va hazil-mutoyibani misol qilib olaylik. Yumor- butun insoniyatga xos bo'lgan milliylikdir. [1, 11) Madaniy **aspekt** yumorning asosi hisoblanadi. Chunki yumor uchun inson yashaydigan jamiyatning ta'siri juda kattadir. Har bir millatning o'z qadriyatlari, an'analari mavjud. Boshqa millatlardan farq qiladigan o'z fikrlash tarzi bor.

Masalan o'zbek va ingliz yoki rus va ingliz tilidagi hazil- mutoyibalarni taqqoslash juda mushkuldir. Inglizlarga xos bo'lgan yumor juda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ko'pchilik ingliz hazil- mutoyibasini hazm qila olmaydi. Shuning uchun tarjimon tarjima jrayoniga e'tibor bilan yondashuvi lozim. Tarjima qilingan matnni mutolaa qilayotgan o'quvchi ingliz madaniyatiga ilk marotaba duch kelayotgan bo'lsa ham qayerda kula olishi kerakligini to'g'ri topishi va aynan o'sha yerda mutoyibani his qila olishi tarjimon mahoratiga bog'liq. Tarjimon mahorati esa o'z navbatida ingliz madaniyati va hayot tarzidan qay darajada boxabarligiga

bog'liqdir. Hazil- mutoyiba inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Kattalar uchun ham, bolalar uchun ham predmetlarni o'rganib, esda oson olib qolishga yordam beradi. Xorijiy tillarni o'rganishda esa o'rganilgan materiallarni esda oson olib qolish va o'zlashtirish uchun yaxshigina vosita hamdir. Undan tashqari odamlarning bir-biri bilan tez til topishishini va jamiyatga qisqa vaqt orasida singib ketishini ta'minlaydi. Yumor hissi bo'lmagan kishining jamiyatga qo'shilib ketishi juda murakkabdir. Masalan ingliz xalqi ob- havoga oid vaziyatlardan hazilda ko'p foydalanishadi. Lekin bu biz uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Tasavvurimizga sig'dira olmasligimiz tabiiy albatta. Lekin palov- o'zbek xalqining ajralmas kundalik taniq taomi hisoblanganidek ob-havoga oid hazil- mutoyiba ham inglizlar uchun kundalik hayotdagi kichkina bir jihatdir. Ingliz tilidagi yumorni tushunishga xalaqit beradigan ba'zi narsalardan biri bu- ingliz tilining o'zi hamdir. Ingliz tilidagi so'z o'yini asosida qurilgan hazil- mutoyibalarni tarjima qilish juda mushkul vazifa hisoblanadi. Bu holatda nafaqat ingliz tilini chuqur va nihoyatda puxta o'rganganligimiz, balki o'z ona tilimizdagi nozik qirralarni ham chuqur egallaganimiz va tarjima asnosida mohirona foydalana olishimiz kerak bo'ladi. Nafaqat tilga oid bilimlar, balki bizning ingliz xalqi madaniyati bilan yaxshigina tanishib chiqqanligimiz ham qo'l keladi. Shu xalq mentalitetini yaxshi bilsakkina tarjimada yumorni chiroyli uzata olishimiz mumkin bo'ladi.

Hattoki rangni anglatadigan so'zlarda ham har bir xalqning madaniy an'analari ko'zfa tashlanadi. Qizil rangni olib qaraydigan bo'lsak, AQSHda xavf, Fransiyada aristokratizm, Hindistonda hayot va ijod, Yaponiyada g'azab, Xitoyda esa baxt timsolidir. Qiziq tarafi shundaki, ranglarning ramziy timsoli lingvomadaniy nuqtai nazardan bir necha ma'noni anglatishi ham mumkin. Masalan rus tilida sariq rangning ramziy ma'nosi bir tarafdin quyosh rangidan kelib chiqib, abadiylik timsoli bo'lsa, ikkinchi tomondan kasallikka ishoradir. Shunaqa holatlardan kelib chiqib qaraladigan bo'lsa rang tushunchasi o'zida ijtimoiy- madaniylik bilan birga emotsional va hissiy omillarni ham o'zida aks ettiradi. Bizga ma'lumki, ranglar sovuq va issiq va hattoki qaynoq ranglar guruhiga bo'linadi. Ranglar ko'rinishiga ko'ra ham ba'zi ramziy ma'nolarni anglatadi. Ingliz tilida ko'k rang alohida rang sifatida emas, qora rangning ochroq ko'rinishi hisoblanadi. Ingliz tilidagi "to be blue in face" va "to be black in face" rus tilida "побелетьотзлости", o'zbek tilida "g'azabdan ko'karib ketish" iboralari orqali ifoda etiladi. Shubhasiz, ranglar har bir xalq madaniyatida histuyg'ularni ifodalash vositasi hisoblanadi va badiiy adabiyotda ma'no ta'sirchanligini oshirish maqsadida keng foydalaniladi. Bunday iboralardan foydalanish o'z navbatida o'quvchiga ham kerakli darajada emotsional ta'sir qila olish kuchiga egadir. "Ranglar

ishtirokidagi iboralardan foydalanish muallif dunyoqarashidan kelib chiqib, badiiy adabiyotda o'sha xalq milliy madaniyati haqida tasavvur hosil bo'lishiga omil yaratadi" [2, 146]. Badiiy adabiyotda rang bilan bog'liq iboralardan foydalanish muallif maqsadiga kirmaydi. Aksincha, muallif ijodiy fikrlarining ta'sirchanligini oshirish ucun qo'llaniladigan, tildagi nozikliklarni o'zida aks ettiradigan vosita hisoblanadi. Badiiy matnlarni tarjima qilishda tarjimonning vazifasi muallif maqsadini tarjima qilinadigan tilda to'laligicha yetqazib berishdir. Badiiy adabiyotda ranglardan qahramon ismlarini atashda ham keng foydalaniladi. Qahramon xulq-atvoriga qarab ranglardan foydalanib, ismlar beriladi. Amerikalik yozuvchi, Joef Xellerning "Catch 22" asarida kapitan Blek (Captain Black) bor. Bu asarning rus tilidagi tarjimasida (tarjimon A. Kistyakovskiy) tarjimon ingliz tilidagi qora rangning tund, yovuz, badbashara, xunuk ma'nolaridan kelib chiqqan holda asardagi salbiy tomonlarni o'zida mujassam etgan bu personajni Капитан Гнус deb ataydi. Гнус rus tilida asl matndagi ma'nolarni ortig'i bilan ochib bera oladi. Asl matndagi Black ismi tarjimada shu holicha olinganda, rusiyzabon o'quvchi uchun shunchaki personaj xarakterini ifodalovchi va hech qanaqangi ma'noga ega bo'lmagan atoqli ot hisoblangan bo'lardi. Ingliz tilidagi bo'yoqdorlik rus tilida o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lardi. Vaholanki muallif bunday ismlardan aynan qo'shimcha ma'lumot berish va emotsional bo'yoqdorlikni kuchaytirish maqsadida foydalanadi. Shuning uchun ham ranglardan foydalanib tanlangan atoqli otlar tarjimasida tarjimon amalga noshirishi kerak bo'lgan jiddiy masala hisoblanadi.

Roulingning "Garri Potter va maxviy xujra" romanida qahramonlardan birining ko'ylagi tasvirlanganda kiyim rangini ifodalash uchun, "salmon- pink" so'z birikmasidan foydalangan. Asl matn va uning tarjima variantlaridan birini ko'ramiz[3,7]:

She was already wearing a salmon-pink cocktail dress.[3,7]

На ней уже было вечернее платье цвета лосося. [3,7]

Rus tilida so'zma- so'z tarjima qilinganda juda qo'pol va nomutanosib ibora hosil bo'lgan bo'lardi. Chunki ikkala tilda ham aynan shunaqa rang mavjud emas. Shuning uchun rangni bildiradigan bir ibora tarjimada grammatik jihatdan boshqa bir gap bo'lagiga aylanib ketadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, lingvomadaniyatning o'zni badiiy tarjimada beqiyosdir. Umuman olganda lingvomadaniyatga oid bilim va ko'nikmalarsiz tarjimon natijaga erisha olmaydi. Bu tabiiy. Lekin biz e'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan asosiy narsa bu- malakali mutaxassis- tarjimonlarni

tayyorlashdir. Chunki madaniyat tushunchasi jamiyat rivojlanib borgan sari, o'zgarib boraveradi. Demakki lingvomadaniyat tushunchasi ham yangilanib boraveradi. Bu o'z o'rnida boshqa sohalar kabi badiiy adabiyotga ta'sir qiladi. Badiiy adabiyot borki, albatta uni tarjima qilishga talab va ehtiyoj bo'ladi. Shunday ekan tarjima maktablarimizni kelajakda munosib o'rnini topishini ta'minlashimiz uchun tarjimonlarni qo'llab- quvvatlashimiz, ham nazariy, ham amaliy bilimlarni puxta egallashlariga shart- sharoitlarni yaratib berishimiz kerak.

Shu o'rinda buyuk alloma, faylasuf va shoir bobokalonimiz Navoiy hazratlarining ijodlaridan mavzumizga oid bo'lgan so'z haqidagi to'rt misrani so'ngso'z o'rnida keltirib o'tishni ma'qul deb bildik.

So'z durki, nishon berur o'likka jondin
So'z durki, berur jonga xabar jonondin
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

Kitoblar:

- [1]- Кулнич М. А. Лингвокультурология юмора. Самара- 1999
- [2]- Белякова С. М. Цветовая картина мира Бунина. Воронеж: Полиграф- 1999
- [3]- Тимко Н.В. Лингвокультурологические аспекты перевода цветообозначений. Курск- 2012

Books:

- [1] - Kulnich M. A. Linguoculturology of humor. Samara - 1999
- [2] - Belyakova S. M. Color picture of the world of Bunin. Voronezh: Polygraph - 1999
- [3] - Timko N.V. Linguocultural aspects of the translation of color designations. Kursk-2012

Vebsayt

<https://hozir.org/tarjima-nazariyasi.html>

YENGIL AVTOMOBILLARDA YOQILG`I SARFINI KAMAYTIRISH USULLARI

*Asqarov Ixtiyor Baxtiyorovich-P.F.D., Dots. JizPI
“Transport Vositalari Muhandisligi” kafedrası mudiri*

*Raxmatov Utkirjon Farxod o`g`li
JizPI AvaAX yo`nalish 102M-20 guruh magistranti:*

Annotasiya: Ushbu maqola mamlakatimizda avtomobilsozlik va yengil avtomobillarda yonilg`i sarfini kamaytirish to`g`risida bo`lib, unda avtomobilsozlikning mamlakatimizga kirishi va yengil avtomobillarda yonilg`i sarfini kamaytirish afzalliklari, uning ilmiy, nazariy va texnik usullari hamda ushbu mavzuda dunyoda bo`layotgan jarayonlarni o`z ichiga oladi.

Kalit so`zlar: Avtomobilsozlik, dvigatel, avtomobil, elektromobil, eksplutatsiya,

Annotation: This article is about automotive industry in our country and reducing fuel consumption. In this article you can take information about how becoming automotive industry early years in the country and Advantages of reducing fuel consumption on light vehicles, its scientific, theoretical and technical methods, as well as the ongoing processes in the world on this topic.

Key words: Automotive industry, Engine, Automobile, Electric car, Exploitation.

Аннотация: Эта статья про автомобильную промышленность в нашей стране и снижение расхода топлива. В этой статье вы можете получить информацию о том, как автомобильная промышленность начала развиваться в стране и о преимуществах снижения расхода топлива на легковые автомобили, ее научных, теоретических и технических методах, а также о текущих процессах в мире по этой теме.

Ключевые слова: Автомобильная промышленность, Двигатель, Автомобиль, Электромобиль, Эксплуатация.

KIRISH

Hozirda rivojlangan dunyo yuzida avtotransport vositalari eng ilg`or o`rinni egallaydi. Avtomobillar deganda bizning ko`z oldimizga eng birinchilardan bo`lib Mercedes-benz, BMW (Bavarian Engine Works Company), Ferrari kabi yetuk avtomobil korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan avtomashinalar keladi. Va bu turdagi avtomobillar sinfi “Lyuks” tasnifidagi mashinalar qatorini boshqarishi bilan

mashxurdir. Oxirgi yillarda avtomobilsozlik sanoati dunyo bo`ylab keng tarqalmoqda va avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatlar soni dunyo bo`yicha deyarli 70 ga yaqindir [3]. Albatta shu o`rinda O`zbekiston o`z avtosanoatiga ega davlatlar qatoridadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Yengil avtomobillarda yoqilg`i sarfini kamaytirish usullari tadqiqot obyekti sifatida tahlil etildi. .Yengil avtomobillarning kashf etilish davri tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O`zbekiston tarixida ilk avtomobilsozlik kirib kelishiga qaraydigan bo`lsak bu mustaqilligimizning ilk sanalariga to`g`ri keladi. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I. A. Karimov tashabbuslari bilan 1992-yil 29-avgustda Koreyaning “Daewoo” kompaniyasi bilan qo`shma hamkorlikda shartmo imzolangan. Ushbu shartnomaga asosan Andijon viloyatining Asaka shahrida 1994-1996-yillarda avtomobil zavodi qurib bitkazilib 1996-yilda ilk avtomobil ishlab chiqarila boshlandi. O`sha davrda mamlakatimiz dunyoning 28-avtomobilsozligi bor davlati sifatida ro`yxatdan o`rin egalladi. O`z de u da ilk avtomobillar 3 turda bo`lib Neksiya, Damas va Tiko avtomobillari edi. Bunda Neksiya dvigatel sig`imi 1500 sm³ga teng bo`lgan, Tiko esa ancha iqtisod avtomobili bo`lib uning dvigatel hajmi 800 sm³ bo`lgan. Va so`ngi rusumdagi avtomobil bu mini-van turkumiga kiruvchi 7 o`rindiqli dvigatel hajmi 800sm³ga teng bo`lgan Damas avtomobilidir. Shundan so`ng o`zbek avtomobilsozligida yangi sahifa ochildi va shu davrgacha Neksiya 2, Lasetti, Matiz, Spark, Kobalt, Epica, Malibu, Neksiya 3, Gentra, Kaptiva kabi bir qancha turli xil avtomobillar ishlab chiqarildi [1].

Bu avtomobillar dvigatel sig`imlariga etibor qaratadigan bo`lsak ular mikro tirajli avtomobillardan tortib o`rta tirajli dvigatelli avtomobillargacha ishlab chiqarildi. Ushbu avtomobillarda yonilg`i sarfi mikro tirajlilarda 100 km ga 5-8 litrni tashkil etgan bo`lsa, kichik tirajli avtomobillarda esa 7 litrdan 14 litrgachaham chiqdi [2].

Ushbu avtomobillarning dvigatel hajmi iqtisodiy dvigatelga mos edi. Hozirgi davrga kelib avtomobilsozlikda yengil avtomobillarda yonilg`i sarfi yanada iqsodli bo`lishi zarur. Ammo o`tgan 25 yil davr ichida kata o`zgarish bo`lmadi. Quyida keltirmoqchi bo`lgan ma`lumotim Mercedes-Benz avtomobillarining yonilg`i sarfi bo`yicha va bunda taqqoslashimiz mumkin bo`lgan detallar bor [4]. Ushbu ro`yxatdagi 2 litr hajmdagi Mercedes-E200 avtomobili yoqilg`i turi benzin misolida ko`rib chiqamiz: Bunda natijalar quyidagicha (1-jadval):


1-jadval

Mercedes E 200 avtomobilning tavsifi

Avto markasi	Dvigatel hajmi	Yoqilg'I turi	Ot kuchi	100 km yoqilg'i sarfi	Uzatmalar qutisi	Yetaklovchi G'ildirak
<u>Mercedes E 200</u>	2.0	Benzin	184	6.1	Mexanik 6 pog'onalik	Orqa yetaklovchi

Bunda 6 pog'onalik mexanik uzatmalar qutisi va 2 litr hajmga ega bo'lgan avtomobil 184 ot kuchiga ega. Avtomobil og'irligi esa 2180kg ni tashkil etadi. 100km ga avtomobil kata trassada 5 litr, Shahar siklida esa 8 litrgacha yonilg'i sarfi mavjud. Aralash siklda esa bu ko'rsatgich 6.1 litrni tashkil etadi. Ushbu avtomobil 2013 yilda ishlab chiqarish boshlangan. Endi ushbu avtomobilning yoqilg'i sarfiga monand tarzda Spark yengil avtomobilini tanlaymiz va uning misolida huddi shu xususiyatlarni ko'rib chiqamiz. Sparkning dvigatel hajmi 1250 sm³ va 5 bosqichli mexanik uzatmalar qutisidan iborat. Mashinaning ot kuchi 85 hamda uning og'irligi 1355 kg tashkil etadi. Uning aralash sikldagi yonilg'i sarfi 6.2 litrni tashkil etadi. Bunda yoqilg'i sarfi ikki avtomobildaham bir xil. Spark esa hozirda mamlakatimizda ishlab chiqariladigan avtomobillar orasida eng iqtisodli va eng yengil avtomobil hisoblanadi. Bu ikki avtomobil misolida har xil og'irlikka, har xil dvigatelga va ot kuchiga ega bo'lgan avtomobillarda deyarli bir xil yoqilg'i sarfini ko'rsatmoqchi bo'ldik. Agarda huddi shunday og'irlikka ega boshqa avtomobil tanlasak va u Chevrolet Gentra avtomobili bo'lsa, unda Gentra avtomobilida yoqilg'i sarfi aralash siklda 9litrni tashkil etadi. Bundan ko'rinadiki yonilg'i sarfi bo'yicha yangiliklar qilinishi kerakdir.

Huddi shuning uchun ham iqtisodiy jihatdan arzon yoqilg'i turi bo'lgan metan gazidan foydalanish ko'rsatkichi mamlakatimizda 90 foizga yaqinni tashkil etadi. Albatta metan gazi ekologik jihatdan qolgan yoqilg'i turlaridan ancha yaxshi va arzon, lekin masalaning boshqa jihatlari ham bor ularni quyidagi rasmda keltiramiz (1-rasm).



1-rasm. Gaz yoqilg'izining yengil avtomobillardagi salbiy oqibatlari

Albatta o'z o'rnida savol tug'ilishi tabiiy nega O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar gaz yoqilg'i turiga o'tkazilgandan keyin ishchi kuchi sustlashadi va motorning tezda ishdan chiqishiga olib keladi?!

Bunga javobni biz ilmiy tomondan berishga harakat qilamiz: Ya'ni asosiy sabablardan biri bu bizning avtomobilsozligimizda hozirda motorlarimiz faqatgina benzin yoqilg'i turi uchungina ishlab chiqarilishidir. Bunda oktanlar soni muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shuning uchun motorning qaysi yoqilg'i turi uchun ishlab chiqarilishi esa eng dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi davrda dunyoda avtomobillarni arzon, ekologik toza yoqilg'i turiga o'tkazishga bo'lgan harakat oxirgi 10 yillikda juda jadallashdi. Va so'nggi yillardagi avtomobil olamida shov-shuvga aylanayotgan elektro mobillar dunyo bozoriga juda ildamlik bilan kirib kelmoqda. Aslini olganda elektro mobillar iqtisodiy jihatdan juda arzon va ekologik toza mahsulotligini inobatga olsak elektro mobillar asrimizning keyingi dekadasida dunyoda ichki yonuv dvigatellar o'rnining teng yarmini egallab olsa ajab emas. Shu o'rinda aytib o'tib ketish joiz bo'lgan o'rinlar bor, hozirda elektromobillar elektr toki sig'imi (batareykalari) rivojlanish bosqichida bo'lsada yetarli batareyka shu kunga qadar ham yaratilganicha yo'q. Va bu eng dolzarb masaladir. Yana bir muammoli masala shundan iboratki batareykani quvvatlash uchun yetarli darajada insonga kerak bo'ladigan vaqtda quvvatlash tezligi hali yaratilmadi. Bu esa ichki yonuv dvigatellarini ishchi kuchidan voz kechishni kechiktiradigan omillardandir. Shunday ekan bu holat haliham bizga ichki yonuv

dvigatelli avtomobillarda yonilg'i sarfini kamaytiradigan avtomobillar ustida ishlashimiz kerakligini anglatadi.

Avtomobillarda yonilg'i sarfini kamaytirishi mumkin bo'lgan omillar:

1) Shubhasiz, har qanday murakkab mexanizm doimiy e'tiborni talab qilishi hech kimga sir emas. Avtomobil ham bundan mustasno emas. Ba'zi ekspertlarning fikriga ko'ra, mashina agregatlari va ehtiyot qismlarining normal ishlashini ta'minlash yoqilg'ining 25 foizigacha tejashga imkon beradi. Bunda TXK ni o'z vaqtida amalga oshirish ko'zda tutiladi.

2) Aerodinamik holatlar. Bunda hattoki avtomobil oynalarining ochiq holati 4-5% yonilg'i sarfiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Avtomobilning tomiga o'rnatilgan yukxona 10%gacha yoqilg'i sarfiga ta'sirni yuzaga chiqaradi. Avtomobil antenalari esa 2 % ni tashkil etadi.

3) Garajlarning ahamiyati. Nafaqat avtoulouvingizni xavfsizligini ta'minlash uchun ajoyib imkoniyat, balki yonilg'i sarfini kamaytirishning bir usuli hisoblanadi. Issiq mavsumda bu maslahat juda dolzarb emas. Ammo sovuq havoda avtoulovni qizdirish uchun nisbatan ko'proq vaqt kerak bo'ladi bu o'z navbatida ortiqcha yoqilg'i deganidir. Bundan tashqari, havo harorati qancha past bo'lsa, qo'shimcha xarajatlar shunchalik ahamiyatli bo'ladi. Yana shuni aytish lozimki, avtomobil motorini mo'tadil haroratda tutush juda muhimdir.

4) To'g'ri moyni tanlash. Dvigatel yog'i dvigatel qismlarining ishqalanish kuchini o'zgartirishi mumkin. Agar u sifatsiz bo'lsa, demak u o'z vazifalarini bajara olmaydi. Bu yoqilg'ining ortiqcha sarflanishiga olib keladi. Zamonaviy formulalar, masalan, ROLF ENERGY 10W-40 SL / CF, sovuq boshlanganda va yuqori ish haroratida barqaror moylash plyonkasini hosil qiladi, shuningdek, dvigatelni oson ishga tushirishga yordam beradi va chiqindilarni sarfini minimal darajada kamaytiradi. Yog' tanlashda siz ishlab chiqaruvchining tavsiyalarini, avtomobilning yoshini, ishlash xususiyatlarini va boshqalarni hisobga olishingiz kerak.

5) G'ildiraklarga e'tiborli bo'lish lozim. Ba'zi avtomobil egalari g'ildiraklarni iloji boricha kattaroq qilib o'rnatishga harakat qilishadi. Masalan, R14 o'rniga R16 qo'yadi. Bu avtoulovni ko'tarishga imkon beradi va bu variant yanada chiroyli ko'rinishi mumkin. Ammo bunday holatlar yoqilg'ining ortiqcha sarflanishiga olib kelishi mumkin. Ba'zi manbalarning ta'kidlashicha, 1 sm radius qo'shilishi har 100 km ga 1 litr iste'molni ko'payishiga olib keladi. Shinalar bosimini nazorat qilish haqida unutmaslik lozim. Ko'rsatkichlar ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlarga mos kelishi kerak. Shunday qilib, bosimning 0,5 kg / sm² ga

pasayishi yonilg'i sarfini taxminan 3 foizga ko'payishiga olib keladi. Shinalarning mavsumiy o'zgarishi haqida unutmaslik lozim.

6) Eng asosiysi haydash jaroyinidir. Haydovchi bu jarayonda o'z bilimi va malakasidan foydalanadi. Bunda iloji boricha manzil uchun to'g'ri yo'nalish tanlash kerak bo'ladi. Tirbandlida turganda ko'p yoqilg'i sarf bo'ladi. Avtomobilni tezlikda joyidan qo'zg'atib harakatga keltirish bu yoqilg'ining tejamkorligiga putur yetkazadi. Imkon qadar daqiqasiga 1500-2500 aylanishlar sonida avtomobilni haydashlik tejamkorlikni oshiradi. Ayni manashu jihatlar avtomobilda 20% gacha yoqilg'i tejamkorligiga olib keladi.

7) Ortiqcha vazni kamaytirish. Har 50-100 kg uchun yukning pasayishi iste'molning 0,4-0,7 litrgacha pasayishiga olib kelishi isbotlangan.

8) Yana bir dolzarb masala bu yo'l bo'lib unda yo'ning sifati avtomobilning yoqilg'i sarfiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Imkon boricha avtomobilni tekis bo'lgan yo'llarda eksplutatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Avtomobillarda zavod tomonidan berilgan xususiyatlarni yo'qotmasdan o'z vaqtida avtomobilga texnik xizmat ko'rsatilishi, avtomobilga tavsifiga ko'ra to'g'ri yoqilg'i quyilishi, avtomobilni kunlik vizual kuzatuv qilinishi albatta avtotransport vositasining uzoq vaqt davomida faoliyat olib borishini taminlaydi. Bundan tashqari albatta avtotransport vositasiga tashqi omillar ta'siri mavjudligini inobatga olamz. Bunday omillardan qochib bo'lmaydi, va shularni hisobga olgan tarzda avtotransport vositasini to'g'ri eksplutatsiya qilish haydovchiga ma'sulyat yuklaydi. Bunda Haydovchining bilim malakasi, ko'nikmasi katta rol o'ynaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan holatlar hisobga olinib haydovchi tomonidan to'g'ri eksplutatsiya yo'lga qo'yilsa albatta bunda avtotransport vositasining texnik ish qobilyati uzoq vaqt saqlanib qolinadi, yo'llarda esa avtotransport vositasining harakat xavfsizligi darajasi ham ta'minlangan bo'ladi. Bundan tashqari haydovchi yuqorida ko'rsatilgan 8 ta tavsiyaga amal qilib avtotransport vositasini boshqarishi albatta yoqilg'i sarfini minimal darajagacha kamaytiradi. Yoqilg'i sarfini kamayishi hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan. Qish faslida gaz va benzina bo'lgan talab har yili 30 % gacha oshadi. Yuqorida keltirilgan tavsiyalar orqali esa bu muammoni bartaraf etish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

-
1. Адиллов, О. К., Умиров, И. И. Ў., & Барноев, Л. (2020). Транспортни хавфсиз бошқариш кўрсаткичларини баҳолаш. *Academic research in educational sciences*,(1).
 2. Адиллов, О. К., Умиров, И. И., & Уразов, Б. А. (2020). МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ДЕТАЛЕЙ, КРИТИЧЕСКИХ ПО НАДЕЖНОСТИ АВТОМОБИЛЕЙ. *Academic research in educational sciences*, (1).
 3. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_automobile_manufacturers
 4. <http://www.auto-abc.eu/Mercedes-E-klase/g853-2013>

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA- TA`LIM TARAQQIYOTINING TAYANCH KUCHIDIR.

***Bahromova Malohat Sodiqovna
Andijon viloyati Andijon shaxar
52 – umumta`lim maktabi
boshlang`ich sinf o`qituvchisi***

Annotatsiya: *Mustaqil Respublikamizda uzlukiz ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar milliy ta`lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos «milliy modelni» hayotga tadbiiq qilishga, ma`naviyatimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan. Bu esa o`z navbatida o`quvchilarning umumpedagogik bilim darajasini kengaytirishni, ma`naviy va intellektual meroslarimizga to`g`ri munosabatda bo`lishni talab qiladi.*

Kalit so`zlar: *Pedagogik texnologiya, ta`lim, taraqqiyot, metod, interaktiv metod.*

Abstract: *Reforms in the system of continuing education in the independent Republic are aimed at improving the national educational problems, the implementation of a "national model" in line with modern requirements, in line with world standards, to further enhance our spirituality. This, in turn, meets the requirements of the next generation of students to adopt general pedagogical knowledge, to develop attitudes towards our spiritual and intellectual heritage.*

Keywords: *Pedagogical technology, education, development, method, interactive method.*

KIRISH

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchii faoliyati, uning kasbiy nufuzini oshirish bilan bog'liqdir. Shunday ekan, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning sa-viyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, uning yosh avlodni o'qitish vasab tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.[1] Shunday ekan, o'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodli, har tomonlama rivoj-angan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma'lumoti bor, ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda

malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vazifalarni tezda yechishi, vaziyatlarni sezishi, o'rganishi va baholay olishi kerak. U pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Pedagogik texnologiya- ta'lim taraqqiyotining tayanch kuchi ekanligi obyektiv ochib berildi. Pedagogik texnologiyaning shakllanish davri tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Azizxo'jaeva N. N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" nomli kitoblari mantiqiy izchillik va asosiy manba sifatida tadqiq qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Yurtimizning kelajagi, uning ertangi taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishiga erishishimiz ham ma'lum ma'noda shu islohatlarning natijasiga bog'liq edi. Chunki ta'lim-tarbiya- ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir.[2] Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad- ozod va obod jamiyat barpo etib bo'lmaydi» degan yurtboshimizning fikrlaridan ta'lim-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, pedagog-metodistlar hozirga qadar didaktik masalalarni aniq ifodalashga va unga mos keladigan o'qitish texnologiyasini ishlab chiqishga e'tibor berishgan. Shu nuqtai nazardan, milliy dastur ijtimoiy buyurtma sifatida yangi pedagogik texnologiyagij «yangi» so'zining qo'shib ishlatilishi nazariyachi olimlarimiz va o'qituvchilarni bir qadar o'ylantirib qo'ydi, endilikda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini ko'pchilik anglab yetmoqda. Shunday ekan, pedagogik texnologiyani qanday yangilash mumkin? E'tiborni yuqorida berilgan pedagogik texnologiyaning tuzilishiga qarataylik. Bu tizimga uzluk-siz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini ko'rsatadi va ta'lim-tarbiya maqsadini unuimiy holda belgilab beradi. Maqsad esa pedagogik texnologiyaning bosh bo'g'ini hisoblanib. u pedagogik tizimning qolgan

elementlarini, o'z navbatida, yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.[3] «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi, ya'ni ta'lim tizimini o'tmishdan qolgan mafktiraviy qarashlar va sarqitlardan tola xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida. yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa, deb belgiladi. Demak, ta'lim-tarbiya maqsadi yangilandi, unga mos holda mazmunning yangilanishi tabiiydir.

Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohatlarning asosiy yo'nalishlari:

- ta'lim tizimini, mazmunini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi, mahalla, o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va bu islohatlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

Yangi ta'lim modeli. Ta'lim islohatlarini amalga oshirish va ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun ta'limning yangi modeli yaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uning tarkibiy qismlari ko'rsatib berildi va ular quyidagilardan iboratdir:

shaxs- kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim- malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

ishlab chiqarish- kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiiq etish va ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlash o'quvchilar faolligini oshiruvchi omildir.

Ta'limning bu prinsipi dars jarayonida o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishda nazariya bilan amaliyotni birgalikda qo'shib olib borishni taqozo etadi. Nazariyasiz amaliyot predmetsiz tushuncha bo'lsa, amaliyotsiz nazariya ko'r narsadir». [4] Ta'lim to'g'risidagi yangi Qonunda maktablarimizda fan asoslarini egallashning etakchi qoidasi – ta'limning amaliyot bilan, turmush - xayot bilan ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'lab olib borishni talab etadi. Bu prinsip o'qituvchi o'quv materialini bayon qilishda fanning birorta qoidasi va qonunini tushuntirilayotganda, shu qonun – qoidalardan mexnatda (amaliyotda) qanday va qaysi xolatlarda foydalanilishi xam ko'rsatib berishni talab etadi. O'qituvchi nazariyani – amaliyot bilan bog'lashda o'quvchilarning nazariy bilimlarini misollar echishda, masalalar xal qilishda, maktab laboratoriyasi, ish kabinetlari, o'quv ustahonalari, va tajriba yer uchastkasida va xar hil fan to'garaklarida amalda qo'llashga o'rgatishni unutmasligi kerak. Chunki amaliyot – bilishning mezoni, etalonidir. Ta'limning bolalarga tushunarli bo'lishi (moslik) prinsipida dastavval, ta'limning ikki tomoniga e'tibor beriladi:

1. Ma'lum sinf uchun belgilangan o'quv materiallarining harakteri – mazmuni, hajmi shu sinf o'quvchilarining yosh hususiyatlariga mos bo'lishi.

2. Har bir sinf uchun belgilangan bilim hajmi shu sinf o'quvchilarining saviyalariga mos bo'lishi lozim va bu talab maktablarning o'quv rejalari va o'quv dasturlarini tuzish prinsiplarida o'z ifodasini topadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, pedagogik texnologiyada didaktik masalalarning o'z yecliimlarini topishi-milliy dasturni ro'yobga ehiqarishning muhim bosqichidir. Agar pedagog qo'lida bilimga chanqoq talabalar, fan maqsadiga mos mazmundagi dastur, darslik va qo'llanmalar mavjud bo'lsa, u didaktik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllaridan samaraii foydalanib yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga izchil va kelma-ket joriy etishi mumkin. Shu boisdan, o'qiluvchi mahoratiga ko'p narsa bog'liqligi, Uning pedagogik tizimda tutgan o'rni haqida batafsil to'xtalish zarurati tug'iladi.

1. O'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada, ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'lsin.

2. O'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quvtarbiyaviy jarayon mazmunini o'qiiiv u;!i.u.ui bo'yicha chuqur egallashi,

muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqil ravishda kengaytirib borishi zarur.

3. O'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni amalga oshirish bilan tanish bo'lishi kerak: bu-birinchi, jadallashtirish va tabiatan monandlik talabidir. Jadallashtirish didaktik masalalarni ma'lum vaqt doirasida birmuncha tez va yuqori saviyada hal eta oladigan didaktik jarayonni qo'liashni falab etadi. Ta'lim va tarbiyaga bu talabni aniqlab beruvchi omil — talaba (o'quvchi) laming ma'lum faoliyatni o'zlashtirish tezligi hisoblanadi.[5] Ikkinchi, o'quv-tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish lozimki, bunda mumkin qadar talabalarning keng doirada tajriba egallashiga imkon lug'diradigan va ularning aqliy malakasini rivqjlantira oladigan mexanizm vujudga kelsin. Bu talabni aniqlab beruvchi omillar: talabalarning o'qishga bo'lgan xohishi, o'quv mehnaliga munosabat i va sog'lom psixo-fiziologik faoliyati kabilardir.

4. O'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshinstuia o'qitishning samaraii shakllaridan foydalana olishi kerak. O'qitishning tashkiliy shakllari to'g'ri tanlanishi pedagogiktizim elementkinring ma'lum qonuniyat asosida bir-birlari bilan bog'liq ekanligini bi'diradi. Bu bog'lanishlardan foydalanish va eng maqbul bo'lgan Tashkiliy shakllar topish-ta'limda rasmiyatchilikni yo'qotishga yo'I ochadi.

5. O'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan talabaning ta'lim mazmuni va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganli-gini eng maqbul usullar yordamida doimo nazorat qilib borishi lozim. Buto'g'rida olingan axborotlar esa pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkoniyatini beradi yoki tizimdagi qaysi elementning mazmuniga tuzatish kiritish kerak ekanligini aniqlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.
2. Axmedova M., Abdurahmonova N., Jumaev M. Matematika. 1-sinf uchun darslik. T.: “Turon-iqbol”. 2008-yil.
3. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 y. 200b.
4. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

5. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
6. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
7. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
8. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
9. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
10. Sulaymonov, J. Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
11. Божович Л. И. Проблемы формирования личности. –М.: Воронеж 1997 г.
12. Бондаренко С.М. Проблема формирования познавательного интереса при классно-групповом и программированном обучении: по материалам психолого-педагогической литературы. //Вопросы алгоритмизации и программирования обучения. /Под.ред. Л.Н.Ланды. Москва., 1973 г.

O'RTA ARIFMETIK VA O'RTA GEOMETRIK TUSHUNCHAGA BOG'LIQ KETMA-KETLIKLAR LIMITI

Djabbarov Odil Djurayevich
TDTU Olmaliq filiali katta o'qituvchisi
odilxon455@gmail.com

Akbaraliyev Asliddin Akmal o'g'li
TDTU Olmaliq filiali "Mashinasozlik
texnologiyalari" yo'nalishi talabasi
asliddinakbaraliyev2731@gmail.com

Abstract: This article deals with the analysis of the problem presented and solved by the German mathematician K. Gauss. The solution of this problem was studied using a differential equation. A mathematical model of the problem of the connection of sequences with arithmetic averages is developed.

Keywords: sequence, limit, differential, arithmetic mean, geometric mean, ascending, descending.

Аннотация: В этой статье рассматривается анализ задачи, представленной и решенной немецким математиком К. Гауссом. Изучалось решение этой задачи с помощью дифференциального уравнения. Разработана математическая модель задачи о связи последовательностей со средними арифметическими.

Ключевые слова: последовательность, предел, дифференциал, среднее арифметическое, среднее геометрическое, возрастание, убывание.

Annotasiya: Ushbu maqolada nemis matematigi K. Gauss tomonidan keltirilgan va xal etilgan masalaning tahlili o'rganilgan. Bu masalaning differensial tenglama yor-damidagi yechimi o'rganilgan. Ketma-ketliklarni o'rta arifmetiklar bilan bog'liqligi masalasini matematik modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ketma-ketlik, limit, differensial, o'rta arifmetik, o'rta geometrik, o'suvchi, kamayuvchi.

KIRISH

Bizga $x_1 = a$, $y_1 = b$, $x_{n+1} = \sqrt{x_n * y_n}$, $y_{n+1} = \frac{x_n + y_n}{2}$ shartlarni qanoatlantiruvchi $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$, $n \in N$ ketma-ketliklar berilgan bo'lsin. Bu ketma-ketliklar uchun $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n$ va $\lim_{n \rightarrow \infty} y_n$ larni hisoblashni ko'raylik. Bu masalani dastlab nemis matematigi K.F.Gauss xal etgan.

Ma'lumki, $x_n \geq 0$, $y \geq 0$, $n \in N$. U holda $\sqrt{ab} \leq \frac{a+b}{2}$, $a \geq 0$, $b \geq 0$ formulaga asosan

$$y_{n+1} = \frac{x_n + y_n}{2} \geq \sqrt{x_n y_n} = x_{n+1},$$

$x_{n+1} = \sqrt{x_n y_n} \geq \sqrt{x_n^2} = x_n$, $y_{n+1} = \frac{x_n + y_n}{2} \leq y_n$, u xolda $x_n \leq y_n \leq y_1$, $y_n \geq x_n \geq x_1$. Bundan $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ lar mos ravishda o'suvchi, yuqoridan chegaralangan va kamayuvchi, quyidan chegaralanganligi kelib chiqadi. Demak, bu ketma-ketliklar limitga ega, ya'ni

$$\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = A, \lim_{n \rightarrow \infty} y_n = B$$

bo'lsin. Quyidagi $y_{n+1} = \frac{x_n + y_n}{2}$ tenglikdan limitga o'tsak, $A = B$ kelib chiqadi.

Agar $x_n - y_n = z_n$ deb belgilasak,

$$\lim_{n \rightarrow \infty} z_n = 0$$

kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va matematik usullaridan keng foydalanildi. O'rta arifmetik va o'rta geometrik tushunchaga bog'liq ketma-ketliklar limiti haqidagi matematik formulalar borasida o'zaro tahlil olib borildi. Tadqiqot jarayonida Л.Д. Кудрявцев и другие. "Сборник задач по математическому анализу" nomli kitobi mantiqiy manba sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu masalani nemis matematigi K.V. Borxardtning differensial tenglama yordamidagi yechimi bilan tanishib chiqaylik. Soddalik uchun quyidagicha belgilashni kiritaylik. Aytaylik m_0 va n_0 - ixtiyoriy ikkita musbat sonlar berilgan bo'lsin ($m_0 > n_0$). Bu sonlardan $m_1 = \frac{m_0 + n_0}{2}$, $n_1 = \sqrt{m_0 n_0}$ sonlarni tuzamiz.

So'ngra m_1 va n_1 sonlardan

$$m_2 = \frac{m_1 + n_1}{2}, \quad n_2 = \sqrt{m_1 n_1}$$

sonlarni tuzamiz. Bu jarayonni davom ettirib, $\{m_k\}, \{n_k\}, k = 0, 1, 2, \dots$ sonlar ketma-ketligini hosil qilamiz.

Masala. Quyidagi limitni toping:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} (m_k - n_k).$$

Yechish. Faraz qilaylik bu limit a ga teng bo'lsin. Bundan esa $a = f(m_0, n_0)$, bu yerda f - qandaydir funksiya va $a = f(m_1, n_1)$ kelib chiqadi. Agar m_0 va n_0 larni biror x soniga ko'paytirsak, boshqa $m_1, n_1, m_2, n_2, \dots$ sonlarni ham k songa ko'paytirishga teng bo'ladi. Bu esa a soni m_0 va n_0 larga nisbatan birinchi darajali bir jinsli funksiya ekanligi kelib chiqadi, ya'ni

$$a = m_0 f\left(1, \frac{n_0}{m_0}\right) = m_1 f\left(1, \frac{n_1}{m_1}\right).$$

Endi $\frac{n_0}{m_0} = x$, $\frac{n_1}{m_1} = x_1, \dots$ va $\frac{1}{f\left(1, \frac{n_0}{m_0}\right)} = y$, $\frac{1}{f\left(1, \frac{n_1}{m_1}\right)} = y_1, \dots$ bilan belgilash kiritib,

quyidagini hosil qilamiz:
$$y = y_1 \frac{m_0}{m_1} = \frac{2y_1}{1+x},$$

xuddi shunday:
$$x_1 = \frac{n_1}{m_1} = \frac{\sqrt{m_0 n_0}}{\frac{m_0+n_0}{2}} = \frac{2\sqrt{m_0 n_0}}{m_0+n_0} = \frac{2\sqrt{x}}{1+x}.$$

Bu tengliklarni differensiallab,

$$\frac{dx_1}{dx} = \frac{1-x}{(1+x)^2 \sqrt{x}} = \frac{(x_1-x_1^3)(1+x)^2}{2(x-x^3)},$$

$$\frac{dy}{dx} = \frac{2}{1+x} \frac{dy_1}{dx_1} \frac{dx_1}{dx} = \frac{2y_1}{(1+x)^2}$$

ni topib, $\frac{dx_1}{dx}$ ni o'rniga qo'yib,

$$(x-x^3) \frac{dy}{dx} = \frac{2x(x-1)}{1+x} y_1 + (1+x)(x_1-x_1^3) \frac{dy_1}{dx_1}$$

ni hosil qilamiz. Oxirgi tenglikni x bo'yicha differensiallab,

$$\frac{d\left[(x-x^3) \frac{dy}{dx}\right]}{dx} = 2y_1 \frac{d\left[\frac{x(x-1)}{1+x}\right]}{dx} + \frac{2x(x-1)}{1+x} \frac{dy_1}{dx_1} \frac{dx_1}{dx} + (x_1-x_1^3) \frac{dy_1}{dx_1} + (1+x) \frac{d}{dx} \left[(x_1-x_1^3) \frac{dy_1}{dx_1}\right] \frac{dx_1}{dx}.$$

Elementar almashtirishlar yordamida quyidagi tenglikka kelamiz:

$$\frac{d}{dx} \left[(x-x^3) \frac{dy}{dx}\right] - xy = \frac{1-x}{(1+x)\sqrt{x}} \left[\frac{d}{dx_1} \left[(x_1-x_1^3) \frac{dy_1}{dx_1}\right] - x_1 y_1 \right]$$

Agar oxirgi tenglamada x ni x_1 ga almashtirsak, x_1 x_2 ga o'tadi. Agar x_1 ni x_2 ga almashtirsak, x_2 x_3 ga o'tadi va x.k. Shuning uchun

$$\frac{d}{dx} \left[(x-x^3) \frac{dy}{dx}\right] - xy = A(y) \text{ deb olib,}$$

$$A(y) = \frac{1-x}{(1+x)\sqrt{x}} \frac{1-x_1}{(1+x_1)\sqrt{x_1}} \frac{1-x_2}{(1+x_2)\sqrt{x_2}} \dots \frac{1-x_n}{(1+x_n)\sqrt{x_n}} A(y_n)$$

ga ega bo'lamiz. Agar n cheksizlikka intilsa, $1-x_n$ nolga intiladi, bundan esa $A(y) = 0$ ekanligi kelib chiqadi. U holda

$$(x-x^3) \frac{d^2 y}{dx^2} + (1-3x^2) \frac{dy}{dx} - xy = 0 \text{ bo'ladi.}$$

Bu esa $\lim_{n \rightarrow \infty} (m_k - n_k) = 0$ ekanligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Л.Д. Кудрявцев и другие. Сборник задач по математическому анализу. Москва. Наука, 1984.
2. Н.Я. Виленкин и другие. Задачник по курсу математического анализа. часть 1. Москва. Просвещение. 1971.
3. И.И.Ляшко и другие. Справочное пособие по математическому анализу. Киев. Виша школа. 1984.
4. В.В.Амелькин. А.П. Садовский. Математические модели и дифференциальные уравнения. Минск. Высшая школа. 1982.

MUHAMMAD AMINXO'JA MUQIMIY HAYOTI VA FAOLIYATINING O'RGANILISHI

Hasanov Husniddin Kamol o'g'li
SamDU magistranti

Annotatsiya. Muqimiy ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idan boshlangan. She'rlariga bildirilgan turli-tuman munosabatlar haqidagi bahslar, maqolalar bunga dalil bo'ladi. Shoir vafotidan to'rt yil keyin uning devoni "Devoni Muqimiy" nomi bilan ilk bor 1907-yilda Muqimiy Nikolay Ostroumov tomonidan nashr etilgan⁵¹. Unda shoirning she'riy asarlari bilan birga tarjimayi holi va ijodi haqida qisqacha ma'lumot ham berilgan. 1910-yili Portsev litografiyasida "Devoni Muqimiy maa hajviyot" nomi bilan shoir asarlarining ikkinchi nashri amalga oshirildi. Gazeta va jurnallarda qator maqolalar e'lon qilindi. Bu xayrli ishning boshida buyuk shoir G'afur G'ulom turdi. Uning tashabbusi bilan 1938-yil "Muqimiy bayozi" tuzilib nashr etildi. "Bayoz"da shoirning 800 misradan iborat 27 ta she'ri berilgan bo'lib, ular janr xususiyatiga qarab joylashtirilgan (Satira-yumor, lirika) va ularga zaruriy izohlar, lug'atlar berilgan. 1950-yil shoir asarlari "Lirika i satira" nomi bilan Moskvada rus tilida bosildi. 1953 yil Muqimiy vafotining 50 yilligi munosabati bilan u haqda bir qator tadqiqotlar yaratilib, Muqimiyshunoslikka asos solindi. H.Yoqubovning "O'zbek shoiri Muqimiy", A.Olimjonovning "Muhammad Amin Muqimiy", H. Zaripovning "Muhammad Amin Muqimiy", H.Razzoqovning "Muqimiy va Zavqiy" nomli kitoblari hamda "Furqat va Muqimiy" nomli maqolalar to'plami nashr etilgan. Ushbu maqolada mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi adabiyot darsliklarida Muqimiy hayoti va faoliyatining o'rganilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: adabiy meros, Qo'qon madrasalari, demokratik adabiyot "Muqimiy bayozi", "Dorig'o mulkimiz", "Hajvi Viktorboy", "Dar mardumi oqjar batariqi muxammas", "Dar mazammati zamona", "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur", "Sayohatnoma", "Dar mazammati qurbaqa"

Abstract. Studying Mukhimiy's life started while he was alive. Different discussions for his poems can be proof for that. Four years after the death of the poet, his initial completion was published by Nikolai Ostroumov in 1907 under the name "Devoni Mukhimiy". In that completion consisted of not only his poems, there was his brief biography and creation. In 1910 in Portsev lithography was carried out the second edition of the works of the poet with the name "Devoni Mukhimiy maa

⁵¹ N. Karimov, B. Nazorov, U. Narmatov, Q. Yo'ldashev. Adabiyot darslik. Toshkent 2004-yil.

hajviyot". A number of articles were published in newspapers and journals. the auspicious work was carried out by the great poet Gafur Gulom. On his initiative, in 1938 was established and published the "Mukhimy bayazi". In "Beyaz" were given 27 poems of the poet, consisting of 800 lines, which were placed according to the features of the genre (satire-humor, lyrics) and they were given with the necessary explanations, dictionaries. In 1950 the works of the poet were issued in Russian in Moscow under the name "Lyrics and satire". On the occasion of the 50th anniversary of his death in 1953 a number of studies were created about him and laid the foundation for his studies. H.Yagubov's "Uzbek poet Mukhimy", A.Olimjonov's "Muhammad Amin Mukhimy ", H. Zaripov's" Muhammad Amin Mukhimy ", H.Razzakov's books "Mukhimy and Zavkhy", a collection of articles" were published. This article covers the study of Mukhimy's life and activities in the textbooks of literature in the pre-Independence period.

Keywords: Literary Heritage, Kokand madrasahs, Democratic literature "Mukhimy bayazi", "Doriĝo our property", "Hajvi Viktorboy", "Dar mardumi akjar batariĝi muhammas", "Dar mazamati zamona", "The poem of of the poet who settled in Khukhand the honor of one rich man, "travelogue", " Dar mazamati frog"

KIRISH.

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy yo'nalishlarda ham milliy o'zligimizni anglash, davlatchiligimiz tarixining noma'lum sahifalarini, milliy adabiyotimiz tarixini qaytadan o'rganish, asossiz ravishda unutilgan ijodkorlar hamda tafakkurimizning boy ilmiy ijodiy merosini yoritish bilan bog'liq izlanishlarga keng yo'l ochildi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining adabiy-tarixiy merosida mumtoz adabiy asarlar salmoqli o'rin egallaydi. Ana shunday asarlarni, merosimizni haqqoniy o'rganish, ularni ilmiy tahlil qilish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

XIX-XX asr o'zbek milliy madaniyati markazlaridan biri, shubhasiz, Qo'qon shahri edi. Bu yerda XVIII – XIX asrning birinchi yarmida ilm- ma'rifat olamida nomi dunyoga mashhur bo'lgan ulug' va mutafakkir shoirlar yetishib chiqadi. Xususan, XIX asrda Qo'qon xoni Umarxon (1810-1822) va uning umr yo'ldoshi shoira Nodiraning sa'y- harakati tufayli Qo'qon shahrida ilm-ma'rifat adabiy muhiti paydo bo'ladi. Ushbu adabiy muhit yetishtirib bergan ijod ahli taraqqiyotimizning turli davrlarida adabiy harakatning faol ishtirokchilari bo'lishgan. Ularning asarlari xalqimizning o'lmas ma'naviy mulkiga aylangan. XX asr adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot tarixi, xususan, uning ijodkorlariga biryoqlama baho berilgan. Turli xil sabablar bilan ba'zi adabiy asarlar o'rganilmagan. Shundan kelib chiqib o'zbek

adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, Sovet davri tarixshunosligi iloji boricha XIII-XIX asrlarda o'zbek xalqining fan va madaniyat sohalaridagi tarixini bo'yab ko'rsatishga intilgan. O'sha davrda shoir va yozuvchilarni saroy atrofiga to'plangan mansabparast, xushomadgo'ylar sifatida ta'riflangan. Qo'qon adabiy muhiti vakillarining ijodi sovet davri adabiyotshunosligida o'rganilar ekan, ularning faoliyatiga biryoqlama munosabatda bo'lgan. Xususan, Adoni feodal-klerikal adabiyot vakili sifatida tanishtirishgan. U va u kabilar haqida: "Umarxon saroyining "malik ush-shuarosi" ("shoirlar podshohi") Sultonxo'ja to'ra Ado va ularning hamfikrlarining sinfiy manfaati bir xil edi. Xonlar ana shunday guruhlarining, ya'ni hukmron feodal aristokratiyasining boshlig'i, shu sinf manfaatlarining himoyachisi, to'g'rirog'i, o'sha sinf talablarini amalga oshiruvchi ijrochi edilar⁵²", - deyilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ishda Muqimiyshunoslikda amalga oshirilgan salkam bir asrlik tarix yoritilgan bo'lib, unda qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy-tipologik metodlardan foydalanilgan.

NATIJARLAR.

Ana shunday ijodkorlardan biri o'zbek adabiyoti tarixida o'z munosib o'ringa ega bo'lgan ijodkor Muhammad Aminxo'ja Muqimiydir. Shoir 1850-yilda Qo'qon shahrining Bekvachcha mahallasi (hozirgi Muqimiy ko'chasi)da dunyoga kelgan. Otasi Mirzaxo'ja Mirfozil o'g'li novvoy bo'lgan, onasi Bibioysha Sayidolim Nodirshayx qizidir. Shoirona tabiatga ega bo'lishida onasining o'rni beqiyos. Chunki onasi ajoyib ta'limga ega, og'zaki ijodni juda yaxshi bilgan. Ayni shu ayol tufayli Muqimiyda shoirona iqtidor rivojlanadi. O'zining birinchi she'rini o'n yoshida yozadi. Muqimiy oilada besh farzand bo'lishib, uchinchi farzand bo'lgan. Muhammad Aminxo'ja xat-savodini mahallasidagi Abduhalil domlaning maktabida chiqargan. U xattotlikka ham qiziqib, qo'qonlik mashhur xattot Muhammad Yusufdan husnixatni o'rgandi. Shoir 15-16 yoshlaridan boshlab "Muqimiy" ("doimiylik"⁵³) taxallusida she'rlar yoza boshladi.

So'ngra, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qondagi Hokimoyim madrasasida va Buxoro madrasalarida tahsil olib, arab, fors tillarini chuqur o'zlashtirgan. Qo'qon madrasasini bitirgandan tahsilni davom ettirish maqsadida Buxoroga bordi. U yerda bir necha yil mobaynida ilm-ma'rifat bilan shug'ullanib, o'z zamonasining yetuk va peshqadam shoiri sifatida tanilgan edi. Muqimiy 1876-yilda o'qishni tamomlab Qo'qonga qaytadi. Qo'qonlik aslzodalar doirasida uni ehtiyotkorona kutib olishgan, qabul qilishmagan. Shoirning o'zi yozishicha, "Aynan yoqimsiz Qo'qon aslzodalari

⁵² Qayumov A., "G'oziy", T. 1959-yil, 24-bet

⁵³ Arboblar.uz. Tarjimaiy hol

meni nuqtai nazarlarimni ko'rib chiqishga va o'zimdagi yangi axloqiy va adabiy qarashlarni rivojlantirishga imkon berdi. Hafsalamning pir bo'lishi menga katta yordam berdi" Ko'rinib turganidek, Muqimiyning qalami o'tkirlanishida ijtimoiy muhit alohida o'rin tutadi. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham alohida o'rin tutadi. Mazkur ma'lumotlar asosan qayerdan olinadi? Ularni adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimaiy hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish- bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holda yetib kelgan manbalardan olinishi mumkin.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek adiblarimizning bizga qoldirib ketgan nodir ma'naviy boyliklardan bahramand bo'lish, har bir tarixiy davr ruhini bilish, xalqimizning turmush tarzi, shu davrga xos ijtimoiy munosabatlar ko'proq adib orqali kitobxonlar qalbiga yetib boradi. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir. Ravshanki, biografik ma'lumotlar o'z mazmuni bilan yoshlarni milliy ma'naviyatimizni anglash, his etish ruhida tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi. Masalan, Muqimiy haqida gapirib turib, Nikolay Ostroumov o'z maqolasida uning shaxsiga baho berib shunday degan edi: Shoirni o'quvchiga qalandarsifat, darveshvash bir qiyofada taqdim etadi va asosiy mashg'ulotini taqvo va she'r yozishda zamondoshlari singari zullisonayn edi..."- deb ko'rsatadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Adabiyot", "O'zbek adabiyoti" darsliklari bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, adibning bolaligi, o'sib ulg'ayish davri juda qisqa yoritiladi va bundan uning ichki olamini, ruhiyatini bilib olish qiyin bo'ladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda har bir pedogogdan adib hayoti va ijodini o'rganishda axborot kommunikatsiyalardan va matbuot materiallardan foydalanishning o'rni kattadir. Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida adibning o'z fikrlaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Yuqoridagi fikrga tayanib aytish mumkinki, shoir o'zi aytganidek, Qo'qon aslzodalari yaxshi kutib olmaganligi sababli, yangi axloqiy va adabiy qarashlarni rivojlanishi va hafsalasining pir bo'lishi unga katta yordam berdi. Yozuvchining tarjimaiy holi turli xildagi materiallar: muallif hayotidan, ayniqsa, o'rganiladigan asari bilan bog'lab olingan lavha; ijodiy qiyofasi, sermazmun tavsif etilgan maqola; adibning butun hayot va ijod yo'li haqidagi keng xabar ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

O'zbek adabiyoti darslarida bunday keng materiallardan to'liq foydalanish imkoni yo'q, albatta. Bu materillardan kichik parchalar olish to'g'risida fikr yuritish o'rinli bo'ladi. Umuman olganda, yozuvchi o'zi tomonidan aytilgan fikr va

jumlalardan foydalanish, o'quvchiga o'rganilayotgan yozuvchining yashab ijod etgan davri bilan yaqindan tanishishga imkon yaratadi. Asarning yaratilish tarixi bilan mufassal tanishish, o'quvchilarni tarixiy sharoitga olib kirish davrdagi ijtimoiy vaziyatni ko'rsatish, yozuvchi tanlagan pozitsiyaga e'tiborini qaratish imkonini beradi⁵⁴.

N. Mallayev, G'.K.Karimov, S.Ismatov tomonidan 1982-yilda nashr etilgan 8-sinflar uchun mo'ljallangan darslikda Muqimiy hayoti va ijodi haqida quyidagilarga guvoh bo'lamiz. Muqimiy demokratik adabiyotning eng yirik vakillaridan biri ekanligi, hajvchilik oqimining boshida turganligi, kambag'al hunarmand- novvoy oilasida tug'ilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Muqimiy 1876 yillarda Buxorodan Qo'qonga qaytdi. Lekin Qo'qonning hukmron doiralari madrasa ta'limini tugallab kelgan shoirni ochiq chehra bilan kutib olmadi, uni durustroq bir lavozimga taklif qilmadi. Natijada Muqimiy oilaviy sharoit taqozosi bilan Qo'qon yer qurilishi mahkamasida mirzolik (kotiblik) vazifasida xizmat qilishga majbur bo'lgan. Muqimiyning Qo'qon yer qurilishi mahkamasidagi xizmati uning hayotida chuqur iz qoldirdi. Mahkama amaldorlari tanobchilar yig'im- terimdan oldin dehqonlar yerini o'lchagani, ya'ni tanob qilgani qishloqlarga chiqar va shunga qarab dehqonlarga yer solig'i solar edi. Muqimiy ham mahkama mirzosi sifatida tanobchilar bilan birga bo'lar va qishloqlarda ro'y bergan voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rar edi. Ma'lumki, shu hayotiy kuzatishlari va taassurotlari asosida Muqimiy o'zining mashhur "Tanobchilar" asarini yaratdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Muqimiy tanobchi amaldorlar bilan hamkorlik qilishni tark etib, ishdan bo'shadi. 1877-yillar atrofida Muqimiy Qo'qonning g'arbi-shimolida Sirdaryo yoqasidagi Oqjar paromida pattachilik vazifasiga ishga kiradi. Shoir bu yerda ham xalq hayotini kuzatib "Oqjar odamlari haqida muxammas" asarini yaratgan edi. Lekin shoirni tanobchilarning nojo'ya kirdikori qanchalik bedirgan bo'lsa, Oqjar paromidagi xo'jayinlarning xalqqa zo'ravonlik bilan o'tkazgan haqsizliklari ham shunchalik iztirobga solar edi.

Muqimiy bilan reaksiyon guruhlar o'rtasida davom etgan bunday keskin kurashdan Muqimiyning "Axtaring" sarlavhali she'ri guvohlik beradi:

Podshoh yo'qlatsalar nogah, gado deb axtaring

Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro, deb axtaring.

Haqiqatdan ham Muqimiy yashagan davr murakkab edi.

Ana shunday murakkab davr Markaziy Osiyo, shu jumladan Chor Rossiyasining mustamlakasiga aylantirilgan sharoitda qalam tebratgan. Muqimiy

⁵⁴ Bitiruv malakaviy ish. Saydullayeva Muazzamxon. "Yozuvchi hayoti va ijodini o'rganishda savol va topshiriqlarning o'рни" T. 2018

oddiy xalq ichidan chiqqan va butun kuch-qudratini shu xalq uchun baxsh etgan shoir hisoblanadi. Ayni paytda, rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Uning she'rlari hayotlik davridayoq Turkistonning turli shaharlariga yoyilgan, shoirlar ularga muxammaslar bog'lar, xonandalar qo'shiq qilib aytar edilar. Muqimiy milliy ozodlik harakati haqida she'rlar yozgan, o'z salohiyati va mavqeyi bilan maktab yaratgan alloma edi⁵⁵. U ezilgan mehnatkash omma, bechora kosib-u hunarmandlar va xonavayron qishloq dehqonlarining otashin kuychisi bo'lib maydonga chiqdi. Mustamlaka tuzimidagi adolatsizlik va zo'ravonlikni, joriy tartib-qoidalarini, xalqona uslubda qoraladi. Uning asarlarida insoniy ishq-muhabbat ulug'landi.

Shoir ularning hayotini, dard-u tashvishini, orzu-intilishlarini realistik bo'yoqlarda yuksak badiiylik bilan ifodaladi. Har qanday ilg'or adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biri xalqchillikdir⁵⁶. Demokratik adabiyot XIX asrning ikkinchi yarmidagi yangi tarixiy sharoit zaminida qad ko'tardi va o'sha davr hayotini o'zida aks ettirdi.

Demokratik adabiyot o'z davrining ilg'or adabiyotidir, chunki u turmushga munosabat masalasida birinchi o'rinda hayot haqiqatini bo'yab emas, ro'y-rost tasvir etishga kirishdi. Muqimiy ijodi ham hayot haqiqatiga suyanib yozilganligi bilan ahamiyatlidir. Uning ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida "Devon adabiyoti" deb nomlanadigan sharq adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi. Ayni paytda rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida munosib hissasini qo'shdi. Muqimiy shoirlar orasida o'zining zo'r iste'dodi, o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi.

Muqimiy ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idan boshlangan. She'rlariga bildirilgan turli-tuman munosabatlar haqidagi bahslar, maqolalar bunga dalil bo'ladi. Shoir vafotidan to'rt yil keyin uning devoni "Devoni Muqimiy" nomi bilan ilk bor 1907-yilda Muqimiy Nikolay Ostroumov tomonidan nashr etilgan⁵⁷. Unda shoirning she'riy asarlari bilan birga tarjimayi holi va ijodi haqida qisqacha ma'lumot ham berilgan. 1910-yili Portsev litografiyasida "Devoni Muqimiy maa hajviyot" nomi bilan shoir asarlarining ikkinchi nashri amalga oshirildi. Shoir ijodini jiddiy va keng ko'lamda o'rganish o'tgan asrning 30-yillaridan boshlandi. Bu davrda Muqimiy asarlarini to'plash, o'rganish, nashr etish qizg'in va samarali olib borildi. Gazeta va jurnallarda qator maqolalar e'lon qilindi. Bu xayrli ishning boshida buyuk shoir

⁵⁵ Bu haqda qarang: Til va adabiyot ta'limi jurnali, 2015-yil, 9-son, O. Karimov. Muqimiy ijodi klaster tahlilda. 20-bet

⁵⁶ O'sha adabiyot

⁵⁷ N. Karimov, B. Nazorov, U. Narmatov, Q. Yo'ldashev. Adabiyot darslik. Toshkent 2004-yil.

G'afur G'ulom turdi. Uning tashabbusi bilan 1938-yil "Muqimiy bayozi" tuzilib nashr etildi. "Bayoz"da shoirning 800 misradan iborat 27 ta she'ri berilgan bo'lib, ular janr xususiyatiga qarab joylashtirilgan (Satira-yumor, lirika) va ularga zaruriy izohlar, lug'atlar berilgan. 1950-yil shoir asarlari "Lirika i satira" nomi bilan Moskvada rus tilida bosildi. 1953 yil Muqimiy vafotining 50 yilligi munosabati bilan u haqda bir qator tadqiqotlar yaratilib, Muqimiyshunoslikka asos solindi. H.Yoqubovning "O'zbek shoiri Muqimiy", A.Olimjonovning "Muhammad Amin Muqimiy", H. Zaripovning "Muhammad Amin Muqimiy", H.Razzoqovning "Muqimiy va Zavqiy" nomli kitoblari hamda "Furqat va Muqimiy" nomli maqolalar to'plami nashr etilgan.

Shoir ijodi namunalari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Afsuski, ularda Muqimiy asarlari sho'ro davri mafkurasi talabiga ko'ra bir tomonlama talqin qilingan. Natijada, shoir nazmiy merosi o'zining asosiy mohiyatidan uzoqlashtirildi. Ya'ni asarlari tahrirga uchradi, qisqartirildi, manbalarda qolib ketdi. Muqimiy asarlari turli qo'lyozma va toshbosma bayozlarda, san'atkorlarning yon daftarlarida, adabiyot havaskorlari kolleksiyalarida, ayrim parcha qog'ozlarda turli kishilar qo'lida saqlanib kelingan. Ta'kidlash joizki, shoir asarlarini yig'ish va nashr etish professor G'.Karimov tomonidan "Asarlar to'plami" jami to'rt marta (1958,1960,1973,1974) chop etilgan. Afsuski, bu nashrlarda Muqimiy ijodi kommunistik mafkuraning kuchli tazyiqi sabab to'liq va mukammal holda nashr etilgan emas⁵⁸.

Muqimiy adabiy merosi qo'lyozmalari yuzasidan A.Shokirov tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, shoir asarlarining sovet davridagi eng so'nggi nashriga [Karimov 1974] kiritilmagan ayrim she'rlar keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi.

Ilmiy izlanishlar natijasida shoir ijodi sho'ro davri mafkurasiga ko'ra quyidagi jihatlari ataylab buzib ko'rsatilgan:

birinchi, shoirning diniy- tasavvufiy ruhdagi aksariyat she'riy asarlari nashr etilmay qolgan;

ikkinchidan, Muqimiyning boy, savdogar, qozilarga qarshi qilib ko'rsatish tadqiqotlar uchun ustuvor vazifa etib belgilangan;

uchinchidan, Muqimiyning "Saroy adabiyoti" va an'analariga bo'lgan munosabati noto'g'ri talqin qilinib, ulardan sinfiy kurash alomatlarini izlangan.

Shoirning turli janrlardagi lirik she'rlari singari "Dorig'o mulkimiz", "Hajviy Bekturboy", "Dar mardumi oqjar batariqi muxammas", "Dar mazammati zamona", "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur",

⁵⁸ Q. Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol.1. www.navoiy-uni .uz. 23-bet

“Sayohatnoma”, “Dar mazammati qurbaqa” kabi ko’plab ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi hajviy asarlari tahrir qilinib, qisqarishlar bilan nashr etilishi buning isbotidir. Jumladan, muxammas janridagi “Dorig’o mulkimiz” sarlavhali she’r Muqimiy asarlar to’plamida 6 band, asliyatda esa 8 band. Ikki band ataylab tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, muxammasning deyarli barcha bandlaridagi misralar tahrirga uchragan. Shundan so’ng joriy nashrga kiritilgan⁵⁹. Natijada shoirning chor mustamlakachilariga bo’lgan tanqidiy qarashi, umuman, shoir ruhiy olami yashirilgan. Xuddi shunday holni muxammasning birinchi bandidagi misralarda ko’ramiz:

Joriy nashrlarda:

Dorig’o mulkimizning sohibi ahli sharor o’lmish,
Shariat hukmi qozilar qo’lida purg’ubor o’lmish,
Ba joyi amri ma’ruf kori munkar oshkor o’lmish,
Hakim-u, olim-u, sohib fasohat xor-u zor o’lmish,
Bu kunda kimki imonin sotar, ul e’tibor o’lmish.

Asliyatda esa [Madaminov 1997, 34]:

Dorig’o, dini islom hokimi ahli kuffor o’lmish,
Shariat ko’z gusikim kufr gardidin g’ubor o’lmish,
Ba joyi amri ma’ruf nahyi munkar oshkor o’lmish,
Sayid, sodotlar behurmat-u, ko’p xor-u zor o’lmish,
Bu kunda kimki imonin sotibdur, e’tibor o’lmish.

Misralarni solishtirib ko’rilganda ko’rinadiki, she’r butunlay teskari tahlil qilingan. Natijada, shoirning tanqidi mustamlakachilarga emas, din peshvolariga, qozi-yu boylarga qaratilgan bo’lib qolgan. Aslini olganda shoirning maqsadi bunday emasligi oydinlashadi. Bu misralarda shoir “Shariat ko’z gusikim kufr gardidin g’ubor o’lmish”-deya sayidlar behurmat ekanligidan iztirob chekadi. Dinimiz, shariatimizning mustamlakachilar tomonidan poymol etilishi, oqibatda xalqning tobora shariatdan uzoqlasha borishi, umuman, millatning shunday ayanchli ahvolga, mustamlaka girdobiga tushib qolgani uning haqli e’tiroziga sabab bo’ladi. Zamonning ayanchli ahvolga tushib qolganini, nodon kimsalar hurmatda va izzatda-yu, ilm ahlining xor-u zor bo’lishi, ularda zarracha izzat yo’qligi kuyunchaklik bilan tilga olinadi: “Hazor afsuskim, ilm ahlida bir zarra izzat yo’q” deb boshlanuvchi she’rida o’z ifodasini topgan. Shoir ijodida shunga o’xshash mavzudagi she’rlarni ko’plab uchratamiz, jumladan yana bir she’rida: Zamona ahlining bir firqasig’a hayf insonliq deya taassuf qiladi. Jamiyatda fisq-u fasod ishlarning ko’payib ketishini

⁵⁹ Q.Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol. 1. www.navoiy-uni.uz.25-bet

g'ayridin kishilar kofirlar aralashuvida deb biladi. Natijada xalqning ma'naviy buzilishi, e'tiqodsizlik, axloqsizlik, ichkilikbozlik avj olganligi ta'kidlanadi.

XULOSA.

Ta'kidlash joizki, Muqimiy ijodi XX asrda keng miqiyosda o'rganilgan, u haqda kitoblar, to'plamlar, shoirning devonlari va bayozlar nashr qilingan bo'lsa-da, mustaqillikka qadar bir taraflama, faqat sobiq sovet hokimiyati manfaati ko'zlangan holda o'rganildi. Uning diniy, tasavvufiy mazmundagi asarlari o'rganilmadi. Tadqiqot doirasiga tortilganlari ham mazmuni buzilgan holda xalqqa taqdim etildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Qayumov A., "G'oziy" , T. 1959-yil,24-bet
2. arboblar.uz. Tarjimaiy hol
3. Saydullayeva Muazzamxon. Bitiruv malakaviy ish. " Yozuvchi hayoti va ijodini o'rganishda savol va topshiriqlarning o'rni" T. 2018
4. Til va adabiyot ta'limi jurnali, 2015-yil,9-son
5. O.Karimov. Muqimiy ijodi klaster tahlilda
6. N. Karimov, B .Nazorov, U, Narmatov , Q. Yo'ldashev. Adabiyot darslik. Toshkent 2004-yil
7. Q. Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol.1. www.navoiy-uni .uz. 23-bet
8. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
9. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
10. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
11. Sulaymonov, J. Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

ANTHROPOLOGY IN ECONOMIC

Khairzad Farhad ibn Khairdeen

Second year economy

master student of

Termez state University

Email: F.khairzad786@Gmail.Com

Abstract: In today's world, anthropology is one of the broadest branches of science. Because it includes both biological and social content of human life. For this reason, in some countries, it is part of the biological sciences and in others; it is considered a social science. Anthropology is one of the most pious sciences. Anthropology studies all human groups, regardless of when or where they live. Anthropology also considers human nature, away from reactions and laboratory studies. Anthropology, compared to other sciences, has a wide range of historical and geographical areas and directly addresses human differences not only in a small area, but all over the world. After all, anthropologists look at humans in all eras, from the beginning of the first man millions of years ago to today.

Keywords: product, Economic, Anthropology, industry, Consumption

Annotatsiya: Hozirgi dunyoda antropologiya fanning eng keng tarmoqlaridan biridir. Chunki u inson hayotining ham biologik, ham ijtimoiy mazmunini o'z ichiga oladi. Shu sababli ba'zi mamlakatlarda bu biologik fanlarning bir qismiga, boshqalarda esa; u ijtimoiy fan deb hisoblanadi. Antropologiya eng taqvodor fanlardan biridir. Antropologiya qachon va qaerda yashashidan qat'i nazar, barcha inson guruhlarini o'rganadi. Antropologiya inson tabiatini ham reaksiyalar va laboratoriya tadqiqotlaridan uzoqroq tutadi. Antropologiya boshqa fanlar bilan taqqoslaganda juda keng tarixiy-geografik sohalarga ega va nafaqat kichik sohada, balki butun dunyoda inson farqlarini to'g'ridan-to'g'ri hal qiladi. Axir antropologlar odamlarga millionlab yillar oldin birinchi odam paydo bo'lishidan to hozirgi kungacha barcha davrlarda qarashadi.

Kalit so'zlar: mahsulot, iqtisodiy, antropologiya, sanoat, iste'mol

Аннотация: В современном мире антропология - одна из самых широких областей науки. Потому что он включает в себя как биологическое, так и социальное содержание человеческой жизни. По этой причине в некоторых странах это часть биологических наук, а в других; это считается социальной наукой. Антропология - одна из самых благочестивых наук. Антропология

изучает все группы людей, независимо от того, где и когда они живут. Антропология также рассматривает человеческую природу вдали от реакций и лабораторных исследований. Антропология, по сравнению с другими науками, имеет широкий спектр исторических и географических областей и напрямую занимается человеческими различиями не только на небольшой территории, но и во всем мире. В конце концов, антропологи смотрят на людей во все эпохи, от появления первого человека миллионы лет назад до наших дней.

***Ключевые слова:** продукт, экономика, антропология, промышленность, потребление.*

INTRODUCTION

Anthropologists not only deal with the testing of ideas about human behavior, but also study the validity of public beliefs about human biology. Anthropology, social life; Examines the intellectual and cultural life of human beings according to the historical course and natural and social relations. Anthropology, compared to other sciences, has a wide range of historical and geographical areas and directly addresses human differences not only in a small area, but all over the world. After all, anthropologists look at humans in all eras, from the beginning of the first man millions of years ago to today.

Anthropologists not only deal with the testing of ideas about human behavior, but also study the validity of public beliefs about human biology. Anthropology, social life; Examines the intellectual and cultural life of human beings according to the historical course and natural and social relations.

Anthropology as a branch of science deals with all human issues such as social behavior, language, roles, values, personality, government, kinship, history, art, disease, religion, economics, technology, clothing and so on. In addition, anthropology addresses human biological issues, such as body structure, skin color, blood groups and other biochemical characteristics, skin lines, prehistoric humans, and genetic and evolutionary issues affecting human growth. Anthropology is derived from the two Greek words "Anthropos" meaning human and "Logos" meaning study, cognition or reason. Anthropology is a way to study man and his close associates.

When we talk about economics: Economics is the science of production, distribution and consumption as a whole. All three of these cases are directly related to humans. And man has a valuable role, both in the production that is done by man, and in the distribution that is done by man, and in the consumption that is done by man.

If we pay attention to the scarcity part, everything in the world is relative and limited. And so in economics or in our personal lives we are limited to managing things. Although the demands are unlimited. Therefore, man is the source of unlimited desires and man is also the administrator of limited things. So we can say that the economy needs and depends on man and man also needs the economy. These human beings and economics are necessary for each other, without each other they have no special efficiency and necessity.

From now on, we have realized that economics, which is one of the branches of humanities or social sciences, has a valuable relationship with human beings. That is, all of this science is related to human work, effort, and behavior. It can be said that one is the soul and the other is its body.

REFERENCES AND METHODS

The objective method of scientific knowledge was used in the research process. General information about economic anthropology and its impact on education are objectively revealed. The period of formation of economic anthropology was analyzed from the point of view of history. Dr. Asghar Askari Khaneghah, General Anthropology, William Sahakian, Thoughts of Great Philosophers. Translated by Gol Baba Saeedi, Azad Mehr Publications has been studied as a logical sequence and a primary source.

DISCUSSION AND RESULTS

Economic anthropology: When we observe; An economic system is a system in which goods are produced, distributed and consumed. My people use food, facilities and comfort in a special way and necessarily produce, distribute and consume products.

In studying the economics of early peoples, some anthropologists interpreted anthropological data with technology, values of work, ownership, and determination of what makes sense, while some West Africans lacked a plan. They act like children. These people traditionally do not have food to eat in the rainy season, so they have to prepare the land for another crop.

Some anthropologists believe that the concepts of market economy cannot be used to study societies in which people do not trade goods for profit. He calls this "reasoning."

Other scholars belonging to the school of "ritualism" have a different theory. They argue that economic theory should be used in ways in which people can achieve personal satisfaction by saving objects as well as by distributing scarce resources. If

this theory is correct, safe economic theory is comprehensive enough and can be applied in any society.

In every society there are customs and laws that govern the types of work, that is, who does the work; Who has the resources and tools and how is it done? These issues are, in fact, embedded in culture and determine how the economy operates.

Work patterns: In any human society, there is always a division of labor according to gender and age. This type of division of labor is simply the growth of patterns that exist among higher primates.

Division of labor by gender: What specific tasks men and women do are different in different societies, but most jobs are divided by gender. The division of labor by gender has been extensively studied by anthropologists in most human societies. For example, the division of labor according to Jenny has biological roots, and the work given to women is work that can be done near home and easily resumed after a short break. Jobs are usually "men's work" that requires physical strength, high energy, and frequent travel over long distances and are associated with many dangers.

A study of the work done by men and women in a particular group shows that particular forms of gender division must be related to the traditional historical development by which they continue to live. In modern industrial societies, biological factors have lost their importance in the division of labor by technological factors and organizational innovation; therefore, it is not necessary for men and women to do specific work, but both sexes can turn to any type of work. Hence, there is no longer a monopoly on sex (male or female) in these societies. Perhaps the only thing men can do in these societies is to have children.

Division of labor by age: There may also be division of labor by age. In many non-industrial societies, children and the elderly contribute more to economic growth than in other societies; In South Vietnam, for example, young children not only care for younger siblings but also work in factories. Older people in South Vietnam have economic responsibilities. For example, the grandmother buys, cooks and cleans the house. This was the case in rural families in North America, where there was a lot of work but not enough labor.

Cooperation and Cooperation: Cooperation and cooperation exist in working groups from primitive societies to advanced societies and from non-industrial societies to societies.

Professional (industrial) assignment: In non-industrial societies where the division of labor is based on gender and age, each person has the knowledge and ability to do

work according to their age and gender. In contrast, in modern industrial societies, there is a great difference in specialized jobs and no one can know about all the jobs suitable for their age and gender.

Even in non-industrial societies, there is some kind of professional expertise. This is a minimum in hunter-gatherer communities, but spears made by a particular person may be in high demand because of their skill. Among the people who produce their own food and pay more attention to allocation.

Land control: All communities have rules for determining the value of land resources. Permanent farmers need concentrated water resources, irrigation systems and land division systems. In Western industrial societies, the system of private land ownership and access rights to natural resources prevails.

Technology: The economy of any society is related to the level of technology of its members. In advanced society, this knowledge is transmitted through books, while in primitive societies this knowledge is kept in groups.

Division of labor is a way in which technology remains and spreads among people so that it does not disappear. It is the technology by which the means of earning a living are learned and passed on to the next generation so that people can continue their lives. In human life and daily economic activities, human beings deal with three parts, which are production, distribution and consumption.

Production: Production or technology from the terms of economics, means the provision of goods and services required using available resources and facilities, production is considered the first human industry. In economics, desirability is created through human activity. Production, in economics, also involves the creation of objects by man. But it also includes other service activities such as protection and maintenance, cleaning, etc. It can be said that any activity and work that brings the element or elements of nature closer to human consumption.

Production is considered to be the creation of utility and desirability to satisfy the desires of individuals. At the same time, production is a field of activity of human activity by which the factors of production are combined and provide the goods and services needed by individuals.

Production means creating new economic benefits. The concept of production, in addition to the flow of commodity change, includes all services that are effective in improving the utility of goods and are available to people when they need access. Combine well with each other.

Also, the process of their production activities is such that it leads to the lowest production costs for a certain level of production. Thus, in addition to production and related issues, production costs also play an important role in economic activities.

Distribution: In economics, how production, income or wealth is divided among individuals or among factors of production such as (labor, land, capital, workers) is called distribution. Describes the income distribution as a visible element in the future of any economy. Distribution of a product or service is one of the four pillars of marketing. Distribution is the process of delivering goods or services to customers for use or consumption.

CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS

Consumption is an important concept in economics and this concept is studied in many social sciences. Economists are very interested in the special relationship between consumption and income, which has resulted in the consumption function playing an important role in economics. In different schools of economics, production and consumption are defined differently. In general, according to most economists, only the final purchase of goods and services by individuals is considered as consumption, while other types of costs (such as fixed investment, medium consumption, and government spending) in There is a separate category.

REFERENCES

- 1: Dr. Asghar Askari Khaneghah, General Anthropology, page 1
- 2: Dr. Asghar Askari Khaneghah, General Anthropology, pages 2, 3.
- 3: Carl Jaspers. Socrates. Translated by Mohammad Hassan Lotfi. Tehran: Khorazmi Publications, 1979.
- 4: William Sahakian, Thoughts of Great Philosophers. Translated by Gol Baba Saeedi, Azad Mehr Publications.
- 5: William Sahakian, Thoughts of the Great Philosophers, pp. 54, 55, 56, 57, 58.
- 6: Omid Massoud, Anthropology in Classical and Modern Philosophy, Scientific Article, 2012.
- 7: د.و. Kamyov, Fundamentals of Theory of Work Economics, Moscow 1994.
- 8: Dr. Asghar Askari Khaneghah, General Anthropology, pp. 353,354.
- 9: Dr. Asghar Askari Khaneghah, General Anthropology, pages 355, 359, 360.
- 10: Dr. Asghar Askari Khaneghah, General Anthropology, pages 362, 363, 364, 365, 366.
- 11: <http://En.m.wikipedia.org/wiki/>

18: Jean-Jacques Rousseau

26: <http://Fa.m.wikipedia.org/wiki/>

27: <http://en.m.wikipedia.org/wiki/platonism>

28: <http://en.m.wikipedia.org/wiki/>

HISTORY OF ORIENTAL ODE

Khasanova Mashkhura Jumanovna
Teacher, Samarkand State University,
Doctor of Philosophy in Philology

Abstract: *The articles of the section discuss the origin of the genre of qasida, Arabic qasida (ode), the composition of genres, types and formation of qasida in Persian-Tajik literature.*

Keywords: *Samarkand, Temurid, second capital, Herat, Ulugh Beg Koragon, 30 poems, 3 hymns, husni matla, 22 bytes, Timurid prince Alovuddavla, Ahmad Lur, following byte, ode, memduh, Azerbaijan event, 30 years, Kasim Babur, the persons named Khalil, Sayid bin Sultan Khalil*

Аннотация: *В статьях раздела рассматриваются происхождение жанра касиды, арабской касиды (оды), жанровый состав, виды и формирование касиды в персидско-таджикской литературе.*

Ключевые слова: *Самарканд, Темурид, вторая столица, Герат, Улугбек Корагон, 30 стихотворений, 3 гимна, хусни матла, 22 байта, тимуридский князь Аловуддава, Ахмад Лур, следующий байт, ода, мемдух, Азербайджанское событие, 30 лет, Касим Бабура лица по имени Халил, Саид бин Султан Халил*

I. INTRODUCTION:

Ode is one of the most common and original genres of Eastern, in particular, Arabic poetry, it has a long and rich history. The genre of ode, like other genres in the literature of other peoples, such as epos, poem, epic, is considered a very large literary genre of Bedouin Arabs.

Ode is derived from the Arabic word “قصيد”, which means intention, aspiration [1, 821-822]. It is, in its lexical sense, a “filled great core” [2, 136]. As a literary term, it refers to a genre in which the lyrical type is not less than fifteen bytes, the first byte verses are rhyming with the second lines of the other bytes (such as aa ba and ga). It is not only a type of poetry that expresses the author's personal excitement and inner experiences, but also a work of art that broadly interprets great meanings, political and philosophical ideas through various artistic means [3, 22].

Academician I.Yu. Krachkovsky states that the poem appeared in Arabic poetry about 150 years before Muhammad (saas) [4, 251]; while in some sources the origin of the genre of poetry in pre-Islamic Arabic poetry was expressed by the poet al-Asha (570-629).) is emphasized by the name [5].

I.M. Filshtinsky states that the founder of the genre of poetry is Imruulqays [6, 30-33]. Sources on medieval poetics, dictionary books, say that poetic works are

mainly divided into three types, one of which is a poem. According to the order of rhyme, fard, rubai, ghazal, qita, etc., there are indications that they appeared on the ground of ode, that they are appearances of ode [7, 269-297]. In addition, comedy, lamentation, and descriptive poems also emerged from it as a result of the perfection of the ode genre. Because at the time the poem appeared, it was not intended to praise only one person in the genre. Poems were written both on the occasion of the death of a person and on the occasion of a comedy.

II. RESEARCH METHODS AND SOURCES

The current research is based on the comparative – historical classification methods. The main object of the study is the scientific materials.

III. RESEARCH RESULTS AND DISCUSSION

Oriental odes are of two types in composition. *Qasidai tom* (full ode), *qasidai mujarrada* (incomplete ode). The so-called *Qasidai tom* “nasib” (or *tashbib*) is a lyrical introduction, an expression from parts such as “*gurezgah*” (crossing, escape), “praise” and “prayer” to a praised event or person and “demand” representing need in the transition to “praise”. There may not be some of these parts in *Qasidai mujarrada*.

“*Nasib*” is often about love, and from this part of the ode the ghazal gradually separated [3, 16-23].

The “*Gurezgoh*” part of the ode genre, which appeared later, means to pass, to escape, and in the hymns of the hymn it serves to connect the introductory part to the main part. For example, the poet calls for justice, emphasizing that the beauty of a friend in a portion of a poem describes his oppression, to whom the verse is dedicated to go to the main part (if he is a king), that any oppression in his reign can be condemned. Here, the hymn of the person dedicated to the poem should be attached to the character. That is why the identity of the poet, his talent and level will be known in *Gurezgoh*. Because the trail must connect the two sides, which are almost different from each other, in such a way that this trail is not known at all, even if they are known to be a common organism. This part was first reflected in the poems of Kaab ibn Zuhayr [6, 60].

Then comes the third, main hymn of the ode. Tarazii says in the “praise” that there is any praise with any rhyme, remembers the honesty, courage, generosity of the mamduh (the person being praised) one by one, and emphasizes that it is up to the poet to do any of these more than four qualities [8, 75-78].

The poem usually ends with a “prayer” to the event or person being praised and the “demand” parts that represent the subject. Sometimes there may not be a “demand”. The scales say, “When a mamduhdin asks for something, he demands it.”

If he wishes for a good marriage, they will recite the Quran” [154, 79] so, after the praise, the poet's purpose is stated. Usually, the poet's nickname is reflected in this part of the prayer.

With the emergence of Islamic culture and literature, the meaning and content of the ode genre expanded further. That is, from that time onwards, praises to Allah and verses to Muhammad (saas) began to appear. The topics of the nasib section have also expanded. According to him, the verses refer to spring (spring image), iydiya (holiday image), sitoia (winter image), ramazaniya (Ramadan image), sayfiya (summer image), rakhshiya (horse image), bath (bath image); according to its radifs, water verse, suxan verse, flower verse, sunbul verse; According to their themes, monotheism (verses denoting the existence and oneness of Allah), munajat (verses written in supplication to Allah), na't (verses dedicated to the attributes of Muhammad (saas)), hymns (poems dedicated to someone), marsiya (the relation of one's death) poems written with (satire), comedy (poems written with humor to someone), orifona or mystical poems.

Kaab ibn Zuhayr, following the traditions of the ancient Arab poets, tried to “glue” the compositional unevenness of the ancient verse with the help of logical transitions. We talked about this above. He did not recognize Muhammad (saas) before and even fought with him and became wounded and sick. Then, on the advice of his brother, he went to the Prophet, confessing him, and presented his most famous poem dedicated to him, beginning with “Suaod has left me”. This pleased Muhammad (saas) and he presented the poet with his burqa. The poet then recovered from his illness, and his poem became known throughout the Muslim world as *Qasidai Burda*. [9, 176]

In the IX-XI centuries Persian-Tajik written literature was formed and developed. At the beginning of the tenth century, the centralized state structure by the Samanids accelerated this process. The Samanid dynasty's efforts to consolidate its power also played an important role in the transformation of Persian hymns into a political genre. In other words, the praise and high spirits of the hymn were the same for the Samanid government. Therefore, by the X-XII centuries, ode became the main genre in Persian-Tajik literature, and the ranks of ode writers expanded. The classical structure of this genre, the system of rhyme, has also been preserved [10, 36].

The first poet to write a poem in Persian literature was Abbas Marwazi, who, after the praise of the caliph Maamun when he came to Marv (809), said in a poem dedicated to him: “I was the first to recite such a poem” [10, 37].

In the XIII-XIV centuries, new changes took place in the form and content of the poem: the form became more complex and the content expanded. During this period, the masnu (ar. Created; decorated) form of the ode appeared. One of its greatest founders was Salmoni Sovaji (1300-1368). *Qasidai masnu* is a ode in which many arts are used, where the creator had to demonstrate all his craft, to master all the skills in the field of the art of expression, to know how to complicate, to use all of them. A characteristic feature of poems that express such complex word games is that they are hymns in terms of content. These features can be seen in the poems of Salmoni Sovaji [11, 22].

But this masnu form of the ode genre later became “art for art’s sake”, consisting only of form. Artificial expressions, dry word games, incomprehensible images only served certain groups.

The tradition of ode developed at the expense of perpetuating the names of the kings of the time. In the words of Nizami Aruzi Samarkandi, “the king has no choice but to have a potential poet who will immortalize his name and leave his remembrance among the devans and books! For, when the king receives the decree of an inescapable death, nothing will be left of his army, treasure, and valuables, only his name will be immortalized through the poems of the poets.

Sharif Mujalladi Gurgoni says:

Bu dunyoda Sosoniy, Somoniyar to'plagan,
Shuncha mulku ne'matdan nima qoldi bu zamon?!
Va lekin Rudakiyning qasidayu madhlari...

Briefly, ode is one of the most common and unique genres of Eastern poetry, which has a long and rich history. In particular, it is characterized by the fact that it is the basis for the emergence and formation of several literary genres, in particular, individual, rubai, and ghazal, continental.

The ode genre emerged within the Bedouin Arabs and covered a wide range of topics. After the emergence of Islamic culture, this genre took on a completely new look. Especially during this period, the classical form of ode (parts of nasib, gurezgoh, praise, demand and supplication) was established, praise be to Allah, praise be to Muhammad (saas); the activity of the Sufi movement, which emerged as a protest against the policies of the Arab Caliphate during the Umayyad and Abbasid dynasties, led to the formation of philosophical poems;

Ode appeared in full in first Persian and then Turkish literature through the weight of aruz and the Arabic language. In the IX-XI centuries, Persian-Tajik written literature entered its period of development, the centralized state structure by the

Samanids led to the emergence and development of Persian hymns, and the first Persian poem was written by Abbas Marvazi.

CONCLUSION.

1. Thus, before the introduction of Islamic culture, the genre served as a tool for the Bedouin Arab tribes, while Islam and its culture played an important role in improving the literacy of the genre. That is, the classical form of the genre (introduction, wandering, praise, requirement and supplication parts) was founded at that time. The activity of the Arab Caliphate as a protest to the policy of Umayyads and Abbasid dynasties has given rise to the formation of philosophical principles. The ode by means of aruz rhyme and Arabic were first used in Persian, then in Turkish literature [17, 951].

REFERENCES:

1. Baranov X.K. Arabsko-russkiy slovar. - M.: 1958, str. 821-822.
2. G'iyos ul-lug'ot. 2-jild. D.: Adib, 1988.
3. Abdullaev I. X asrda Buxoroda yozilgan qasidalar haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1962, №6, 16-23 betlar.
4. Krachkovskiy I.Yu. Izbrannyye sochineniya, t. – II. - M.: Akademii nauk SSSR, 1956.
5. <http://www.wikipedia.org/wiki/qasida>
6. Filshinskiy M. Arabskaya klassicheskaya literatura. -M.: Nauka, 1965.
7. Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. - T.: Fan, 2006, 273-bet.
8. Sheikh Ahmad ibn Khudoydad Tarazi. Funun ul-baloga // Uzbek language and literature, 2002, №1-6, 2003, №1-3.
9. Hannah al Faxuri. History of Arabic literature. G.I., ed. inost. lit. -M.: 1959.
10. Shomuhamedov Sh. A short course on the history of Persian-Tajik literature. Study guide. -T. 1987.
11. Ahmedov B. Davlatshoh Samarkandiy, T.: Science, 1967.
12. Ancient Turkish dictionary. Leningrad, 1969, p. 532.
13. Mahmud Kashgari "Divan lugat at-turk". 3 Volumes, Volume 1, UzSA Printing house, 1960, p. 123.
14. Mashkhura Khasanova. Gadoi's qasida and its devotion. International Journal of Word Art. 2018, vol. 3, issue 3, pp. 64-67
15. In the book: The nightingale radiance, Qutb Khorazmi, Tashkent, The printing house "Literature and Art" after G. Gulyam, 1986, pp. 335-339
16. Saifi Saroyi, Poems, Gulistan, The printing house of literary literature after G. Gulyam, T. 1968 p. 19

17. Khasanova Mashkhura Jumanovna. The role of praises in the development of turkic odes. Journal of Critical Reviews. ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 7, 2020
18. M. Khasanova. Gadoi`s qasida and its devotion. International Journal of Word Art. 2018, vol. 3, issue 3, pp. 64-67

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TO‘QIMA FRAZELOGIZMLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

Kurbonova Gulsara Sodikovna
O‘zMU filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
gulsara.qurbonovna@gmail.com
tel: (90) 9168423

Annotatsiya: Mazkur maqolada fransuz tilidagi to‘qima toponim komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari kalambur uslubiy vositalari asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: toponim, frazeologik etimologiya, milliy-madaniy, o‘zlashma, assosiativ bog‘liqlik, to‘qima toponim komponentlar, kalambur.

Аннотация: В данной статье национально-культурные особенности вымышленных топонимических компонентных фразеологизмов изучаются в основе стилистических каламбуров.

Ключевые слова: топоним, фразеологическая этимология, национально-культурная, заимствование, ассоциативная связь, вымышленные топонимические компоненты, каламбур.

Abstract: In this article, the national and cultural features of fictional toponymic component phraseological units are studied based on the stylistics calembour's.

Key words: toponym, phraseological etymology, national-cultural, borrowing, associative connection, fictional toponymic components, calembour.

KIRISH

Tahlilga tortilgan ikki til doirasida mavjud geografik toponimlardan tashqari yasama geografik nom bilan bog‘liq frazeologik birliklarni ham uchratishimiz mumkin. Bu guruhga kiruvchi aksariyat frazeologizmlar madaniy uslubiy vosita sanalgan kalambur yoki so‘z o‘yini yordamida hosil bo‘ladi.

Kalamburlarni tushunish uchun madaniy axborotni aslidagidek qayta tiklash zarur. Bunday to‘qima toponimlarning tabiiy toponimlardan farqi ob‘ektни tavsiflashdan iborat. Ko‘chma ma’no metafora hodisasi tufayli yuz beradi. Kalambur, turg‘un so‘z birikmasi yasovchilik xususiyatiga ko‘ra eng mahsuldor uslubiy vosita hisoblanadi. Kalambur oddiy so‘zlashuvda keng qo‘llaniladi, shuningdek, yozuvchilar asarlarida undan muhim obrazli va ekspressiv-emotsional ta’sirchan vosita sifatida foydalanishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Fransuz va o‘zbek tillaridagi to‘qima frazeologizmlarning chog‘ishtirma tahlili obyektiv ochib berildi. O‘zbek va Fransuz tillaridagi to‘qima frazeologizmlarning shakllanish davri tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Балли Ш. “Общая лингвистика и вопросы французского языка” nomli kitoblari mantiqiy izchillik va asosiy manba sifatida tadqiq qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Toponimlarning kalambur, so‘z o‘yini asosida yasaliş an‘anasi Fransiyada avvaldan mavjud. Kalamburning keng qo‘llanilishi milliy xarakterdan tashqari fransuz tilining “ruhi”ni, uning xarakterli “o‘ziga xosligi”ni ko‘rsatadi.

A.G.Nazaryan kalambur frazeologizmlarni uch guruhga ajratadi. Bular quyidagilar:

1. Frazeologizmlar, komponentlaridan birining ikki tomonlama ma‘nosi asosida quriladi (*passer l’arme à gauche*).

2. Frazeologizmlarning omonimik komponentlaridan birining o‘rni almashadi (*raisonner comme un tambour*, so‘zma-so‘z. *baraban singari fikrlamoq*; ma‘nosi: *noma‘qul gap aytmoq, bema‘ni gaplar gapirmoq*; *raisonner* (fikrlamoq), *résonner* (yangramoq).

3. Onomastik kalamburli frazeologizmlar atoqli otlar va nomlarning ikki ma‘noligi mavjud yoki o‘ylab topilgan ma‘nosi asosida qurilgan.

Ular orasidagi ikki xillikni ajratib ko‘rsatish mumkin:

a) frazeologik birlik so‘z va atoqli otning (ko‘pincha, antonimlar) ohangdoshligi asosida quriladi, ular, xususan, to‘qima birliklardir: *sainte Nitouche* – so‘zma-so‘z. Nitush; ma‘nosi: hazil, gap ko‘tarmaydigan odam, jizzaki (*Nitouche = n’y touche*) *café de sainte Claire* – so‘zma-so‘z. muqaddas Klara kofesi; ma‘nosi: uncha achchiq bo‘lmagan kofe (muqaddas Claire ismi clair(e) yorug‘ sifati bilan ohangdosh.

b) frazeologik birlik so‘z va toponim to‘qima toponimlarning o‘zaro ohangdoshligi asosida quriladi: *aller à Crevant* – (so‘zma-so‘z. Krevanga jo‘namoq) ma‘nosi: vafot etmoq. *Crever/o‘lmoq* fe‘lidan *Crevant* soxta toponimi hosil bo‘lgan; *aller à Niort* – (so‘zma-so‘z. Niorga jo‘namoq) ma‘nosi: qat‘iy rad etmoq. Fransuz departamentining bosh shahri Niort deb nomlanadi, ibora *nier/rad* etmoq fe‘lidan yasalgan [2, 238-239].

To‘qima toponimik frazeologik birliklar 4 ta guruhga bo‘lib o‘rganildi.

1. Toponimli frazeologik birliklar tarkibidagi toponimlar nafaqat o‘zining asosiy vazifasi (geografik ob‘ektni nomlash)ni bajaribgina qolmay, balki madaniy-tarixiy

yoki ijtimoiy-iqtisodiy axborot etkazish vazifasini ham bajaradi. Masalan, *Le rendez-vous de Samarkand* (soʻzma-soʻz.: Samarqandda uchrashuv, maʼnosi: taqdir bilan uchrashuv) toponimik frazeologizmi “Ming bir kecha” ertagiga aloqador ibora. Bogʻbonga ajal ertasi kuni jonini olgani bogʻga kelishini xabar qiladi, bu xabarni eshitgan bogʻbon shu kechasiyoq xoʻjayini bilan kelishgan holda Samarqandga qochib ketadi, biroq taqdirdan qochib qutilib boʻlmaydi, ajal bilan uchrashuv oʻsha aytilgan muddatda Samarqandda sodir boʻladi. *Une conduite de Grenoble* (soʻzma-soʻz.: Grenobl xulq-atvori) maʼnosi: qoʻpollik bilan eshik ortiga qoʻymoq. Ibora Lyudovik XIII ning Dofine provinsiyasining gubernatori marshal de Ledigeraga (1543-1626) tegishli, u Grenobldan aholisi bilan birga qutilgan boʻlib, shaharga ogohlantirishsiz kirib keladi.

2. Toponomik frazeologik birlik tarkibiga utopik falsafiy dunyoqarashni aks ettiruvchi okkazonal toponimlar qiradi. Masalan, *pays de Cocagne* – ertaklar mamlakati, farovon hayot va bekorchilik, erdagi jannat (soʻzma-soʻz.: Kokan mamlakati, shirinliklar mamlakati.) Birinchi marta bu ibora eski fransuz epik poemasi “Aymeri de Narbonne” (“Narbon Emerisi”) asarida qayd etilgan boʻlib, u joy hamma baxtli yashaydigan, er yuzidagi jannatni ifodalaydi. Uyning devorlari turli xil noz-neʼmatlardan qurilgan....daryoning bir tomonidan qizil vino, bir tomonidan oq vino oqadi; haftada uch marta issiqqina pirojniy yomgʻiri yogʻadi.... [3, 329].

3. Toponomik frazeologik birliklar soʻz oʻyini asosida quriladi: *Aller à Argenton* – (soʻzma-soʻz. Arjantonga joʻnab ketmoq) maʼnosi: pul ishlamoq. Argenton argent/pul soʻzidan hosil boʻlgan; *aller à Cachan* – yashirinmoq, Cachan se cacher/bekinmoq feʼlidan hosil boʻlgan); *aller à Montretout* (argo) – (soʻzma-soʻz. Montretuga joʻnab ketmoq) maʼnosi: shifokor koʻrigidan oʻtmoq. Montretout montre tout/barchasini koʻrsat soʻzidan yasalgan.

4. Toponomik frazeologik birlik tarkibida soʻz oʻyini haqiqatda mavjud joy nomlari bilan ishtirok etadigan topokomponent mavjud boʻladi. Masalan, teatr aktyorlarining professional tilida *aller à Rouen* – (soʻzma-soʻz.: Ruanga joʻnamoq) maʼnosi: tomoshabinlar hushtagiga uchramoq muvaffaqiyatsizlikka uchramoq. Ruan astionimining gʻildirak harakati nomi bilan ohangdoshligi (*Rouen/ suplice de/roue*)ga asoslangan. Bunday frazeologik birliklarni taʼriflashda A.G.Nazaryan *kalambur frazeologizmlar* [2,55-56] terminini qoʻllagan. Mazkur ibora tarixiy xotira va nutqiy xotiraning birikuvi natijasida paydo boʻlgan. *Aller à* + toponim konstruksiyali geografik kalamburlar yasalishi uchun fransuz tili juda sermahsul til sanaladi. *Aller à Versailles* – (soʻzma-soʻz.: Versalga joʻnamoq). qulamoq, zovurga

umbaloq oshib tushmoq, *Verser* (ag‘darmoq, qulatmoq) va Fransiyaning Versal shahri so‘zlari bilan kalambur qo‘llanilgan.

Fransuz tilida oronim, xoronim, oykonim va urbanonim komponentli o‘ylab topilgan frazeologik birliklar ham uchrab turadi: *marquis d’Argencourt* qashshoq, kambag‘al baron (so‘zma-so‘z.: markiz Arjankur). Idiomaning asosida Argencourt – to‘qima geografik nom va *à court d’argent* iborasining talaffuzi o‘xshashligiga asoslangan so‘z o‘yini yotibdi. *Marquis de la Bourse Plate* (bourse plate – o‘sh hamyon) iborasi ham o‘xshash so‘z o‘yini asosiga qurilgan; *pivois de Blanchimont* – (so‘zma-so‘z.: Blanshimon vinosi) oq vino. *Blanchimont* – *montagne blanche* so‘zidan to‘qilgan bo‘lishi mumkin. *Pivois* – vinon nomi, uning bunday atalishiga sabab, uzum g‘uddaga o‘xshaydi, dialektda bunday meva qarag‘ay g‘uddasi deb atalgan. O‘tmishda ko‘pgina qahvaxonalarda qarag‘ay g‘uddasi nomli yorliq osiqlik turgan. Boshqa tadqiqotchilar *pivois* bu sallagul, piongulning qizil rangiga qiyosan olingan, deb hisoblaydilar; *aller à Dormillon* – (so‘zma-so‘z.: Dormiyonga bormoq) ma‘nosi: uxlagani yotmoq. Dormillon so‘z o‘yini asosida qurilgan – dormir (uxlamoq) so‘zidan geografik nom to‘qilgan.

SHu tariqa so‘z o‘yini qilish fransuz frazeologiyasi uchun eng xarakterli belgilardan biridir. Bu so‘z o‘yininin o‘ziga xosligi fransuz tili va fransuzlarga xos milliy ruhiyatning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. SH.Balli ta‘kidlaganidek, “...so‘zlarning va bo‘g‘inlarning noto‘g‘ri bo‘linishi kalamburni hosil qiladi; ular, ayniqsa, fransuz tilida osongina paydo bo‘ladi. Bu esa tasodifiy emas, kalambur hosil bo‘lishining asosiy sababi qisqartirilgan iboralardir” [1, 141].

Fikrimizcha, fransuz frazeologiyasida geografik nom kalamburlari va so‘z o‘yinlari fransuzcha yumoru hazilga moyillik hisini yorqin aks ettiradi. Fransuz xalqining bu milliy xususiyati zamonaviy fransuz tilidagi kalambur (so‘z o‘yini) asosida qurilgan frazeologizmlarda aniqroq voqelanadi.

O‘zbek tilida kalambur toponimlar ikki xil usulda hosil bo‘ladi:

1) oronimlar nomi bilan: *Qo‘hi Qof* – etib borish mushkul bo‘lgan, kelib chiqishi etiqodiy tushuncha bilan bog‘liq afsonaviy tog‘. Bu so‘z ishtirokida hosil bo‘lgan frazeologik birliklar xalqning jonli tilida faol qo‘llanilishi bilan shu guruhga kiruvchi boshqa toponim komponentli frazeologizmlardan farq qiladi. *YOmon lof desa, ola Qof* deydi; *Qof* – butun er yuzini o‘rab olgan afsonaviy tog‘; *Turum tog‘i* abadiylik, doimiylik, barqarorlik ma‘nolarini bildiradi. U Arabistondagi *Turi sino* tog‘i nomidan yasalgan bo‘lishi ham mumkin. *YOtib eganga Turum tog‘i ham chidamaydi* [4, 111]. Varianti: *YOtib eganga tog‘ ham chidamaydi*.

2) anafor – fonetik uslubda, ya’ni so‘z boshida bir xil tovushning takrorlanishi natijasida hosil bo‘lgan hamda qofiya va uslubiy takror ohangdorlikka asoslanib yasalgan real nomlar bilan bog‘liq frazeologik birliklar: *YOmon somonxona kuydi desa, Samarqand kuydi, deydi; Otboshi, Arpa erinda horidi ot, Ot otang bo‘lsa, qoziqni qoq-da yot* (Hozirgi Qozog‘iston hududida Otboshi, Norin, Arpa degan joylar bor); *Oq qoptol ot Otboshi o‘tin o‘tlamas* (Otboshi – joy nomi. Otning egar, jazliq qo‘shiladigan – elkasi “qoptol” deyiladi) kabi alliteratsiya uslubiy hodisasidan foydalanib yasalgan. *YAxshi ot kelar Jizzaqdan, Qo‘shsa kelar uzaqdan*. Bunda Jizzax va uzoq so‘zlar qofiya va shevaga moslab *Jizzaq, uzaq* deyilgan. Jizzax o‘zining eng zotdor otlari bilan azaldan mashhur bo‘lib kelgan; *Xonqalining boyini, Xivalining kambag‘alini bilib bo‘lmaydi; SHovotdan sharillab o‘t; Kayvoni kerak bo‘lsa Gurlanga bor; Xonqaga manzirat qil* kabi iboralar shular jumlasidan.

XULOSA

O‘zbek tilida toponim komponentli frazeologik birlik tarkibidagi topokomponentlarning hosil bo‘lishida fonetik o‘zgarishlarning o‘ziga xosligi tilning milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon etadi.

Xulosa shuki, tilning frazeologik fondi, xususan, toponim komponentli frazeologizmlar madaniyat va xalq mentaliteti xususidagi eng qimmatli manba bo‘lib, ularda xalqqa tegishli bo‘lgan rivoyatlar, urf-odatlar, an’analar, diniy marosimlar, odat, axloq, xulq-atvor va hokazolar o‘z aksini topadi. Frazeologizmlarda hamisha xalq dunyoqarashi, o‘z davrining g‘oyalari, ijtimoiy qurilishi bilvosita tarzda aks etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 416 с.
2. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – М.: Высшая школа, 1987. – 288 с.
3. Скоробогатова Т.И. Французская фразеология в зеркале исторической памяти. – Ростов-на-Дону: Логос, 2009 – 212 с.
4. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш., Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий давлат энциклопедияси, 2001. – 448 б.

BRIEFLY ON THE LENS LANGUAGE AESTHETICS EMBODIED IN LITERARY AND ARTISTIC FILMS

Pang Mengning (逢梦宁)

Summary: In this paper, by watching a number of different literary and artistic films, and analyzing these films from the perspective of lens language combined with references and "audiovisual language", film and television art appreciation, aesthetics introduction, etc. The lens aesthetics.

Key words: Audiovisual Language, Spring River Plumbing, Balloon, Second Edition

Аннотация: В этой статье мы просматриваем ряд различных литературных и художественных фильмов и анализируем эти фильмы с точки зрения языка линз в сочетании со ссылками и «аудиовизуальным языком», оценкой кино- и телеискусства, введением эстетики и т. Д. .

Ключевые слова: аудиовизуальный язык, водопровод на весенней реке, воздушный шар, второе издание.

INTRODUCTION

This article mainly studies the lens language of literary films such as "Under the Sun", "Spring River Plumbing", "Balloon", and "The Train to Spring" to reflect the lens language aesthetics of the literary films. Of course, before studying the lens language and literature of literary films, we should first understand what a lens is? What is lens language? How does the lens language in the literary film reflect the sense of beauty? What is the aesthetic acceptance of lens language in literary films? In order to study the aesthetic expression of the lens language of the film, after fully studying the "Audiovisual Language", "Appreciation of Film and Television Art" and "Introduction to Aesthetics" and other courses, I have a partial understanding of the lens language of the literary film, and found that the literary film The aesthetics of lens language.

1. The lens of the movie

Sun Shengwei of Heilongjiang University mentioned in the article "The Aesthetic Study of Film Lens Language": "The lens of a movie is a carrier that takes vision as the main body and fully invokes people's audiovisual experience. Movies can be regarded as complete with numerous scenes. The most basic unit that constitutes this image is the lens of the film." [1] The book Audiovisual Language (Second Edition) written by Lu Shaoyang, Dean of the School of Journalism and Communication of Peking University, mentioned: "Lens refers to the camera. The entire image taken during the continuous period from power on to power off is the smallest unit of film narrative." [2]

On the other hand, in the vocabulary-related task, the participants are told that the vocabulary they learn will be tested and included in the score. The subjects are all students, so the score is undoubtedly an important factor related to the self. Participants associate the vocabulary task with their own scores, and the materials will be coded while being associated with themselves [24]. In essence, the self-reference effect is the expansion of the processing depth paradigm in the self-field. Self-reference processing is a "deeper" processing model than general semantic processing. Compared with general processing models, the self-reference processing mechanism is more complex and special. The ego is a highly refined structure. After activation, it

The memory material establishes connections with other information stored in the self structure. These connections can provide multiple channels for subsequent

memories [25]. At the beginning of intention formation, establish multiple channels for the target word memory, when the target word appears. At times, intention extraction is easier to achieve, thereby promoting forward-looking memory. According to the theory of organization and processing, the mechanism of self-referencing to improve memory lies in organization [26], in fact, it is the organization that promotes memory. Its role makes memory items directly connected, thereby optimizing the organizational structure of memory and achieving the effect of improving memory performance [27]. Organization refers to the "bundling" of many words together according to certain semantic standards, that is, the coding and processing of the relationship between a series of words, including the direct connection between words and the indirection between words belonging to the same category contact. For example, there is a direct connection between "student" and "teacher", but also an indirect connection due to the category of "people". The organization and processing of a series of vocabulary can strengthen memory in two aspects: First, in the process of organization, a series of codes between each vocabulary produce interconnected channels, which help the successful occurrence of extraction. Second, since the category name is also coded, the category name will play a clue when extracting. Self-referencing can classify all memory materials into different categories, such as classifying academic performance into the category of self-efficacy, which can promote the processing of the relationship between learning vocabulary [24]. Compared with the vocabulary without semantic correlation, the subjects often had a stronger "clustering effect" when learning the three semantically related vocabulary, and the formation of such a cluster was more helpful to improve the performance of prospective memory. This study confirms the rationality of the two processing mechanisms.

5 Conclusion

This study tried to explore the effect of self-referencing on prospective memory and the differences in gender. In addition, considering the correlation characteristics and the types of tasks in progress, it is hoped that the effect of prospective memory can be improved by certain means. The study found that when the memorized material is related to the self, the effect of prospective memory can be improved; the effect of the semantic connection between the self-related material is better than the unrelated material; when the task type is different, self-reference The effect on the effect of prospective memory will also change. Specifically, the effect of self-referencing in

the category classification task on prospective memory is better than the effect of self-referencing in token classification on prospective memory.

REFERENCES

- [1] Che Wenbo. History of Western Psychology [M]. Zhejiang: Zhejiang Education Press, 1998.
- [2] Lu Zhongyi, Du Jianzheng. Memory Psychology [M]. Beijing: People's Education Press, 2005.7.
- [3] Einstein GO, McDaniel M A. Retrieval processes in prospective memory: Theoretical approaches and some new empirical findings[C]. In: Brandimonte M, Einstein GO, McDaniel MA, eds. Prospective memory: Theory and applications. Mahwah, NJ : Lawrence Erlbaum Associates, 1996. 115-141.
- [4] Kvavilashvili L. (1992). Remembering Intentions: A Critical Review of Existing Experimental Paradigms. Applied Cognitive Psychology 6
- [5] Zhao Jinqun. Research on the characteristics, mechanism and application of prospective memory [D]. East China Normal University, 2002.
- [6] Einstein GO, McDaniel M A. Normal Aging and Prospective Memory. Journal of Experimental Psychology: Learning, Memory, and Cognition, 1990;16(4):717 -726.
- [7] Xie Qingfu. An experimental study based on the self-referential effect of event prospective memory [D]. Jilin University, 2009.
- [8] Rogers T B, Kuiper N A, Kirker W S. Self- Reference and Encoding of Personal Information .General of Personality and Psychology, 1977,35(9):677-688.
- [9] Zhou Aibao. A new perspective to explore the effect of self-reference_Based on the discovery under the new paradigm [J]. Science in China, 2001, 31(6): 537-5434.
- [10] Qi Jianli, Zhu Ying. The self-reference effect of Chinese college students' memory [J]. Shanghai: Psychological Science, 2002.
- [11] Chen Jianzhi, Lin Chao. The self-referential effect of accidental and explicit coding in college students[J]. Psychological Science, 2009, 04: 869-872.
- [12] Liu Xinming, Zhu Ying. The self-referential effect of memory [J]. Advances in Psychological Science, 2002, 02: 121-126.
- [13] Klein S B, Kihlstrom J E. Elaboration, organization, and the self-reference effect in memory. Journal of Experimental Psychology, 1986, 115(1): 26- 38.
- [14] Symous, CS, Johnson B T. The Self- Reference Effect in Memory: A Meta-Analysis. Psychology Bulletin, 1997, 121(3):371-394.

- [15] Klein S B, Loftus J. The Nature of Self-Reference Encoding: The Contributions of Elaborative and Organizational Processes. *Journal of Personality and Social Psychology*, 1988, 55, (1):5-11.
- [16] Zhang Lizeng, Ding Zhaoye. A review of prospective memory research [J]. *Journal of Shandong Normal University (Humanities and Social Sciences Edition)*, 2004, 04: 130-132.
- [17] Wang Yongyue. Attentional resource effect in the event-based prospective memory task[D]. Zhejiang University, 2005.
- [18] Zhang Zhi. An experimental study on the effect of transfer appropriate processing in prospective memory[D]. Zhejiang University, 2005.
- [19] Liu Wei, Wang Lijuan. The age effect of prospective memory [J]. *Psychological Science*, 2006, 05: 1174-1177.
- [20] Zhang Zhuoshi, Lin Danhua. The influence of cognitive styles on prospective memory under different background difficulties [A]. Chinese Psychological Association. The Twelfth National Conference of Psychology [C]. Chinese Psychological Association 2009:1.
- [21] Yang Hongsheng. The cognitive impact of cultural differences_ Yang Hongsheng[J]. *Psychological Science*. 2007, 30(4): 1002- 1005.
- [22] Educational Psychology, Chen Qi, Editor-in-Chief Liu Rude. Higher Education Press, Beijing, 2011.71-80.
- [23] Craik FIM & Tulving E. Depth of processing and the retention of words in episodic memory. *Journal of Experimental Psychology: General*, 1975, 104, 3, 268-294.
- [24] Rogers HI. Implicit memory: Retention without remembering. *The American Psychology*, 1990, 45, 1043-1056.
- [25] Ding Jinhong, Zhang Qin, Guo Chunyan. *Cognitive Psychology*. Beijing: Renmin University of China Press, 2010.
- [26] Klein S B, Kihlstrom J E. Elaboration, organization, and the self-reference effect in memory. *Journal of Experimental Psychology*, 1986, 115(1): 26-38.
- [27] Craik FIM & Tulving E. Depth of processing and the retention of words in episodic memory. *Journal of Experimental Psychology: General*, 1975, 104, 3, 268-294.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY VA UNIVERSAL XUSUSIYATLARI

Mirzaaxmedova Maxliyo Yo‘ldashevna

TDYUU. Xorijiy tillar kafedrası

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarning ikki tildagi milliy-madaniy va universal xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqolada mashhur yozuvchi va olimlarning maqollar ustida olib borgan ishlaridagi xulosalari va maqollarning inson hayotidagi o‘rni, ahamiyati keltirib o‘tilgan. Turli tillardagi maqollarni qiyoslab o‘rganganimizda, ular o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni aniqladik.

Kalit so‘zlar: maqol, Alisher Navoiy, Furqat, Zavqiy, Lutfiy, grammatika, qiyoslash,

Abstract: This article examines the role of “proverbs” in English and Uzbek cultures. In this article several ideas about proverbs and their peculiarities have been done by famous writes and researchers. This article will be useful in my own research as I develop a clear theoretical framework for the role of proverbs in in English and Uzbek cultures.

Аннотация: В статье рассматриваются национально-культурные и универсальные особенности двуязычных статей на английском и узбекском языках. В этой статье кратко излагается работа известных писателей и ученых над пословицами, а также роль и значение пословиц в жизни человека. Когда мы сравнивали пословицы на разных языках, мы выявили различия и сходства между ними.

KIRISH

Xalq yaratgan ma’naviy madaniyatning yaxlit bir butunligi bu albatta o‘sha xalqning maqollari hisoblanadi. Har bir halqning og‘zaki yoki o‘zma yodgorligini olib qaraylik, unda bani bashar xotirasida elas-elas saqlanib kelayotgan asotir-afsonalar, uzoq tarix qa’ridagi ibtidoiy tasavvur va tushunchalar, asr-asrlar davomidagi kuzatishlardan xosil bo‘lmish hayotiy hikmatlar qaymog‘i-insoniy tafakkur tajribasining in’ikosini ko‘ramiz. Ingliz va o‘zbek xalq maqollari ham ana shunday ming yillar ichida yig‘ilib, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan, xalq orasida aytilib, puxtalanib, avloddan avlodga eng yaxshi ma’naviy meroslardan biri bo‘lib o‘tib keladi. O‘tmishda yaratilib va ishlatilib kelinayotgan eng yaxshi maqollar, xalq donishmandlarining namunasi sifatida, hozir ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday maqollar va hikmatli so‘zlar har bir xalqning ma’naviy boyligining qimmatbaho xazinasini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari haqida qisqacha tahlil olib borildi. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиология, Кухарева Е. В. Типологически-универсальное и национально- специфическое в арабских пословицах и поговорках nomli o'quv qo'llanma metodologik manba bo'lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alisher Navoyi, Bobir, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Lutfiy kabi shoir va yozuvchilar xalqqa tushinilishi oson bo'lsin deb xalq ijodidan samarali foydalanganlar. YOzuvchi M.Gorkiy ham maqqollarga yuksak baho berib: "Eng ulug' donolik so'zning soddaligidadir. Maqollar va qo'shiqlar har vaqt qisqa bo'ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo'ladi" degan edi.

Maqollarni chuqurroq tahlil etish va ularning turli tillardagi milliy-ma'daniy hamda umumbashariy qadriyatlarini aks etishi orqali o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammosi bo'lib kelmoqda. Qiyoslab o'rganadigan bo'lsak, dunyodagi barcha tillar o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin va aynan shu fenomen turli tillarni bir-biridan ajratadi. Lekin shu narsa ma'lumki, til o'rganuvchilar o'ziga begona bo'lgan tilni ona tili va shu til o'rtasida ma'lum bir bog'liqlik asosida o'zlashtiradi. Bu tillar ma'lum bir kategoriyalar ostida birlashadi. Bu kategoriyalarda grammatik kategoriyalar, leksik-semantik kategoriyalar, funksiyanal kategoriyalarga o'xshagan lisoniy belgilar kiradi. Demak, umumlashtiruvchi kategoriyalar tillardagi universallikni ta'minlaydi. SHu asnoda, maqollar har bir tilda uchraydigan o'ziga xos til birligi ekan, ularda ham umumiylik mavjud. SHu haqda G. L. Permiakov quyidagicha fikr yuritadi: holatlarni umumiyashtirish xususiyati ya'ni bir xil yoki o'xshash holatlarni birlashtirish turli xalqlar maqollarida uchraydi. Maqollardagi shu bir xillik universallikni ta'minlaydi va ko'p holatlarda alohida mantiqiy ma'noga ega bo'ladilar. Bundan kelib chiqadiki, maqol dunyosi jahon sivilizatsiyasi bilan bog'liqdir, uni faqat bir millatga tegishli deyish mutlaqo noto'g'ri. Maqollardagi universallik paremiologiyaning asosiy qirrasini bolib, u maqollardagi o'xshash va bir xil xolatlarni umumlashtiradi va hatto qarindosh bo'lmagan tillarda, ularning tarixiga, etnosiga qaramay uchraydi¹.

SHuni aytib o'tish kerakki, ko'plab maqollarning har xil tillardagi shakllarida ham shaklan, ham ma'no jihatdan yoki umumiy bajarayotgan funksiyalaridan

o'xshashlik topsa bo'ladi. O'zbek tilidagi ayrim maqollar ingliz maqollariga funksional jihatdan mos keladi. Masalan, **First think, then speak** maqolini o'zbek tilidagi muqobil varianti **Avval o'yla - keyin so'yla** maqoliga to'g'ri keladi, chunki bu maqol har ikkala tilda aynan bir xil ma'noga ega hamda uning grammatik tizimi ham ancha yaqin.

SHu bilan birga, ma'lum bir tildan ikkinchi tilga berilgan o'girishlarda maqollarning aynan o'xshashini topish qiyin bo'ladi. SHunda izohlarga yoki ikkinchi bir adekvat variantga murojaat qilinadi. O'zbek tilidagi maqollarning ingliz tilida yoki ingliz tilidagi maqollarning o'zbek tilidagi muqobil variantini topish ancha mushkul, bu borada maqollarga o'rni kelganda izoh berib o'tish tarjimaga putur etkazmaydi balki uni to'ldiradi va boyitadi.

So'zlaguvchi nodon bo'lsa, eshitguvchi dano bo'lsin maqolinining aynan nusxasi inglizchala yo'q bo'lgani holda bu maqolni uning yaqinroq ekvivalenti bilan berish mumkin. Lekin uni **If speaker is fool listener should be wise** deb tarjima qilinsa uning o'zbekcha qoloriti saqlanib qoladi va bu hammaga tushunarli bo'ladi. Xuddi shu so'zlarni **Qassob moy qayg'usida, echki - jon qayg'usida** maqoliga ham qo'llab uni **The butcher grieves for bacon, and the goat - for its life** qabilida berilsa ma'qul bo'ladi. Qizi borning nozi bor maqolini ingliz tiliga **Who has a daughter that has a whim** qabilida berilsa Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o'zbek urfodatlaridan bexabar ingliz o'quvchisi uni butunlay tushunmasligi mumkin. Ingliz tiliga uni **Parents of the bride may be capricious (they can expose their own terms)** deb ag'darishdan boshqa chora yo'q. Boshqa yo'li: bu maqol mazmunini beruvchi boshqa maqol topish lozim deb hisoblaymiz.

Bir-birlariga ma'no va stilistik vazifa jihatlaridan mos bo'lib, so'z tartibida kamdan-kam mos bo'lsa, sonda kamdan-kam farq qiladilar, leksik tarkib jihatidan farq qiladigan muqobil variantlar. Ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalmilaldirdar. Ular shakli bilan o'zlarining muayyan milliy tilga mansubliklarini tasdiqlasalar, mazmuni bilan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi mahsuli ekanliklarini namoyon qiladilar.

Pigeon's milk	Anqoning urug'i
Every dog is a lion at home	Har kim o'z uyida bek
All bread is not baked in one oven	Besh qo'l baravar emas
No pleasure without pain	Gul tikansiz bo'lmas

Biror kamyob, kimmatbaxo, orzu qilib etib bo'lmaydigan narsani inglizlar «Pigeon's milk» (kabutarning suti), ruslar «Ptiche moloko» desalar, o'zbeklar «anqoning urug'i» (afsonaviy qush tuxumi) deydilar. Aslzoda jamiyat vakillari

inglizlar va ruslar nazarida «Blue blood» (zangori kon), «Golubaya krov» hisoblansalar, o‘zbeklar tasavvurida «Ok suyak»dirlar. Odamlardan allaqachon barchaga ma’lum sirni yashirishning bexudaligini obrazli ifodalash uchun ruslar «SHila v meshke ne utonesh» maqoliga murojaat qilsalar, o‘zbeklar ushbu o‘rinda «Oyni etak bilan yopib bo‘lmas» maqolidan foydalanadilar. «Hamma odam bir xil emas» tushunchasini inglizlar obrazli tarzda «All bread is not baked in one oven» (barcha non bir tandirda yopilmaydi), o‘zbeklar «besh qo‘l baravar emas» deydilar.

Ma’lumki har bir xalq o‘z e’tiqodi, milliy hususiyati, o‘ziga xos fantastik obrazlari, turli tuman ko‘chma manoli birikmalari uchun asos qilib olingan misollari bor.

SHu kabi V.SHekspir asarlaridagi maqol va matalarda ham yuqoridagi jihatlar o‘z ifodasini topgan. Tillardan tillarga tarjima qilish mumkinligini asoslaydigan narsa jaxon xalqlari garchi turli tuman tillarda so‘zlashsalar, ammo ularning taffakkur qonunlari bir xildir.

V.SHekspir asrlaridagi maqol va matallar ham o‘z davri turmushining xalq taffakkuri asosida yuzaga degan tushunchalarni o‘zida mujassam qiladi.

E. V. Kuxareva arab va rus maqollari bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, shunday xulosa qiladiki, aksariyat maqollar mavzu va xolatlarga nisbatan umumiylikka ega ekan. Bu umumiylikni paremiologlar turlicha asoslar ekanlar: bir guruh olimlar maqollardagi o‘xshashlikni etnik kelib chiqish va qarindoshligi bilan asoslasa, boshqa olimlar yangi maishiy va ma’daniy aloqalarning kirib kelishi va qabul qilinishida deydilar, uchunchi guruh olimlari esa tarixiy rivojlanish pog‘onalari natijasi va g‘oyalar uyg‘unligida deb asoslaydilar.

“Universaliya” atamasi lotincha “universalis” so‘zidan olingan bo‘lib, “umumiy”, degan ma’nolarni anglatadi va u deyarli barcha tillardagi xususiyatlarni qamrab oladi. Universaliyalar ikki ko‘rinishda bo‘ladi: deduktiv universaliyalar – shunday til xususiyatlariki, ular barcha tillarda uchraydi va aniq ifodalanadi. Bularga asosan gaplarning har xil strukturaviy turlarining ishlatilishi kiradi; induktiv universiyalar esa deyarli barcha mashhur tillarda mavjud. Xulosa qilib shuni izohlaydiki, maqollar ta’rifi barcha xalq madaniyatiga mos kelishi va ularni qoniqtirishi kerak ekan². Masalan: **Love and cough cannot be hidden – Muhabbat va yo‘talni yashirib bo‘lmaydi va Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi** maqollari turli madaniyatga xos bo‘lsa ham, ya’ni biri ingliz milliy madaniyatiga va ikkinchisi o‘zbek milliy madaniyatiga oid til birikmalari bo‘lsada, ulardagi mantiqiy mazmun deyarli bir xil ya’ni **kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi**. Turli til va milliy madaniyatdagi universallik esa yuqoridagi maqollarda ochiq ko‘rinib turibdi.

K. Y. Alibekov shuni ta'kidlaydiki, hozirgi kunda maqollar faqatgina xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida emas, balki lingvomadaniyatning birligi sifatida o'rganilmoqda. U "sog'liq" va "gigiena" konseptlarini rus, o'zbek va qozoq tillarida qiyoslab o'rganib, shunday xulosaga keladiki, rus madaniyatida "sog'lik" va "gigiena" konseptlari qimmatbaho zaruratni kasb etsa, o'zbek va qozoq tillarida bu konseptlar boylik bilan tenglashadi. Bo'ndan ko'rinib turibdiki, uch xalqning milliy madaniyatida mazkur konseptida bir-biriga deyarli yaqin ma'nolarni anglatadi ³.

K. Tumanishvili maqollar – bu millatning tarixiy o'y-fikrlari natijasi bo'lib, ularni ma'lum bir guruhning "avtobiografik" xotirasi deb nomlaydi. Maqollar milliy shakl namunalari bo'lib, millat ongida uyg'unlikda va milliy fikrlash tizimi asosida joylashgandir. Bu esa etnik guruhning qirralarini tabiiy ravishda namoyon etadi. Va genetik axborot natijasida quriladi ⁴.

Demak maqollarning universal va milliy xususiyatlari egaligi haqida ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Universal xususiyatlar maqollarning tuzilishida, bir ma'noviylik va ko'p ma'noviylikligida hamda mavzularida namoyon bo'lsa, buning sababi tarixiy rivojlanish, xalqaro aloqalarning kuchayishi va umumbashariy qadryatlarning o'sishi hisoblanadi. Milliy xususiyatlar – milliy fe'l-atvor, milliy ruh aksi bo'lib, muayyan bir etnosga tegishli xususiyatlardir. Muayyan bir etnosning yashash joyi, tarixi va milliyliigi kabi zaruriy qirralarini bilmasdan turib, uning maqollari mag'zini, ma'nosini tushunish mutlaqo mumkin emas.

Maqollar xushyor bo'lishga, do'stni dushmandan farq qilishga, insonparvar, xushfe'l, shirin so'z, sadoqatli bo'lishga, ota-ona, qarindosh-urug' va do'stlarni qadrlashga, kattalarni xurmat qilishga, kichiklarga nisbatan shafqatli bo'lishga o'rgatadi: "YAxshi bilan yursang etarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga", "Hurmat qilsang hurmat ko'rasan". Insonni tozalik va sog'likga chaqiruvchi maqollar qisqa va sodda so'zli bo'lib, ammo chuqur, teran ma'noli va ayni maqsadga yo'naltirilgandir: "Ko'zing og'risa qo'lingni tiy, iching og'risa nafsingni tiy!", "Odam – po'latdan qattiq, guldin nozik", "Sihat tilasang, ko'p ema, izzat tilasang, ko'p dema!", "Pokliging-sog'liging" kabi maqollar xalqimizda keng tarqalgan bo'lib eng yaxshi ma'naviy meroslarimizdandir. SHunday ekan, milliy istiqloq g'oyasini yoshlar ongiga singdirishda, ularni barkamol avlod etib tarbiyalashda talabalarga tushinilishi oson bo'lsin deb dono fikrlarni o'z ichiga olgan maqollar bilan suhbatlarimizni bezash va samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиология. – Москва, 1988
2. Кухарева Е. В. Типологически-универсальное и национально-специфическое в арабских пословицах и поговорках. Ч.2.- М.: РУДН,2003.
3. Алибекова К. Е. Обучение трюкоязычных студентов медицинской лексике и пословицам русского языка с базовыми концептами “здоровье”, “гигиена”. –Ташкент, 2006.
4. Tumanishvili. The specific and the Universal in the Proverb Genre / Rustaveli Institute of Georgian Literature. Volume1, 2007.
5. Mirzaev T. O‘zbek xalq maqollari.- Toshkent: SHarq, 2012.
6. Yuldashevna, M. M. (2019). THE INTERPRETATION OF THE CONCEPT" KNOWLEDGE" IN ENGLISH LITERATURE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(10).
7. Maxliyo, M. (2019). REVIEW OF THE SCIENTIFIC TRANSLATION PROBLEM. So‘z san’ati xalqaro jurnali, 1(5).
8. Surmanov, S., Tuyevna Akobirova, S., & Alisherovna Rasulmukhamedova, U. (2020). PECULARITIES OF IMPLICITNESS IN ARTISTIC TEXT. Theoretical & Applied Science, 2, 158–161.
9. Dilsuz, Z. (2019). EFFECTIVE TEACHING OF THE ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE COMMUNICATIVE-CUMULATIVE METHOD IN THE PROCESS OF EDUCATION USING MODERN TECHNOLOGIES. So‘z san’ati xalqaro jurnali, 1(5).
10. Bazarova N. et al. The basis of the word “heart” to become a poetic image //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2019. – T. 11. – №. 7. – S. 982-991

MILLAT RUHINI UYG'OTGAN INSON MANGU YASHAGAY

Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiy fanlar fakulteti

IBAO'M yo'nalishi II bosqich talabasi

Salimov Muxtor Ali Maxmayoqub o'gli

Annotatsiya: *Hozirgi kunda jamiyatimiz a'zolarida ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola shu masalani yoritishga bag'ishlanadi.*

Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda ,hozirda dunyo miqyosida 6000 dan ortiq turli xil tillar mavjud.Shu tillarning yuzaga kelishi , rivojlanishi, shakllanishi ma'lum bir shaxslarga bog'liqdir.Shu qatorda butun umrini turkiy tilni yuzaga keltirish, mavqeyini ko'tarish, turkiy til imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, davlatchilik asoslarini mustahkamlash, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishda beqiyos darajada o'z o'rniga ega bo'lgan ulug' mutafakkir , shoir, davlat arbobi, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiydir. U ikki tilda ijod qilgan . Dunyoda birinchi bo'lib turkiy tilda samarali faoliyat yuritib turkiy tilning juda boy til ekanligini , uning imkoniyatlari cheksiz ekanligini isbotlagan.

Kalit so'zlar: *Davlat arbobi Alisher Navoiy, Navoiy hayoti va ijodi, Navoiy nomini abadiylashtirish.*

Abstract: *One of the most important issues in our society today is to learn about the life and work of the great poet and thinker Alisher Navoi. This article addresses this issue.*

Scientists estimate that there are more than 6,000 different languages in the world today. The emergence, development and formation of these languages depend on certain individuals. In addition, the creation of the Turkish language throughout its life, raising its status, the Turkish language Alisher Navoi is a great thinker, poet, statesman, sultan of ghazal property, who has an incomparable place in the recognition of his potential in the world, strengthening the foundations of statehood, determining the criteria of truth and justice in society. He created in two languages. He was the first in the world to prove that the Turkic language is a very rich language and its possibilities are endless.

Keywords:

KIRISH

Hazrat Mir Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirotda tavallud topgan . Uning she'riyatga bo'lgan qiziqishi va iste'dodi juda erta uyg'ongan, o'tkir zehni bo'lganligi tufayli yoshligidayoq Farididdin Attorning “ Mantiq ut-tayr ” asarini , buyuk muhaddisimiz Buxoriy hazratlarining olti mingdan ziyod hadisi shariflarini

yod bilgan , zamonasining ulug' kishilaridan bo'lmish Sharafiddin Ali Yazdiyning e'tiborini qozongan va nazariga tushgan, Movlono Lutfiy yosh shoirning iste'dodiga, qobiliyatiga yuqori baho bergan , Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Millat ruhini uyg'otgan Mir Alisher Navoiy hayot faoliyati haqida tahlil olib borildi. O'zbek she'riyatining shakllanish davri tarix nuqtatayi-nazaridan tahlil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hayotining katta qismini Hirotida o'tkazgan Alisher Navoiy butun umri davomida boshqa ulug' kishilar qatorida haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davrida nohaqlikka , adolatsizlikka, kamsitishga qarshi kurashadi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etadi, o'jiz va yordamga muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oladi. Sulton Husayn Boyqaro podshohlik qilgan davrda Alisher Navoiy hukumatda bosh vazirlik darajasigacha ko'tarildi. Ayni paytlarda mamlakda tinchlik va osoyishtalik o'rnatiladi, hech bir mamlakatga bosqinchilik yurishi qilinmaydi, madaniyat va san'at yuqori darajada rivojlanadi, shaharlarda savdo-sotiqqa , hunarmandchilikka katta ahamiyat beriladi. Qishloqlarda yashaydigan kishilarda dehqonchilik madaniyati o'sib boradi. Hirot kundan-kunga obod bo'lib, gullab yashnaydi. Alisher Navoiy ko'proq xalqni o'ylaydi, xalqni g'amini yeydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki , Tarixchi Xondamirning qayd qilishicha , 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotida va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa , 40 ta robot , 17 masjid , 10 ta xonaqoh, 9 ta hammom , 9 ta ko'prik , 20 ga yaqin hovuz qurgan va ta'mirlatirgan . Ular orasida Hirotidagi " Ixlosiya " , " Nizomiya " madrasalari , " Xalosiya " xonaqohi , " Shifo'iya " tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan " Dorul-huffoz " binosi , Marvdagi " Xusraviya " madrasasi , Mashhaddagi " Dorul-huffoz " xayriya binosi va boshqa noyob me'morchilik yodgorliklari , obidalari mavjud.

Alisher Navoiy juda serqirra va samarali ijod qilgan ijodkor bo'lgan . Shu sababdan ham uning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin: 1. Devonlar. 2. Dostonlar. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlar.

Alisher Navoiyning asosan " Xazoyin ul-maoniy " , " Ilk devon " , " Badoe' ul-bidoya " , " Navodir un-nihoya " kabi devonlari mavjud. Ushbu devonlarda shoir hayotining ma'lum bir davrlarida yozgan g'azallari, qit'alari, tuyuq , fard, muxammas

va boshqalar joy olgan bo'lib, hayotning turli xil mavzulari o'z aksini topgan. Ulardan eng yirigi "Xazoyin ul-maoniy" bo'lib, unda yuqoridagi uch devonga kirgan hamda "Navodir un-nihoya" devoni tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzaga kelgan. "Xazoyin ul-maoniy" dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g'azal, umuman 4 devonda 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje'band, 4 mustazod, musamman, tarkiband, qasida, masnaviy, soqiynoma mavjud bo'lib, Sharq she'riyatining 16 turini o'zida namoyon etgan.

Navoiy ijodida "Xamsa" asari tarkibidagi dostonlar va "Lison ut-tayr" kabi dostonlar joy olgan. "Xamsa" asari 5 ta dostonidan iborat. Bular "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlaridir. Ushbu asar 52 ming misradan iborat. Ushbu asarning xamsa darajasiga ko'tarilishi uchun dostonlar ma'lum bir mavzular doirasida bo'ladi. Shuning uchun ham, Navoiyning "Xamsa" asaridagi dostonlar: "Hayrat ul-abror" falsafiy-ta'limiy mavzuda, "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" ishq qissalari mavzusida, "Sab'ayi sayyor" ishqiy –sarguzasht mavzusida, "Saddi Iskandariy" esa qahramonlik mavzusidagi dostonlardir. Shoir o'zining o'zbek adabiyotida "Navoiy", fors adabiyotida esa "Foniy" taxallusi bilan ijod qilgan. U fors adabiyotidagi xamsachilikka javob sifatida o'zbek tilida birinchi marotaba "Xamsa" asarini yaratdi va bu tilning cheksiz imkoniyatlarini amalda isbot etdi.

Shoir qalamiga mansub bo'lgan ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy mavzulardagi ijod namunalari alohida o'rin egallaydi. Bular sirasidan tarixiy mavzuda "Tarixi mulki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo" kabilar, aruz vaznida "Mezon ul-avzon", ijodkorlar haqida ixcham ma'lumot va ayrim asarlardan namuna keltiriladigan to'plam "Majolis ul-nafois", lug'atshunoslikka oid "Sab'at-u abhur" kabi asarlar mavjud. Shoirning yuqorida nomi keltirilgan asarlardan tashqari juda ko'p asarlari dunyo yuzini ko'rib maydonga kelgan. Navoiy ijodining eng sermahsul yillari so'nggi 50 yil bo'ldi. U umrining oxirida "Mahbub ul-qulub" asarini yuzaga keltiradi.

Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda vafot etdi.

Navoiy xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk so'z san'atkoridir. Uning har bir asarida yuzaga chiqarmoqchi bo'lgan muammolar, masalalar, g'oyalar, ayni davrdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy holat haqidagi fikrlari kishilar xotirasida muhrlanib, o'chmas iz qoldirgan. U asarlari yordamida millatni, xalqni ruhini uyg'otmoqchi bo'lgan, shundagina Navoiy ko'zlagan maqsadiga erishardi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda buyuk adabiyotshunos va ilmiy me'rosimizning asoschilarini asarlarini o'rganib tahlil qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2021-yilda Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi keng ommani jalb qilgan holda tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i barpo etildi va bu bog' o'rtasida shoirning salobatli haykali qad ko'tardi. Shoirning 20 jildli mukammal asarlar to'plami nashr etildi. Toshkentdagi Davlat kutubxonasi, O'zbekiston fanlar akademiyasi, Til va adabiyot instituti, Toshkentdagi Katta opera va balet teatri, Toshkentdagi metro bekati, o'nlab ko'chalar va boshqa majmualar uning nomi bilan atalgan. Mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasi yuksak darajada e'zozlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy nomini yanada abadiylashtirish maqsadida prezidentimiz tomonidan barcha turkiy xalqlar uchun birdek amal qiladigan Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro mukofotni joriy etish taklifi ilgari surilmoqda. Shunday ekan, Alisher Navoiy – mangu barhayot.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Alisher Navoiy haqida. Tafakkur.net
2. Adabiyot 7-sinf darslik. Sharq nashriyoti .2017-yil. 168-172 betlar.
3. Pulatov Sh.N. Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
4. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
5. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
6. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
7. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
8. Sulaymonov, J. Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

RESPUBLIKAMIZDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Quvvatov Jobirbek Zokirjon o‘g‘li
(*Qar M I I talaba*)
jobirbekquvvatov@bk.ru

Annotatsiya: Respublikamiz arid zonada joylashganligi sababli suv resurslari notekis taqsimlangan. SHu sababli yurtimizda suv resurslari etarli emas va suvdan oqilona foydalanish talab etiladi. SHuning uchun suvdan samarali foydalanish ko‘pgina muammolarni hal etadi. Buning uchun biz suv tejankor usullardan foydalanishimiz, chiqindi va yaroqsiz suvlardan samarali foydalanish yo‘llarini topib qo‘llashimiz maqsadga muvofiqdir.

Kalit so‘zlar: Ekin maydonlari, suvni tejash, oqava suvlar, suv tejankor usullar, muammolar, daryolar, tomchilatib sug‘orish, suvning qiymati.

Abstract: Due to the arid zone of the country, water resources are unevenly distributed. Therefore, our country does not have enough water resources and requires rational use of water. Therefore, efficient use of water solves many problems. To do this, we need to use water-saving methods, find ways to use waste and wastewater efficiently.

Keywords: Arable land, water conservation, wastewater, water saving methods, problems, rivers, drip irrigation, water cost.

Аннотация: Из-за засушливой зоны республики водные ресурсы распределены неравномерно. Поэтому в нашей стране не хватает водных ресурсов и требуется рациональное использование воды. Таким образом, эффективное использование воды решает множество проблем. Для этого нужно использовать водосберегающие методы, найти способы более эффективно использовать отходы и сточные воды.

Ключевые слова: пашня, водосбережение, сточные воды, методы водосбережения, проблемы, реки, капельное орошение, стоимость воды.

KIRISH

Respublikamizda suv resurslari cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, uni tejashga kam e’tibor berilayapti, natijada suvning ko‘p qismi bekorga sarf bo‘lmoqda. Deyarli barcha iste’molchilar doimiy ravishda me’yordan ko‘p suv olishga harakat qiladilar. Bu esa ekin maydonlarida er osti suvlari sathining ko‘tarilishiga, erlarning qayta sho‘rlanishiga olib kelmoqda. O‘z navbatida sho‘rni yuvish uchun yana katta miqdorda suv sarflanib, natijada sug‘oriladigan erlarda hosil bo‘ladigan qaytarma suvlar miqdori ham ortmoqda. SHundan ko‘rinib turibdiki, sug‘orishda suvni tejashning katta imkoniyatlari mavjud. Bunga, avvalo, kanallar o‘zanini betonlash,

nov (lotok)lardan foydalanish yo'li bilan sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsientini oshirish, hamda sug'orishning ilg'or usullarini qo'llash bilangina erishish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Respublikamizda suv resurslaridan foydalanishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha tahlil olib borildi. Rozanov N.P. Gidrotexnika inshootlari kitobi metodologik manba nuqatayi-nazaridan tahlil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Suv resurslarini kamayishdan saqlashning asosiy rezervlaridan yana biri sug'orishda qaytarma suvlardan unumli foydalanishdir. Respublikada bu suvlar asosan ekin maydonlaridan, sanoat korxonalaridan va maishiy- kommunal tarmoqlardan qaytgan suvlardan tashkil topgan bo'ladi. 1956-1980 yillar mobaynida tabiiy botiqlarga oqizilgan qaytarma suvlar hajmi 77,1 km³ ni tashkil etgan.

Keyingi yillarda daryolar, ko'llar, suv omborlarining suvi unga sanoat va shaharlar oqava suvlarining, ekin maydonlarida hosil bo'ladigan qaytarma suvlarning qo'shilishi natijasida keskin yomonlashib ketdi. Bu jarayon ayni paytda quyidagi sabablarga bog'liq holda yanada jadallashmoqda va xavfli tus olmoqda.

1. SHahar xo'jaligining va sanoatning, ayniqsa, uning ximiya va metallurgiya tarmoqlarining suvga bo'lgan talabi ortmoqda, va tabiiy suvlar ifloslanishining manbai bo'lgan oqava suvlar ham ko'paymoqda.

2. Oqava suvlarni daryo va ko'llarga oqizish tabiiy suv manbalaridan foydalanishning bir turi deb qaraldi. Ayniqsa, daryolar ifloslangan oqava suvlarni yo'q qilishda o'ziga xos tabiiy inshoot deb qabul qilindi. Ko'pchilik hollarda suvni sun'iy tozalash inshootlarini qurish tugallanmay turib, sanoat ob'ektlari ishga tushirib yuborilmoqda.

3. Oqava suvlarni sun'iy tozalashning hozirgi kundagi imkoniyatlariga ortiqcha baho berilayapti.

4. Ayrim mutaxassislar, olimlar tomonidan "tabiiy suvlar ifloslanishining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan me'yori" degan noto'g'ri nuqtai-nazar ishlatilmoqda. Hozirgi kunda "bu yo'nalish suvning ifloslanishini chegaralaydi", deb qarash o'zini oqlamaganligi hammaga ma'lum bo'lib qoldi.

5. Tabiiy suv manbalariga ekin maydonlaridan chiqqan suvlarning oqizilishidir.

6. Suv tejamkor usullardan foydalanmasdan sug'orishni tashkil etish.

Hozirgi kunda Respublikamizda eng dolzarb masalalardan biri suvni sifat jihatdan muhofaza qilishdir. Bu muammoni hal etishda ko'pchilik olimlar qaytarma va oqava suvlarni tozalashni asosiy yo'l deb qaramoqdalar. Lekin, bu yo'l juda

murakkab bo‘lib, qimmatga tushadi. Ikkinchidan, eng takomillashgan sun‘iy tozalash inshootlari ham suvni to‘la tozalashga imkon bermaydi. Suvni 80-90 foizi tozalash etarli darajada takomillashgan deb qabul qilinadi. Bu holda 10-20 foiz o‘ta chidamli ifloslantiruvchi moddalar yana suv tarkibida qoladi.

Bu asosiy masala esa bir qancha choralar tizimini o‘z ichiga oladi. Ular oqava suvlarni daryolar, ko‘llar, suv omborlariga oqizishni iloji boricha kamaytirishga, ayrim hollarda esa to‘la to‘xtashishga qaratilgandir. Faqat shu yo‘lgina masalani tubdan hal qilishga imkon beradi, toza suvni tashlandiq suvga aralashtirishdan xalos etadi. SHu yo‘l bilan tabiiy suvlarning sifatini yaxshilash va ularning miqdorini ko‘paytirish mumkin, chunki bunda butun daryo suvi toza bo‘lib, iste‘mol uchun yaroqli bo‘ladi, toza suv hajmi bir necha marta ortadi.

Suv resurslaridan foydalanishdagi muammolarni bartaraf etish. Suv resurslaridan foydalanishdagi muammolarni bartaraf etish uchun ko‘pchilik olimlarning fikricha, quyidagi chora-tadbirlarni nazarda tutish lozim:

1. SHaharlarning oqava suvlaridan dehqonchilik, asosan, em-xashak etishtiriladigan dalalarini sug‘orishda foydalanish mumkin, albatta, gigiena nuqtai-nazaridan, bunday dalalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste‘mol qilinadigan ekinlar ekilmaydi. Eng muhimi bu suvlar tuproq tarkibiga ziyon etkazmaydi. Bunday tajribalar Rossiyada va boshqa chet el mamlakatlarida o‘tkazilgan hamda ijobiy natijalar olingan;

2. Sanoat korxonalarini aylanma suv ta‘minotiga o‘tkazish zarur. Bunda korxonalar suvni o‘ziga kerakli darajada tozalaydi va undan qayta foydalanadi. SHu maqsadda korxonalar talab darajasidagi suvni bir yo‘la oladi, mahsulot ishlab chiqarishda butunlay sarf bo‘lgan qismi (umumiy suv miqdoriga nisbatan 10-15 foiz) esa suv manбайдan doimiy ravishda to‘ldirib boriladi. Bu tizimning qulay tomoni shuki, birinchidan, oqava suvlarning daryolarga oqizilishiga chek qo‘yiladi, ikkinchidan, korxonalar o‘zi ifloslantirgan suvni tozalashga majbur bo‘ladi. Bunda korxonaning o‘zi ortiqcha ifloslanishni oldini olishga harakat qiladi, natijada suvni tejash uchun rag‘batlantiruvchi iqtisodiy omil vujudga keladi;

3. Ayrim ximiyaviy korxonalarining ifloslangan suvlarini, agar ularni tozalab qayta ishlatish imkoni bo‘lmasa, alohida havzalarga yig‘ib, tabiiy yoki sun‘iy holda bug‘latib yuborish kerak;

4. SHaharlarda suv ta‘minoti tarmoqlarini ikki yo‘nalishda, birinchisini ichimlik, maishiy va oziq-ovqat sanoati uchun, ikkinchisini esa sanoatning boshqa tarmoqlari uchun tashkil etish zarur. Bu tartib toza suvni tejash imkonini beradi;

5. SHaharlardagi yirik sanoat korxonalarida (asosan ximiya, metallurgiya) iloji boricha suvdan foydalanish me‘yorini kamaytirish uchun kurashish kerak. Bu toza suvning miqdorini va shu bilan birga sifatini saqlash choralaridan biridir;

6. Daryolarda kam suvli davrda ularning suvini bir muncha ko'paytirishga erishish lozim. Buning uchun mavjud suv omborlaridan tadbirkorlik bilan foydalanish va agromelioratsiya usullarini qo'llash talab etiladi;

7. Ekin maydonlarini sug'orish natijasida hosil bo'lgan qaytarma suvlardan unumli foydalanish lozim. Ularning tabiiy botiqlarga oqizilishiga va behuda sarflanishiga iloji boricha yo'l qo'ymaslik kerak.

8. Qashqadaryo viloyatida qurilgan SHo'rtan gaz-kimyoy majmuasi tomonidan ishlab chiqarilgan plastmassa quvurlarni sug'orish maqsadlariga foydalanishni yo'lga qo'yish orqali suvni isrof bo'lish oldini olish mumkin.

9. Respublikamizda tomchilatib sug'orishni tashkil etish.

O'lkamiz sharoitida foydalaniladigan suv resurslarining asosiy qismi (90 foizdan ortig'i) irrigatsiya maqsadlarida ishlatiladi. Uning qolgan qismidan esa sanoatda hamda maishiy va kommunal maqsadlarda foydalaniladi. Ma'lumki, yuqoridagi har uch yo'nalish ham yildan-yilga ko'proq suv talab qilmoqda va shu sababli o'lkamizda suv muammosi tobora tig'iz bo'lib qolmoqda. Ana shunday sharoitda suvdan tejab-tergab foydalanish, uning samarasiz yo'qotilishiga yo'l qo'ymaslik, qaytarma va oqava suvlardan unumli foydalanish, eng muhimi suv manbalarini ifloslanishdan va ortiqcha minerallasuvdan saqlash asosiy vazifa bo'lib qoldi.

XULOSA:

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish nafaqat suv taqchilligini oldini olish, balki suv resurslaridan mukammal foydalanishni, suv manbalarininig ifloslanishini oldini olishga, tejalgan suv resurslaridan qo'shimcha erlarni o'zlashtirishga, ikkalamchi sho'rlanishni oldini olishga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Rozanov N.P. Gidrotexnika inshootlari (rus tilida). – M., 1985.
2. Bakiev M.R., Yangiev A.A., Qodirov O. Gidrotexnika inshootlari. – T., 2002.
3. Bakiev M.R., Nosirov B.SH., Xo'jaqulov R.T. Gidrotexnika inshootlari. – T., 2007.
4. Rahimboev F.M. Gidrotexnikadan ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'at. – T., 1996.
5. Meliorator uchun ma'lumotnoma /tuzuvchi B. S. Maslov (rus tilida) – M., 1980.

MUNIS XORAZMIY DUNYOQARASHIDA NAVOIY IJODINING O‘RNI

Sapaev G‘ulomjon Baxtiyarovich

*O‘zR Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi o‘qituvchisi, (UrDU
mustaqil izlanuvchisi)*

g.sapaev@dba.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII-XIX asrlarda Xorazmda yashab ijod etgan ma’rifatparvar olim, o‘z davrining etuk shoiri va tarixchisi Munis Xorazmiyning dunyoqarashiga buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodining ta’siri atroflicha tahlil qilingan. Unda Munisning ijtimoiy-ma’rifiy qarashlarida Navoiyning gumanistik g‘oyalari, Navoiy asarlarida ko‘tarib chiqilgan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy mavzularning roli katta bo‘lganligi yoritilgan. Ayniqsa, Munis Navoiyning gumanistik va ijtimoiy masalalarga bag‘ishlangan g‘azallaridan ilhomlanib, salmoqli ijod qilganligi, go‘zal she’rlar yozganligi ifodalangan.

SHuningdek, maqolada Munisning ijodining g‘oyaviy ildizlari Navoiy asarlariga va unda ko‘tarilgan mavzularga borib taqalishi, shu nuqati nazardan Munis Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilganligini, shoirning qo‘lyozma asarlari orqali ilmiy jihatdan tushuntirilgan. Ayniqsa, ikkala shoirning ham ijtimoiy mazmundagi g‘azallarida deyarli bir xil mavzular ko‘tarilganligi, bu esa Navoiy aynan Munisning aytmoqchi bo‘lgan dardli fikrlarini bayon etib ketganligiga hamda Munis o‘z zamonasida ijtimoiy-maishiy masalalarni zo‘r mahorat bilan yoritganligiga katta urg‘u berilgan. Zero, bu ikkala mutafakkir zamonasining odamlar turmushi, o‘zaro munosabati, ijtimoiy-siyosiy hayot va shafqatsiz tuzum deyarli o‘xshash edi.

Maqolada Munis ijodiga Navoiyning ta’siri, Munisning ustoziga bag‘ishlab yozgan muxammaslari va fikrlaridan iqtiboslar keltirilib, xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar(8-12 so‘z): g‘oya, manba, dunyoqarash, ustoz, ijod, g‘azal, muxammas, shoir, Navoiy, gumanizm, vatanparvarlik, adolat.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the influence of the works of the great thinker Alisher Navoi on the worldview of Munis Khorezmi, an enlightened scientist, a mature poet and historian of his time, who lived and worked in Khorezm in the XVIII-XIX centuries. It highlights the role of Navoi's humanistic ideas and the socio-political and moral themes raised in his works in the socio-enlightenment views of Munis. In particular, it is said that Munis was inspired by Navoi's poems on humanistic and social issues and wrote beautiful poems.

Likewise, the article explains that the ideological roots of Munis's work based on Navoi's works and the issues covered in them, and then, it is scientifically explained that Munis considered Navoi to be his mentor through the poet's works. In

particular, the poems of both poets on social issues almost the same topics are covered, which emphasizes that Navoi expressed the painful thoughts of Munis wanted to express, and that Munis in his time skillfully covered social issues. Because the lives, interactions, socio-political life, and brutal regime of the time of these two thinkers of were almost identical.

In this article, the influence of Navoi's work on Munis's works are quoted and given conclusions from his muhammas and thoughts dedicated to Munis's teacher.

Key words: idea, source, world outlook, teacher, creative work, gazal, muhammas, poet, Navoi, humanism, patriotism, justice.

KIRISH

Ma'lumki, Markaziy Osiyo hududidan jahon ilm-fani rivojiga boy ilmiy merosi bilan katta hissa qo'shgan ko'plab alloma-yu mutafakkirlar etishib chiqqan. O'rta asr SHarq klassik she'riyatining buyuk namoyondalari bo'lgan Ahmad YAssaviy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur, Bedil, Fuzuliy singari allomalarning ijodi nafaqat o'z davri uchun, balki keyingi davr jamiyat tafakkuri rivojida ham muhim rol o'ynagan.

Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodining o'rni nihoyatda katta bo'lib, shoirning asarlari ko'pgina Markaziy Osiyoning ma'rifatparvar olimlari dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, jumladan, XVIII-XIX asr xorazmlik ma'rifatparvar shoir Munis Xorazmiy (1778-1829) ijodida ushbu ta'sirni kuzatamiz. Munis XIX asr Xorazm adabiyotida ma'rifatparvarlik yo'nalishining asoschisi bo'lib, o'zidan boy ilmiy meros qoldirgan.

Darhaqiqat, ushbu ma'rifatparvarlik yo'nalishining shakllanishida Navoiydek allomalarning ijodi va g'oyalari muhim rol o'ynagan. Tadqiqotchi olim T.Ahmedov aytganidek, Munis o'zining she'riyatida keng shuhrat topishga sharq klassik adabiyotining eng porloq yulduzlari: ulug' azarbayjon shoiri Nizomiy, Jomiy, Husrav Dehlaviy, Ansoriy, Hofiz SHeroziy, Attor, Firdavsiy, Hoqoniy, Anvari, Sa'diy, Iroqiy, Bedil ijodlarini chuqur o'rganib, ulardan cheksiz bahrimand bo'lishi tufayli ekanligini o'z g'azallaridan birida g'urur bilan bayon etadi. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili: Biz tadqiqot olib borgan ushbu mavzu Munis qalamiga mansub "Munis ul-ushshoq" (*O'zR. FA SHI qo'lyozmalar fondi. Inv. № 940.*) qo'lyozma asari va tadqiqotchi olim YU.YUsupov tomonidan to'planib, nashrga tayyorlangan Munisning "Saylanma" she'riy to'plami (*Toshkent. "Adabiyot va san'at" nashr., 1980 y.*)dan keng foydalanildi.

SHuningdek, Munis dunyoqarashiga Navoiy ijodining ta'siri, ayrim olimlarning asarlari qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganildi. Xususan, tadqiqotchi N.Jumaevning "Munis g'azaliyoti" (*Toshkent. "Adabiyot va san'at" nashr., 1991 y.*), T.Ahmedovning "Munis" (*Toshkent. "FAN" nashriyoti, 1980 y.*), Alisher Navoiyning 15 tomlik asarlari (*IV tom. Toshkent. Badiiy adabiyot nashr, 1965 y.*) o'rganildi, olimlar fikrlari tahlil qilindi, g'azallardan iqtiboslar keltirilib mazmun va uslubiy jihatdan qiyosiy tahlil qilindi.

Ushbu manbalarda ikkala shoirning ham g'azallarida bir xil ijtimoiy-ma'rifiy, siyosiy va axloqiy mavzularning ko'tarib chiqilganligini ko'rish mumkin. Bu esa Munis o'z asarlarini yaratishda Navoiy g'azallaridan ilhom olib, she'riyatida ijtimoiy va gumanistik fikrlarini kengroq ifoda etgan bo'lsa ajabmas.

Metod va yondashuvlar: Mazkur mavzu yoritashda Munisning tarixiy qo'lyozma manbalari va g'azallaridan foydalangan holda tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, ob'ektiv yondashuv va umuminsoniylik metodlaridan foydalanildi.

Maqolani yoritishda asosan, mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va gumanistik fikrlari aks etgan qo'lyozma va she'riy asarlari falsafiy jihatdan o'rganildi, shoirning ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy qarashlari bo'yicha tadqiqot olib borgan N.Jumaev, T.Axmedov va YU.YUsupovlar ilmiy izlanishlari qiyosiy tahlil qilinib, Munisning Navoiy ijodiga yaqin she'rlari kompleks yoritilgan.

Bundan tashqari Munis dunyoqarashiga Navoiy ijodiga ta'siri ikkala shoir asarlari dalil sifatida keltirilib, she'rlarida ko'tarib chiqilgan mavzular va ularning ifodalanishi qiyosiy tahlil qilinadi, xulosa yasaladi.

NATIJALAR

Munis ijodiga o'rta asr SHarq allomalari, xususan Navoiy g'oyalarining ta'sirini uning "Manga" nomli g'azalida yaqqol quramiz.

*Qilsa hosid dahli bejo, so'z aro yo'qtur g'amim,
Kim bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur manga. [2]*

Munis bu g'azalida jahonga mashhur ko'plab shoirlarning nomlarini keltirgan bo'lib, ular ichida buyuk Navoiy ijodidan juda ko'p narsalar o'rganganini, yangi g'oyalar yaratishga yordam berganligini ta'kidlaydi, hatto ustoz va o'ziga homiy deb biladi:

*So'z ichra Navoiy jahongirdurur,
Munisga maoni yo'lida pirdurur. [3]*

Darhaqiqat, Munis boshqalardan ko'ra Navoiyni o'ziga yaqin ustoz deb biladi va ijodining muhim g'oyaviy ildizlari Navoiy ijodiga borib taqaladi.

Navoiy va Munis ijodi bir-biriga shunchalik yaqinki, hatto ba'zi asarlari bir-biriga o'xshab ham ketadi. Bizningcha, ulug' shoir, she'riyat mulkining sultoni Navoiyning hayotga va jamiyatga bo'lgan munosabati, insoniyatga muhabbati, ijodidagi gumanistik qarashlar Munisda katta taassurot qoldirganligi, Munis Navoiyga ergashganligi, uning g'oyalarini rivojlantiruvchi shoir ekanligining dalilidir.

Munis ijodiga Navoiyning nafaqat gumanistik qarashlari, balki ijtimoiy-siyosiy g'oyalari ham katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Munisning siyosiy qarashlarini asosan adolat va odil hukmdor g'oyasi tashkil qilib, Navoiyning ham siyosiy qarashlarida adolatparvarlik g'oyalari, odil shoh va amaldorlar asosiy qahramonlar hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ikkala shoir siyosiy qarashlarida adolatli jamiyat va ma'rifatparvar shoh uchun kurash g'oyasini ko'rish mumkin.

*Qayu mulkkim shohi odildurur,
Anga barcha el ko'ngli moyildurur. [4]*

Munisning Navoiyga ixlosi, ijodiga mehri va o'ziga yaqin ustoz deb hisoblaganini, uning 19 ta muxammasidan 10 tasi Navoiy g'azallariga bag'ishlanganligidan ham ko'rishimiz mumkin:

*Borib xiromi g'ami birla donishu farhang,
Bukuldi qad chekibon za'ful sifatkim chang,
Vasiyat elga qilur bo'yla Munisi diltang,
Navoiydek qadidin qilsam o'lgali ohang,
Biyik maqom topib yasangiz mazor manga. [5]*

Demak, ushbu satrlar Munisning Navoiyga mehri va ijodiga ixlosi baland bo'lganini anglatadi. Buning sabablaridan yana biri Navoiy gumanizmi, ma'naviy merosidagi inson baxti-kamoloti uchun kurash, ilgari surilgan adolat va ma'rifatparvarlik g'oyalarining Munis gumanistik pozitsiyasiga to'la mos kelishidir.

*Bo'lub Munis muyassar yor ila bir erda o'lturmoq,
Navozishlar ko'rub, komish topib har lahza afchunroq,
Ichib sog'ar ayoqig'a tushub ul nav'kim tufroq,
Onikim eltgay vasl uyqusi ishrat tuni mundoq,
Navoiydek netar to subhi mahshar tarki xob aylab. [6]*

Munis ustози Navoiy izidan borib, Navoiy singari ijtimoiy-siyosiy mazmundagi asarlarida davrning dolzarb masalalarini yoritishga harakat qiladi. Munis asarlari ichida ayrim hukmron sinf vakillarining xalq manfaatlariga zid ishlari, adolatsiz munosabatlarini fosh etuvchi, xon va shaxzodalar o'rtasidagi ziddiyatlar, qonli to'qnashuvlarni qoralovchi, mamlakatda yuz berayotgan o'zaro urushlar va

ocharchilikning ayanchli manzaralarini ifodalovchi she'rlari anchagina. Masalan ,
“Xos o‘lub jon ahlig‘a” radifli g‘azalida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

*Xos o‘lib joh ahlig‘a in‘oim sohib tojlar,
Zulmi omidin berib jon non uchun muhtojlar...
Ahli donishlar to‘sharga buryoe topmayin,
Xayli nodonlar solib masnad uza debojlar. [7]*

Darhaqiqat, Munis xonlik tuzumidagi tengsizlik, nohaqlik, begunoh insonlar qoni to‘kilayotganligining guvohi bo‘lib, zamonasidan shikoyat qiladi. Bunday mavzularni Navoiy fikrlarining davomi sifatida “Ey falak” she‘rida shunday ifodalaydi:

*Ey falak, muncha nedur aylamak izhori sitam,
Urubon har nafas el bag‘riga yuz nishtari g‘am.
YOg‘durub ahli vafo boshig‘a ofat toshin,
Ko‘p jafo birla vafo rasmini urding barham. [8]*

Munis Navoiy g‘azallariga muxammaslar bitish orqali ulug‘ shoir ko‘tarib chiqqan masala va maqsadlarni o‘zi yashagan davr kishilariga, jamiyatga etkazishni, zamonasining odamlarini oliyjanob insoniy fazilatlar asosida tarbiyalashni maqsad qilib oladi.

*Kofir ko‘zungning xizmatin ixlos ila qilmish ajal,
Xanjar mijangdin aylabon el bag‘rini tilmish ajal,
Qotillig‘ingni, ey pari paykar, magar bilmish ajal,
G‘amzangdin o‘lturmak ishin ta‘lim ola kelmish ajal,
Bu nav‘ ustod o‘lsa, ul oz chog‘da mohir bo‘lg‘usi. [9]*

Ustozining an‘analarini yangicha shaklda davom ettirgan va undan ma‘naviy oziq olgan Munis adob-axloqqa oid mavzularda salmoqli asarlar yozadi. G‘azallarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ayrim kishilarning yaramas odatlari va illatlarini Navoiy singari fosh etadi. Masalan, Navoiy bir g‘azalida shunday yozadi:

*YAxshilig‘ gar qilmasa, dog‘i yomonlig‘ qilmasa,
Kim yomonlig‘ qilmasa, qilg‘oncha bordir yaxshilig‘. [10]*

Munisning ham shunga o‘xshash she‘rini eslaymiz:

*Zamon ahlig‘a qilsang yaxshilig‘, ko‘z tut yamonlig‘lar,
SHajar shoxiga tosh otmoqqadur bermak samar bois. [11]*

YOki:

*YAxshilarg‘a etib anvoi hazan qahringdin,
Kim yomon ersa alar zaxmig‘a qilding marham. [12]*

Munis mohir hattot bo‘lib, Navoiyning «Mezon ul-avzon» (1794), «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» (1797) asarlarini kitobat qilganligi ham shoir dunyoqarashiga ta‘sir qilmasdan qolmagan. SHu o‘rinda ta‘kidlash joizki, ushbu asarlarni oldingi ayrim hattotlar yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatib, savodli ko‘chirgan, bu uning Navoiy tilini va fikrlarini yaxshi o‘zlashtirganidan dalolat beradi.

MUHOKAMA

Navoiy dunyoqarashida ko‘tarilgan mavzular va g‘oyalar Munis ma‘naviy merosining ham diqqat markazida turadi. Masalan, Munis dunyoqarashidagi vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, ma‘rifatparvarlik, saxiylik, haqiqat va adolat, mardlik va oliyjanoblik, to‘g‘rilik va halollik kabi gumanistik g‘oyalar Navoiy ijodining ham asosini tashkil qiladi.

Munis muxammaslarining ko‘pchiligi ustoz Navoiyga bog‘ishlangan bo‘lib, Navoiy Munis uchun har jihatdan mezon vazifasini o‘tagan. SHuning uchun bo‘lsa kerak, tadqiqotchi olim T.Ahmedov aytganidek, “Munisning Navoiyga bog‘ishlangan muxammaslari anchagina muvaffaqiyatli chiqqan.” [13]

YAna bir jihatni aytish kerakki, Munis va Navoiyning hayot va ijodiy yo‘llari kisman o‘xshashdir. YA‘ni, Munis ham Navoiy singari saroyda ijod qilgan va u erning hayoti bilan yaqindan tanish bo‘lgan, xalqning og‘ir ijtimoiy ahvolidan xabardor va buni amaldorlar hayoti bilan solishtirishga imkoni bo‘lgan. U Navoiydek katta lavozimda uzoq vaqt bo‘lmagan bo‘lsada, xon saroyida bir muncha muddat amaldor bo‘lib faoliyat yuritgan. Ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan ham ikkala shoir amaldorlar xonadonidan edi. SHuning uchun, bu ikkala ma‘rifatparvar mutafakkir ijodida ijtimoiy adolat, odil shoh, xalqparvarlik kabi g‘oyalar asosiy mavzulardan biri bo‘lgan bo‘lsa, ajabmas.

XULOSA

YUqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, Navoiy ijodi va ma‘naviy merosi Munis Xorazmiy dunyoqarashining shakllanishi va g‘oyalarining rivojlanishida katta o‘rin tutgan. Ikkinchidan, Munis o‘z ijodida ko‘tarilgan mavzularni Navoiy ma‘naviy merosidan olgan holda ko‘tarib chiqdi va uni o‘z davriga moslab yanada rivojlantirdi. Qolaversa, yangi g‘oya va fikrlarning shakllanishi, rivojlanishida Navoiy ijodidan ilhomlangan. SHu o‘rinda biz M.Rahimning “Alisher Navoiydan keyingi Xorazm shoirlari uning ijod sarchashmasidan fayziyob bo‘lganlaridek, ulug‘ shoir ham o‘zidan oldingi Xorazm adabiy muhitidan, uning ilg‘or shoirlari ijodidan ma‘naviy oziq olgandir. Navoiy

shunday ulkan ma'naviy meros ustida qad ko'targan cho'qqidir", [14] degan fikriga qo'shilmiz.

Umuman, Navoiy o'zbek adabiyoti tarixida o'zidan keyingi shoirlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatib, Munis kabi ma'rifatparvar shoirlarning dunyoqarashi uchun g'oyaviy zamin bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. T.Ahmedov. Munis. – T.: “FAN” nashriyoti, 1980 y. – bet 13. (T.Akhmedov. Munis. – Tashkent: “FAN” publishing 1980. Selection page 13)
2. Munis. Munis ul-ushshoq (mukammal devon). O'zFA. SHI Qo'lyozmalar fondi. Inv. № 940., – varaq 6 a-b. (Munis. Munis ul-ushshaq (perfect divan). - Manuscript Fund of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Inv. № 940, page 6 a.)
3. Munis Xorazmiy. Saylanma // Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi YU.YUsupov. – T.: G'.G'ulom nomida adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – bet 6. (Munis Kharezmi. Selection. - Tashkent: Gafur Gulom Publishing House of Literature and Art, 1980. page 6.)
4. Munis Xorazmiy. Saylanma. – bet 16. (Munis Kharezmi. Selection. page 16.)
5. Munis Xorazmiy. Saylanma. – bet 295. (Munis Kharezmi. Selection. page 295.)
6. Munis SHermuhammad. Tanlangan asarlar // Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi YU.YUsupov.-T.:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957. – bet 315. (Munis Shermukhammad. Selected Works // State fiction publishing house.1957. Selected page 315)
7. Munis Xorazmiy. Saylanma. – bet 17. (Munis Kharezmi. Selection. page 17.)
8. Munis Xorazmiy. Saylanma. – bet 24. (Munis Kharezmi. Selection. page 24.)
9. Munis Xorazmiy. Saylanma. – bet 296. (Munis Kharezmi. Selection. page 296.)
10. Alisher Navoiy. Asarlar, 15 tomlik, IV tom. T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – bet 442. (Alisher Navoiy. Works of 15 volumes, IV volume. Tashkent: State fiction publishing house. 1965 – selection page 442.)
11. Munis. Munis ul-ushshoq. Inv. № 940., 67b-varaq. (Munis. Munis ul-ushshaq. Inv. № 940., page 67 b.)
12. Munis Xorazmiy. Saylanma. 24-bet. (Munis Kharezmi. Selection. page 24.)
13. T.Ahmedov. Munis. – bet 14. (T.Akhmedov. Munis. page 14)
14. Rahim, Muhammad. Mutolaa lazzati va mushohada mashaqqati. – Toshkent: “Turon-iqbol”, 2017. – bet 66. (Rakhim, Mukhammad. The pleasure of reading and difficulty of observation. Tashkent: “Turon-ikbol” 2017 selected page 66.)

KO'PPARTIYAVIYLIK TIZIMINING VUJUDGA KELISHI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARIINING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI

Shodmonov Mirzoxid Muxtor o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

doktoranti

shodmonovmirzoxid69@gmail.com

Annotatsiya: Maqola O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi va shakllanish bosqichlarining nazariy-huquqiy tahlili haqida bo'lib, asosan, ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi va ularni huquqiy tartibga solish masalalari nazariy-huquqiy jihatdan normativ huquqiy hujjatlar va ilg'or tajribaga ega olimlarimiz izlanishlari asosida ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot ishimizda ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi va shakllanish bosqichlariining nazariy-huquqiy tahlili yuzasidan taklif va xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, ko'ppartiyaviylik, jamoat birlashmasi, huquqiy mexanizm, partiya ustavi, partiya dasturi, partiya nizomi, partiyalararo hamkorlik, liberallashtirish.

Abstract: The article is about the theoretical and legal analysis of the emergence and stages of formation of a multiparty system in Uzbekistan. scientifically analyzed on the basis of their research. In our research, suggestions and conclusions were made on the theoretical and legal analysis of the formation and stages of formation of a multiparty system.

Key words: political party, multiparty system, public association, legal mechanism, party charter, party program, party charter, inter-party cooperation, liberalization

KIRISH.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Xalqimizning oliy manfaatlariga javob beradigan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishga qodir bo'lgan kuchli milliy davlatchilik asoslari yaratildi. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishda bevosita ishtirok etuvchi fuqarolik jamiyati institutlari shu jumladan ko'ppartiyaviylikni shakllantirish jarayonlari tobora chuqurlashib bormoqda. Biz ushbu maqolada O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi va shakllanish bosqichlarining nazariy-huquqiy tahlilini normativ huquqiy

hujjatlar va ilgʻor tajribaga ega olimlarimiz izlanishlari asosida qiyosiy-huquqiy oʻrganmoqchimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolani yozishda normativ-huquqiy hujjatlar, Prezidentimiz asarlari va maʼruzalari, ilmiy adabiyotlar, dissertatsiya ishlari va boshqa tadqiqot ishimiz doirasidagi adabiyotlardan foydalanildi. Xususan, 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha Harakatlar strategiyasida siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi mazkur yoʻnalishda yanada zamonaviy mexanizmlarni joriy etish masalani belgilaydi. Strategiyamizning birinchi ustuvor yoʻnalish „Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari“ – sifatida nomlangan boʻlib, uning birinchi bandi „Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:[1]- deb belgilanishi ham sohada siyosiy partiyalar tizimini rivojlantirish va davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini shakllantirishga muhim qadamlardan biri boʻldi.

Maqolada mavzuga doir adabiyotlar tahlilida mazkur jarayonning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan koʻppartiyaviylik tizimi bugungi kunda rivoj topayotganligi va siyosiy partiyalarning islohotlar jarayonidagi, jamiyatni yangilash va modernizatsiya qilish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdagi ahamiyati kuchayib borayapti qiyosiy tadrijiy oʻrganildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov taʼkidlaganidek, “Partiya degani - bu mansab uchun, lavozim uchun kurash emas, balki muayyan gʻoya uchun, uning jamiyatda ustuvor boʻlishi va roʻyobga chiqishi uchun kurash demakdir. Agar partiya maʼnosini mana shu nuqtai nazardan tuchunar ekanmiz, qancha partiya boʻlsa boʻlaversin, ularning faoliyatiga tegishli sharoit yaratib beriladi” [2,b.35].

Adabiyotlar tahlillarida turli xil partiyalarning mavjud boʻlishi natijasida jamiyatda siyosiy fikr, qarashlarning xilma-xilligi (plyuralizm) vujudga kelishi taʼkidlangan. “Plyuralizm, yaʼni fikrlar xilma-xilligi va qarashlarning rang-barangligi maʼrifiy jamiyatga xos boʻlib, muayyan haqiqatni turlisha izohlash, tuchunish va talqin etish tamoyiliga asoslanadi” [3,b.19].

Maʼlumki partiyalarning demokratiyani shakllantirishdagi bevosita taʼsiri ularning jamoat tashkiloti ekanliklaridan kelib chiqadi, yaʼni siyosiy partiya xalq hokimiyatchiligini amalga oshirish maqsadida aholining ijtimoiy fikrini ifodalovchi

yirik xalq tashkiloti sifatida namoyon bo`ladi. Ushbu maqolada mavzuga doir adabiyotlar tahlili asosidagi ilmiy asoslarimizni tahlil va natijalarda ifodalab o`tdik.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslari bo`lib, huquqiy fanlarda ilmiy metodlar bo`lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik (sistemalilik), determinizm tamoyillari, xronologik uslub, huquqiy taqqoslash uslubi, induksiya-deduksiya va boshqa usullar qo`llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining rivojlanishini olimlar tomonidan ma`lum bosqichlarga bo`lingan holda tahlil qilingan bo`lib, ularga birma-bir to`xtalib, tadqiqotimiz doirasida o`z fikrlarimizni asoslab o`tamiz. Ko`pgina olimlar yurtimizda siyosiy partiyalar shakllanishini uch bosqichga bo`lib o`rganishgan:

Birinchi bosqich (1991-1996) Bu davrda avvalo siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining “O`zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to`g`risida”gi qonuni tashkil etgan. [4].

Ushbu davr mobaynida, ya`ni, 1994 yilda o`tkazilgan saylovlar va jamiyat siyosiy hayotida siyosiy partiyalar yuqoridagi huquqiy manbalar asosida ilk bor ishtirok etdilar. Ikkinchi bosqich, (1996-2007) Bu davrda eng muhim jihati 1996 yil 26 dekabrda “Siyosiy partiyalar to`g`risida” maxsus qonunning qabul qilinishi bilan bog`liqdir. Ushbu qonunning qabul qilinishi siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Mazkur qonunda ilk marotaba siyosiy partiyaga huquqiy ta`rif berildi. Xususan, qonunning 1-moddasiga ko`ra, “siyosiy partiya - qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro`yobga chiqarishga intiluvchi hamda o`z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining ko`ngilli birlashmasidir”[5]. Ikkinchi bosqichning asosiy jihatlaridan yana biri bu – 2004 yil 30 aprelda “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishidir. Bu bosqichda ham muhm o`zgarishlar bo`lgan.

Uchinchi bosqich, (2007- hozirgacha) O`zbekiston Respublikasida 2010 yil 12 noyabrda “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”[6]. ishlab chiqildi. U mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida siyosiy partiyalarning davlat va jamiyatni boshqarishdagi ro`lini kuchaytirish uchun kuchli turtki bo`ldi. Konsepsiyadagi ustuvor vazifalardan kelib chiqib, 2011 yilda O`zbekiston Respublikasining bir qator moddalariga o`zgartirish va

qo`shimchalarning kiritilishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim qadam bo`ldi [7].

Shu bilan birga, hozirgi paytda partiyalarning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini yuqorida keltirganimizdan tashqari bir nechta davrlarga ajratish masalalari tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilib o`tilgan. Quyida O`zbekiston siyosiy partiyalari faoliyatini, ularning shakllanishi va tashkil topishi jarayonlarini turli bosqichlarga bo`lib o`rganishganliklarini ko`rib chiqamiz.

Masalan, Q. Jo`raev O`zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishini quyidagi ikki davrga bo`lib o`rganishni tavsiya etadi:

- 1) bir partiyalilik, siyosiy diktatorlikdan qutulish, muqobillik asosidagi Prezident saylovlari, yuqori darajadagi davlat hokimiyati tuzilmalarini yangilash davri bo`lgan 1991–1994 yillar;
- 2) jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlarining kuchayishi uchun muhim bosqich bo`lgan, ko`ppartiyaviylikka tayangan jamiyatning huquqiy fundamentiga asos solingan, qonunlar qabul qilingan, yangi partiyalar tuzilgan 1995–1999 yillar [8].

V.Dubkov esa siyosiy partiyalarning shakllanish va rivojlanish jarayonini to`rt bosqichga bo`lib o`rgangan:

birinchi davr (1988–1990 yy.) – jamiyatda O`zbekiston kompartiyasining yakka hukmronligini bartaraf etish orqali yangi siyosiy partiyalar yuzaga kelishi uchun obektiv sharoitlarning yetilishi;

ikkinchi davr (1991 y.) – mustaqil O`zbekiston Respublikasining e`lon qilinishi, Kompartiyaning tarqalib ketishi, «Erk» demokratik partiyasi hamda O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi tashkil qilinib, ikki partiyali tuzumning yuzaga kelishi, mamlakat Prezidentining ikki partiyali asosda saylanishi;

uchinchi davr (1992–1994 yy.) – ko`ppartiyaviylikning qonuniy tus olishi (legitimlashuvi), ya`ni O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda siyosiy partiyalar mavjudligining huquqiy maqomi belgilanishi, Oliy Kengash va mahalliy Kengashlarga saylov o`tkazilishi;

to`rtinchi davr (1995 yildan boshlab) –«Siyosiy partiyalar to`g`risida»gi qonunning qabul qilinishi, Oliy Majlis, mahalliy Kengashlarga hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko`ppartiyaviylik asosida saylovlar o`tkazilishi [9].

Maqoladagi tahlil va natijalarni umumlashtirib ular o`rtasidagi o`xshash va farqli jihatlarni ko`rishimiz mumkin. E`tiborli jihati shundaki har bir ilmiy tdqiqot ishlarida o`ziga xoslik va yangi ilmiy yondashuv mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik shakllanishining tarixiy-huquqiy taraqqiyotini olti bosqichga bo‘lib o‘rganishni taklif etamiz:

Birinchi bosqich - yurtimizda yakka partiyaviylikning tugatilishi va ko‘ppartiyaviylik shart-sharoitlarining yaratilishi (1991-1994 yy.).

Ikkinchi bosqich - siyosiy partiyalarning siyosiy dasturlari va saylovoldi platformalarini shakllantirish, aholining umumiy siyosiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qonunchilik asoslarini takomillashtirish davri (1995-1999 yy.).

Uchinchi bosqich - partiyalarning siyosiy tajriba to‘plash va siyosiy yetuklikka erishish vazifalarini hal etishi, moliyaviy mustaqilligini ta‘minlashi, jamiyatda o‘z o‘rni va doimiy elektoratini belgilab olishi (2000-2004 yy.).

To‘rtinchi bosqich - partiya fraksiyalarining Oliy Majlis faoliyatidagi hamda partiya guruhlarining xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari ishidagi faolligining o‘shishi, parlamentda muxolafatning shakllanishi (2005–2006 yy.).

Beshinchi bosqich - siyosiy partiyalar faoliyatining yangi konstitutsiyaviy qonun asosida jadallashuvi (2007-2016).

Oltinchi bosqich - bunda davrga xos xususiyatlar siyosiy partiya boshqaruvida innovatsion g‘oyalarning kirib kelishi, modernizatsiya jarayonlari, xalqaro aloqalarning kengayishi, yangi partiyalar vujudga kelish jarayonlari va hokazolar (2017– hozirgi davrgacha).

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimi vujudga kelishining obektiv zarurati va shakllanish bosqichlari yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Respublikamizda ko‘ppartiyaviylikning shakllanishi murakkab, serqirra muammo bo‘lib, nafaqat mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni bilishni, balki respublikamiz va boshqa mamlakatlarning huquqiy-tarixiy tajribasini ham o‘rganishni talab qiladi;
- Siyosiy partiyalarning shakllanish bosqichlari huquqiy, ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik, iqtisodiy va boshqa ko‘plab jihatlariga ega bo‘lib, demokratik islohotlar jarayonida siyosiy partiyalar shakllanishining huquqiy va tashkiliy asoslariga bevosita ta‘sir etgan;
- Demokratik islohotlar jarayonida siyosiy partiyalar shakllanishi, ularning faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlari rivojlanishiga ham turtki bo‘lib, bosh vazifasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib berdi;

Prezidentimiz jamiyat va davlat hayoti haqida „Hayotning o‘zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo‘lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo‘ymoqda [10],-ta’kidlagan. Yurtboshimizning bu da’vatidan

shuni anglash mumkinki, jamiyatmizning har bir a'zosi yuksak fuqarolik tuyg'usi va daxldorlik hissi bilan davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, har bir sohada ilg'or bo'lishga, jamiyat muammolarini izchil yechish va davlat taraqqiyotiga hissa qo'shishga bevosita chaqiriqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўрисида”ги Фармонига шарҳ // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. – №6. 70-модда.
2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996. –Б.351
3. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –Б.19
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1991. –№ 4. – 76-модда
5. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси 1997 й. 2-сон, 36-модда // Ўзбекистон Республикаси 20.08.1999 й. 832-I-сон, 12.12.2003 й. 568-II-сон, 30.04.2004 й. 621-II-сонли қонунлар билан ўзгартиришлар киритилган
6. Каримов И.А. “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидагимаъруза.Т.: “Ўзбекистон” 2010.
7. “Ijtimoiy-siyosiy va "Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (78, 80, 93, 96 ва 98-моддаларига)" Ўзбекистон Республикасининг 18.04.2011 й. ЎРҚ-284-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2011 й. 4-сон, 100-модда
8. Жўраев Қ. Ривожланган давлатларда кўппартиявийликнинг шаклланиши – демократик тараққиётнинг муҳим омили сифатида (Франция сиёсий тажрибаси мисолида): Сиёсий фан. номз. дис.. – Тошкент,1999.
9. Дубков В. Многопартийность как институт формирующегося в Узбекистана гражданского общества // Общественное мнение. Права человека. – Ташкент, 2004. – № 1. – С. 90.
10. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017

йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. – 10 б.

11. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
12. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
13. Sulaymonov, J. Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

“LAYLI VA MAJNUN” SYUJETI

Tamikayeva Ozoda

SamDU magistranti

Annotatsiya: “Layli va Majnun” ko‘p asrlik tarixga ega. Uning ildizlari, mashhur adabiyotshunos-matnshunos akademik I.Krachkovskiy ta’kidlaganidek, VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. “Layli va Majnun” nomi ostidagi sujet XII asrgacha arab xalq adabiyotida ertak shaklida namoyon bo‘lgan. Keyinchalik bu mavzudagi asar Bobil (Iroq) adabiyotida nomi keltirib o‘tilsa-da, lekin asar haqidagi ma’lumotlar saqlanmagan. Yozma shakldagi dostonlarning ko‘pligi hamda asar g‘oyasining yetukligidan dostonlar xususiyatini va kelib chiqish genezisini o‘rganishga doir Yevropa adabiyotida XX asr o‘rtalarida yaratilgan tadqiqotlar ham alohida yangilik sifatida vujudga keldi. Badiiy adabiyotda bu qissa doston shaklida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan 1188-yilda vujudga keldi. Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalangan holda “Layli va Majnun” qissasini g‘oyaviy jihatdan mukammal va badiiy jihatdan yuksak asar darajasiga ko‘tardi. Keyinchalik Nizomiy an’anasini davom ettirgan bir qancha, Sharq adabiyotida, salaflar paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada “Layli va Majnun” turkumidagi dostonlarning kelib chiqish tarixi, undagi obrazlarning tarixiy jihatlari, genezisi haqida mulohaza yuritiladi. Majnun obrazining tarixiyli, u real hayotda mavjud inson bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar maqolada keltiriladi. Shuningdek, “Layli va Majnun” turkumidagi dostonlarni o‘rgangan olimlarning ishlari ham tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Majnun obrazi, Layli obrazi, Qays ibn Mulavvah, Qays ibn Muod, tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat, genesis, salaflar.

ABSTRACT. Leyli and Majnun” has a long history. Its roots, the famous literary critic-text critic academician I. Krachkovsky noted, it dates back to the second half of the VII century. The plot under the name” Layli and Majnun " was shown in the form of fairy tales in Arabic folk literature until the XII century. Later, the work on this theme existed in the Babylonian (Iraqi) literature, but the information about the work was not preserved. Studies created in the middle of the XX century in European literature on the study of the nature of the epic and the genesis of its origin from the abundance of epics in written form and the maturity of the idea of the work have also emerged as a separate innovation. In literature, this tale first appeared in the form of a poem by Nizami Ganjavi in 1188. Using creative narrations spread among the people Nizami raised the story” Leyli and Majnun " to the level of an ideaually perfect and artistically high work. Later a number of poets

who kept on Nizami's tradition in the Eastern literature, appeared "salaf s .In this article is discussed about the history of the origin of the epics in the category "Layla and Majnun", about the historical aspects of the figures in it, about Genesis. Information about the historicity of the figure of the Majnun, the fact that he was a man in real life, is given in the article. The works of scientists who studied the epics of the series" Layla and Majnun " were also analyzed.

Keywords: figure of Majnun, figure of Layla, Kays ibn Mulawwah, Kays ibn Muad, historical truth and artistic truth, genesis, predecessors.

KIRISH.

"Layli va Majnun" jahon adabiyotida sevgi haqida yaratilgan eng g'amgin qissalardan biridir. Biz, boshqa biron-bir sevgi asarining "Layli va Majnun"chalik fojiviy, sevishganlar ma'naviy-ruhiy olamining chuqur va o'ta ta'sirli ochilganini bilmaymiz. Shuning uchun ham Alisher Navoiy o'z "Layli va Majnun"ining so'ngida quyidagi baytni keltirgan:

So'gin nechakim uzatdim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugatdim oxir.⁶⁵

"Layli va Majnun" ko'p asrlik tarixga ega. Uning ildizlari, mashhur adabiyotshunos-matnshunos akademik I.Krachkovskiy ta'kidlaganidek, VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarining ma'lumotiga ko'ra, Majnun tarixiy shaxs. U Bani Omar qabilasidan chiqqan, uning asl nomi Qays ibn Mulavvah (yoki Qays ibn Muod) bo'lgan. U qabiladoshi Laylini sevgan va o'z sevgisi, hijron azoblari haqida mungli she'rlar bitgan. Bunday ma'lumot ibn Qutaybaning "Kitobutshe'r va shuaro" asarida ham keltiriladi. Shu bilan birga, boshqa manbalar bu ma'lumotlarni rad etadi. Jumladan, arab olimi Avon ibn Hakim al-Qalbiy (764 yilda vafot etgan), arab tarixchisi Hishom al-Qalbiy (819 yilda vafot etgan)lar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy, sevgi, hijron she'rlari esa umaviy xonadoniga mansub bir oshiq yigit tomonidan bitilgan va asl nomini oshkor etmaslik uchun Majnun taxallusini qo'llagan, deyishadi. Shu tariqa VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab poeziyasida Majnun taxallusli mungli she'rlar ko'payib, keng tarqalib boradi. Vaqtlar o'tishi bilan ko'plab afsonalar, rivoyatlar to'qiladi va ular turli manbalardan joy ola boradi.

"Layli va Majnun" nomi ostidagi sujet XII asrgacha arab xalq adabiyotida ertak shaklida namoyon bo'lgan. Keyinchalik bu mavzudagi asar Bobil (Iroq) adabiyotida

⁶⁵ Navoiy A. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 208-bet.

nomi keltirib o‘tilsa-da, lekin asar haqidagi ma’lumotlar saqlanmagan.⁶⁶ XI asrning o‘rtalarida fors sayohatchisi Nosir Xusravga ko‘chmanchilar Toif (Saudiya Arabistonning g‘arbida joylashgan shahar) yaqinidagi Araviyada Layli yashagan qal’a xarobalarini ko‘rsatishganligini, shu bilan birgalikda, bu yerda ko‘chmanchi Amir qabilasidan Al-Mulavvahning o‘g‘li Qays Layliga oshiq bo‘lib, undan ayrilgandan so‘ng sahroda halok bo‘lganligi haqida hikoyani so‘zlab berishganini aytib o‘tgan.⁶⁷ Keyinchalik og‘zaki shakldagi ertak sujeti yozma adabiyot shaklida namoyon bo‘la boshladi.⁶⁸

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ishda arab, fors-tojik, turkiy manbalarga, jahon adabiyotshunosligi, xususan, rus sharqshunosligi va ozbek adabiyotshunosligida “Layli va Majnun” sujeti bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumotlar berilgan. Maqolada qiyosiy-chog‘ishtirma, tarixiy-tipologik metodlardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Badiiy adabiyotda bu qissa doston shaklida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan 1188-yilda vujudga keldi. Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalangan holda “Layli va Majnun” qissasini g‘oyaviy jihatdan mukammal va badiiy jihatdan yuksak asar darajasiga ko‘tardi. Keyinchalik Nizomiy an’anasini davom ettirgan bir qancha, Sharq adabiyotida, salaflar paydo bo‘ldi. Bular: Amir Xusrav Dehlaviy (“Majnun va Layli”), Jamoliy (“Mahzun va Mahzub” nomi ostida “Layli va Majnun” dostoniga tatabbu’), Ashraf Marog‘iy (“Ishqnoma” nomi ostida 1438-yilda yaratilgan bo‘lib, bu ham tatabbu’), Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy (“Layli va Majnun”), Abdulloh Xotifyiy (“Layli va Majnun”), Badriddin Hiloliy (“Layli va Majnun”), Shahobiddin Jomiy (“Layli va Majnun”), Shayxim Suhayliy, Ali Ohiy, Xoja Imod Loriy, Xoja Hasan Xizrshoh, Nosirxoja valadi Mansurxoja va yana bir qator ijodkorlar yuzdan ortiq bu dostonga javob tariqasida o‘z asarlarini yaratishadi. Alisher Navoiy o‘zining “Mahzub ul-qulub” asarida o‘z davrigacha 12 ta “Layli va Majnun” dostoniga javob yozganlarning ism sharifini keltirib o‘tadi⁶⁹. Bu ijodkorlarning asarlarida Qaysning nomi o‘zgartirilgan bo‘lsada, Nizomiy Ganjaviy an’anasi asosida yozilgan va hamohang yaratilishi odat tusiga aylangan.

⁶⁶ Передисловие Е.Дунаевского к поэме Незами Гянцеви: Лейла и Меджнун, перевод А. Глоби, М., 1935, стр. 17.

⁶⁷ Насир Хусрау. Сафар-наме. Книга путешествия. Перевод и вступительная статья Е.Э.Бертельса, Мос-Лен., 1933, стр 173.

⁶⁸ Игнатий Юлианович Крачковский. Избранные сочинения. Том II. Мос-Лен: Академии наук СССР, 1956. стр 588-561.

⁶⁹ Abdurahmon Jomiy, Hoja Hasan Xizrshoh, Ahmad Shayx Suhayliy, Mavlono Abdulla, Xoja Imod, Ashraf Marog‘iy Hazrat Shayx – Abdulla Muhammad Ilyosa ibn Yusuf ibni Zakiy Muayid Nizomiddin, Mavlona Hiloliy, Mavlono Safiy va boshqalar.

Yozma shakldagi dostonlarning ko‘pligi hamda asar g‘oyasining yetukligidan dostonlar xususiyatini va kelib chiqish genezisini o‘rganishga doir Yevropa adabiyotida XX asr o‘rtalarida yaratilgan tadqiqotlar ham alohida yangilik sifatida vujudga keldi. Xususan, I.Y.Krachkovskiyning “Arab adabiyotida “Layli va Majnun” dostonining ilk tarixi” (Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе)⁷⁰ nomli tadqiqoti dostonlar sujetining kelib chiqishi haqida dastlabki manbalar umumlashmasi sifatida maydonga chiqqan bo‘lsa, Y.E.Bertelsning “Arab hikoyalari asosida “Layli va Majnun” dostoni sujetini, Nizomiy va Navoiy dostonlari talqini” (“Лейли и Межнун”, история арабского предания, версия Низами и поэма Навои)⁷¹ nomli tadqiqoti Nizomiy va Navoiy asarlarining qiyosiga bag‘ishlangan dastlabki keng ko‘lamdagi ilmiy tadqiqot edi.

Dastlabki o‘zbek adabiyotida “Layli va Majnun” qissalarining tarixiy taraqqiyoti, genezisi va ijodkorlar asarlarining tahliliy jihatdan o‘rganilishi quyidagi ijodkorlar tomonidan amalga oshirilgan:

1. Natan Mallayev.⁷² Olim Sharq adabiyotida yaratilgan “Layli va Majnun” asarlari genezisiga to‘xtalar ekan, I.Yu.Krachkovskiy va boshqa ijodkorlar tomonidan keltirilgan ma’lumotlarni umumlashtirishdan tashqari, xamsanavistlar ijodiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. Dastlabki yozma “Layli va Majnun” dostonini yaratgan Nizomiy Ganjaviy an’anasidagi o‘ziga xoslik, Xusrav Dehlaviy va boshqa xalflarning asar voqealar rivojidadagi ta’sir masalari haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birgalikda ijodkor Navoiy ijodiga to‘xtalar ekan, shunday degan xulosaga keladi: “... Navoiy o‘z oldiga qo‘ygan ikki masalani – hayotiy mazmun va til masalasini katta muvaffaqiyat bilan hal etdi, “Layli va Majnun”ning tarixiy takomilida yangi davr boshlab berdi...”⁷³

2. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Ijodkor asarida⁷⁴ Navoiy ijodidagi “Layli va Majnun” dostonining badiiy tahlili aks ettirilgandir. Ijodkor shoir asarlari tahlilini boshqa asarlari tahlili jarayonida voqeaviy tarzda mazmunini keltiradi va obrazlardagi ijodkor mahoratiga baho bergan holda: “*Farhod va Majnun, Shirin va Layli ideal qahramonlar. Ular hayotiy bachkanaliklar bilan o‘ralmaydilar, maishiy faktlarga ko‘milmaydilar. Ularning shoirona yorqinligiga, ideyaviy ulug‘vorligiga*

⁷⁰ И. Ю. Крачковский. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе Избранные соч., М., 1956 г.

⁷¹ Е.Э.Бертельс. “Лейли и Межнун”, история арабского предания, версия Низами и поэма Навои. – Т.: “Литература и искусство Узбекистана”, 1940.

⁷² Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.

⁷³ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. 464-bet.

⁷⁴ Ойбек. Навоий Гулшани (Навоий ҳақида мақолалар) Тошкент: “Тошкент” бадий адабиёт нашриёти, 1967-йил. 42-45, 89, 98-111, 122-124 betlar.

ko 'lka tashlovchi har nav tasodifiy chizg'ilar, tor maishiy sharoitlar shoir tomonidan ustalik bilan o'chiriladi...''⁷⁵ – deya o'z xulosasini keltiradi.

3. Abduqodir Hayitmetov. Ijodkor Navoiy ijodida “Layli va Majnun” dostonining o'rni haqida gap yuritarkan, davr tazyiqlarini inobatga olishga, ishq-muhabbat mojarolarini davr voqealariga moslashtirishga (Navoiy davrini XX asrning 70-yillariga qiyosan o'rganishga) majbur bo'lganligiga guvoh bo'lamiz: *“Alisher Navoiy o'z qahramonlarining ayanchli taqdiri orqali o'z davridagi ezilgan xalq ommasining taqdirini ham aks ettirgan va bunday o'rinlarda xalq ommasining keskin noroziligini ham ifoda etgan...’’⁷⁶*

4. Olim Sharafiddinov.⁷⁷ Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida fikr yuritgan ijodkor, shoir hayot yo'li bilan birgalikda, asarlarining tahliliga ham alohida boblar ajratadi. “Layli va Majnun” nomi ostidagi bobda quyidagi fikrlarni bayoniga guvoh bo'lamiz: *“Layli va Majnun” mashhur arab afsonasi sujetida yozilgan dostonidir. Shoir unda bir-birini sevgan oshiq-ma'shuqning boshidan kechirgan qayg'uli voqealarni, ularning halokatga uchrashlarini ... yozadi”.*

5. Aziz Qayumov. Ijodkor Navoiy yaratgan “Layli va Majnun” asaridagi Qays obraziga alohida to'xtalganligiga guvoh bo'lamiz. Ijodkor Qaysning dunyoga kelishi va ta'lim olishidan tortib, Layliga oshiq bo'lib qolgan “Majnun”ga aylanishini alohida ta'kidlaydi va quyidagicha xulosa yasaydi: *“Dostonning yakulovchi bobida Navoiy bu g'am dostonini “yig'lay-yig'lay tugatdim” deb xabar qiladi, dardman, ishqli kishilarni ulug'laydi, yasama, qalbaki ishq egalarini qoralaydi... Shoir o'quvchilarining ishq g'ami bilan shod bo'lishlarini va shunda uni ham yod etishlaridan umidvor bo'ladi”.*⁷⁸

6. Saida Narzullayeva. “Sovet Sharq xalqlari adabiyoti tarixida “Layli va Majnun” mavzusi” (Тема «Лейли и Меджнун» в истории литератур народов Советского Востока) nomli doktorlik dissertatsiyasi muallifi, dostonning kelib chiqish tarixidan tortib obrazlar qiyosi, sujet va kompozitsion tuzilishgacha bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'sha davr ruhida aks ettirgan bo'lsada, lekin hozirgi kunda ham o'zining salmog'ini yo'qotmaganligiga amin bo'lamiz. Olima “Layli va Majnun” turkumidagi dostonlarda dastlab Majnun yetakchi obraz bo'lgani,

⁷⁵ O'sha asar. 89-bet

⁷⁶ Хайитметов А. Навоий даҳоси. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 1970-у.

⁷⁷ Шарафиддинов О. Алишер Навоий (Ҳаёти ва ижоди) – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 1971.

⁷⁸ Қаяумов А. Алишер Навоий (шоирнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида лавҳалар) –Тошкент: Камалак, 1991. 85 б.

keyinchalik Layli timsoli ham oldingi planga o‘tgani haqida mulohazalarini bayon etadi.⁷⁹

7. Dilnavoz Yusupova. Navoiy ijodi bilan davomli shug‘ullangan ijodkor o‘zining “O‘zbek mumtoz milliy uyg‘onish adabiyoti” (Alisher Navoiy davri) nomli o‘quv qo‘llanmasida “Layli va Majnun” dostoniga alohida bob ajratib, unda dostonning kelib chiqish tarixi bilan birgalikda uch buyuk daho: Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy dostonlarini tahlil maydoniga tortadi⁸⁰.

XULOSA.

Yuqoridagi fikrlar asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. “Layli va Majnun” turkumidagi dostonlar ko‘p asrlik tarixga ega. Majnun obrazining prototipi Qays ibn Mulavvah yoki Qays ibn Muod ismli tarixiy shaxs bo‘lib, VII asrda Arabistonda yashab o‘tgan. U Layli ismli qizga oshiq bo‘lib, unga bag‘ishlab, sevgi haqida she‘rlar yozgan.

2. Adabiyotda ilk bora 1188-yilda Nizomiy Ganjaviy Majnun obraziga murojaat qildi. “Majnun va Layli” dostonida Qays timsoli yordamida ishq masalasiga to‘xtaladi va muhabbat mavzusini yuqori pafosda kuylaydi.

3. “Layli va Majnun” dostonini bir qator olimlar o‘rgangan. Natan Mallayev, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, Abduqodir Hayitmetov, Olim Sharafiddinov, Aziz Qayumov, Saida Narzullayeva, Dilnavoz Yusupova kabi olimlar “Layli va Majnun” turkumidagi dostonlarni u yoki bu jihatdan o‘rganganlar. Bu dostonlar qahramonlarini qiyosiy tahlil qilish masalasi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Navoiy A. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Передисловие Е. Дунаевского к поэме Незами Гянджеви: Лейла и Меджнун, перевод А. Глоби, М., 1935.
3. Насир Хусрау. Сафар-наме. Книга путешествия. Перевод и вступительная статья Е.Э.Бертельса, Мос-Лен., 1933.
4. Игнатий Юлианович Крачковский. Избранные сочинения. Том II. Мос-Лен: Академии наук СССР, 1956.

⁷⁹ Нарзуллаева С. Тема “Лейли и Меджнун” в истории литератур народов советского востока. – Ташкент: Фан, 1983. 10 бет.

⁸⁰ Dilnavoz Yusupova. O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). T.: Tamaddun, 2016-y.

5. И. Ю. Крачковский. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе Избранные соч., М., 1956 г.
6. Е.Э.Бертельс. “Лейли и Межнун”, история арабского предания, версия Низами и поэма Навои. – Т.: “Литература и искусство Узбекистана”, 1940.
7. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.
8. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: “Ғафур Ғулом” нашриёти, 1974.
9. Ойбек. Навоий Гулшани (Навоий ҳақида мақолалар) Тошкент: “Тошкент” бадиий адабиёт нашриёти, 1967-йил.
10. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1970-у.
11. Шарафиддинов О. Алишер Навоий (Ҳаёти ва ижоди) – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1971.
12. Қаюмов А. Алишер Навоий (шоирнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида лавҳалар) – Тошкент: Камалак, 1991.
13. Нарзуллаева С. Тема “Лейли и Межнун” в истории литератур народов советского востока. – Ташкент: Фан, 1983.
14. Dilnavoz Yusupova. O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). Т.: Tamaddun, 2016-у.
15. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
16. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
17. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
18. Sulaymonov, J. Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

O‘QUVCHI QIZLARNI KASBGA YO‘NALTIRISH YO‘LIDAGI OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR

Yuldashev Sobirjon Haqnazarovich
Yuqori Chirchiq tuman kasb-hunar maktabi direktori
Niyetova Gulchexra Bazarbayevna
O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mualliflar mamlakatimizning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanishida ayollarning o‘rin dolzarb ekanligini, o‘quvchi-qizlarni kasb-hunarga tayyorlab borishning muhim jihatlarini ilmiy nuqtay nazardan taxlil etish zaruriyatini aspektda yoritgan. Masalaning ushbu jixati shu paytga qadar xalqaro nashr etilgan ishlarga qo‘shimcha material bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: intellektual salohiyat, innovatsion rivojlanish, ilm-fan taraqqiyoti, ayol ma‘naviyati, optatsiya, kasb-hunar ta‘limi, situatsion xonalar, ijtimoiy faollik, iqtisodiy erkinlik, kelajak tarbiyachisi.

Аннотация: В статье авторы подчеркивают важность роли женщин в развитии науки и инноваций в нашей стране, необходимость научного анализа важных аспектов подготовки студентов к профессии. Этот аспект номера на сегодняшний день служит дополнительным материалом для международных публикаций.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, инновационное развитие, научное развитие, женская духовность, оптология, профессиональное образование, ситуационные комнаты, социальная активность, экономическая свобода, будущий педагог.

Abstract: In this article, the authors highlight the importance of the role of women in the development of science and innovation in our country, the need for a scientific analysis of important aspects of preparing students for the profession. This aspect of the issue serves as additional material for international publications to date.

Keywords: intellectual potential, innovative development, scientific development, female spirituality, optology, vocational education, situational rooms, social activism, economic freedom, future educator.

KIRISH

Bugungi zamonaviy va ilm-fan innovatsion rivojlanib kelayotgan bir vaqtda insonlar juda ko‘p axborot almashishi orqali fikr mulohazalarini yangilab boradi. Bu davrda xotin qizlar o‘zlarining faolliklari, intellektual salohiyati bilan ustun bulib kelishgan, ayniqsa, bilimli va ma‘rifatli ayollarning yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlantirish jarayonlaridagi o‘rni

beqiyos. SHarq ayollari azaldan ibo-hayosi bilan birga mehnatsevar va oilaparvar bo‘lib kelishgan. Ular hardim oilasi va farzandlari, ularning farovonligi uchun bor kuch qudrati bilan, har qanday ishchi kasbni egallab ma’suliyatni o‘z zimmasiga olganlar. Ayolning ilmiy salohiyati va maxoratli kasb egasi bo‘lishi oilada, ijtimoiy hayotda - jamiyatda barqarorlik, xamjixatlikning mustaxkam bo‘lishining asosidir. Kelajagimiz bo‘lgan yoshlarimizning kim bo‘lib etishishi millatimiz tarbiyachilariga bog‘liq. Buyuk mutafakkirlar e’zozlaganidek “Ayol ilmi bo‘lsa-millat ilmi bo‘ladi”.

Mamlakatimizda mazkur masalaga alohida va davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, maxalla institutini yanada qullab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari tug‘risida”gi 2020 yil 18 fevraldagi PF 5938-son Farmoni bunga misol bo‘ladi.

Jamiyatimizning aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi va o‘spirin yoshlar fe’l atvorining o‘ziga xos tomonlaridan biri ular bugunni va ertangi kunni kelajak nuqtai nazardan qabul qiladi. Bu davr 11-12 yoshdan 14-18 yoshga tug‘ri keladi va ilmiy tilda “Optatsiya” (lotincha so‘z: tanlov, xoqish) deb nomlanadi va bunda uspirin bilimga chanqoqligi, xar xil kasblarga qiziq boshlaydi va o‘zini professional sifatida tasavvur qiladi. davrining sodir yuqori darajasi sodir buladi. Demak bu davrda yoshlarimizni vaqtini bekor o‘tkazmasdan ularni biror foydali kasbga yo‘naltirish lozim bo‘ladi. SHu o‘rinda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlarning yana bir asosini keltirib o‘tish joizdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. O‘quvchi qizlarni kasbga yo‘naltirish yo‘lidagi olib borilayotgan islohatlar haqida qisqacha tahlil olib borildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari metodologik jihatdan olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 - noyabrdagi PF-6108 son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim – tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlar tug‘risida” gi Farmonida umumta’lim muassasalari bitiruvchilari o‘z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o‘rnini topishi, kasbiy faoliyatida muvofaqqiyatga erishishi uchun “Kasbga yo‘naltirish tizimi” ni joriy etish asosida o‘quvchilarni kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlar bazasini yaratish, ularni ma’lum kasbga yo‘naltirishga alohida e’tibor berilgan. Kasb-hunar maktablarida umumta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun kasbga yo‘naltirish bo‘yicha “situatsion xonalar” tashkil etilishi yoshlarning kasb egallashda tug‘ri yo‘lni tanlashiga dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa kasb-

hunar maktablarida dual tizimini joriy etish natijasida ishlab chiqarish amaliyotini o‘tayotgan o‘quvchilarga ish beruvchi bilan tuzilgan muddatli shartnomaga muvofiq ish haqi to‘lanishi bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikka yo‘l ochiladi va ularning iqtisodiy erkinligini ta‘minlab boradi.

Mazkur Farmonda aynan 15-16 yoshdagi ug‘il-qizlarni ishchi kasbga yo‘naltirib o‘qitish hozirgi shiddat bilan o‘tib ketayotgan zamonda farzandlarimiz katta hayotga ertaroq tayyorlab borish nazarda tutilgan.

Boshlang‘ich professional ta‘limda tayyorlanadigan yo‘nalishlarning aksariyati bizning jamiyatimizda e‘zozlanadigan kasblar bo‘lib yosh qizlarimizni tikuvchi, sartarosh, qandolatchi, bank nazoratchisi, toquvchi ishchi kasblariga o‘qitib ular ma‘lum bir mutaxassislikni egallab chiqadi

Mamlakat Prezidenti SH.M. Mirziyoyev “Agar biz farzandlarimizni sog‘lom va barkamol, Vatanga sodiq insonlar etib voyaga etkazish niyatida ekanmiz, avvalo, xotin-qizlar uchun ilm-fan va kasb-hunar yo‘llarini keng ochib berishimiz kerak” deb ta‘kidlaganidek, rivojlanib kelayotgan jamiyatimizda qizlarimiz yaxshi bir kasb egasi bo‘lsa xayotida iqtisodiy va ma‘naviy qaramlik tushunchasidan mutlaqo uzoq bo‘ladi.

Taraqqiyparvar ma‘rifatparvar alloma A.Avloniy “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?” degan savolga “Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir” deb javob bergan edi. Oilada farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan onalarimiz avvalo o‘zlari ilmi-bilimli va biror kasb egasi bulmog‘i nazarda tutilgan. Dono xalqimiz “Ayol ilmi bo‘lsa-ko‘pchilik ilmi bo‘ladi” deb bejiz aytmagan. Ilmi ona tarbiyasidagi bir necha farzandlar jamiyatimiz koriga yaraydigan etuk ma‘rifatli, salohiyatli kadrlar bo‘lib etishadi. Ayniqsa yurtboshimiz “Oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mu‘tabar ayollardir” deb ta‘kidlagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda biz istiqomat qilayotgan jamiyatda aynan yuqoridagi g‘oyalar ilgari surilib yosh qizlarimiz umuman yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar yaratilib kelmoqda. Qabul qilinayotgan hukumat Farmon va qarorlarning ijrosi mamlakat xotin-qizlarining oilada, davlat va jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilganligi ko‘p jihatdan ayollarning ongi, tafakkuri, intellektual salohiyati darajasini ko‘tarayotganligi ko‘rsatmoqda. Ularning ilm-fan sirlarini puxta egallashlari, shu tariqa o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyoti yo‘lida sarflanayotganliklari xalq, millat, mamlakat kelajagi uchun xizmat qilmoqda. Bizning oldimizda turgan muxim vazifa ularni tug‘ri yo‘naltirish, taqdim etilayotgan farmoyishlar, qarorlar, huquqiy – me‘yoriy hujjatlardan o‘z vaqtida va tug‘ri foydalanishga o‘rgatishdir. Zero, bugungi davlatimiz tomonidan olib borilayotgan har bir islohatda ularning manfaati aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 - noyabrdagi PF-6108 son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim – tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlar tug'risida" gi Farmonida
2. "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, maxalla institutini yanada qullab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari tug'risida"gi 2020 yil 18 fevraldagi PF 5938-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi 2020 y. 30 dekabr
4. A.Avloniy –tanlangan asarlar 2 jildlik 2-jild.-T.:Ma'naviyat 1998.-B-37
5. Pulatov, Sh., Madalimov, T., Mullajonov, I., Qodirov, M., & Valiyev, L. (2020). Some Characteristics of Modern Indian Philosophy. International Journal of Multidisciplinary Research and Publications, 2(11), 47-49.
6. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
- 7.PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
- 8.Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
- 9.Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
10. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
11. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
12. Sulaymonov J.B. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar//Falsafa va huquq jurnali. 2019 yil 1-soni. 42-45 betlar.

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA BO‘RI OBRAZI

Zoyirova Diyora

Samarqand davlat universiteti

magistranti (O‘zbekiston)

Annotatsiya. O‘zbek adabiyotida bo‘ri obraziga murojaat turli shakllarda namoyon bo‘lgan. Xalq og‘zaki ijodi namunalariga nazar tashlasak bo‘ri turlicha talqin qilinadi. Ba‘zi manbalarda baxt keltiradi deyilsa, ertaklarda qonxo‘rlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Badiiy adabiyotdagi ko‘pchilik majoziy obrazlar folklordan, asosan, xayvonlar haqidagi ertaklardan olingan.

Majoz turli janrlarda, ayniqsa, masal, ramz, rivoyat, xajv, parabola va boshqalarda keng qo‘llanadi. Xam nasr, xam nazmda keng qo‘llanib kelinayotgan majoziy obraz tasviridan yozuvchi Isajon Sulton xam ustalik bilan foydalangan.

Ma‘lumki, dunyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar va ularning bir qismi bo‘lgan o‘zbek xalqi orasida ham bo‘ri totemi va bo‘ri kultiga ishonch keng ommalashgan. Bo‘rining muqaddaslashtirilishi tarixi, bu jonivor xalq ishonchlari, bo‘rining marosim va irimlardagi ifodasi kabi masalalar ham olimlar tomonidan yoritib berilgan⁸¹

Maqolada Isajon Sulton hikoyalarida bo‘ri obrazining qo‘llanilishi va u orqali ifodalangan ramziy ma‘nolar haqida hikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: nasr, hikoya, I.Sulton, obraz, “Bo‘ri”, “Tuman” hikoyalari, ozodlik.

Abstract: In Uzbek literature, the image of a wolf is expressed in various forms. The article examines the use of the image of a wolf in the stories of Isajon Sultan and the symbolic meanings expressed through him.

The metaphor is widely used in various genres, in particular, in parables, symbols, legends, hajj, parabolas and others. The writer Isajon Sultan skillfully used a metaphorical image that is widely used in both prose and poetry. It is known that among the peoples of the world, including the Turkic peoples of which the Uzbek people are a part, belief in the totem of the wolf and the cult of the wolf is widespread. Also, scientists covered the history of the consecration of the wolf, folk beliefs in this animal, the expression of the wolf in rituals and ceremonies. The article examines the use of the image of a wolf and the symbolic meanings expressed through it in the stories of Isajon Sultan.

⁸¹ Потапов Л.П. Волк старинных народных поверьях и приметах узбеков.-С. 135-142.

Key words : prose, story, I.Sultan, image, “Wolf”, “Tuman” stories, freedom

Аннотация: В узбекской литературе обращение к образу волка проявляется в различных формах. Если мы обратим свое внимание на устное народное творчество, волк трактуется по-разному. Если в некоторых источниках говорится, что он приносит счастье, то в сказках трактуется как символ кровожадства. Многие метафорические образы в художественной литературе взяты из фольклора, в основном из сказок о животных.

Метафора широко используется в разных жанрах, в частности, в притчах, символах, легендах, хадже, параболах и других. Писатель Исаджон Султан умело использовал метафорический образ, который широко используется как в прозе, так и в поэзии. Известно, что среди народов мира, в том числе тюркских народов частью которых является узбекский народ, широко распространена вера в тотем волка и культ волка. Также учеными освещалась история освящения волка, народные верования в это животное, выражение волка в ритуалах и церемониях. В статье рассматривается использование образа волка и выраженные через него символические значения в рассказах Исаджона Султана.

Ключевые слова : проза, рассказ, И.Султан, образ, «Волк», «Туман» рассказы, свобода.

KIRISH

Istiqlol davri nasri adabiy jarayonning salmoqli davridir. Hozirgi adabiy jarayonda SH.Xolmirzaev, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Murod Muhammad Do‘st, Normurod Norqobilov, Ahmad A‘zam, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton, Luqmon Bo‘rixon singari ijodkorlarning o‘ziga xos yo‘sinda yaratgan asarlari milliy nasr taraqqiyotini ta‘minlamogda.

Mustaqillik davri o‘zbek nasri qahramonlar tasvirida hozirda shalkga emas, aksincha ruhiyat tasviriga alohida e‘tibor berilmoqda. Badiiy asarda odamga ijobiy yoki salbiy munosabat yozuvchi tomonidan qo‘yilgan qolip bilan emas, balki kitobxonning o‘ziga havola qilinmoqda. Har bir o‘quvchi o‘z qahramonini yangicha, mustaqil kashf qila oladi va bu hamma uchun qat‘iy fikr yoki xulosa emas. Bu esa bugungi davr nasri taraqqiyotidan darakdir.

Bugungi kunning shunday yorqin ijodkorlaridan biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Isajon Sultondir. Uning dastlab romanlari, keyinchalik yaratgan o‘ziga xos hikoyalari ham e‘tirofqa sazavor bo‘lib kelmoqda. YOzuvchi asarlarida biz o‘ziga xos uslubni, jumladan, ramziylik, peyzaj, or-nomus, qat‘iyat

kabi o'zgacha inson ichki dunyosini qitiqlaydigan, o'yga toldiradigan va mushohada qilishga arziydigan hodisalarni uchratamiz.

Buni ikki hikoya, ya'ni "BO'RI", "TUMAN" hikoyalari misolida tahlil qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ishda Isajon Sulton ijodi va undagi turkiy xalqlarning qadimgi totemi - bo'ri obrazi haqidagi ilmiy ishlar tahlil etilgan. Unda qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy-tipologik metodlardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, dunyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar va ularning bir qismi bo'lgan o'zbek xalqi orasida ham bo'ri totemi va bo'ri kultiga ishonch keng ommalashgan. Bo'ri muqaddaslashtirilishi tarixi, bu jonivor xalq ishonchlari, bo'ri marosim va irimlardagi ifodasi kabi masalalar ham olimlar tomonidan yoritib berilgan⁸². haqidagi

YOzuvchi Isajon Sulton ham o'z hikoyalarida hayvon tasvirlariga, ayniqsa, bo'ri obraziga alohida va turlicha yondashgan.

Ijodkorning "Bo'ri" hikoyasida otaning bo'ri haqidagi xotiralari esga olinishi orqali inson va bo'ri ruhiyatidagi erk, ozodlikni istovchi tuyg'u birlashib ketganini kuzatish mumkin. Hikoya shunchaki qishloqqa oralagan bo'rini tutish, uni o'ldirish, xalqni xavfdan ozod qilish yoki qahramonning bo'ri bilan uchrashuvidan iborat emas. "Ichimda yovvoyi bir hayajon bosh ko'taradi. Oy yog'dusi ostida yastanib yotgan o'sha kengliklarga borgim keladi. Ammo bolalar katta bo'lishyaptiku.. Ularni o'qitishim, uylab -joylashim kerak... Ha, tashvishlarim mo'l. Ularni ado etish otalik burchim, bajarmasam bo'larmidi? Ammo bir faslga bo'lsa-da, tin olgim keladi-da. Miyamni charsillatar darajada og'ir tashvishlar charchatganida, bir nafas, atigi bir nafasgina o'sha yoqlarga ketsam... Kim bilsin, butalar ostida nigohini menga xotirjam tikib turgan o'sha bo'rini yana ko'rsam ajabmas....."⁸³.

Bola -chaqali, hayot tashvishlari ko'p otaning ichidagi istagi bu -erk istagi, erkinlik istagi. Bu erkinlik faqat tashqi omillar bilan bog'liq emas. Qahramon ichki olamida insoniy orzu havaslar, ularga tobelikdan qutulish istagi jo'sh uradi. Biroq uning ruhi har qancha ozodlik istamasin, moddiy dunyo va oilasi tashvishlaridan boshini ko'tara olmaydi. Garchi o'sha voqeaga, ya'ni bo'rini uchratganiga ancha yillar o'tib ketgan bo'lsa ham, bo'ridagi mag'rurlik, kelbatli, erkinlikni istovchi qalb unga yaqin bo'lgani uchun hali unutmagan yo'q.

⁸² Потапов Л.П. Волк старинных народных поверьях и приметах узбеков.-С. 135-142.

⁸³ <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/isajon-sultonov/irsazhon-sulton-b-ri-ikoya/>

Bo‘rining qishloqdoshlari tomonidan topib o‘ldirilishi otaning ruhiyatiga qattiq ta’sir qiladi. Chunki u bo‘riga duch kelganida o‘ldirmaganligining sababi bolalari bor degan to‘siq edi U o‘zi va bo‘rini “oilaboshi “deb ataydi.

“ – Oyga qarab uvillagim kelyapti, -xotin, -debman. SHundan so‘ng to‘liqib-to‘liqib rosa gapiribman. Bilasanmi, ichimda bir bo‘ri bor debman. Meni ko‘cha-ko‘yda indamas, yuvosh bir odam bo‘lib yurishimga qarama. Umrim bo‘yi ichimdagi o‘sha bo‘ri tashqariga chiqib ketmasin deb urinib keldim. Endi esa hech bo‘lmasa, shu kecha qorong‘usida hamma uxlab dong qotib yotgan mahalda oyga qarab cho‘zib-cho‘zib uvillasamdermishman”⁸⁴.

Xalq og‘zaki ijodi namunalariga nazar tashlasak bo‘ri turlicha talqin qilinadi. Ba’zi manbalarda baxt keltiradi deyilsa, ertaklarda qonxo‘rlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Qahramonda ham qishloqqa oralagan bo‘riga nafrat yo‘q, aksincha unga havas qiladi, kuyunadi, hatto uning holatiga yig‘laydi.

Biz bo‘ri obrazini yozuvchining “Tuman” nomli hikoyasida ham kuzatamiz.

“ – Aka ,chiyabo‘rimi?

– Bo‘rini naq o‘zi , -deb javob qilda katta aka.

–Yo‘g‘e qishda itlar ham shunaqa uvillaydi-ku?

– It boshqacha uvillaydi”⁸⁵

Hikoyada sovuq tuman kunda uch akasiga qo‘shilib yobondan o‘tin kesishga chiqqan kenja ukaning qo‘rquvi, hayajoni, akalarini oldida izza bo‘lishi lekin o‘sha qo‘rquvni engib akalariga ergashganini ko‘ramiz. Aslida ukalari uchun “shafqatsiz”deb aytilgan akani hayot erta etiltirgan, ota vafoti tufayli turmush tashvishlarini ancha erta tortgan edi. U ukasiga nisbatan ham yaxshi ma’noda “shavqatsiz”bo‘ldi, shunday tarbiyaladi. Vaqti kelib akalar birin-ketin imorat solib, ro‘zg‘orini bo‘lak qilib ketishganda onaizorning yonida shu kenja o‘g‘il qoldi. Ketjatoy ham akalari istaganday ko‘ngli qattiq, “shafqatsiz” erkak bo‘lib etishdi.

Bu hikoyada ham tuman qoplagan o‘sha sovuq kunda yobonda ukalarini yolg‘iz qoldirib kuzatishadi, u uvillagan bo‘rini ovozidan cho‘chiydi, yig‘laydi, borib akalarini onasiga yig‘lab aytib bergisi keladi, biroq bu safar bunday qilmaydi. Adib bo‘ri obrazini ikki hikoyada ikki xil tasvir bilan beradi. “Bo‘ri” hikoyasida qahramon bo‘ri bilan uchrashadi, ko‘zi ko‘ziga tushadi, “Tuman” nomli hikoyada esa askincha uchrashmaydi, ko‘rmaydi, faqatgina ovozini eshitiladi. Biroq ikkala asarda ham qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda muallif bo‘rining ijobiy jihatlaridan foydalangan, qahramonlar uchun bu obraz havas qilinidagan, intiladigan mardlik,

⁸⁴<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/irsazhon-sulton-b-ri-ikoya/>

⁸⁵<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-tuman-hikoya/>

faqat o‘ziga bo‘lgan ishonch, o‘zgalarga tobe bo‘lmaslik, tashqi va ichki ozodlikning bir timsoli sifatida talqin etilgan. “Bo‘ri” hikoyasida otaning yuragida ko‘milib yotgan erkinlik ozodlik kabi oliyjanob xislatlar yoritilsa, “Tuman” hikoyasida ulg‘ayib kelayotgan yosh go‘dakning yuragida mardlik, qo‘rquvni engish, hayot qiyinchiliklariga tayyor turishi uchun tayyorlov vazifasi bo‘rining birgina tovushiga yuklanadi.

XULOSA.

Nega yozuvchi aynan bo‘ridan foydalandi? SHer yoki ayiq obrazlarida ham kuchlilik xususiyatlari etakchi-ku. Adib aynan erkni, erkinlikni, jasoratni, kuchlilikni aynan bo‘ri obrazida berdi. CHunki turkiy xalqlar tarixi, ularning ko‘hna e‘tiqodlaridan xabardor bo‘lgan yozuvchi garchi bugungi kunda e‘tiqodlar o‘zgarib, totemlar bilan bog‘liq tushunchalar eskirgan bo‘lsa-da, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan ichki hisni teran his qila olgan. YOzuvchining qahramon tanlash, uning ichki olamini yoritishdagi mahorati ham birgina shu detal orqali hikoyalarda yaqqol namoyon bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Потапов Л.П. Волк старинных народных поверьях и приметах узбеков.-С. 135-142.
2. I.Sulton. Ozod. Roman va hikoyalar. Toshkent: “SHarq” -2012.
3. Isajon Sulton nasri badiiyati. To‘plam. Toshkent "Turon zamin ziyo" – 2017.
4. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton>
5. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
6. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

АРХИВНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ОБЪЕКТ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ

Муйдинова Мохира Мукумжановна

соискатель

Наманганского государственного университета.

Аннотация: В данной статье рассматривается архивная деятельность как объект социального управления. Также принята попытка показать роль и значение архивов в социальном управлении в Узбекистане. Автор раскрывает роль архивов в развитии государства. Определена сущность и функционирования архивов в обществе, рассмотрена его роль в социальных практиках современного общества. В данной статье выделено, что архивы важны для дальнейшего развития государства. Так же мы можем увидеть в статье методы изучения специалистов различных дисциплин в сфере архивной деятельности.

Ключевые слова: Социальное управление, спрос на информацию, копии документов, деятельность архивов, методы изучения, потребность населения, роль архивов, значение архивов, развития государства, оперативные архивные услуги.

АРХИВ ФАОЛИЯТИ ИЖТИМОЙ БОШҚАРУВ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

Аннотация: Ушбу мақолада архивларнинг ижтимоий бошқарувда объект сифатида фаолияти ёритиб берилган. Бундан ташқари бугунги кунда Ўзбекистонда архивларни ижтимоий бошқарувдаги ўрни ва аҳамияти ёритилган. Муаллиф архивларни давлат ривожланишидаги ролини очиб берган. Архивларнинг жамиятдаги иш фаолияти ва мохияти аниқ очиб берилган, ҳамда замонавий жамиятда ижтимоий амалиётдаги роли кўриб чиқилган. Булардан ташқари биз мақолада турли фанлардан мутахасисларимизни архивлар фаолиятини ўрганиш услубларини ҳам кўришиш мумкин.

Таянч сўз иборалар. Ижтимоий бошқарув, ахборот учун талаб, хужжатлар нусхалари, архивлар фаолияти, ўрганиш услублари, аҳоли эҳтиёжи, архивлар ўрни, давлат ривожланиши, архивларнинг аҳамияти, архивларнинг оператив хизмати.

ARCHIVE ACTIVITY AS AN OBJECT OF SOCIAL MANAGEMENT

Annotation: This article discusses archival activity as an object of social management. An attempt was also made to show the role and significance of archives in the social management of today's archive business in Uzbekistan. The author

reveals the role of archives in the development of the state. The essence and functioning of archives in society is defined, its role in social practices of modern society is considered. This article highlights that archives are important for the further development of the state.

We can also see in the article methods of studying specialists of various disciplines in the field of archival activity.

Keyword: *Social management, demand for information, copies of documents, archive activities, methods of study, population needs, role of archives, value of archives, development of the state, operational archival services.*

ВВЕДЕНИЕ.

Управления системой архивных учреждений является делом государственной политики и требует тщательно отработанной законодательной основы. Законодательство является ключевым фактором в определении политики управления архивного дело. Современная архивная система Республики Узбекистан переходит на новый этап развития, связанной с ростом интереса к историко-культурному наследию. Изменения, произошедшие в нашей стране за последние несколько лет, не могли не отразиться на архивной деятельности, которая получила новый импульс для развития информационно-поисковых систем, связанных с необходимостью обеспечения более широкого и быстрого доступа к документам, востребованным для личных и управленческих нужд. [1]

Появление широкого спектра новых возможностей получения архивных услуг в электронном виде (электронная заявка, электронный документооборот, виртуальные выставки и др.) вызывает противоречивые требования. В общественном сознании сформировался стереотип того, что в условиях современного информационного общества для получения необходимой информации достаточно нажатия «одной кнопки», а в архивах имеется «досье на каждого», однако это искаженное представление невозможно реализовать ни технически, ни юридически.[2]

Несмотря на то, что архивное дело старается «идти в ногу со временем», его основные **задачи** остались прежними, и основополагающей из них является сохранение бумажного документа, т.е. рутинная составляющая остается неизменной. Данное обстоятельство ставит новые задачи перед архивным сообществом, которые не могут не отражаться на функциональности архивной деятельности.[2]

В дописьменный период существовали специальные группы людей (касты жрецов, шаманов, гадателей и пр.), одной из основных забот которых было сохранение племенных обычаев, ритуальных обрядов, норм обычного права, мифов, легенд, сказаний, зачатков научных знаний. Архив их устной памяти был велик. Но способ передачи информации, требовавший индивидуальных

или групповых контактов, создавал массу неудобств, избежать которые человек всегда стремился.

Потребность в закреплении на материальных носителях сведений самого различного рода значительно усилилась в связи с началом имущественного расслоения, зарождения частной собственности и, как следствие, появление первых государственных образований. Формирующиеся государственные институты при усложнении управления не могли функционировать без документов. Место их хранения, т.е. архив, стало нераздельным спутником государственных учреждений и других общественных институтов. С этого периода, с конца IV – начала III тыс. до н.э., и ведёт свою родословную архив. С появлением документа как основного элемента управления и архива как места его хранения начинается собственно письменная история человечества. Возникновение архива имело большое значение в истории культуры человечества. Благодаря архиву мы узнаем накопленный хозяйственный и нравственный опыт народа и культурных достижений прошлого. Поэтому велика роль архива в социально-философском осмыслении истории культуры, так как в архивах сохраняются уникальные материалы, отражающие целые исторические эпохи.

Архив - это хранитель и источник информации исторических событий и общественно-политической деятельности людей. Изучая архивные материалы, люди узнают подлинную историю и культуру своего народа. В этом заключается непреходящее значение архива как социокультурного феномена. Сейчас в условиях национального возрождения, как никогда раньше, стало ощутимо стремление людей понять духовные ценности прошлого своего народа в органической связи с жизненной "биографией" своих великих предшественников.[3]

Архив - это огромный духовный пласт, который играет важную роль в формировании мировоззрения людей и национальной гордости подрастающего поколения. Он - хранитель общечеловеческой памяти. Память - это основа совести, нравственности и культуры. Хранить и беречь память - это наш национальный нравственный долг перед потомками. Только при таком подходе можно сохранить и передавать из поколения в поколение имена великих людей, которые обогатили духовно-нравственные ценности, способствовали формированию национального духа как социокультурного феномена исторического сознания. Архивные материалы расширяют духовные горизонты человека в культурном пространстве Запада и Востока. Они играют важную роль в формировании правильного исторического сознания и национального самосознания. Основная функция архива – хранение документов. Современное документоведение термин документ определяет в широком и узком смысле: в широком – это результат закрепления информации о предметах объективной действительности и о мыслительной деятельности человека посредством письма, графики, фотографии, звукозаписи или другим способом на любом

носителе; и в узком смысле – деловая бумага, юридически подтверждающая какой-либо факт, событие или право на что-то. Документ приобретает признак архивности тогда, когда поступает в архив (архивный документ). Таким образом, самим фактом помещения документа в архивохранилище признаётся его оперативная или историческая ценность. Архивным документом нередко также называют любой старый, древний письменный памятник, который не обязательно хранится в архиве, а может находиться в личном пользовании, например, в собрании коллекционера.[4]

Актуальность исследования обусловлена важной социальной ролью, которую играет архивная деятельность в жизни общества как гарант сохранения социальной памяти, культурного наследия, а, значит, и общественного достояния страны, региона, города, истории отдельно взятой социальной общности, группы, семьи. В общественном сознании сформировался стереотип того, что в условиях современного информационного общества для получения необходимой информации достаточно нажатия «одной кнопки», а в архивах имеется «досье на каждого», однако это искаженное представление невозможно реализовать ни технически, ни юридически. Несмотря на то, что архивное дело старается «идти в ногу со временем», его основные задачи остались прежними, и основополагающей из них является сохранение бумажного документа, т.е. рутинная составляющая остается неизменной. Данное обстоятельство ставит новые задачи перед архивным сообществом, которые не могут не отражаться на функциональности архивной деятельности.

Методы. Место архивной деятельности в системе социального управления стало предметом изучения специалистов различных дисциплин. Исследования архивной деятельности проводились, прежде всего, с позиции исторической науки. Среди них работы исследователей И.Л.Маяковского, Е.В.Михайлова, Е.В. Старостина и др., касающиеся вопросов архивного дела, аспектов создания, развития и выявления основных направлений деятельности архивов в разных странах. Таким образом, можно отметить устойчивый интерес исследователей к архивному делу. Результаты проведенного предварительного анализа показывают, что архивная деятельность являлась объектом изучения, главным образом, представителей исторической науки и ранее почти не рассматривалась с позиции социологии. Учитывая тот факт, что специальных исследований, посвященных комплексному анализу архивной деятельности в системе социального управления и разработке социальных технологий управления ею не проводилось, планируемая диссертация призвана восполнить этот пробел.[4]

Цель исследования заключается в выявлении особенностей и разработке социальных технологий управления архивной деятельностью на современном этапе ее институционализации.

Реализация поставленной цели требует последовательного решения следующих задач:

- выявить сущность архивной деятельности как объекта социального управления, выделить ее основные характеристики;
- проанализировать функции архивной деятельности в системе социального управления;
- рассмотреть генезис архивной деятельности;
- выделить и охарактеризовать современные типы организации архивной деятельности;
- выявить проблемы институционализации архивной деятельности на современном этапе;
- дать характеристику социальных технологий участия общественности в управлении архивной деятельностью, обосновать необходимость их развития.

Гипотезой исследования выступает предположение о том, что для оптимального эффективного управления архивной деятельностью необходимо создание диалога между всеми субъектами, включая представителей общественности. Общественное участие в определенной мере позволит повысить социальную значимость архивной деятельности и ускорить систематический процесс сохранения и воспроизводства социально-культурного наследия общества.

При разработке этого исследования планируется применять системный подход и такие общенаучные методы, как диалектический, единство исторического и логического, методы прикладной социологии: анализ документов по теме исследования, данных экономической и социальной статистики, анкетный опрос, интервью, метод фокус - группы.

Практическая значимость работы будет состоять в том, что разработанные в ней положения могут быть использованы при подготовке нормативных актов, улучшающих взаимодействие субъектов управления архивной деятельностью. Результаты проведенного исследования могут быть полезны сотрудникам и руководителям организаций не только архивной отрасли, но и других профессиональных сфер, поскольку процесс архивирования является неотъемлемым элементом функционирования любого учреждения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Архивная деятельность является исторически сложившейся формой организации современной жизнедеятельности людей, возникающей из необходимости удовлетворения социальных потребностей общества и направленной возникающей из необходимости удовлетворения социальных потребностей общества и направленной на реализацию в нем определенных социальных функций. Архивная деятельность включает совокупность социально-значимых действий, осуществляемых субъектами архивной сферы на различных уровнях социальной организации общества, преследующих определенные социальные цели и интересы. Архивная деятельность также носит системный характер. [2]

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Бобоходжаева Э. Э. Теоретические основы архивного дела в Узбекистане. Выпускная квалификационная работа. Ташкент 2017 г.
2. Штукова С. В. Архивная деятельность в системе социального управления. Санкт-Петербург. 2012 г стр [22, 23, 94].
3. Алимов. И.А Архивоведения. Учебное пособие. Андижан. 2005 г.
4. Алексеева Е.В. Архивы и право: современное состояние и перспективы развития // Делопроизводство. – 2003. – № 2.

“АРАЛАШ ҚЎРҒОН” ВА “ЁЗУВЧИ” ҲИКОЯЛАРИДА КОНЦЕПТУАЛ МЕТАФОРЛАР ТАРЖИМАСИ

PhD Рофиева Гуласал Юсубжоновна

Тошкент давлат юридик университети ўқитувчиси

rofiyeva87@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада Эркин Аъзам асарларидаги метафораларнинг таржимаси ва уларнинг ўзига хос жиҳатлари тадқиқ этилган. Таржималар аслият тили билан қиёсланиб, таржима усуллари ўрганилган ва ижобий натижалар таржима тамойили сифатида қайд этилган. Асарда қўлланилган метафора намуналари концептуаллаштирилиб, уларнинг когнитив хусусиятлари очиқ берилган. Концептуал метафоралар таржимасининг қиёсий таҳлили орқали ўзбек тилидан француз тилига ўгиришнинг муҳим тамойиллар аниқланган.

Калит сўз: метафора, концептуал метафора, таржима, гносеологик хусусият, праксиологик хусусият.

Аннотации: В статье исследуются переводы метафор в произведениях Эркина Азама и их особенности. Переводы сравнивались с языком оригинала, методы перевода изучались, и положительные результаты фиксировались как принцип перевода. Осмысляются использованные в пьесе метафорические паттерны и раскрываются их познавательные особенности. Сравнительный анализ перевода концептуальных метафор раскрывает важные принципы перевода с узбекского на французский.

Ключевые слова: метафора, концептуальная метафора, перевод, гносеологический признак, праксиологический признак.

КИРИШ

Таржимон услубини тадқиқ этишда танланган асарнинг бадиий салмоғи ва воқеалардаги ҳаққонийлик муҳим аҳамиятга эга. Хорижий тилларга таржима қилинган ҳар бир асар, аввало, аслият тили соҳиблари тўғрисида китобхонга маданий ахборотларни етказувчи воситадир. Асар қанчалик халқ тилига ва ҳаётига яқин бўлса, шунчалик кўп китобхонларни ўзига жалб эта олади. Эркин Аъзам асарлари бой бадииятга эга эканлиги ва халқона тасвирий воситаларни қамраб олганлиги билан бошқа асарлардан ажралиб туради. Ундаги нутқ намуналари, хусусан диалектлар ҳам тадқиқотчилар эътиборини тортган. Шу

жиҳатдан Эркин Аъзам асарлари нафақат китобхонлар, балки адабиётшунос ва таржимашуносларнинг тадқиқот марказида бўлиб келмоқда.

Тадқиқот жараёнида беш юздан ортиқ метафоралар аниқланиб, шундан икки юз элликтаси таҳлилга тортилди. Асарларни таҳлил этиш жараёнида қуйидаги статистик маълумотлар аниқланди:

Таҳлилга тортилган метафоралар оригиналлиги, таржимада берилиши ва матн мазмунидаги таъсир даражасига биноан саралаб олинди. Ориентацион, структуравий ва онтологик метафоралар таркибига кирувчи таснифларни метафораларнинг семантик турларига оид манбалар асосида кенгайттирдик.

Ёзувчи услубини ўрганиш ва тадқиқ этиш адабиётни мукамал тушуниб, маънавий самарадорлигини таъминлаш билан бирга асар таржимаси учун ҳам

2 – чизма: Э.Аъзам асарларидаги концептуал метафораларнинг статистик классификацияси



назарий восита бўлиб хизмат қилади [6]. Шунингдек, диалект намуналарига бой Эркин Аъзам асарлари хажмидан қатъий назар бадиий тасвирий воситаларга бойлиги билан ажралиб туради.

Эркин Аъзамнинг “Жаннат ўзи қайдадир” тўпламидан жой олган “Ёзувчи” ҳикояси моҳир таржимон Шоазим Минаваров томонидан француз тилига “Le jardin de l’écrivain” деб таржима қилинган. Ҳикоя қисқа сатрларда бир ижодкор ҳаётини ёритсада, ундаги бадиий бўёқдорлик инсонларга хос муштарак туйғулар ва кечинмаларни акс эттириб келади. Таржимон ҳикоя номини француз тилида “Ёзувчининг боғи” сифатида берганлиги ҳам, айнан,

асарда рамзий маъно мавжудлигига ишорадир. Ҳикоя қисқа ҳажмдалигига қарамасдан, кўплаб ном кўчиш ҳолатларини кўриш мумкин. Бутун умр эркин ижодкорлик ва тирикчилик ўртасида ўз ҳаловатини излаган ҳикоя қаҳрамони туйғулари муаллиф метафораларида ўз аксини топган. Метафоралар таржимаси ва уларнинг ўзига хос жиҳатларини аниқлашда уларнинг тизимли тадқиқи муҳим аҳамиятга эга. Маълум бир мавҳум тушунча таржимасини чуқур ўрганиш битта мақсадга қаратилган метафораларни ўз концепти доирасига бирлаштиришни тақозо этади. Масалан, ёзувчи “бахт” тушунчасини ифодалашда турли тасвирий воситалардан фойдаланган, бироқ, энг кўп учрайдиган ҳолат бахтнинг ёруғликка (*нур, илиқлик, ойдинлик* ва ҳ.) қиёсланишидир. Аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак, бахт ёруғликнинг айнан ўзида кўрилган. Метафоранинг моҳияти ҳам шундан иборат, бир сўзнинг номи бошқа бир сўз ўрнида шунчаки ўхшатиш орқали кўчиб ўтмайди, балки унинг мантиқий мазмунини ўзида акс эттиради. Мисоллар таҳлили концептуал метафора тушунчаси ва унинг таржимасидаги ўзига хос хусусиятларни аниқлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Демак, Эркин Аъзамнинг “Ёзувчи” ҳикоясидаги метафораларни таҳлилга тортамыз.

“*Бахт бу - ёруғлик*” концептуал метафораси қуйидаги мисолларда ўз ифодасини топган:

1-мисол, аслиятда:

“Бир куни директор уни хузурига чорлаб, *истараси иссиқ*, ўзи жуда баҳайбат бир одам билан таништирди” [2].

Шоазим Миноваров таржимаси:

“Le directeur le fit venir un jour dans son bureau et le présenta à un homme, *un véritable géant*” [1].

2-мисол, аслиятда:

“Пойтахтга туташ боғдорчилик туманларидан бирида колхоз раиси экан. Қаранг, *машъал раис* бўла туриб, шу одам ҳам *дарди беъдавога йўлиқибди* – *ёзар экан*.”

Шоазим Миноваров таржимаси:

“Bien que son poste fût important, cet homme, *avant-gardiste*, était atteint *d’une maladie incurable: l’écriture*”.)

3-мисол, аслиятда:

“Муаллифнинг нимасидир муҳаррирга ёққан эди. Директор вазифа юклаётганда шундай баҳайбат одам, яна денг – раис, *машъал раис унга аллақандай илиқлик* билан тикилиб турди”.

Шоазим Миноваров таржимаси:

“Il y avait chez le directeur de kolkhoze quelque chose qui plaisait à notre jeune rédacteur. Par exemple, l’éditeur avait confié au jeune rédacteur cette importante mission, le geant, directeur de kolkhoze l’avait regardé *humblement et avec respect*.”

4-мисол, аслиятда:

“Худойлиғини айтганда, ҳаваскор муҳаррир – адабиёт муаллимининг тахрирлари орасидан нимадир *йилт-йилт* кўриниб қоларди”.

Шоазим Миноваров таржимаси:

“Le professeur de littérature qui avait corrigé le manuscrit s’était vraiment donné complètement et avait réussi à recréer de *brillants paragraphes*” [1].

5-мисол, аслиятда:

“Кўнглида бир қувонч гупуриб, ўринларидан туриб кетаверади. Одам бўлиб *кун кўрмаган бундайин омад* қайдан келди-я, ё Оллоҳ?” [2].

Шоазим Миноваров таржимаси:

“Le rédacteur ne ferma pas l’oeil de la nuit tant *son coeur battait de joie. Une telle chance* ! Dieu est miséricordieux !”.

6-мисол, аслиятда:

“Ўзи-ку нариги дунёга бир парча кафан билан кетди , аммо *гўринг нурга тўлғурдан* мана шу боғ меърос, йўқ, эсдалик бўлиб қолди” [2].

Шоазим Миноваров таржимаси:

“Il mourut et laissa son jardin en héritage et ses livres en souvenir. *Puisse sa tombe être illuminée*”.

7-мисол, аслиятда:

“Домланинг яна бир пинҳона юпанчи бор эди – сутчи хотин. Ҳар эрта шу аёл сут кўтариб келганда *кўнглига ажиб нур киргандек бўлади*”. (7-бет)

Шоазим Миноваров таржимаси:

“L’autre réconfort secret du professeur était une femme qui lui apportait le lait tous les jours. Chaque matin, *son âme s’illuminait* lorsqu’elle apparaissait avec son pot” [1]. (287-page)

“Бахт” ва “ёруғлик” концептлари дунёда мазмунан муштарак ва умуминсоний қадриятларга хос тушунчалардир. Уларнинг бир-бирини тўлдириб келиши турли миллат вакиллари тилида кузатиладиган ҳолатдир [3]. Шунинг учун ҳам бундай муштараклик таржиманинг муқобиллигини таъминлайди. Мисоллар таҳлили, аввало, инсон онгида “ёруғлик” номи қувончни, хурсандчиликни ифодаласа, унинг йўқлиги қайғуни акс эттириши яққол ўз ифодасини топган. Таржимада аксарият муқобил варианты тўғри

танланган ва мазкур ёндашув таржимоннинг фон билимларига асосланади [5]. Шундай бўлсада, баъзи ўринларда (5-мисолда) метафора тушуриб қолдирилганлиги ёки такрорий сўзлар (6-7-мисоллар) мавжудлигини кўриш мумкин. "Ёруғлик" концептининг чуқур ўрганилганлиги таржимада шу каби муаммоларни бартараф этишда зарурий восита бўлиб хизмат қилади. Қуйида келтирилган синоним сўзлардан матндаги такрорий ҳолатларда фойдаланиш мумкин: *"allumer, apprendre, avertir, balayer, brillanter, briller, clarifier, démystifier, désabuser, dessiller, dessiller les yeux, détromper, dorer, éclaircir, édifier, éduquer, élucider, embraser, endoctriner, enflammer, enluminer, enseigner, étinceler, étoiler, expliquer, faciliter, fixer, flamboyer, former, guider, illuminer, illustrer, informer, initier, instruire, luire, ouvrir les yeux, passer, payer, reconnaître, reluire, renseigner, répandre, resplendir."*

К.Л.Филатова тадқиқоти юқорида берилган таржималардаги адекватликни юқори баҳолашга асос бўла олади: "Ещё одним глаголом, восходящим к изначальному смыслу зрения, является **illuminer**, который в XIII веке обозначал "давать зрение" – **«rendre la vue»** (Le Petit Robert). Первое современное значение, сопровождающееся в словаре пометой "религиозное", гласит **éclairer de la lumière de la vérité** – освещать светом истины, т.е. имплицитно задействует этический аспект концептуального комплекса. Далее указываются прямое значение – ярко освещать – **Éclair qui illumine le ciel.** – молния, озарившая небо – и метафорическое **Cela va illuminer ma journée** – Это озарит мой день. Расширительное "бросать яркий отсвет" приводит нас к уже знакомому **Ses yeux s'illuminèrent de joie** – её глаза заблестали от радости" [4].

Юқоридаги таҳлиллар шуни кўрсатадики, ўзбек ва француз тилларидаги "бахт" концепти ўзаро мутаносиб равишда "ёруғлик" концептидан манба сифатида фойдаланиб, "бахт бу – ёруғлик" концептуал метафорасини ҳосил қилиб келмоқда. Мазкур ҳолат икки хил оилага мансуб тилларнинг *алламорфик* (универсал) тузилмаларга эга эканлигидан далолат беради. Концептуал метафораларнинг ҳосил бўлиши инсон тафаккури ва узоқ йиллик билиш жараёни билан боғлиқ бўлиб, метафораларнинг *гносеологик* хусусиятини ўзида акс эттириб келади. Таржимада мазкур хусусиятни очиқ бериш таржимондан чуқур билим ва тажрибани талаб этади.

АДАДБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES):

1. A'zam E. Adieux aux contes de fées. « Publishing House of the Alisher Navoi National Library of Uzbekistan ». –Tachkent , 2015. –P.275.

2. Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. Бир йил битиклари. (Ҳикоялар, киноқиссалар, драматик асар ва публицистик миниатюралар) –Тошкент, 2007.– Б. 3.
3. Danielle Morali, *Anthropologie de la lumière. Etudes réunies* [Text]. – Nancy : Presses Universitaires de Nancy, 1994. – 94 p.
4. Филатова К.Л. Когнитивное исследование зрительной метафоры во французском языке в сопоставлении с русским языком. Дисс.кан.филол...наук. –Екатеринбург, 2009. –С. 35-36.
5. Raximovna, B. M., Farxodovna, . K. D., , . J., Axmedovna, N. & Ibragimovich, . U. B. (2020) VOCABULARY RETENTION IN COGNITIVE THEORY. *Journal of Critical Reviews*, 7 (2), 402-404. doi:10.31838/jcr.07.02.78.
6. Raufov Miraziz Mustafakulovich, Toshmatov Oybek Shokirovich, & Mustafoeva Noila Ishnazarovna (2020). SIMULTANEOUS INTERPRETING AS A SPECIAL INTERPRETER ACTIVITY. PROS AND CONS OF SIMULTANEOUS INTERPRETING. *Oriental Art and Culture*, (V), 175-178.

ALISHER NAVOIY - DAVLAT ARBOBI

Kamoladdinova Zamira Ne'matjon qizi

@ZamiraKamoladdinova

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Milliy Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola ilmiy asoslarga tayangan xolda, Microsoft Wordda yaratildi. Maqola Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati haqida yozilgan. Kirish qismida Navoiy hayoti yoritilgan bo'lsa, asosiy qismda Navoiyning asarlari haqida ma'lumot berilgan. Maqola yakunida, shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar ham ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: G'azallar, devonlar, tuyuqlar, diniy-axloqiy asarlar, "Xamsa" asari, she'riy devon, "Hayrat-ul abror" dostoni.

Аннотация: Эта статья была создана в Microsoft Word на основе научных принципов. Статья о жизни и творчестве Алишера Навои. Во вступительной части рассказывается о жизни Навои, а в основной части рассказывается о творчестве Навои. В конце статьи также приводится список использованной литературы.

Ключевые слова: Газели, девоны, куры, религиозно-нравственные произведения, «Хамса», поэтический девон, эпос «Хайрат-уль аброр».

Abstract: This article was created in Microsoft Word based on scientific principles. The article is about the life and work of Alisher Navoi. The introductory part covers Navoi's life, while the main part provides information about Navoi's works. The end of the article also lists the literature used.

Keywords: Gazelles, devons, hens, religious and moral works, "Khamsa", poetic devon, epic "Hayrat-ul abror".

KIRISH

O'zbek xalqining buyuk farzandi, yirik mutafakkir shoir, olim va davlat arbobi, adabiy tilimizni kamolotga yetkazgan Amir Nizomiddin Alisher binni G'iyosiddin Navoiy hijriy yil hisobi bilan "o'n yettinchi ramazon oyi sana 844-tovuq yili" (milodiy 1441-yil 9-fevral) Xuroson davlatining yirik shahri Hirotning Bog'I Davlatxona mavzeyida xizmatchi oilasida dunyoga keladi.

Alisher bolaligidanoq o'zining o'tkir zehni, ziyakligi, xush xulqi va xushfahmliligi bilan tengdoshlari orasida alohida ajralib turgan. Bo'lg'usi shoir 1445-yildan boshlab maktabga boradi va she'r eshitish, she'r o'qish va yodlashga qiziqadi, she'riyatga mehr qo'yadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Alisher Navoiy davlat arbobi va buyuk she'riyat mulkining sulmoni bo'lganligi obyektiv ochib berildi. Davlatning boshqarish tizimidagi adolatlilik va siyosatlilik jihati mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Buyuk zotlar dunyoga kelishlaridan ilgariyoq ishq dardiga muhtalo bo'lar ekanlar. Bu dunyoga kelgach, ularning amallari, xulqlari, deganlari va bitganlari ishq bilan yo'g'rilar, vafo va sadoqat bilan ziynatlanar ekan.

Alisher Navoiy ham shunday buyuklardan biri. To'rt-besh yoshli go'dakning tojik shoiri Qosim Anvor g'azallarini yod aytishi, maktab yoshida Farididdun Attorning "Mantiq ut-tayr" falsafiy dostonini yodlashi, yetti-sakkiz yoshidan g'azallar bitishi, o'n ikki-o'n uch yoshlarida mamlakat bo'ylab shuhrat taratishi, hikmronlar e'tiborini qozonishi Alisher Navoiyning dunyoga buyuk bo'lib kelganligi kafolatidir.

Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida yozadi: "Sulton Abulqosim Bobur (1422-1457) so'zamol va hunarparvar podshoh edi. U ba'zi paytlarda ulug' amir bitgan turkiycha, forsiycha she'rlarni mutolaa qilar, ta'bining qudrati va sharofati so'zlarining shirinligidan hayratlanar, taajjubga tushar, ziyrakligi, muloyimligi uchun ofarinlar o'qir edi".

Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Majma' un-navodir" asarida yozishicha, u vaqtlarda shoir bo'lishni istagan kishi o'zidan oldin o'tganlar ijodidan yigirma ming bayt, zamondosh shoirlar ijodidan o'n ming bayt she'rni yod olishi kerak ekan. Navoiy Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonidan tashqari (dostonni to'liq yod bilgan) "Muhokamat ul-lug'atayn"da o'zi qayd etishicha, yigitlik yillarida o'zi sevgan shoirlarning "shirin ash'ori va rangin ab'yotidin" ellik mingdan ortiq baytni yod bilgan ekan.

1447-1449-yillarda Alisherlar oilasi Iroqning Taft shahrida yashaydi. Yosh Alisher Taftda buyuk tarixchi- olim SHarafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi. 1449-yilda ular yana Hirotga qaytib keladi. 1452-1457-yillarda otasi G'iyosiddin Kichkina podshoh Abulqosim Bobur saroyida xizmat qiladi, uni podshoh Sabzavor shahriga hokim qilib jo'natadi. Alisher podshoh Abulqosim Bobur homiyligida Mashhadda o'qishni davom ettirdi.

Alisher o'n ikki yoshida (1455) otasidan yetim qoladi va Xuroson podshosi Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kiradi.

Abulqosim Bobur adabiyot va san'atni sevar, ijodkorlarni qadrlar, o'zi ham o'zbek va fors tillarida g'azallar yozar edi. Ma'rifatparvar hukmdor Alisherni o'z tarbiyasiga oladi. Uning iqtidorini, qobiliyatini e'zozlab, bilim olishi, ijod qilishi va shoirlik

malakasini oshirishiga e'tibor qaratadi. 1456-yil Abulqosim Bobur o'z poytaxtini Xurosondan Mashhadga ko'chiradi va Alisherni ham o'zi bilan olib ketadi. 1457-yil Abulqosim Bobur vafot etdi, Abu Sayd Mirzo Hirot taxtini egalladi. 1459-1469-yillari Alisher Navoiy Samarqandda yashadi, unga Samarqand hokimi Ahmad Hojibek, mashhur olim Fazlulloh Abulays rahnamolik qildi. Alisher Mashhadda qolib o'qishni davom ettirdi. U mantiq, falsafa, riyozat (matematika) kabi fanlar bilan birga shug'ullandi. Ayni vaqtda, o'zbek va fors tillarida go'zal g'azallar bitib, el orasida zullisonayn shoir sifatida tanildi. Alisher o'zbek tilidagi she'rlarida "Navoiy", fors tilidagi she'rlarida "Foniy" taxallusini qo'llaydi.

Navoiy Mashhadda Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammadlar bilan yaqin do'st bo'ladi va bu ma'rifatparvar kishilar haqida keyinchalik "Holati Sayid Hasan Ardasher", "Holati Pahlavon Muhammad" kabi adabiy-biografik asarlar yozadi.

Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Navoiyning bilim saviyasi, qobiliyati va she'riy iqtidoridan xursand bo'lgan Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug' shoir o'rtasidagi ustozlik va shogird munosabatlari yanada mustahkamlanib, hamkorlikka aylanadi.

Alisher 1466-yil Samarqandga keladi va u yerda dastlab moddiy qiyinchilikda yashaydi. SHunga qaramay, Samarqand madrasalarida tehsil oladi, ilm-fan, adabiyot va san'at ahli bilan tanishadi. O'zining iqtidori, qobiliyati bilan tez orada obro' va e'tibor qozonadi.

1469-yili Husayn Boyqaro taxtni egallagach, Alisher Navoiyni Hirotga, o'z yoniga taklif etadi.

Navoiy Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan "Hiloliya" qasidasini bitadi.

"Ixlosiya" madrasasi, "Xalosiya" xonaqohi, "SHifoia" tabobatxonasi, Jome' masjidi, "Dorul-huffoz" (qiroatxona) va shunga o'xshash boshqa o'nlab binolar, rabotlar qurdiradi, kanallar qazdiradi.

Alisher Navoiy 1472-1476-yillar birinchi she'riy devoni "Badoye ul-bidoya", 1486-yilda ikkinchi devoni "Navodir un-nihoya"ni yaratdi.

1483-1485-yillar davomida "Xamsa" asari yaratildi. 1491-1492-yillarda u o'zbek tilida yozgan hamma she'rlaridan yaxlit bir devon tuzishga kirishadi. Devon ustidagi ish 1498-1499-yillargacha davom etdi. U to'rt qismdan iborat bo'lib, har qaysisi tugal bir devon edi. Unga shoir "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") deb nom beradi. Bu devon xalq orasida "Chor devon" nomi bilan ham mashhur.

Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", 1491-yilda "Majolis un- nafa'is" tazkirasini, 1492-yil adabiyot nazariyasiga oid "Mezon ul-

avzon” risolasini, 1495-1496-yillarda “Nasoyim ul-muhabbat”, 1498-1499-yillarda “Lison ut-tayr”, 1499-yil “Muhokamat ul-lug’atayn”, 1500-yil “Mahbub ul-qulub” kabi bir qancha asarlar yaratdi.

Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda og’ir betoblikdan so’ng hayotdan ko’z yumdi. Husayn Boyqaro buyrug’iga ko’ra butun mamlakatga motam e’lon qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Abduroziq Rafiyev, Nazira G’ulomova. Ona tili va adabiyot. “SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI. Toshkent-2013. 191-bet
2. Abduroziq Rafiyev, Lobar Rafiyeva. O’zbek tili va adabiyoti. TOSHKENT “NISO POLIGRAF” 2015. 120-bet
3. Pulatov, Sh., Madalimov, T., Mullajonov, I., Qodirov, M., & Valiyev, L. (2020). Some Characteristics of Modern Indian Philosophy. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications*, 2(11), 47-49.
4. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
5. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. *Academic Research In Educational Sciences*. Volume 1. 2020 468-474 P.
6. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
7. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
8. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // *Academic Research in Educational Sciences*, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
9. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
10. Sulaymonov, J. Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith // *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)* ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

IBN AL-MUQAFFANING ISLOM TARJIMA SAN'ATIGA QO'SHGAN HISSASI

Sarvar Saidov

*O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi tayanch doktoranti
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot
markazi ilmiy xodimi
E-mail: sarvarsaid@bk.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Uning yunon va fors madaniyatining bebaho durdonalari borasida qilgan tarjimalari tarixiy manbalar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar. Arastu, yunon va fors madaniyati, Kalila va Dimna, jamiyat, Organon.

Аннотация. В данной статье анализируется вклад Ибн аль-Мукаффы в искусство исламского перевода. Его переводы бесценных шедевров греческой и персидской культуры были изучены на основе исторических источников.

Ключевые слова. Аристотель, греческая и персидская культура, Калила и Димна, Общество, Органон.

Abstract. This article analyzes Ibn al-Muqaffa's contribution to the art of Islamic translation. His translations of the priceless masterpieces of Greek and Persian culture have been studied on the basis of historical sources.

Keywords. Aristotle, Greek and Persian Culture, Kalila and Dimna, Society, Organon.

KIRISH.

Barchamizga ma'lumki, VIII asr islom ilm-fanida har tomonlama taraqqiyot va yuksalish davri bo'ldi. Ayniqsa tarjima san'ati nihoyat darajada rivojlanib, islom madaniyatining boshqa qavmlar madaniyati bilan tashishuvi va ularning ijobiy tomonlarini qabul qilish jarayoni jadallashdi. Hozirgi kunga kelib islom ilm-fani taraqqiyotini o'rganish jarayonida boshqa xalqlar madaniyatining islom madaniyatiga kirib kelish yo'nalishlarini har tomonlama tadqiq etish muhimdir. Bu jarayonda arablar bilan bir qatorda, ajam xalqlari orasidan chiqqan iqtidorli tarjimonlarning faoliyatini ham alohida qayd etib o'tish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

VIII asrda yashab ijod etgan shunday mohir tarjimonlardan biri Abu Muhammad Abdulloh ibn al-Muqaffa (724-759) bo'lib, o'zining qisqa umri davomida yunon, fors tillaridan bir qancha noyob asarlarni arab tiliga tarjima qildi hamda islom madaniyatini Aristotel asarlari, forslarning "Risola Tansar",

“Xudoynoma”, “Oyinanoma” kabi donishmandlik durdonalari, hindlarning “Kalila va Dimna” singari noyob namunalari bilan yaqindan tanishtirdi.

Bizga yaxshi ma’lumki, ibn al-Muqaffa arab tilini mukammal darajada bilgan, ushbu tilda bemalol tarjimachilik faoliyatini amalga oshira olgan. SHuningdek, u fors tilining ham mohir bilimdoni bo’lib, ushbu tildan kitoblarni arab tiliga tarjima qilgan.

Ibn an-Nadim afsona va rivoyatlarni o’z ichiga olgan hind kitoblari haqida so’z yuritganda, shunday fikrni ilgari suradi: Kalila va Dimna kitobi 17 bobdan iborat. Ba’zi manbalarda esa uning boblari 18 ta deb keltirilgan. Ushbu kitobni Abdulloh ibn al-Muqaffa va undan boshqalar ham sharhlaganlar. Abon bin Abdulhamid al-Lohiqi va Ali bin Dovud ushbu kitobni she’riy uslubda tarjima qilganlar. “Fihrist”ning 172-sahifasida keltirilishicha, ibn al-Muqaffa fors tilidan arab tiliga tarjima qilish bo’yicha eng mohir tarjimonlardan biri bo’lgan.

Chag‘miniy osmon jismlari haqida fikrini davom ettirib, shunday ma’lumotlarni berib o‘tadi: “Quyosh barcha sayyoralar ichida eng yorug‘idir. Quyoshni nur taratuvchi sayyoralarning markazi deyish mumkin. Undan tashqari o‘zidan nur taratuvchi sayyoralarga quyidagilarni kiritish mumkin: Oy (Qamar), Yer (Arz), Merkuriy (Atorud), Venera (Zuhro), Mars (Mirrix), Yupiter (Mushtariy), Saturn (Zuhal) va boshqa yana bir qator sayyoralardir. Ularning hammasi birgalikda Borliqni tashkil etadi.”⁹⁶

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bu yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Chag‘miniy Borliq muammosini ham o‘z asarlarida o‘rtaga tashlagan. U Borliq va uni tashkil etuvchi sayyoralarni

⁹⁴ Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане 2-е изд. Под. Ред. Муминов И.М. и Хайруллаев М.М. Т., 1976, стр.378

⁹⁵ Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем Востоке Под.Ред. Сирожиддинов Х.С.

О научном творчество Чагмини Т., «Фан», 1972, стр. 203-204

⁹⁶ Юқоридаги асар 205-б.

sharhlash davomida Borliqni falsafiy mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Chag‘miniy osmon jismlari haqidagi fikrlarini davom ettirib, shunday deydi: ”Oy o‘z nuriga ega emas. Kechayu kunduz oy nur taratib turadi Lekin bu nur Quyoshnikidir.Oy ham o‘z qobig‘iga ega. U Yer atrofida aylanma harakatda bo‘ladi.Barcha sayyoralar o‘zining aylanish qobig‘iga ega.Ular aylanish davomida bir-biriga xalaqit qilmaydilar.Chunki ular bir-biridan aniq bir uzoqlikdagi masofada harakatlanadilar.”

U o‘zining astronomiyaga oid “Mulaxxas fi-l hay’a” kitobida borliqni elementar substansiyasida fazoviy tuzilishini bayon etadigan ma’lumotlarni berib o‘tadi. Buning asosida oliy yaratuvchi kuch yotadi.”Borliqni shakllari haqida gap ketganda, uning sanog‘i, sifati, holati va ularning har biriga harakat xosligini ko‘ramiz. Biz bu yerda elementar substansiyaning quyi jismlari (masalan, Yer) va uning boshqa qobiqlar bilan aloqasini ko‘rib chiqamiz.”

Umumiy xulosa qilib, shuni ta’kidlash lozimki, Mahmud Chag‘miniy Ptolomey, Al-Battani kabi yirik astronom va matematiklarni izdoshlaridan biri hisoblanib, X-XI asrlarda Movaraunnahrda erishilgan tabiatshunoslik va tabobatga doir fan yutuqlarini, ya’ni Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino erishgan yuksak ilmiy salohiyatni Ulug‘bek maktabigacha – XV asrlar o‘rtalarigacha yetkazib berishda ko‘prik mavqeini egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане 2-е изд. Под. Ред. Муминов И.М. и Хайруллаев М.М. Т., 1976, стр.37
2. Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем Востоке Под.Ред. Сирожиддинов Х.С. О научном творчество Чагмини Т., «Фан» , 1972, стр. 203-204
3. Кази Заде Руми Комментарии на Компендиум об астрономии Чагмини. Т., 1993, 40-б.
4. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
5. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

**TOSHKENT SHAXRIDAGI DARAXT VA BUTALARNING
(KUZ – QISH MAVSUMIDAGI)
FENOLOGIK O`ZGARISHLARDA OB-HAVONING TA`SIRI O`RGANISH
TADQIQOTI**

Yokubjon Yuldashov Xatamovich

Toshkent davlat Agrar Universiteti “O`rmonchilik” kafedra mudiri professor

Sohibjamol Bozorova Toshkanboy qizi

Toshkent davlat Agrar Universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Toshkent shaxridagi daraxtlarda olib borilayotgan fenokuzatuvlar haqida yozilgan. Daraxt barglarining sarg`yishi, to`kilishi va qishgi uyquga ketish hodisalarining iqlim o`zgarishiga bog`liqligi ko`rsatilgan.

Kalit so`zlar: daraxt, buta, fenologiya, gul, barg, kurtak, novda, iqlim.

Аннотация: Статья посвящена фенологическим наблюдениям за деревьями в Ташкенте. Было показано, что пожелтение, опадание и гибернация листьев деревьев связаны с изменением климата.

Ключевые слова: дерево, кустарник, фенология, цветок, лист, бутон, ветка, климат.

Annotation: This article is about phenoc observations of trees in Tashkent. Yellowing, shedding and hibernation of tree leaves have been shown to be related to climate change.

Key words: tree, shrub, phenology, flower, leaf, bud, twig, climate

KIRISH

Daraxt- buta o`simliklarining hayotidagi fasliy hodisalar – mavsumiy o`zgarishlar iqlim sharoitlariga chambarchas bog`liq hoida kechadi. Bu hodisalarni va ularni o`zaro munosabatlarini o`rganish katta amaliy ahamiyatga egadir, chunki ular turli iqlim- tuproq sharoitlarida turlicha davrlarda kechadi. O`simliklar hayotida sodir bo`ladigan fasliy hodisalarni o`rganadigan fan **fenologiya** deb ataladi. Fenologiya grekchada **phainomal** - hodisa, **logos** - fan degan so`zlar birikmasidan tuzilgan. [1]

Daraxt - buta o`simliklarning vegetatsiya davrida bo`ladigan fasliy o`zgarishlarini bilmasdan turib, ularning biologik, ekologik va boshqa xususiyatlarini bilish mumkin emas. Fasliy o`zgarishlarni o`rganish maqsadida daraxt- butalarning turli fasllarda rivojlanish bosqichlari ustidan kuzatishlar o`tkazish amalga oshiriladi.

Bu kuzatishlar daraxt o`simliklari hayotida asosiy o`zgarish davrlari, ularni boshlanishi, jadal o`tishi va tugallanishi muddatlari haqidagi ma`lumotlar olish

imkonini beradi. Bu o'zgarishlar bir turda turli sharoitlarda turlicha muddatlarda o'tadi, ko'pgina mevali daraxtlar mart oxiri - aprel boshlarida gullasa, tog'larda bu jarayon kechroq aprel oxiri - may boshlarida kechadi.

Fasliy o'zgarishlarning qonuniyatlarini bilish daraxt- buta va o'simliklarini qanday iqlim sharoitlarida ekish, arealini kengaytirish va undan maqsadli to'g'ri foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, ko'kalamzorlashtirish va o'rmon xo'jaligida qimmatli, xalq xo'jaligi uchun muhim daraxt- buta o'simliklarini introduksiya qilishda va hududlashtirishda bu kuzatishlar katta ahamiyatga ega.

Daraxt- buta o'simliklarida sodir bo'ladigan fasliy o'zgarishlarni o'rganish asosan Botanika bog'i, dendroparklar va o'simlikshunoslik bo'yicha tajriba stansiyalarida amalga oshiriladi, unda nafaqat mahalliy turlar, balkim introduksiya qilingan turlar ham o'rganiladi. Fasliy o'zgarishlarni o'rganishda quyidagi muhim masalalar hal etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Daraxt va butalarning (kuz – qish mavsumidagi) Fenologik o'zgarishlarda ob-havoning ta'siri masalalari obyektiv ochib berildi. Daraxt- buta turlarining urug'lari va ko'chatlari qaysi geografik zonada qanday muddatlarda terilishi, tuproqqa ekilishi, ularni gullash muddatlari, gullashining davomiyligi, urug' va mevalarini yetilishi, hosildorligi, mevalarining to'kilishi, urug'larini yetilishi va tabiatda tarqalishi keng tadqiq qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Daraxt- buta turlarining urug'lari va ko'chatlari qaysi geografik zonada qanday muddatlarda terilishi, tuproqqa ekilishi, ularni gullash muddatlari, gullashining davomiyligi, urug' va mevalarini yetilishi, hosildorligi, mevalarining to'kilishi, urug'larini yetilishi va tabiatda tarqalishi va shu kabi bir qancha amaliy masalalarga aniqlik kiritiladi.

Fasliy o'zgarishlarni kuzatish natijasida o'simliklar vegetatsiyasini davomiyligi aniqlanadi, bu ayniqsa, introduksiya qilingan o'simliklar uchun muhimdir. Fenologik kuzatishlar o'simliklarni introduksiyasida katta ahamiyatga egadir. Daraxt-butalardagi fasliy o'zgarishlarni kuzatish bilan bir qatorda daraxtzorlarda mavjud zararli hasharotlarni qishlovdan uchib chiqishi, tuxum qo'yishi, urchishi kabi hayotiy sikllari hamda zamburug' kasalliklarini rivojlanish sanalari ham qayd etib boriladi. Bu kuzatishlar ularga qarshi ko'rash choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Daraxt- butalarni gullashi, gullashini davomiyligi, barglarini kuzda sariq-qizil rangga kirishi ko'kalamzorlashtirishda katta ahamiyatga ega. Ularning shu manzarali xususiyatlariga ko'ra ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi. Fasliy o'zgarishlarni o'rganish natijasida olingan ma'lumotlarga asoslanib daraxt- buta turlarini fenospektrini va fenoxaritasini tuzish mumkin. Bular esa o'z navbatida turni qaysi iqlim sharoitlarida o'stirish va ulardan qanday foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Daraxt- buta o'simliklarining vegetatsiya davomidagi hayotiy davrida quyidagicha fasliy hodisalar ro'y beradi va ularni o'rganish uchun quyidagi kuzatishlar olib boriladi va fenokuzatuv jurnalida qayd etiladi:

1. O'simlik tanasida shira harakatini boshlanishi;
2. Bargkurtak va gulkurtaklarni bo'rtishi;
3. Kurtaklarni yozilishi;
4. Boshlang'ich - birinchi bargni paydo bo'lishi;
5. Yoppasiga barglarni paydo bo'lishi;
6. Gulg'unchalarni rivojlanishi, ochila boshlashi, to'liq ochilishi va ochilib bo'lishi;
7. Changlanishi va urug'lanishi;
8. Meva va urug'larni yetilishi;
9. Yetilgan meva va urug'larni to'kila boshlashi va tarqalishi;
10. Novdalarni o'sishi va o'sishdan to'xtashi;
11. Yangi kurtaklarni paydo bo'lishi;
12. Gulkurtaklarni rivojlanishi;
13. Kuzda barglarni sarg'aya boshlanishi va yoppasiga sarg'ayishi;
14. Kuzda barglarning to'kilishini boshlanishi;
15. Barglarni batamom to'kilib bo'lishi;
16. Qishqi tinim muddatiga kirish;

Kuzatiladigan daraxtdagi shira harakati daraxt tanasini chuqur kesish orqali aniqlanadi. Kesilgan joyda tomchilar paydo bo'lishi shira harakati boshlangan kun sifatida kuzatish jurnalida qayd etiladi. Fenokuzatishlar bir yoki bir guruh daraxtlar ustida o'tkazilishi mumkin.

Muayyan geografik zonada daraxt-butalarni o'simlik turining fenologik fazalarini yaqqol ko'rish uchun ularni fenologik spektri ko'rinishida tasvirlash maqsadga muvofiqdir.

Fenologik kuzatishlar oʻrmon xoʻjaligida, koʻkalamzorlashtirishda, muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Fenologik kuzatishlar meteorologik maʼlumotlar bilan toʻldiriladi, bu esa yillik mavsumiy oʻzgarishlarni toʻgʻri izohlash imkonini beradi. Fenokuzatuvlarda yigʻilgan maʼlumotlar daraxt- buta turlarini turli iqlim sharoitlarida oʻstirish imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini oʻtkazishda qimmatli daraxt va butalarni vegetatsiya davridagi fasliy oʻzgarishlarini oʻrganish maqsadida quyidagi keng qamrovli fenokuzatishlar oʻtkaziladi:

1. Oʻsimlik tanasida shira harakatini boshlanishi - koʻpgina daraxtlarni oʻtkir pichoq bilan poʻstlogʻi yogʻoch tanasigacha qir qilganda shira tomchilari paydo boʻlishi, daraxt tanasida shira harakati boshlanganligini bildiradi va fenologik kuzatuvlar jurnalida qayd etiladi.
2. Kurtaklarni boʻrtishi - kurtaklarning hajmini ortishi va kurtak poʻstloqlarini biroz surilishi bilan qayd etiladi.
3. Kurtaklarni yozilishi - kurtak poʻstloqlarini bir- biridan ajralishi bilan qayd etiladi.
4. Yangi kurtaklarni paydo boʻlishi - novdalardagi kurtaklarni shu daraxt turiga xos boʻlgan rang olmagan boʻlsa ham, normal koʻrinishdagi holatgacha kattalashuvi bilan qayd etiladi.
5. Birinchi barglarni paydo boʻlishi - novdalarda bir necha kichik, lekin shu daraxt turiga xos boʻlgan yetuk barg shakliga oʻxshash barglarni paydo boʻlishi bilan qayd etiladi.
6. Barglarni toʻliq ochilishi - daraxt shox- shabbalaridagi barglarni toʻliq ochilib boʻlganligi bilan qayd etiladi.
7. Barglarni sargʻaya boshlashi – shox-shabbadagi barglar orasida kuzgi qizgʻish- sariq rangli ilk barglarni paydo boʻlishi bilan qayd etiladi.
8. Barglarni toʻliq sargʻayishi – daraxt shox-shabbasini asosiy qismidagi barglarni yashil rangini yoʻqotib kuzgi qizgʻish- sariq rangga kirishi bilan qayd etiladi.
9. Barglar toʻkilishini boshlanishi - daraxtlardagi ilk barglarni novdadan ajralib, toʻkilishi bilan qayd etiladi.
10. Barglarni toʻliq toʻkilishi - shox-shabbadagi barcha barglarni toʻliq toʻkilishi bilan qayd etiladi.
11. Gullashning boshlanishi - kuzatilayotgan daraxtning nov-dalarida birinchi gul gʻunchalarini ochilishi bilan qayd etiladi.
12. Gullashni tugallanishi - gul qismlarini toʻliq toʻkilib boʻlishi bilan qayd etiladi.

13. Gullash darajasi – ko‘z bilan chamalab 6 - balli sistemada aniqlanadi: 5 ball-juda yaxshi, 4 ball- yaxshi, 3 ball- o‘rtacha, 2 ball-kuchsiz, 1-juda kuchsiz, 0 ball-gullash jarayoni kuzatilmaydi.
14. Mevalar va urug‘larni yetilishini boshlanishi - mevalar va urug‘larni tashqi rangini o‘zgarishi bilan qayd etiladi.
15. Mevalar va urug‘larini to‘liq yetilishi - barcha meva yoki urug‘larni ularga xos bo‘lgan rangga kirishi va meva strukturasini to‘liq yetilganligi bilan qayd etiladi.
16. Mevalar va urug‘larni to‘kilishini boshlanishi - ilk yetilgan meva va urug‘larni to‘kilishi bilan qayd etiladi.
17. Meva va urug‘lar to‘kilishini tugashi - deyarli barcha yetilgan meva va urug‘larni daraxtdan to‘liq to‘kilishi bilan qayd etiladi.
18. Hosildorlik darajasi 6- balli sistema bo‘yicha baholanadi: bunda 5 ball- juda yaxshi hosil, 4 ball-yaxshi hosil, 3 ball-o‘rtacha hosil, 2 ball- kam hosil, 1 ball-juda kam hosil va 0 ball-hosil mavjud emas.
19. Yuqorigi novdalarni o‘shining boshlanishi - kurtaklar bo‘rtishi bilan aniqlanadi.
20. Yuqorigi novdalarni o‘shidan to‘xtashi – fiziologik normal shakldagi kurtak hosil bo‘lishi bilan aniqlanadi.
21. Yonlama novdalar o‘shini boshlanishi va tugashi ham huddi shu tarzda aniqlanadi. [2]

2020-yilning kuz qish mavsumida Toshkent shaxridagi daraxtlardagi fenologik kuzatishlar olib borildi. Tadqiqot maydoni sifatida Toshkent shaxrining Chilonzor tumanidagi daraxtzorlar va Botanika bog‘i hududi tanlab olindi.

22-oktabr kunidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, chinordoshlar oilasiga mansub daraxtlarning yaproqlari (90 %) sariq tusga kirgan va to‘kilishni boshlagan(10-15%).



1-rasm. Chinorning kuzgi holati.


Kuz qish mavsumidagi fenologik kuzatishlarning o`zgarishida ob-havoning o`rni va ahamiyati o`rganildi.

Oktabr- dekabr oylarida Toshkentda havo harorati keskin o`zgarishi natijasida daraxtlarning barg to`kishi ham katta o`zgarish bilan baholandi.

14- noyabrda Botanika bog`ida kuzatilgan tadqiqotlarda Oddiy eman daraxtining barg to`kilishi 70%ga yetgan (2- rasm). 13-14 noyabr sanalarida havo harorati keskin tushib ketishi (1-jadvalda) ham bunga sabab bo`la oladi. 20-noyabrda esa barglar to`kilishi yana ham keskin ortdi. Ayni shu kunlarda havo harorati -3°C darajagacha sovub ketgan.



2-rasm. Oddiy eman. *Quercus robur L.*



3-rasm. Noyabr oyidagi harorat grafigi (°C) [3]

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytamanki, ushbu maqolada keltirilganidek havo haroratining o`zgarishi mobaynida daraxtlarning o`sib unishi va uyquga ketishiga

bevosita bog`liq. Kuzda barglarni sarg`aya sentabr boshlanishi oyiga va yoppasiga sarg`ayishi sentabr- noyabr oyiga to`g`ri kelmoqda. Barglarning to`kilishini boshlanishi erta kuzda boshlangan bo`lsa, barglarni batamom to`kilib bo`lishi keskin havoning sovub ketishi natijasida kuzatilmoqda. Qishqi tinim muddatiga kirish dekabr oyida kuzatiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI (REFERENCES)

1. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev. Dendrologiya Toshkent: Cho`lpon 2017 yil. 20-21 bet.
2. A.K. Qayimov, E.T. Berdiev, H.F. Hamroev, S.A.Turdiev. Dendrologiya amaliy qo`llanma. Toshkent – 2015 55-56 bet

<https://www.accuweather.com> sayti ma`lumotlari

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

TABLE OF CONTENTS / MUNDARIJA

Baxriddinova Muyassarxon Raximovna // Pragmatik-funksional konsepsiya. Pragmatik lingvistikaning ta'lim yo'nalishiga ta'siri.....	5
Saidova Nozima // "Garri Potter"—fentezi janrining eng mashhur namunasi	11
Mamatqulov Shexroz O'tkir o'g'li // Xitoy ierogliflari haqida umumiy ma'lumot.....	19
Qodirova Gulnoraxon Olimjonovna, Muradov Rustam Muradovich // Paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonida sifatli tola ishlab chiqarish yo'llarini o'rganish.....	23
Тахир Бурханов // Ёш ҳарбийларнинг маънавий ва мафкуравий онгини такомиллаштириш масалалари.....	29
Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna // Dekart va Paskal ratsional g'oyalaridagi o'xshashlik va farq.....	35
Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi // Aflotun qarashlarida erkinlik tushunchasining tasnifi.....	45
Adashboev Nuriddin Mexriddin o'g'li // Voyaga yetmaganlar deviant xulq-atvor profilaktikasi.....	56
Ismailov Berdiyor Rashidovich, Latipova Nodira Muxtarjonovna // Ijtimoiy faollikning psixologik tavsifi.....	61
Xoldorov Muhiddin, prof. Latipova Nodira // Yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishi va uning profilaktikasi.....	66
Azamova Kumush Salim qizi, Abduxalilov Abdulla // Oilalarda ajralish va uning oqibatlari.....	71
Igamberdieva Gulmira Botir qizi // Ijtimoiy yetimlikni profilaktik oldini olish	77
Taylaqova Zarifa Abdumalik qizi // Bank kreditlari garov ta'minotini baholashni takomillashtirish yo'llari.	82
Burxonova Zarina Baxodir qizi // Translation is a self-portrait of the translator.....	90
Sodiqova Shirin Baxtiyarovna Alisher Navoiy ijodida ta'lim-tarbiya va do'stlik masalalari.....	94
Salayev Odil Suderovich // Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston va Rossiya munosabatlari.....	98
A.Azizqulov // Alisher Navoiy e'tirof etgan iste'dod.....	105

Saitmurodov Jobirjon Boymurod o'g'li // Ijtimoiy taraqqiyotning gnoseologik paradigma (cogito paradigma) si.....	109
Axmedov Xolxo'ja Raxmatullaevich, Dononov Jasur Ural o'g'li, Raximberdeva Maftuna Allaberdievna // Buxoro-Xiva neftgazliligi regionida dengizko'l ko'tarilmasining Mezozoy yotqiziqlari neftgazliligining miqdoriy tasnifi.....	118
Azamat Fayzullayev // Birlashgan Arab amirliklarida raqamli hukumat.....	126
Bozorov Bobur Haqberdiyevich // Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish yo'llari.....	132
Bozorov Bobur Haqberdiyevich // Narxlarni sun'iy ravishda oshib ketishiga olib keluvchi muammolar, kambag'allikni bartaraf etish yo'llari.....	138
Nurxonov Xusan Almirza o'g'li, Mansurova Sevara Abdukarim qizi // Qisqa muddatli portlash sodir bo'lganda tog' jinslarining buzilish radiusini aniqlash orqali burg'ulash-portlatish ishlari pasporti parametrlarini hisoblash.....	147
O'rozov Begzod Abdukarimovich, Hamraqulov Yorqin Murtazakulovich, Yaxyoyeva Madina Qo'chqorovna // Yer usti transport tizimlarida tashishni tashkil etishda yuksiz qatnovlarni optimal rejalashtirish.....	151
Safarova Setora Ulug'bek qizi // Yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga jalb qilish bo'yicha takliflar.....	159
Abdukarimov Anvar Ravshaxon o'g'li // Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodining mustaqillikkacha o'rganilishi	164
Abdullaeva Ruqiya Muhammadovna // Badiiy tarjimaning lingvomadaniy aspektlari va tarjima mahorati.....	173
Asqarov Ixtiyor Baxtiyorovich, Raxmatov Utkirjon Farxod o'g'li // Yengil avtomobillarda yoqilg'i sarfini kamaytirish usullari.....	181
Bahromova Malohat Sodiqovna //Pedagogik texnologiya- ta'lim taraqqiyotining tayanch kuchidir.....	188
Djabbarov Odil Djurayevich, Akbaraliyev Asliddin Akmal o'g'li // O'rta arifmetik va o'rta geometrik tushunchaga bog'liq ketma-ketliklar limiti.....	194
Hasanov Husniddin Kamol o'g'li // Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hayoti va faoliyatining o'rganilishi.....	198
Khairzad Farhad ibn Khairdeen //Anthropology In Economic.....	207
Khasanova Mashkhura Jumanovna // History of Oriental Ode.....	214
Kurbonova Gulsara Sodikovna // Fransuz va o'zbek tillaridagi to'qima frazeologizmlarning chog'ishtirma tahlili.....	220

Pang Mengning (逢梦宁) // <i>Briefly on the lens language aesthetics embodied in literary and artistic films</i>	225
Panjizoda Hurriyatxon Ziyod qizi Zoxiriy // <i>Inklyuziv ta'limda nogiron bollalarni o'qitish va tarbiyalash muammolari</i>	232
Abdazimov Javlon Murod o'g'li // <i>Sun Yat-Senning siyosiy irodasi</i>	237
Turanboyev Boburjon Qodirjon ogli // <i>Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishga erishishlarida soliqlarning ta'sirchanligini oshirishning ahamiyati</i>	244
Djabborov Odil Djurayevich, Jabborxonova Gulzodaxon Azizxon qizi // <i>Daraxt hajmini hisoblashning bir matematik usuli haqida</i>	249
Djafarova Dildora Ilxomovna // <i>Fransuz va o'zbek frazeologiyasida "tarixiy xotira"ni ifodalashda til o'yinlarini o'zaro ta'siri (ahamiyati)</i>	253
Lina Zhu (朱莉娜) // <i>The semantic correlation effect of prospective memory in primary school students</i>	258
Mirzaaxmedova Maxliyo Yo'ldashevna // <i>Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari</i>	272
Salimov Muxtor Ali Maxmayoqub o'gli // <i>Millat ruhini uyg'otgan inson mangu yashagay</i>	278
Quvvatov Jobirbek Zokirjon o'g'li // <i>Respublikamizda suv resurslaridan foydalanishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari</i>	282
Sapaev G'ulomjon Baxtiyarovich // <i>Munis Xorazmiy dunyoqarashida Navoiy ijodining o'rni</i>	286
Shodmonov Mirzoxid Muxtor o'g'li // <i>Ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi va shakllanish bosqichlarining nazariy-huquqiy tahlili</i>	293
Tamikayeva Ozoda // <i>"Layli va Majnun" syujeti</i>	300
Yuldashev Sobirjon Haqnazarovich, Niyetova Gulchexra Bazarbayevna // <i>O'quvchi qizlarni kasbga yo'naltirish yo'lidagi olib borilayotgan islohatlar</i>	307
Zoyirova Diyora // <i>Isajon Sulton hikoyalarida bo'ri obrazi</i>	311
Муйдинова Мохира Мукумжановна // <i>Архивная деятельность как объект социального управления</i>	316
PhD. Рофиева Гуласал Юсубжоновна // <i>"Аралаш қўрғон" ва "ёзувчи" ҳикояларида концептуал метафоралар таржимаси</i>	322
Kamoladdinova Zamira Ne'matjon qizi // <i>Alisher Navoiy - davlat arbobi</i>	328
Sarvar Saidov // <i>Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi</i>	332
Shukurov Akmal Sharofovich // <i>Concept analysis: "information", "informed society", "virtuality", "virtualization", "social virtualization"</i>	336

Valieva Nafisa Abdumajitovna // <i>O‘zbekiston musulmonlari idorasi qatag‘on davrida</i>	345
Зокиров Бехзоджон Илхомжон ўғли // <i>Рус ва хориж сайёҳларининг сафарномаларида Хива хонлигига оид айрим этнонимларнинг ёритилиши (XIX аср манбалари мисолида)</i>	349
Раимкулова Н.Р. // <i>Роль I-карнитина в лечении больных перенесших Covid-19</i>	355
Xolboyeva Rayhona Abdulazisovna // <i>O‘rta asrlar Sharq falsafasida tabiiy-ilmiy, falsafiy fanlar rivoji:Mahmud ibn Muhammad Umar al-Chag‘miniy va al Battaniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy merosi</i>	363
Yokubjon Yuldashov Xatamovich, Sohibjamol Bozorova Toshkanboy qizi // <i>Toshkent shaxridagi daraxt va butalarning (kuz – qish mavsumidagi) Fenologik o‘zgarishlarda ob-havoning ta’siri o‘rganish tadqiqoti</i>	368

“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”.
Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2021. - 380 b.

ISSN 2181-1784

Mazkur to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida “Oriental Renaissance” MChJ tomonidan ta'sis etilgan **“ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES (oriens.uz)”** ilmiy jurnalining 1-soni o'rin egallagan.

Mas'ul muharrir:
falsafa fanlari nomzodi, dotsent M. Qodirov

Ilmiy kotib:
J.B. Sulaymonov
SH.N. Pulatov
I.R. Ikramova

Texnik muharrir:
Sh.S.Jurayev